На территории области созданы Кызылкумский заповедник (часть Хорезмской области), более десятки ООПТ (Караколь, Каракир, Денгизколь), памятник природы Вардонзе и экоцентр «Жайрон», их общая площадь составляет 741,8 км<sup>2</sup> или 1,8% площади региона. По принципу биологического разнообразия площадь особо охраняемых территорий не должна быть менее 10% от общей площади

Это одно из древнейших мест на территории Бухарской области, где проявляется связь человека и природы. Согласно текущей информации, эти отношения имеют историю, насчитывающую 7000 лет. За истекший период ландшафты Бухарской области были адаптированы и изменены в различной степени под влиянием человека и совершенствуются в современный период.

#### **Выводы и рекомендации:**

1. Литогенная основа ландшафтов Бухарской области играют важную роль в оценке и картировании природных (местных водных и пастбищных) ресурсов.

2. В Бухарской области продолжается естественная засуха. Этот процесс ускорился после второй половины XIX века, когда наступил период «затопления песком». Социально-политические изменения также повлияли на это. Геоэкологический стресс продолжается на ландшафтах.

3. Хотя территория провинции расположена в пустынной зоне, большое количество местных ресурсов поверхностных вод формируется за счет атмосферных осадков. Бухарский государственный университет проводил научные исследования в этой области. Необходимо применять полученные ими результаты научной работы.

4. Необходимо продолжить фитомелиоративные работы.

#### **Литература**

1. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Природные территориальные комплексы Юго-Запада Средней Азии. Ташкент, «Фан», 1975. 116 с.

2. Назаров И.К. Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования. (На материалах нижней части р. Зарафшан). Ташкент, «Фан», 1992.-101 с.

3. Назаров И.К, Тошев Х.Р. Ландшафтлар ресуршунослиги. Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 23-жилд. Ташкент, 2003. 18-20 б.

4. Расулов А.Б., Нигматов А.Н. Геоэкологические аспекты бассейна реки Зарафшан // Экологические проблемы постсоветского пространства, международный сборник научных статей, Липецк, 2014, с. 95-102.

5. Ташов Х.Р., Холов Ё.Д., Латипова З.Б., Эргашева М.К. Озеленение населенных пунктов: геоэкологические факторы и периодизация (на примере пустынных и лесных зон). Экология и природопользование: прикладные аспекты. Сборник материалов «Международной научно-практической конференции» (Г.Уфа. 12-13 апрель, 2023 г. 275 с.). - Уфа. 2023. 203-208 с.

## AYRIM QADIMGI SUV INSHOOTLARI HAQIDA

**Hayitov Yo'zil Qosimovich**

*Geografiya fanlari doktori(DSc) professor  
Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Jo'raeva Gulhayo Jo'raevna.**

*Buxoro davlat universiteti magistranti, Buxoro*

**Dolzarlighi.** Ma'lumki, qadimgi suv inshootlari suv resurslarini manbaasi bo'lish bilan bir qatorda geografik hududning iqlimiy shart-sharoitlarini muvozanatga keltirish uchun ham xizmat qilgan. Ana shunday suv inshootlariga Buxoro shahridagi ayrim hovuzlar va sardobalarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Qish kunlaridagi suv tanqisligi oldini olish uchun odamlar sun'iy suv tanqisligi havzalari-hovuzlar qazib, suv yig'ishgan. Hovuzlar barcha mahallalarda qazilgan va aholi ularni toza tutgan. Hovuz qirg'og'i o'pirilib ketmasligi uchun atrofiga daraxt ekib, chetlariga tosh bostirib chiqilgan. Kuzda hovuzlar tozalanib, suv bilan to'ldirilgan. Ayrim mahallalarning nomi hovuzlar nomi bilan atalgan. Kattahovuz, Hovuzbog' va boshqalar. O'z navbatida sardobalar ham yopiq hovuz shaklida qurilib, ichimlik suvi sifatida foydalanilgan.

**Maqsad va vazifalar.** Ushbu qadimgi suv inshootlarini tadqiq qilishdan maqsad qadimgi suv inshootlaridan Labi hovuz, Bolo hovuz va sardobalarga ilmiy yondashib gidrologik jihatdan o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

-qadimgi suv inshootlari hovuzlar va sardobalar bo'yicha ma'lumotlar banki yig'ildi va umumlashtirildi;

- mazkur suv inshootlarining gidrologik xususiyatlari baholandi;

-suv inshootlariga bog'liq tarixiy manbalarning ma'lumotlari tahlil etildi;

-qadimgi suv inshootlari Labi hovuz, Bolo hovuz va sardobalarning geografik joylashuvi tarixiy kartalar asosida o'rganildi;

-ilmiy taqqiqot natijalari sifatida tavsiya va takliflar ishlab chiqildi.

**Hovuz-** suv yig'ish va saqlash uchun qazilgan chuqur joy, ichimlik suvi saqlanadigan sun'iy suv havzasi. Hovuzning to'tburchak, aylana, ko'p qirrali ko'rinishga ega turlari mavjud. O'rta Osiyo va yaqin sharqning ayrim mamlakatlarida keng tarqalgan, asosan masjidlar yonida shaharlar maydonlari, bog'lar, chorbog'lar, saroy hovlisi va boshqalarda bunyod etilgan, atrofi toshlar bilan qoplab yoki daraxtlar ekib mustahkamlangan. Hovuzlar favvoralar bilan bog'liq bo'lgan. Bundan tashqari Buxoro shahri aholisi uchun ichimlik suvi sifatida samarali foydalanib kelingan.

Buxoro shahrida 300 dan ortiq hovuz bo'lganligi XIX asr hujjatlarida qayd qilingan. XX asrda esa sanitariya talablari bahonasi bilan aksariyat hovuzlar deyarli ishlatilmagan.

Mazkur hovuzlar geografik gidrologik jihatdan o'rganilib, ularning xaritalari tuzilgan.

XX ASR BOSHLARIDA BUXORO SHAHRIDAGI  
HOVUZLAR XARITASI

КАРТА ХАУЗОВ БУХАРЫ В НАЧАЛЕ XX В.

MAP OF THE PONDS OF BUKHARA IN THE BEGINNING  
OF THE 20TH C.



1-rasm.XX asr boshlarida Buxoro shahridagi hovuzlar xaritasi.  
(Buxoro suv ta`minoti muzeyi.)

- |                   |                                |                    |                            |
|-------------------|--------------------------------|--------------------|----------------------------|
| 1.Zindafil        | 24.Xo`ja Taygun                | 49.Sho-Arab        | 72.Mullo-Ashur Posho-Xo`ja |
| 2.Axmed Dardo     | 25.Baland Machit               | 50.Eshon-Imlo      | 74.Xuzcha                  |
| 3.Kulma Xo`ja     | 26.Axtachi                     | 51.Qozi Xiyobon    | 75.Xalfa-Hussayn           |
| 4.Oq-machit       | 27.Baland                      | 52.Shayx Jalol     | 76.Samat                   |
| 5.Nar-Kurcha      | 28.Jiloyxona                   | 53.Hauzi Nav       | 77.Shayx-Reng`iz           |
| 6.Kalmok          | 29.Boqixononi-Nakib            | 54.Sho- Malak      | 79.Qara Kamol              |
| 7.Pocho –Ismoil   | 30.Chorsu-Garan-Kurbaba        | 55.Tolib-Xo`ja     | 80.Sharif-Ban-Bini         |
| 8.Takiya          | 32.Jilovxona                   | 56.Chordara        | 82.Jafar- Xo`ja            |
| 9.Durman          | 33.Abdullo Qushbegi            | 57.Bobo Niyoz      | 84.Korxonona               |
| 10.Bodon          | 34.Dastarxanchi                | 58. Shahri Nav     | 85.Chubas                  |
| 11.Shishaxona     | 35.Aspi-Garon                  | 59.Apalib          | 86.Xo`ja Kalon             |
| 12.Hazrat Ayyub   | 36.Arobo                       | 60.Xo`ja Zayniddin | 94.Darvozai - Kalon        |
| 13.Urusun         | 37.Kimson                      | 61.Lisak           | 95.Ko`cha Bog`             |
| 14.Qozi Fayzi     | 38.Farmonqulbek                | 62.Qozi Kalon      | 96.Dilkusho Darum          |
| 15.Tabibon        | 39.Mirzo Keldi                 | 63.G`oziyon        | 103.Nomlanmagan            |
| 16.Bolohauz       | 40.Sufiyon                     | 64.Garbiya         | hovuzlar raqami            |
| 17.Mirzo G`ofur   | 41.Saraksjon                   | 65.Kutlyuk         | tushirilgan.               |
| 18.Nazarcha       | 42.Kosagaron                   | 66.Shayx-Sho       | (23,31,45,46,70,73,        |
| 19.Shir- Muhammad | 43.Morkush                     | 67.Oyo-Binok       | 78,81,87,88,89,90,         |
| 20.Shukuroy –Nau  | 44.Poykand; Qirg`iz olim; Urda | 68.Gavkushon       | 91,92,93,97,98,104)        |
| 21.Mir-Dursun     | 47.Mirakon Madrasa             | 69.Nodir Devonbegi |                            |
| 22.Qoplun         | 48.Mirakon                     | 71.Mullo-Xon       |                            |



Buxoro shahrida mavjud hovuzlarning ayrimlari Labi hovuz va Bolo hovuz haqida to'xtalib o'tamiz.

**Labi hovuz** ("hovuz bo'yida", "havza bo'yida")-Buxoroning markaziy maydonlaridan biri. Labi hovuz bilan bog'liq me'moriy ansambl XVI-XVII asrda yaratilgan. Maydoni Ko'kaldosh, Devon Begi honaqohi binolaridan tashkil topgan, atrofi Nodirbegi hovuzi bilan birlashtirilgan. Ansambl o'lchami, taxminan 150x200 metrdir. Hovuz eni 36 metr, bo'yi 45,5 metr, chuqurligi 5 metr. 1920-yillar Buxoroning ko'plab boshqa hovuzlari kabi ko'pchilik tomonidan barpo qilingan hovuz mo'jizaviy tarzda qurishdan to'xtaydi. 1945-yillardan so'ng shaharning ko'plab hovuzlari kabi Labi hovuz ham suvi quritilgan. 1950-yillar oxirida esa hovuz atroflariga quvurlar o'tkazib favvora qurilgan bo'lib u hozirgi kungacha ishlab turmoqda. Labi hovuzning asosiy suv manbai Shohrud kanalining irmog'i hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib Buxorodagi Labi hovuz ansambli yangidan ta'mirdan chiqarilgan hamda shahar ahli va sayyohlarning sevimli go'shasiga aylangan.



**2-rasm. Labi hovuz.**

**Bolo hovuz majmuasi**-Registon maydonidagi yagona saqlanib qolgan yodgorlikdir. U amir qal'asi arkning to'g'risida joylashgan majmua hovuz, juma masjidi va minoratdan iborat. Majmuaning eng qadimiy qismi Bolo-hovuz (ma'nosi "bolalar hovuzi") hisoblanadi. U Buxoroda saqlanib qolgan hovuzlardan bittasi hisoblanadi.

**Sardoba** so'zi (fors tilidagi sard -sovuq va ob -suv)- suv tanqis hududlarda uni to'plash va saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz. O'rta Osiyo va Sharqdagi boshqa mamlakatlarda qurilgan. Sardoba - gumbazsimon monumental inshoot shaklida bo'lib, ikki qismga bo'lingan: yer ostidagi qismi suv to'plash va saqlash uchun mo'ljallangan, yer ustidagi qismi esa dumaloq gumbaz ko'rinishida qurilgan.

Sardoba yerga chuqur ko'milgan suv uchun mo'ljallangan gumbazli sisterna. Odatda X asrdan boshlab karvon yo'llarida qurila boshlangan. Bunday sardobalardagi suv yilning eng issiq davrida ham salqin bo'lib turgan. Sardoba gumbazi sifatli pishiq g'isht va ganchdan ishlangan, tepasi tuynukli, atroflarida hovuzga tushadigan teshiklar qilingan. Kirish uchun sardobaga eshik o'rnatilgan, uning oldi suvni toza saqlash maqsadida devor bilan o'ralgan. Sardoba yoniga mollarni sug'oradigan oxur qilinib, unga hovuzdan maxsus tarnov orqali suv oqizilgan. Ba'zi sardobalarda ularni nazorat va tozalab turuvchi miroblar uchun xonalar ham bo'lgan. Sardobalar geografik joylashuvi, joyning tabiati, relyefiga ko'ra, bir necha xil (qoryomg'ir suvlari, anhorariq suvlari, yer osti suvlari) yig'iladigan sardobalar bo'lgan. Sardobalar o'lchamidan qat'iy nazar diametri 15 metrgacha chuqurligi 10-15 metrgacha bo'lgan.



**3-rasm. Bolo hovuz majmuasi.**

Sardobalar yomg'ir va erigan qor suvlari bilan, ba'zan esa irmoq va kanal suvlari bilan to'lgan, ular qisman yer osti kanallari - korizlar yo'lida qurilgan. Ko'pchilik sardobalarda suv o'tishi uchun bittadan lyuk bo'lgan. Buxoro sardobalari ikkita lyukligi bilan ajralib turgan, ammo Abdullaxon sardobasi atrofida bir nechta lyuk o'rnatilgan. O'zbekistonda sardoba uchun asosiy qurilish materiali sifatida tekis, to'tburchak shakldagi yuqori sifatli va mustahkam pishiq g'isht ishlatilgan. O'rta Osiyoda asrlar davomida sardobalar chuchuk suvning kafolatlangan manbai va saqlash joyi sifatida xizmat qilgan. Ularning tashqi ko'rinishi g'ishtlardan terilgan gumbaz shaklida bo'lib, pastki qismida tirqishlarga ega bo'lgan. Ular orqali quduqqa yoki boshqa yer ostidagi sig'imga yog'ingarchilik mavsumida taqirlar suvlarini to'plab beradigan radial ariqchalar o'tkazilgan.

Sayyohlarning qo'lyozma manbalari tufayli sardobalarning mufassal ta'rifi saqlanib qolgan. "Malik va Mirza Rabot o'rtasidagi masofaning yarmida, yo'l bo'yida, baland dumaloq gumbazsimon imorat ko'rinib turibdi. Gumbazning yuqori cho'qqisida dumaloq tirqish qoldirilgan. Cho'qqili darvoza ortidagi pastga tushish yo'li ushbu doirasimon imoratning ichiga olib boradi; ettita cho'qqili tuynuk qalin devor aylanasi bo'ylab simmetrik joylashgan. Imorat naqadar mustahkam qurilganligi bilan hayratga soladi, ayniqsa, uning ajoyib gumbazi ostidan eng yuqori nuqtasigacha sanoqsiz doirasimon qatorlar bo'ylab yapaloq kvadrat shaklidagi g'ishlardan gorizontal yo'nalishida shunday tartibda terilganki, yuqori qatordagi har bir g'isht pastdagi g'ishtga nisbatan gumbaz ichkarisi tomon birmuncha bo'rtib turadi; umuman olganda ushbu gumbaz xuddi to'ntarib qo'yilgan dumaloq amfiteatr zinalariga o'xshaydi. Imorat qurishning bu kabi o'ziga xos usuli, u naqadar ibtidoiy bo'lib ko'rinishiga qaramasdan, o'zining mustahkamligi bilan lol qoldiradi. Bunday cho'l imoratlari "sardoba" nomi bilan ma'lum. Baland, bir necha sarjingga teng keladigan toshdan terilgan gumbaz ostida doimo soya-salqinlik hukmron yoz jazirasida yo'l yurib toliqqan yo'lovchi bu yerda ajoyib tasalli topadi, qahraton qishda esa qorli bo'ronlardan boshpana sifatida xizmat qiladi. Imorat ichiga tushayotganda uning tuynuklari "tashqi tomondan aynan atrofdagi tuproq sathiga to'g'ri keladi" toshdan terilgan imorat tubidan uch sarjin ( $1 \text{ sarjin} = 2,134 \text{ m}$ ) balandlikdan ochib qo'yilganligini ko'rasiz, shunda zalning o'zi yerda qazib qo'yilgandek tuyuladi. Har bir sardoba qoshida ikki-uchta ko'tarma qo'rg'onlar mavjud bo'lishi zarurati shu bilan izohlanadi. Bahorda qor eriy boshlaganda atrofdagi barcha suv sardoba tomon oqib, tuynuklari orqali uning ichiga o'tadi. Shu bois ham bunday havzalarni qiya tovoqsimon yerlarda qurishga harakat



qilishgan“. Sardobalar qadimda dasht va cho`llarda chorvani va savdo karvonlarini suv bilan ta`minlashda muhim o`rinda turadi.

Suvloq - chorva mollari suv ichadigan joy.Qashqadaryo viloyatidagi Sangi suvloq nomli sardoba mavjud.Bundan tashqari Sirdaryo viloyatida yog`ochdan barpo qilingan sardoba bor.Bu sardobadan hozirda muzey sifatida foydalanib kelinmoqda.



**4-rasm.Sardobalar.**

Sardobalarning bunyod etilishi nafaqat tekisliklarda kichik tog`oldi hududlari yonbag`irlarida ham bunyod etilgan.Bu sardobalarda ikkita suv qabul qilish sig`imlari tayyorlangan va ulardan biri tindirgich sifatida xizmat qilgan,uning tubiga loy va boshqa axlatlar cho`kkan.Biroq tindirgich sardobani tozalash zaruratidan ozod etmagan,u faqat tindirilgan suv kelib tushishini ta`minlagan,bu esa asosiy suv qabul qilish sig`imini kamroq tozalashga imkon yaratgan.Balchiq bilan loyqalangan taqir suvlari juda sekin tinadi,shu bois mahalliy aholi sardobadagi suvga osh tuzini qo`shib,muallaq cho`kindilardan tozalagan.Ayrim joylarda suvga osh tuzi,ohaktosh va ko`mirdan iborat aralashma qo`shigan.Bunday ishlov berish natijasida suv uzoq vaqt saqlanib turadi va uning ayniganlik alomatlari sezilmaydi.Bunday noyob me`moriy majmualar ahvolini cho`l aholisi doimiy ravishda kuzatib turgan, zarur bo`lgan gumbazlarni, suv olib keladigan radial ariqchalarni balchiqdan tozalaganlar.

Ayrim sardobalarning vayronalari bugungi kungacha saqlanib qolgan,lekin mahalliy aholi ularni alohida qismlarga ajratib, qurilish materiallari sifatida ham foydalanmoqdalar.Hozirgi kunda ham ko`pgina xonadon va boshqa inshootlar devorlarida sardobalardan olingan o`ziga xos to`rtburchak shakldagi g`ishtlarni ko`rish mumkin.Hozirgi vaqtda juda yaxshi saqlanib qolgan bir necha sardobalar mavjud.

#### **Taklif va tavsiyalar.**

- Asosan hovuzlar har bir joy havosining mo`tadil bo`lishi uchun xizmat qiladi.
- Kishilarni suv ilmiga bo`lgan munosabatini o`zgartiradi.
- ichki va tashqi turizmni tashkil etishda hovuz atrofida turli serviz xizmatlarini ko`paytirish;
- yoshlarni gidrologik dunyoqarashini shakllantirishda bu maskanlarga ko`proq sayohat uyushtirish;
- yoshlarimizda suvning har bir tomchisi hayot manbai ekanligi haqidagi g`oyani singdirish;
- suv ekologiyasining yaxshilanishi yoshlar qo`lida ekanligini his etish.



**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Labi hovuz, Bolo hovuz hamda qadimgi suv inshootlari talaba yoshlarni suv ilmiga bo'lgan dunyoqarashini rivojlantirishda dasturi-amal bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz. Tarixiy suv inshootlarini kelgusi avlodlar uchun ko'z qorachig'idek asrashimiz lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. A.A.Azimov. O'zbekistonda suvdan foydalanish an'analari va zamonaviy yondashuvlar. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent-2015.
2. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent "Sharq mash'ali" jurnaliga ilova "Sharq bayozi" 1993.
3. A.Nizomov, G.Rahimova, N.Rasulova. Toponimika. (o'quv qo'llanma). "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2013.
4. A.R.Rasulov, F.Q.Hikmatov. "Umumiy gidrologiya". Toshkent "Universitet" 1996-yi.
5. Buxoro sharq durdonasi. "Sharq" nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. Toshkent-1997.
6. Qorayev Suyun. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
7. S.Qudratov., Sardobalar o'lkasi, Toshkent, 2001.
8. Suv O'zbekiston kelajagi uchun muhim hayotiy resurs. O'zbekiston nashriyoti, Toshkent-2007..
9. V.L.Shuls va R.Mashrapov. O'rta Osiyo gidrografiyasi. "O'qituvchi" nashriyoti Toshkent 1969-yil.
10. Sayyoh.com internet sahifasi.
11. Aniq.uz telegram kanali.
12. <http://www.advantour.com>

## **QULJUQTOV TIZMASIDA MAHALLIY SUV RESURSLARINING MAVSUMIY SHAKLLANISH QONUNIYATLARI XUSUSIDA**

**Halimova G.S. (BuxDU, geografiya fanlari falsafa doktori, dotsent)**  
**Hamroeva M.Sh. (BuxDU 4-kurs talabasi)**

Ichimlik va sug'orma suv muammosi O'zbekiston respublikasi uchun eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki respublikaning 70 foiz maydoni qurg'oqchil, ya'ni cho'l va chala cho'l zonasida joylashgan. Mahalliy suv manbalari esa suvga bo'lgan talabning atigi 18 fozini qondira oladi, xolos. (Suv O'zb. ... 2007).

Respublikaning suvga bo'lgan talabi asosan Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari hududidan kirib kelayotgan tashqi – Amudaryo, Sirdaryo suvlari hisobidan qondiriladi. Shu boisdan respublikamiz hududida mavjud bo'lgan mahalliy suv manbalarini o'rganish va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish davr talabidir.

Bu borada O'zbekistonning cho'l zonasida joylashgan past tog'larning mahalliy suv resurslarini o'rganish istiqbolli ahamiyatga ega. Shunday tog'lardan biri Quljuqtov tizmasidir.

Quljuqtog' tizmasi Buxoro va qisman Navoiy viloyatlariga tegishli bo'lib, Markaziy Qizilqumni egallab turgan past tog'lar guruhining eng janubiy bo'lagini tashkil qiladi. Tizma kengliklarga yaqin yo'nalishga ega. U sharq-janubi-sharqdan, g'arb-shimoli-g'arb yo'nalishi bo'ylab 120-130 km masofada cho'zilgan. Eng baland nuqtasi 785 metr. Ushbu hudud uchun asosiy suv manbai atmosfera yog'inlari hisoblanadi. Yog'inlar miqdorini kuzatish esa ikkita meteostanstiya xodimlari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Birinchisi Jing'ildi meteostanstiyasi bo'lib, u tizmaning g'arbiy qismida Jing'ildi aholi manzilgohida, 209 metr mutlaq balandlikda joylashgan. Ikkinchisi esa tizmaning sharqiy chekkasida, Oyoqog'itma botig'ining shimoliy sohilida joylashgan Oyoqog'itma qishlog'ida joylashgan bo'lib, 184 metr mutlaq balandlikda o'rnatilgan.

Quljuqtov tizmasida mahalliy suv resurslarini shakllanishi qonuniyatlarini o'rganish maqsadida ushbu hududida va unga yondosh bo'lgan uchta meteostanstiyalarda qayd qilingan atmosfera yog'inlarining 68 yillik ma'lumotlari (1951-2018) tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra tizmaning g'arbiy qismida atmosfera yog'inlarining o'rtacha ko'p yillik miqdori 96 mm ga teng. Ushbu miqdor sharqiy qismiga tomon ortib boradi va Oyoqog'itma rayonida 133 mm ga etadi.

Atmosfera yog'inlarining mavsumiy taqsimlanishida keskin farqlanishlar bor. Yog'inlarning 34,9-35,7 foizgacha qismi qishda, 45,8-46,7 foizgacha bahorda, 3,9-4,0 foizgacha yoz oylarida, 12,8-13,7 foizgacha qismi esa kuzda yog'adi. Qish va bahorda oylaridagi yog'inlar umumiy miqdorning 81,8-82,6 foizgacha qismini tashkil qiladi (1-jadval). Bu esa Quljuqtov tizmasining asosiy suv manbai hisoblanadi.

1-jadval

Atmosfera yog'inlarining Quljuqtov tizmasi va unga yondosh erlarda o'rtacha mavsumiy taqsimlanishi (1951-2018 yillar bo'yicha) (sur'atda miqdori, mm; maxrajda % hisobida)

Meteostanstiyalar	Qish (XII-II)	Bahor (III-V)	Yoz (VI-VIII)	Kuz (IX-XI)	Yil davomida
Buxoro (h-225 m)	54,0	61,4	2,8	16,3	134,5
	40,1	45,7	2,1	12,1	<b>100</b>
Jing'ildi (h-209 m)	33,5	45,8	3,9	12,8	96
	34,9	47,7	4,0	13,3	<b>100</b>
Oyoqog'itma (h-184 m)	47,6	62,2	5,2	18,3	133,0
	35,7	46,7	3,9	13,7	<b>100</b>

Qayd qilish joizki, Quljuqtov yaylovzorlarining mahsuldorligi yillik yog'inlarning salkam ellik foizini tashkil qiladigan bahorgi yog'inlarning miqdoriga bog'liq. Ammo, bahorgi yog'inlar yillar davomida turlicha miqdorga ega bo'lib, aniq muddatli davriy qonuniyatlarga ega emas. Masalan, Jing'ildi meteostnastiyasi ma'lumotlariga ko'ra eng seryomg'ir hisoblangan mart oyida 2008 yilda yomg'irlar kuzatilmagan. 1981 yilda esa ushbu oyda bu ko'rsatkich 56,5 mm ni tashkil qilgan. Xuddi shunday keskinlikni Oyoqog'itma rayonida ham kuzatish mumkin. Bu erda 1979 yilning mart oyida yog'inlar kuzatilmagan bo'lsa, 1987 yilning ushbu oyida yog'inlar miqdori 96,1 mm ni tashkil qilgan (Halimova, 2014).

Xulosa o'rnida quyidagilarni qayd qilish o'rinli.

1. Quljuqtov tizmasi hududida atmosfera yog'inlarining 50 foiz atrofidagi qismi bahor oylarida sodir bo'ladi. Ushbu jarayon tufayli hosil bo'ladigan suvlarning bir qismi tuproqqa singadi va yaylovzor o'simliklarining hayotiy ehtiyojlarini qondiradi. Qolgan asosiy qismi esa vaqtinchalik kuzatiladigan suv toshqinlariga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida tizma etagidagi yo'l, ko'prik kabi infratuzilmalarga zararlar etkazadi va katta maydondagi tog'oldi yaylovzorlarni nobud qiladi.

2. Seryomg'ir bahor, iliq havo harorati bilan uyg'un bo'lgan yillar yaylov chorvachiligi uchun samarali bo'ladi va mayda tuyoqli chorva sonini ko'paytirish imkoniyatini yaratadi.

3. Soylarida hosil bo'ladigan bahorgi suv toshqinlarini bartaraf qilish va tizmaning mahalliy suv imkoniyatlaridan rekreatsiya, turizm maqsadlarida samarali foydalanish uchun eng yirik soylar etagida kichik suv omborlarini qurish maqsadga muvofiqdir.

4. Tizmaning Kattasoy, Ponsoy, Churuqsoy etaklarida Gidrometeorologiya tizimiga tegishli bo'lgan kuzatuv maqsadga muvofiq.

#### Adabiyotlar:

1. Халимова Г.С., Кулжуктов тизмаси (Қизилкум) худудида атмосфера ёғинларининг кўп йиллик кўрсаткичлари хусусида. Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 44-жилд. -Тошкент, 2014. - Б.119-122.
2. Сув Ўзбекистон келажаги учун энг муҳим омил. –Тошкент, 2007. –Б. 137.


# GLOBAL IQLIM ILISHI VA BU JARAYONNING ATMOSFERA YOG‘INLARINING MIQDORIY O‘ZGARISHLARIGA TA‘SIRINI BAHOLASH (CHIRCHIQ-OHANGARON VA O‘RTA ZARAFSHON VOHALARI MISOLIDA)

Ziyayev R.R., Xakimova Z.F., Halimova G.S.  
O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

**Kirish.** Ma’lumki, atmosfera yog‘inlari miqdori, birinchi navbatda, joyning geografik o‘rni bilan aniqlansa, qolaversa, atmosfera sirkulyasiyasi, yer sirti reliefi, yonbag‘irlar ekspozitsiyasi kabi omillarga ham bog‘liqdir. Atmosfera yog‘inlari miqdori O‘rta Osiyo hududi bo‘ylab notekis taqsimlanadi. Ularning yillik miqdori tekisliklarda o‘rtacha 100-200 mm, tog‘ oldi va tog‘li hududlarda 500-1000 mm, ba’zan 1500 mm va undan ko‘proq. Yog‘inlar tekisliklarning katta qismida, yoz oylarida kam, bahor (mart-aprel) yoki kuz (oktabr-noyabr) oylarida esa nisbatan ko‘proq yog‘adi. Shimoliy va baland tog‘li hududlarda esa yog‘ingarchilik ko‘proq aprel-may oylarida kuzatiladi. Yozda faqat tog‘li hududlardagina yog‘ingarchilik bo‘ladi. O‘rta Osiyoning yog‘inlar kam tushadigan hududlarida ularning sutkalik maksimum ekstremal miqdori 30-50 mm, yog‘ingarchilik ko‘p bo‘ladigan hududlarda esa yog‘inlarning sutkalik maksimum miqdori 100 mm va undan ham ko‘proq bo‘ladi [3, 7, 8]. Yog‘in miqdorining ana shunday o‘zgarishlarini iqlim ilishi sharoitida Chirchiq-Ohangaron va O‘rta Zarafshon vohalari misolida baholash gidrologik nuqtai-nazardan *dolz arab* hisoblanadi.

Mazkur ishning **asosiy maqsadi** iqlim ilishi sharoitida atmosfera yog‘inlarining miqdoriy o‘zgarishlarini Chirchiq-Ohangaron va O‘rta Zarafshon vohalari misolida baholashga qaratilgan. Ishda ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi: 1) o‘rganilayotgan vohalarda joylashgan meteorologik stansiyalarda o‘lchangan atmosfera yog‘inlari haqidagi ko‘p yillik ma’lumotlarni to‘plash; 2) kuzatilgan ma’lumotlarni ikki davrga, bazaviy iqlimiy davr (BID, 1961-1990 yy.) va joriy iqlimiy davr (JID, 1991-2020 yy.) larga bo‘lib o‘rganish; 3) hisob davrlarida meteorologik stansiyalarda qayd etilgan atmosfera yog‘inlari miqdorini baladlik bo‘yicha o‘zgarishlarini baholash.

Ishda, dastlab, O‘rta Zarafshon va Chirchiq-Ohangaron vohalarida joylashgan meteorologik stansiyalarda bazaviy hamda joriy iqlimiy davrlarda yoqqan atmosfera yog‘inlarining o‘zgarishlari ko‘rib chiqildi (1-jadval). Dastlab, O‘rta Zarafshon vohasidagi meteorologik stansiyalarda o‘lchangan yog‘in miqdorlarining balandlikka bog‘liq holda o‘zgarishi masalasi bazaviy va joriy iqlimiy davrlar uchun o‘rganildi va olingan natijalar tahlil qilindi (1-rasm).



1-rasm. O‘rta Zarafshon vohasida atmosfera yog‘inlarining o‘zgarishlari

Natijalar tahlilining ko'rsatishicha, O'rta Zarafshon vohasida 13 ta meteorologik stansiyadan 6 tasida, ya'ni Samarqand, Dahbed, Oqbaytal, Bo'zaboy, Nurota va Buxoroda o'rtacha yog'in miqdori JIDda BIDga nisbatan ( $38 \div 3,4$  mm) ko'paygan [3, 7, 9].. Qolgan barcha meteorologik stansiyalarda o'rtacha yog'in miqdori ma'lum miqdorda kamayganligi qayd etildi. Har ikki hisob davri uchun o'rtacha ko'p yillik yog'in miqdorlarining maksimal va minimal ko'rsatkichlarining farqlari ham aniqlandi. Unga ko'ra, ikki hisob davridagi maksimal yog'in miqdorining eng katta qiymati orasidagi farq Nurobod meteorologik stansiyasida (164 mm) qayd etildi. Minimal yog'in miqdori orasidagi farq (1 mm) Navoiy meteorologik stansiyasida kuzatilgan


1-jadval

O'rtacha ko'p yillik yog'in miqdorlarining bazaviy va joriy iqlimiy davrlardagi o'zgarishlari

T. r.	Meteorologik stansiya	Balandligi, H, m	BID, X, mm			JID, X, mm			Farqi, $\Delta X$ , mm		
			max	min	o'rt.	max	min	o'rt.	$\Delta X_{max}$ x	$\Delta X_{min}$ n	$\Delta X_{o'rt}$ t
O'rta Zarafshon vohasi											
1	Samarqand	695	611	184	354	574	158	378	-37	-26	24
2	Dahbed	645	436	206	350	551	186	388	115	-20	38
3	Nurobod	530	702	196	382	538	162	359	-164	-34	-23
4	Oqbaytal	237	239	43,3	117	229	46,1	125	-10	2,8	8,0
5	Bo'zaboy	297	165	35,3	87,6	204	27,4	91,0	39	-7,9	3,4
6	Nurota	499	419	129	241	374	148	249	-45	19	8,0
7	Moshiquduq	199	244	90	159	257	66,2	136	13	-23,8	-23
8	Navoiy	346	385	110	206	298	109	186	-87	-1,0	-20
9	Tomdi	236	251	82,6	126	194	40,1	108	-57	-42,5	-18
10	Oyoqog'itma	184	260	32	131	215	52,1	135	-45	20,1	-4,0
11	Buxoro	225	245	77,5	143	203	56,9	161	-42	-20,6	18
12	Jangeldi	209	170	61,6	100	180	30,5	100	10	-31,1	0,0
13	Korako'l	196	211	75,5	134	197	60,5	130	-14	-15	-4,0
Chirchiq-Ohangaron vohasi											
1	Dukant	2001	1695	184	987	1416	583	952	-278	399	-35
2	Qovunchi (Yangiyo'l)	341	771	222	369	558	219	377	-213	-3	8
3	Oygaing	2151	1476	551	839	1224	422	858	-252	-129	19
4	Piskom	1258	2001	510	926	1285	621	970	-717	111	44
5	So'qoq	1351	1756	546	876	1348	644	965	-408	98	90
6	Toshkent	466	511	196	304	458	209	334	-53	13	29
7	Tuyabo'g'iz	500	839	242	427	616	259	439	-223	17	12

Tadqiqot ishining keyingi bosqichida Chirchiq-Ohangaron vohalaridagi meteorologik stansiyalarda o'lgan atmosfera yog'inlari miqdorlarining BID va JIDlarda o'zgarishlari o'rganildi va tahlil qilindi (1-jadval). Vohadagi o'rganilayotgan meteorologik stansiyalarning faqat bittasida, ya'ni Dukantda atmosfera yog'inlari miqdori BIDga nisbatan JIDda 35 mm ga kamayganligi aniqlandi (2-rasm). Vohadagi boshqa meteorologik stansiyalarda JIDda BIDga nisbatan o'rtacha yog'in miqdori  $90 \div 8,0$  mm oralig'ida ortgan. Ushbu meteorologik stansiyalarda BID va JID kuzatilgan maksimal va minimal yog'in miqdorlari orasidagi farqlar ham o'rganildi. BID va JID maksimal yog'in miqdorlari orasidagi eng katta farq Piskom meteorologik stansiyasida kuzatilgan bo'lib, uning qiymati 717 mm ga teng bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdiki, JID yog'in miqdorining maksimal qiymati BIDga nisbatan ancha kichik

bo'lgan. Voha bo'yicha yog'in miqdorining minimal ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Uning eng katta miqdori Dukant meteorologik stansiyasida (399 mm) qayd etildi.



2-rasm. Chirchiq-Ohangaron vohasida atmosfera yog'inlarining o'zgarishlari

Tadqiqotda o'rganilgan vohalarga yog'adigan atmosfera yog'inlari bilan meteorologik stansiyalarning balandliklari orasidagi bog'lanishlar zichligini ifodalovchi juft korrelyatsiya koeffitsientlari, ularning xatoliklari, ba'zaviy va joriy iqlimiy davrlar uchun aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Meteorologik stansiyalar balandliklari bilan ularda o'lchangan atmosfera yog'inlari orasidagi bog'lanishlarning tenglamalari va ularning aniqligi

No	Daryo havzasi	Kuzatish davri	Regressiya tenglamalari	Korrelyatsiya koeffitsienti va uning xatoligi, $r \pm \sigma_r$
1	O'rta Zarafshon vohasi	1961-1990	$X_{BID} = 74,88e^{0,0024 \cdot H}$	$0,883 \div 0,027$
		1991-2020	$X_{JID} = 70,65e^{0,0026 \cdot H}$	$0,910 \div 0,021$
2	Chirchiq-Ohangaron vohasi	1961-1990	$X_{BID} = 8,820e^{0,6207 \cdot H}$	$0,932 \div 0,016$
		1991-2020	$X_{JID} = 10,32e^{0,6034 \cdot H}$	$0,927 \div 0,017$

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'rta Zarafshon vohasida bazaviy iqlimiy davrda, atmosfera yog'inlari bilan meteorologik stansiyalarning balandliklari orasidagi bog'lanish zichligini ifodalovchi juft korrelyatsiya koeffitsienti  $r=0,883$  ni, uning xatoligi esa  $\sigma_r=\pm 0,027$  ni tashkil etdi. Joriy iqlimiy davr uchun hisoblangan korrelyatsiya koeffitsientining qiymati  $r=0,910$  ga, xatoligi esa  $\sigma_r=\pm 0,027$  ga teng bo'ldi. Chirchiq-Ohangaron vohasi misolida atmosfera yog'inlari bilan meteorologik stansiyalarning balandliklari o'rganilganda, bog'lanish zichligini ifodalovchi ko'rsatkichlar O'rta Zarafshon vohasiga nisbatan katta ekanligi aniqlandi.

Yuqorida olingan natijalar tahliliga tayangan holda, **xulosa** sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1) O'rta Zarafshon va Chirchiq-Ohangaron vohalarida atmosfera yog'inlarining miqdori joriy iqlimiy davrda bazaviy iqlimiy davrga nisbatan bir oz ko'payganligi aniqlandi;

2) O'рта Zarafshon vohasi bo'yicha BID va JIDlardagi o'rtacha ko'p yillik yog'in miqdorlarining eng katta farqi (38 mm) Dahbed meteorologik stansiyasida kuzatilgan bo'lsa, Chirchiq-Ohangaron vohasi bo'yicha esa So'qoq meteostansiyasiga (90 mm) to'g'ri keldi;

3) tadqiqotda o'rganilgan vohalarda BID va JIDLarda yoqqan atmosfera yog'inlari bilan meteorologik stansiyalarning balandliklari orasidagi bog'lanish zichligini ifodalovchi ko'rsatkich O'рта Zarafshon vohasiga nisbatan Chirchiq-Ohangaron vohasida katta ekanligi qayd etildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бабушкин Л.Н. Климатография Средней Азии. - Ташкент, 1981. - 91 с.
2. Бугаев В.А. Исследования по динамической климатологии Средней Азии. Автореф. дисс. ... докт. геогр. наук. - М., 1961. - 96 с.
3. Зияев Р.Р. Зарафшон ҳавзаси дарёлари сув режими фазаларининг иқлим ўзгариши шароитидаги силжишлари. Геогр. ф. ф. д. ... дисс. автореферати. - Тошкент, 2021. - 46 б.
4. Курбаткин В.П., Ушинцева В.Ф. Атмосферные осадки – источник водных ресурсов в Средней Азии. - Тошкент: НИГМИ, 2012. - 137 с.
5. Карандаева Л.М., Карандаев С.В. Анализ атмосферных осадков базового и текущего климатических периодов по данным метеорологических станций бассейна реки Чирчик и сопредельных территорий // Гидрометеорология и окружающей среды. 2022, №3. - С. 30-43.
6. Ососкова Т.А., Хикматов Ф.Х., Чуб В.Э. Изменение климата. Ташкент: НИГМИ, 2005. 40 с.
7. Хакимова З.Ф. Тоғ дарёлари оқимининг ҳосил бўлишига иқлимий омилларнинг қўшган ҳиссаларини баҳолаш // Иқлим ўзгариши шароитида гидрометеорологик тадқиқотлар: долзарб муаммолар ва уларнинг ечимлари мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. - Тошкент, 2022. - Б. 77-80.
8. Ҳикматов Ф.Ҳ. ва бошқалар. Зарафшон дарёси ҳавзасининг гидрометеорологик шароити ва сув ресурслари. - Тошкент: «Фан ва технология», 2016. - 276 б.
9. Хикматов Ф.Х. и др. Закономерности формирования водных ресурсов горных рек в условиях изменения климата. Монография. - Ташкент: "РНМУ", 2020. - 232 с.
10. Ҳикматов Ф., Хакимова З.Ф., Турғунов Д.М. Чирчиқ ҳавзаси дарёлари оқими билан иқлимий омиллар орасидаги боғланишларни статистик баҳолаш // Гидрометеорология ва атроф-муҳит мониторинги. 2022 №2. - Б. 46-56.
11. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. - Тошкент: ВОРИС–НАШРИЁТ, 2007. - 132 с.
12. Чуб В.Э. Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. - Ташкент: «ВОРИС НАШРИЁТ» МЧЖ, 2007. - 133 с.

### **НАСУЩНЫЕ ВОДОХОЗЯЙСТВЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ АРИДНЫХ ТЕРРИТОРИЙ В ПЕРИОД ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА**

**Мурадов Шухрат Одилович**

**Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан**

**Турдиева Феруза Алишеровна**

**Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан**

**Тураев Улугбек Муртазоевич**

**Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан**

**Ражабова Дилфуза Алишеровна**

**Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан**

**Тураева Барнахол Бегматовна**  
**НИГМИ при Агентстве Гидрометеорологической службы**

**Аннотация:** На основе достоверных фактов, многолетних теоретических и практических исследований, выявлены проблемы водных ресурсов региона и даны конкретные технические рекомендации по устойчивому использованию воды.

**Ключевые слова:** водосбережение, пресные и деминерализованные воды, субиригация, мелиорация, плодородие, метаморфизация, канал из Амударьи.

Обращая внимание главному жизненно фактору - воде, Президент Узбекистана Ш.М.Мирзиёев отметил на 78 сессии Генеральной Ассамблеи ООН: ...Выступаем за привлечение самых передовых технологий в процессе создания Платформы водосберегающих технологий в Центральной Азии, используя механизм «Организация Объединенных Наций – водные ресурсы».

На обложке книги «Вода: капля жизни» американского писателя Питер Свенсона отмечено: «Где кончается вода, там кончается жизнь, такая поговорка есть у узбеков» [7]. Надо отметить, что в Центральной Азии Узбекистан является одной из древних цивилизаций орошаемого земледелия. Этому свидетельствуют археологические раскопки и исследования С.П. Толстова которые показали, что наибольшего развития ирригационная сеть в низовьях Амударьи достигла в период с VI в до н. э. до III в н.э. Великий русский климатолог А.И. Воейков в конце XIX века утверждал: «...что пояс засушливых районов Азии (т.е. Туркестана) несравненно благоприятнее для жизни и деятельности человека, чем районы Соединенных Штатов Америки, при условии, конечно, налаженного орошения» [2].

По прогнозам ООН, к 2050 г. население Земли составит 8,9 млрд. человек, от дефицита воды будут страдать от 2 до 7 млрд. человек. По оценкам различных международных организаций к 2025 г. третья часть растущего населения планеты будет страдать от недостатка воды на орошение. Сегодня 80% всех глобальных ресурсов пресной воды, используемой человечеством, потребляется на орошение. По данным международного института продовольственной политики ожидается, что к 2030 г. площадь орошаемых земель возрастет на 20 %, объем потребления воды увеличится на 14 %.

В соответствии с резолюцией Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций № 70, принятой на Саммите ООН по устойчивому развитию в сентябре 2015 года, в задаче 6.5. отмечено - К 2030 году обеспечить комплексное управление водными ресурсами на всех уровнях, в том числе при необходимости на основе трансграничного сотрудничества.

Учеными Узбекистана разработаны инновационные технические рекомендации по воплощению в жизнь принятых Постановлений Президента и Правительства Узбекистана. Однако, как отметил Президент Узбекистана в Послании Олий Мажлису (28.12.2018 г.): «Пока они изложены на бумаге, но нам предстоит превратить их в практические действия и реальные результаты, и для этого нам нужно упорно трудиться».

Учитывая огромный опыт в этой отрасли, предлагаем ряд назревших решений, которые можно использовать во всей Центральной Азии и в аридных территориях Мира.

Во-первых, что касается пресных вод для населения, при разумном использовании их в Узбекистане достаточно для отдаленной перспективы. Это в первую очередь запасы подземных вод Ферганской долины, Приташкентской и Джизакской зон, Зарафшанской долины, Китабо-Шахрисябзской впадины Кашкадарьи, Сурхандарьинского бассейна. Так, например, по расчетам ученых наличие пресных подземных вод республики составляет порядка 293,4 кубометров в секунду. При населении 36024946 (01.01.2023), на 1 человека приходится 703,7 литра в сутки. При средней норме 240 л/сут, можно обеспечить 105,6 млн. людей или обеспеченность составит 139,3 лет, если мы перейдем на европейскую



норму 120 литра в сутки, то данные запасы обеспечат 211,3 млн. человек или обеспеченность составит 350,6 лет. Сегодня развитые страны думают о снижении нормы водопотребления до 80 и в перспективе до 60 литров в сутки. По нашему мнению, настало время создания единой водопроводной сети Узбекистана (аналогично электро-и газопроводной).

Нам необходимо для всех организаций рассчитать на отдаленную перспективу схемы интегрированного управления водных ресурсов в свете требований Закона Р. Узбекистан «О воде и водопользовании», статьи 106, 111, 112 и Указа Президента Узбекистана от 10.07.2020 г. «Об утверждении концепции развития водного хозяйства республики Узбекистан на 2020-2030 годы» где отмечено: Определить приоритетными направлениями Концепции: внедрение принципов интегрированного управления водными ресурсами, гарантированное обеспечение населения водой, стабильное водоснабжение отраслей экономики, улучшение качества воды и сохранение экологического баланса окружающей среды.

Во-вторых, если мы хотим обеспечить водоустойчивость, крайне необходимо уже сегодня перевести все крупные промышленные предприятия, в том числе и запланированные АЭС, на использование деминерализованных подземных и поверхностных вод. Нами разработана и испытана установка деминерализации вод, основанная на газогидратной технологии, признанная эколого-экономичной [4]. Сегодня увеличивается объем соленых подземных и коллекторно-дренажных вод (они составляют 30% от водозабора). Это искусственные соленые озера в Узбекистане как Сичанкуль (600 млн. м<sup>3</sup>) Ачинкуль (126 млн. м<sup>3</sup>) Арнасайские озера (более 30 млрд. м<sup>3</sup>) и многие озера Приаралья, в Казахстане и Туркмении. Они составляют миллиарды кубометров воды. Необходимо уже сейчас думать о деминерализации и использовании их в технических нуждах и в промышленности.

В-третьих, надо признать, что наблюдается наряду с гидрологической и метеорологической так же почвенная засуха. В послании Президента Узбекистана на 2023 год отмечено, как известно, последние 3 года в стране наблюдается маловодье. ...За последние 15 лет общее количество осадков сократилось на 25 процентов. Больше становится аномально жарких дней летом, это свидетельствует о том, что впереди нас ждут еще большие испытания. Естественно, как и в 2022 году это привело в 2023 г. к увеличению оросительной нормы за счет интенсивного испарения, которое приводит к почвенной засухе. Кстати, по прогнозам американских ученых 2024 г. прогнозируется как год с аномальной высокой летней температурой. С целью рационального использования оросительной воды, предлагаем крайне необходимым мероприятием массовое внедрение специально разработанных устройств, способствующих осуществлению субиригации [1]. Каскадное внедрение технологии позволит в 1,5-2 раза сократить оросительную норму. Их необходимо устраивать на коллекторно-дренажной, оросительной и речной сетях. Они способствуют поднятию уровня грунтовых вод до критической глубины.

В-четвертых, учитывая неоднократные требования Президента о широком внедрении капельного орошения, предлагаем крайне необходимую технологию по уменьшению испаряемости, сохранению энергии, повышению плодородия почв. Сущность технологии заключается в использовании, при физическом изменении состояния, местных минералов-тяжелых глин (в противовес гидрогелям). Эта технология способствует предотвращению ветровой и водной эрозии за счет увеличения связанности почв. В Тебинбулакском месторождении Каракалпакии по данным Госкомгеологии содержится более 169 тыс. тонн вермикулита. Однако по исследованиям 1937 г. их запасы составляли более 1 млн. тонн. Данную технологию можно использовать во всем регионе ЦА с учетом наличия местных минералов. В Кашкадарьинской области это запасы глауконитовых песчанников в селениях Найман, Мабика и Аксу. Они имеются в районе Кизилтепа Навоийинской области, в составе глин Ферганской области месторождения



Чимион и Шорсу, в Ташкентской области глаукониты, в Хорезмской области бентонитовые глины и т.д. В этом плане мы разработали «способ мелиорации почв» [5].

В-пятых, известно о том, что главным в повышении урожайности является плодородие почв. Учеными определена корреляция между животноводством и плодородием земель. Так, например, органические удобрения от 40 овец могут содержать плодородие 1 га земель. Или 5-6 голов крупного рогатого скота. Учитывая 4,3 млн. га орошаемых земель республики, у нас в арсенале должно быть 172 млн. голов овец и коз. По данным 2022 года их было 22626,3 тыс. голов (что 7,7 раз меньше), КРС было 12611,8 тыс. голов. Итого 35238,1 тыс. голов, это способствовало обеспечению 63% орошаемых земель органическими удобрениями. А если учитывать 20,3 млн га сельскохозяйственных угодий, то они обеспечены на 13,3 % органикой. Высвечивается картина, нет плодородия и в недостатке мясомолочной продукции. Учеными доказано, что солома от колосовых в 10 раз больше повышает плодородие земель чем органические удобрения.

В-шестых, необходимо скорейшим образом оценить качество поверхностных и подземных вод в современных условиях с прогнозом на отдаленную перспективу. Для этого надо проанализировать метаморфизацию (изменение) химического состава природных вод. Это позволит нам прогнозировать солесодержание в почвах и соответственно заранее принимать меры по охране почв. В настоящее время в предгорных районах наблюдается локальное содовое засоление почв. Учеными доказано, что если они занимают 20-30% площади орошения, то считается нерентабельными. Для предотвращения содового засоления мы предлагаем способ рассоления почв, который одновременно способствует выделению, при химической мелиорации, чилийской селитры, так необходимой для растений [6].

В-седьмых, что касается уменьшения стока р.Амударья в связи с строительством Куш Тепинского канала в Афганистане, еще в конце XVIII веке инженер Анненков, подтвердил возможность подачи воды из Амударьи самотеком в восточную часть Бухары и в низовья Кашкадарьинской системы. В настоящее время вода, подаваемая в низовья Кашкадарьи насосными станциями, оценивается как самая дорогая. 1 м<sup>3</sup> в 2022 г. стоил 471,7 сумов, при расходе 4 млрд. м<sup>3</sup> общий расход составляет около 189 трл. сумов. В связи с чем мы предлагаем провести канал забором из р. Амударья, выше забора канала Куш Тепа, от селения Тешик –Тош в Хотланском вилояте, район Кабодион (где расположен храм «Оксус») Таджикистана до Каршинского магистрального канала протяженностью более 500 км. И тем самым обеспечить водой Кашкадарьинскую, Бухарскую и Навойинскую области самотеком.

Надо отметить, что все предложения испытаны в лабораторных и полевых условиях, апробированы и одобрены учеными-специалистами США, Европы, России, Казахстана, Туркмении. Технические решения готовы к поэтапному внедрению, на все технические решения получены авторские свидетельства и патенты на изобретения. Они доведены до конечного эколого-экономического эффекта [3].

### **Список использованных литератур**

1. А.С. №1491953. Устройство для регулирования дренажного стока/Валуконис Г.Ю., Мурадов Ш.О. и др. 1987
2. Мамедов А.М. Развитие ирригации в Узбекистане. Ташкент: ФАН, 1967. -297 с.
3. Мурадов Ш.О. Научное обоснование водоустойчивости аридных территории юга Узбекистана. - Ташкент: ФАН. 2012.- 376 с.
4. Патент РУз № 04339. Способ деминерализации коллекторно-дренажных вод/ Мурадов Ш.О., Валуконис Г.Ю.//Расмий ахборотнома.2000. №3.
5. Патент РУз № 4539. Способ мелиорации почв /Мурадов Ш.О., Хамраев Н.Р., Валуконис Г.Ю., Романенко В.П. // Расмий ахборотнома. 1997. №3.

6. Патент РУз № IDP 04470. Способ расщепления почв / Мурадов Ш.О., Валуконис Г.Ю., Мурадов М.О., Отакулов У.Х., Шарапов Ш.Т.// Расмий ахборотнома. 2000. № 5.
7. Peter Swanson. Water: The Drop of Life, North Word press, Minnetonka, Minnesota, 2001. USA. P.143

## TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA KIMYOVIY ELEMENTLARNING AHAMIYATI

**Halimova R.S. (Shofirkon tumani 49-maktab o`qituvchisi)**

**Halimova D.S. (Shofirkon tuman kasb-hunar maktabi o`qituvchisi)**

Tuproq tabiat yaratgan ulug` ne'matlardan biridir. Tuproq inson uchun eng avvalo ona zamin hisoblansa, ikkinchi tomondan u rizq – ro`z manbaidir. Tuproq tog` jinslari relyef, iqlim, suv, o`simlik hayvonot dunyosi kabi tabiatning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, u o`ziga xos muhim xususiyatlarga ega. U eng avvalo V.V.Dokuchayev qayd qilganidek tabiiy- tarixiy hosila, landshaftlarning oynasidir, u jonsiz va tabiatni bir – biriga dialektik bog`lab turuvchi bir butunlikka ega bo`lgan tabiiy tizim, qobiqdir. V.A.Kovba qayd qilganidek, u organik dunyo uchun boshpana-yashash muhitidir. Tuproqning eng muhim xususiyatlaridan biri uning unumdorlikka ega bo`lishi, ya'ni hosil berishidir. Tuproq turlari tabiiy sharoitga bog`liq holda joylarda o`zgaradi va o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi. Xuddi shu asosda uning paydo bo`lishi va tarqalishi qonuniyatlari mavjud.

Tuproqlarning kimyoviy tarkibi nurash po`stining kimyoviy tarkibiga bog`liq. Nurash po`stining bu xususiyati turli hududlarda farqlanadi. Nurash po`stining tarkibi Yer po`stining (litosferaning) kimyoviy tarkibiga monand. Yer po`stining kimyoviy tarkibini ilk bor o`rgangan olim Frank Uiglsuort Klarkdir (1847-1931). U 1883-1924 yillarda AQSH geologiya qo`mitasida bosh kimyogar bo`lib ishlagan.

1988 yilda yer yuzasining turli joylardan olingan 880 ta tog` jinslari namunasini o`rganib, uning kimyoviy tarkibini aniqlaydi. Klark 1888 yilda yer po`stidagi 10 ta elementni aniqlagan bo`lsa, 1924 yilda G.Vashington bilan birga 50 ta elementni e`lon qiladi. A.Y.Fersman esa 1923 yilda Klark xizmatini hisobga olib, tabiiy tizimlardagi kimyoviy elementlarning o`rtacha miqdorini “Klark” deb atashni taklif qiladi.

### Yer po`stining kimyoviy tarkibi (Klark bo`yicha, 1888 y.)

Kislород	46,28	Magniy	2,77
Kremniy	28,02	Kaliy	2,47
Alyuminiy	8,14	Natriy	2,43
Temir	5,58	Titan	0,33
Kalsiy	3,27	Fosfor	0,10

Tuproqdagi suv – tuproq eritmasi deyiladi. Sug`orish, yaxob berish va yog`in bo`lganda tuproq, ostiga maxsus idish – lizimetr qo`yib bu suv olinadi. Eritmada tuproq havosidagi gazlar  $SO_2$ ,  $Q_2$ ,  $N_2$  boshqalar ham bor.

Anionlar:  $-(NSO_3)^-$   $-(NO_3)^-$   $-(NO_2)^-$   $-(PO_3)^-$   $-Cl$   $(SO_4)^-$  ;

Kationlar:  $Sa^{++}$ ,  $Mg^{++}$ ,  $N^{++}$ ,  $K^{++}$ ,  $NH_4^{++}$ ,  $H^{++}$ ,  $Al_3^+$  ;

Mikroelementlar: mis, rux, qo`rg`oshin, nikel, kobalt kabilar tuproq eritmasida mavjud bo`ladi. Bulardan tashqari suvda eriydigan organik kislotali birikmalar: fulvokislotalar, organik kislotalar, aminokislotalar, qand, spirt kabilar erigan bo`ladi.

Sho`r tuproqlar eritmasida  $Na^+$ ,  $Mg^{++}$ ; Arid sharoitda  $Sa^{++}$ ; Mo`tadil nam iqlimda  $N^+$ ; Ekvatorial, sub ekvtorial, subtropik nam iqlim sharoitida  $Fl_2^+$ ,  $Al_3^+$  ionlar ko`p bo`ladi. Tuproq eritmasi reaksiyaga ega bo`lib, u kislotali va ishqoriy neytral muhitini hosil qiladi. Agar tuproq asoslarga to`yinmagan bo`lsa u kislotali muhitga ega bo`ladi. Tuproqning reaksiya muhiti suvli so`rim orqali aniqlanadi va u RN bilan belgilanadi:  $RN=7,0$  dan past bo`lsa –ishqoriy muhit

RN=7,0 bo'lsa neytral muhit, RN=7,0 dan baland bo'lsa kislotali muhit, podzollashgan va qizil tuproqlarda RN= 4-6. Masalan, qora tuproqlarda – 5,8-7,5; bo'z tuproqlarda – 7-8; sho'r tuproqda – 10-11; shimol tuproqlarida juda kam 3,5; podzol tuproq – kuchli kislotali, buni ohak neytrallaydi.

Sho'rtoq tuproq esa – kuchli ishqoriy muhitga ega bo'lib buni gips neytral holga keltiradi. Madaniy o'simliklar uchun tuproq eritmasi RN 4-8 o'rtasida bo'lishi qulaydir. Masalan, suli uchun 5-6; beda uchun 5,8 – 6,4; no'xat uchun 5,5 – 6,4; bugdoy uchun 6,6 – 7,8; lavlagi uchun 7,0 – 7,5; g'o'za uchun 6,8 – 8,5 birlikda bo'lishi normal holatdir.

Tuproq tarkibi turli xil tez eriydigan tuzlar mavjud. Suvda eriydigan mineral tuzlarning umumiy foizi 0,3 dan yuqori bo'lsa bunday tuproqlar turli darajada sho'rlangan bo'ladi. Bularni aniqlash uchun suvli so'rim tarkibi aniqlanadi. Kation va anionlar foizi milliekvivalent hisobiga aylantiriladi va qanday sho'rlanganligi va darajasi aniqlanadi. 1 mmli elakchadan o'tgan tuproq analitik tarozi yordamida 50 gramm o'lchab olinadi va uning ustiga 250 ml (5 marta ko'p) distillangan suv quyiladi. Idish 5 minut chayqatiladi. U burma filtr orqali ikkinchi kolbaga suziladi. Suzib olingan eritma suvli so'rim deyiladi.

Undan quyidagicha sifat analizi olinadi: 1. Ishqoriylikni aniqlash; 2. Sulfat kislotatuzlarini aniqlash; 3. Kalsiy va magniy kationlarini aniqlash; 4. Quruq qoldiqni aniqlash.

Tuproq tarkibidagi suvda eriydigan mineral va organik birikmalarning umumiy miqdori quruq qoldiqdir (% yoki gramm aniqlanadi).

Tirik organizmlar va ularning qoldiqlari tuproqda chirindi paydo bo'lishida birlamchi manba bo'lib hisoblanadi. I.V.Tyurin, M.M.Kanonova va V.V. Ponomaryovalar bu borada, o'z tadqiqot ishlari natijalaridan kelib chiqib, tuproqning organik qismi – gumus kislotalari va mineral moddalarning organomineral kompleksidan iborat ekanligini aytadilar.

Tuproqdagi organik moddalar 2 qismga bo'linadi:

1) O'simlik va hayvon qoldiqlari oqsil moddalar (proteinlar), yog, mum, oshlovchi moddalar bo'lib. Bular tuproq tarkibidagi organik moddalarning 15% ni tashkil qiladi. 2) Chirindi moddalar - tuproqdagi organik moddalarining 80-90% ni tashkil qiladi.

Fulvokislotalar – suvda eriydi, quruq holda qo'ng'ir – sarg'ish rangda bo'ladi. Gumin kislotalari – suvda erimaydi, qo'ng'ir va qora rangda bo'ladi. Gumin – birorta eritmada erimaydi. U tuproqning mineral qismi bilan birikkan bo'ladi. Chirindi (gumus) tuproqni kul va azotga boyitadi. U qanchalik tuproq tarkibida ko'p bo'lsa, mikroorganizmlar shunchalik ko'p yashaydi va ozuqa elementlari ko'p to'planadi.

Tuproqdagi gumus miqdori o'tloq qora tuproqlarda – 600-1000 t/ga, keng bargli o'rmon tuproqlarida 300 t/ga, taygada 100 t/ga, tundrada 70 t/ga atrofida bo'ladi.

O'simlik to'shagi tundra va taygada 40-50 t/ga, keng bargli o'rmonlarda kamayadi 40-50 t/ga, ekvatorial o'rmonlarda 2 t/ga, dashtlarda yer ustidagi o'lik to'shak 4-10 t/ga ga teng. Arid zona o'simliklari kimyoviy elementlarni gumid zona o'simliklariga nisbatan ko'proq qabul qiladi. Biologik metabolizmida biogen elementlar N, K, Ca, Si, so'ng P, Mg, Fe, Al ishtirok etadi.

Tundra o'simliklarida N, Sa, K; taygada N, Sa, K; keng bargli o'rmonlarda Ca, N, K; dasht o'simliklarida Si, N, K, Ca; cho'l zonasida Ca, K, N, Mg; tropik, ekvatorial o'rmonlarda Si, Fe, Al ko'p yutiladi.

Unumdorlik tuproqdagi fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarning oqibatidir. U bitta, ikkita omilga bog'liq emas. Tog' jinslari maydalanib ozuqa moddalarni ushlab qolishiga imkon yaratadi. Bu esa o'z navbatida mikroorganizmlarning kirib kelishiga imkon beradi. Natijada «tuproq-organizmlar» o'rtasida modda va energiyaning kichik biologik aylanma halqasi hosil bo'ladi. O'simlik tomirlari tuproqdagi kul (zol) moddalarni yuqoriga ko'taradi. Pirovard natijada biologik aylanma harakat tuproqda unumdorlikning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Demak o'simliklar evolyutsiyasi tufayli unumdorlik orta boradi.

O'simliklar uchun ozuqa moddalardan tashqari nam va havo ham muhim omillardan hisoblanadi. Shu bilan birga strukturali tuproqlarda unumdorlik yuqori bo'ladi. Unumdorlik tabiiy va sun'iy bo'ladi. Dehqon unumdorlikni oshirish uchun agromeliorativ tadbirlarni olib

boradi va buning natijasida “dehqon kimyosi” degan tushuncha hosil bo`ladi. Dehqon texnikasi, ularning soni, sifati tuproq unumdorligiga katta ta'sir qiladi. Bu o`z navbatida mehnatning oqibatidir. Demak, unumdorlik kimyoviy, fizik, biologik va antropogen jarayonlarning uyg`unligi oqibatidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Abdullayev A., Maqsudov A. Tuproqshunoslik asoslari va tuproqlar geografiyasi. Toshkent “O`qituvchi”, 1988, 144 b.
2. Воронин А.Д., Орлов Д.С. (ред) Физические и химические методы исследования почв. Сборник научных трудов. - М.: МГУ, 1994. - 152 с.
3. Tursunov L. Tuproq fizikasi, Toshkent “Mehnat”, 1988, 224 b. .
4. Tursunov L. O`zbekiston tuproqlari va ularning evolyutsiyasi (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y., 46 b.
5. Федоров В.М. Биосфера, земледелие, человечество. Москва. Агропромиздат, 1980, 239 стр.
6. Qobulov S., Ametov M. Tuproq unumdorligi va biomelioratsiya. Nukus “Bilim”. 2000, 18 b.

#### O`ZBEKISTONNING TEKISLIK CHO`L IQLIMI SHAROITIDA JOYLASHGAN KOLLEKTOR SUVLARINING GIDROKIMYOVIY VA GIDROBIOLOGIK TARKIBI (BUXORO VILOYATI ARABLAR KOLLEKTORI MISOLIDA)

**Shodmonov Feruzjon Qamariddinovich**  
**b.f.f.d., PhD dotsent,**

**Latipov Zafar Ikromovich**  
**II bosqich magistr**

**Okilova Gulzoda Akmalovna**  
**O`qituvchi**

*Buxoro davlat universiteti, Buxoro shahri, O`zbekiston*

**Annotatsiya:** Maqolada O`zbekistonning tekislik hududida joylashgan Buxoro viloyati kollektorlari suvining gidrokimyoviy ko`rsatkichlari, gidrobiologik xususiyatlari: mikroskopik suvo`tlari, zooplanktonlarning taksonomik tahlili keltirilgan. Shu bilan bir qatorda, laboratoriya sharoitida kollektor suvlarini *Chlorella vulgaris*, *Scenedesmus obliquus* turlari yordamida biologik usulda tozalashning ahamiyati haqida bayon etilgan.

**Kalit so`zlar:** Buxoro viloyati Arablar kollektori, *Chlorella vulgaris*, *Scenedesmus obliquus*, zooplankton, makrofit, biomassa, suv, gidrokimyoviy, tur.

**Kirish:** Dunyoda hozirgi kunning eng global ekologik muammolardan biri iqlim o`zgarishi, tabiiy zahiralarning kamayishi va atrof-muhitning cho`llashishi hamda keskinlashishi sharoitida tashqi va ichki suv manbalaridan, ayniqsa ichki suv havzalari va kollektor-zovur suvlaridan samarali foydalanish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalardan biri bo`lib qolmoqda [1,14,16,17].

Markaziy Osiyodagi iqlim isishi mintaqaviy suv resurslariga ta'sir qilganini va odamlarning jadal faoliyati suvning haddan tashqari ishlatilishiga olib kelganini Xuanxuan Wang va Yaning Chen (2022) aniqladi. Markaziy Osiyo davlatlarida qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun suvga bo`lgan talabning yanada ortib borishini bashorat qildi. Turkmaniston va O`zbekiston eng katta suv taqchilligiga duchor bo`ladi, degan xulosaga keldi [15].

Buxoro viloyati Respublikada yagona sun`iy sug`orish sistemasiga asoslangan. Asosiy suv manbasi Amudaryo hisoblanadi. Amudaryodan ABMK-1 ish kuvvati 112 m<sup>3</sup>/sek, ABMK—II ish kuvvati 95,8 m<sup>3</sup>/sek, Amu-Korako`l kanali ish quvvati 48 m<sup>3</sup>/sek kanallar orqali suv olinadi.

Olinadigan suvning umumiy miqdori 255,8 m<sup>3</sup>/sek va asosan irrigatsiya sistemasi uchun xizmat qiladi.[9]

Qishlok xo'jaligi uchun ishlatiladigan suvlardan hosil bo'lgan sizot suvlari va shahar hamda tuman markazlaridan chiqadigan oqava suvlar drenaj-kollektorlarda yig'iladi. Bu kollektorlarga shahar chiqindi suvlari va ishlab chiqarish korxonalarida ishlatilgan oqava suvlar ham kelib qo'shiladi. Tashlandiq suvlar o'zaro yig'ilib, Dengizko'l, Katta va kichik Tuzkon, Qaraqir, Oyoqog'itma, Qumsulton, Xadicha, Zikri(Kemachi), Devxona kabi tabiiy suvliklarni hosil qiladi. Bu tabiiy suvliklardagi tashlandiq suv miqdori taxminan 4-5 milliard metr kubni tashkil qiladi. Suv manbasi drenaj- kollektor xisoblanadi. Hozirgi kunga qadar bu suvliklardan baliq ovlanib kelingan. Baliq maxsuldorligi o'tgan asrda 16 kg/ga ni tashkil etgan bo'lsa, XXI asrga kelib, bu ko'rsatkich 1,5-2,0 kg/ga ni tashkil qilmoqda[1,12,14,16,17]

Buxoro vohasida issiq mavsumlar yoz va kuz hisoblanib, doimiy qurg'okchilik xavfi sharoitida suv resurslarini ortiqcha isrof qilishga hamda irrigatsiya tizimida joylashgan boshqa dehqon fermer xo'jaliklarini suv ta'minotida qo'shimcha qiyinchiliklarga sabab bo'lmoqda. Bular sun'iy baliqchilik hovuzlari ta'sirida amalga oshirilmoqda.

Shu bois, tabiiy va sun'iy suv havzalari, ayniqsa tekislikda joylashgan ko'llar va suv omborlarining gidrokimyoviy holatini aniqlash orqali ulardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi[12].

Buxoro viloyati suv havzalari hamda kollektor-zovurlarda tarqalgan mikroskopik suvo'tlarning tur tarkibi va ularning taksonomik taqsimlanishi o'rganish borasida bir qator olimlar tomonidan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Buxoro viloyati Mavliyov, Sakovich, va Chaqmoq kolleklari algaflorasini taksonomik tahlil qilish bo'yicha izlanishlarni amalga oshirgan Rashidov N.E. mazkur kollektorlarda tarqalgan mikroskopik suvo'tlarining 389 tur va tur xillarini uchrashini tadqiq etgan. Kollektorlarda mikroskopik suvo'tlardan dominant turlar sifatida ko'k yashil suvo'tlari (72 tur), yashil suvo'tlari (132 tur), va diatomlar (163 tur) keltirilgan bo'lsa, kam sonli turlarga dinofitlar (3 tur) ni va evglena (19 tur) ni tashkil qilganligi ko'rsatib o'tilgan[13].

Qoraqir tabiiy suv havzasini asosiy suv manbai hisoblangan Shimoliy kollektorning algoflorasi, ularning mavsumiy va ekologik guruhlanishi to'g'risida Qobilov A.M. (2020 yil)[10], Devxona ko'liga quyiladigan Qarshi kollektori fitoplankton va zooplankton turlari to'g'risidagi ayrim ma'lumotlarni Toshov H.M. (2021 yil)[11], Dengizko'l suv havzasini suv manbai hisoblangan Dengizko'l kollektori fito hamda zooplankton organizmlari va ularning kollektor-zovur suvlari minerallashish darajasini pasaytirishdagi ahamiyati to'g'risida Shodmonov F.Q. (2022 yil)[12] va Ayoqog'itma ko'lining mikroskopik suvo'tlar turlari va zooplanktonlar tarqalishi hamda ularning baliqchilikdagi ahamiyatini Shamsiyev N.A.(2023) ilmiy tadqiqot islarida mukammal yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda, Buxoro shahri va uning atrofidagi hovuzlar fito-zooplankton organizmlari tur tarkibi hamda ularning suv mineralizatsiyasini pasaytirish va baliqchilikdagi ahamiyati to'g'risida Sharopova Sh.R.(2022) ning ilmiy tadqiqot ishlarida keltirib o'tilgan.

Biroq, bu amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar Buxoro viloyati kollektor-zovurlar suvining gidrokimyoviy tarkibi, mikroskopik suvo'tlarining tarqalishi, tur tarkibi va baliqchilikdagi ahamiyatini har tomonlama ochib bera olmaydi. Shuning uchun mazkur kollektorni batafsil tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratildi.

#### **Tadqiqot materiallari va uslublari:**


Buxoro viloyati kollektotlari orasidan Jondor tumanida joylashgan Arablar kollektorlari tanlandi. Mazkur kollektordan 2022-2023 yillar davomida har oy va har mavsumda fito-zooplankton turlari hamda suvining gidrokimyoviy tarkibini aniqlash maqsadida sifat hamda miqdoriy tahlil namunalari olindi. Tadqiqot namunalari tahlillari laboratoriya sharoitida amalga oshirildi.

Arablar kollektoridan tadqiqot ishlari davomida yig'ilgan suv namunalari tahlili Lure Yu.Yu. va Strogonov A .S. uslublari yordamida amalga oshirildi.[4;5] Suvning tiniqlik va

loyqalik darajasini aniqlashda diametri 30 sm li Sekki diskidan foydalanildi. Arablar kollektori suvidan yig'ilgan fitoplankton namunalar Buxoro davlar universiteti Biotexnologiya va ixtiologiya ilmiy laboratoriyasida Goryayev kamerasidan foydalangan holda taksonomik tahlil qilindi. Fitoplankton namunalarini yig'ishda Apshteyn to'ridan foydalanildi. Zooplankton namunalari Djeddi to'ri yordamida kollektor suvlaridan yig'ildi va Bogaryov kamerasi yordamida laboratoriya sharoitida turlar tarkibi tahlil qilindi.[2,3,4,6]

AlgaBase ma'lumotlar bazasidan foydalanib, mikroskopik suvo'tlarning turlar tarkibi aniqlandi. Turkum va turlarning ilmiy nomlari xalqaro indekslar - International Plants Names Index, The Plant List bo'yicha va taksonlarning mualliflari Brummit R.K., Powell C.E. qo'llanmasi asosida keltirildi.[6,7,8,18,19]

**Tadqiqot natijasi:** Ilmiy tadqiqot obyekti sifatida tanlangan Arablar kollektorida 2022-2023 yillar davomida ilmiy izlanishlar amalga oshirildi (1-rasm).



**1-rasm. Buxoro viloyati Arablar kollektorining xaritasi**

Arablar kollektorining boshlang'ich qismidan, o'rta qismidan va oxirgi qismlaridan fito-zooplankton va suv namunalari yig'ib olindi. To'plangan fito-zooplankton namunalari laboratoriya sharoitida Goryayev kamerasidan foydalangan holda, yorug'lik mikroskopida turlarga ajratildi. Suv namunalarining gidrokimyoviy ko'rsatkichlari Germaniyada islab chiqarilga *Aqua-test* reaktivlar jamlanmasidan foydalangan holda laboratoriya sharoitida tahlil qilindi va mavsumiy baholandi. Arablar kollektori suvining minerallar tarkibi fasllar bo'yicha tahlil natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

**1- jadval**

**2023- yildagi Buxoro viloyati Arablar kollektori suvining mavsumiy gidrokimyoviy tarkibi**

Ko'rsatgichlar	Suv namunalari olingan mavsum			
	Bahor	Yoz	Kuz	O'rtacha
Harorat °C	16	24	19	20
pH	7,6	8,1	7,8	7,8
Suvda erigan kislorod, O <sub>2</sub> mg /l	6,5	6,3	6,4	6,4
Kislorodning biokimyoviy sarflanishi, O <sub>2</sub> mg /l	25,0	29,0	26,0	26,6
Muallaq moddalar, mg/l	19	16	18	17,6
Quruq goldiq,mg/l	5760	6140	5960	5953,3
Xloridlar, mg/l	2204	2595	2482	2427
Sul'fatlar, mg/l	1986	2164	2087	2079

Azot ammoniy, mg/l	1,8	2,8	1,9	2,16
Nitritlar, mg/l	0,16	0,20	0,18	0,18
Nitratlar, mg/l	7,4	8,1	7,6	7,7
Fosfatlar mg/l	0,032	0,036	0,034	0,034

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Arablar kollektori suvining yoz hamda kuz mavsumidagi minerallar va biogen moddalar miqdori, bahor mavsumidagi ko'rsatkichlarga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rish mumkin.

Yoz va kuz mavsumi O'zbekistonning tekislik cho'l iqlim sharoitida joylashgan Buxoro viloyati iqlimining quruq va issiq kelishi, yog'ingarchilik deyarli kuzatilmasligi hamda suv havzalari va kollektorlar sathidan suvning yuqori darajada bug'lanishi, mazkur fasllarda kollektor suvining minerallanish ko'rsatkichi baland bo'lishi bilan izohlash mumkin.

Arablar kollektori suvining minerallar tahlillaridan quyidagilarni bilish mumkin. Suv namunasining bahor mavsumidagi minerallanish darajasi yani, quruq qoldiq miqdori-5760 mg/l ni shunga mos ravishda xloridlar- 2204 mg/l, sulfatlar- 1986 mg/l bo'lgan miqdorlarni hosil qildi.

Shu bilan bir qatorda, suvda erigan kislorod 6,5 mg/l gacha, kislorodning biokimyoviy sarflanishi 25,0 mg/l ni, pH 7,6 gacha o'zgarishi tahlil qilindi.

Shuningdek, bahor mavsumidagi suv namunalari tahlil natijalari asosida biogen moddalardan: azot ammoniy 1,8 mg/l gacha, nitritlar -0,16 mg/l gacha, nitratlar - 7,4 mg/l gacha o'zgarishi aniqlandi. Suvning minerallanish darajasi miqdorining Arablar kollektori suvlarida yuqori bo'lishi asosan suv tarkibidagi xloridlar hamda sulfatlar bilan mos ravishda o'zgarib borishi aniqlandi.

1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar asosan Arablar kollektori suvida tarqalgan mikroskopik suvo'tlari va zooplankton organizmlarning o'sib rivojlanishi uchun muhim. Arablar kollektori suvining minerallar tarkibi tahlillari natijasidan shuni bilish mumkinki, ularda o'txo'r va planktonxo'r baliqlar uchun ozuqa bo'ladigan fitoplanktonlar hamda zooplanktonlarni ko'paytirish mumkinligini ko'rsatadi. Arablar kollektorida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida mikroskopik tuban suvo'tlarining jami 65 tur va tur xillari borligi va ulardan diatom suvo'tlari 29 ta, yashil suvo'tlari 17 ta, ko'k- yashil suvo'tlari 15 ta, evglena suvo'tlari 4 ta ekanligi ma'lum bo'ldi (2-jadval).

## 2-jadval

### Arablar kollektoridagi suvo'tlarining mavsumiy o'zgarishi (2022 yil)


№	Suvo'tlarining bo'limlari	Jami turlar	Turlar soni			
			Bahorda	Yozda	Kuzda	Qishda
1	<b>Bacillariophyta</b>	29	27	28	25	9
2	<b>Chlorophyta</b>	17	15	17	15	5
3	<b>Cyanophyta</b>	15	13	15	11	2
4	<b>Euglenophyta</b>	4	3	4	2	1
	<b>Jami</b>	<b>65</b>	<b>58</b>	<b>64</b>	<b>53</b>	<b>17</b>

Ularning bahor mavsumida 58 turi, yoz mavsumida 64 turi va kuzda 53 turi uchragan bo'lsa, qish mavsumida 17 ta tur va tur xillari mazkur kollektor suvlarida tarqalganligi aniqlandi. Turlar sonining ko'pligi bilan *Bacillariophyta*, *Chlorophyta* va *Cyanophyta* bo'limlari yetakchilik qildi. *Euglenophyta* bo'limi vakillari nisbatan turlar soni kamligi kuzatildi.

2023 yilda Arablar kollektori zooplanktonlarning turlar soni mavsumiy tahlil qilindi. Arablar kollektorida yilning turli vaqtlaridagi miqdor ko'rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan.



2023 yildagi Arablar kollektori zooplankton organizmlarning turlar soni



Qish mavsumida zooplankton organizmlarning taksonomik guruhiga nazar soladigan bo'lsak ularning soni unchalik katta emasligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Zooplanktonlar tarkibida qish mavsumida Rototoriya (og'izaylangichlilar) va Cladocera (shoxdormo'yovlilar) turlar soni jihatdan ko'p bo'lsada, miqdor jihatdan kamligi aniqlandi. Ular o'rta hisobda 5,6-6,7 ming dona/m<sup>3</sup> ni tashkil etdi, martning oxirgi dekadasi va aprel boshlaridan boshlab Rototoriya ning (og'izaylangichlilar) jadal rivojlanishi kuzatildi. Natijada namunalardagi turlar son jihatdan 18130 dona/m<sup>3</sup> ta gacha rivojlandi, ushbu davr davomidada rivojlangan Cladocera (shoxdormo'yovlilar)ning soni 12-14 ming dona/m<sup>3</sup> ni tashkil qildi. Copepoda (Kurakoyoqlilar) turlari son jihatdan kam bo'lsada miqdor jihatdan dekabr oyida 10,5 ming dona/m<sup>3</sup> ko'rsatkichga ega bo'ldi, aprel oyidan boshlab mazkur turlar ham jadal rivojlanib, miqdor soni 26,7 ming dona/m<sup>3</sup> dan oshganligi aniqlandi. Yilning boshqa mavsumlarida yoz faslidan kuz fasliga tomon turlar soni va miqdori o'zgarganligi 2-rasmda keltirilgan.

Arablar kollektori suvlarida karpsimon baliqlar sevib istemol qiladigan Shoxdor mo'yovli qisqichbaqasimonlardan *Daphnia magna*, *Daphnia pulex* kabilarning uchrashi ushbu suvliklarda planktonxo'r baliqlar ko'paytirish imkonini beradi va karpsimon baliqlar mahsuldorligini qo'shimcha oshirishga asos bo'ladi.

### Xulosa

Buxoro viloyati Jondor tumanida joylashgan Arablar kollektori suvining umumiy minerallanish darajasi o'rtacha 2023 yilda 5953,3 mg/l ni tashkil qilishi aniqlandi. Arablar kollektorida jami mikroskopik suvo'tlarning 65 tur va tur xillari borligi va ulardan diatom suvo'tlari 29 ta, yashil suvo'tlari 17 ta, ko'k- yashil suvo'tlari 15 ta, evgena suvo'tlari 4 ta tarqalganligi ma'lum bo'ldi. Mazkur turlar orasidan tarkibida fiziologik faol moddalar ko'p saqlaydigan *Chlorophyta* bo'limi vakillari *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa*, *Scenedesmus quadricauda* va *Scenedesmus obliquus* kabilarnig kollektor suvida uchrashi, mazkur kollektor-zovurlar suvining minerallanish darajasini pasaytirishi hamda ularni biotexnologik usullarda sun'iy ravishda ko'paytirib tabiiy ozuqa zahirasi yanada boyitish mumkinligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, yashil suvo'tlari suspenziyasi bilan o'simlikxo'r oq do'ngpeshona baliqlarni yetishtirish hisobiga baliq mahsuldorligini yanada oshirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, istiqbolli mikroskopik yashil suvo'tlarni oziqa sifatida qo'llash orqali zooplankton organizmlar ko'paytirilib, kollektorlarda zooplanktonxo'r baliqlar yetishtirish mumkinligini ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Буриев С.Б., Эсанов Х.К., Шодмонов Ф.К., Размножение микроскопических водорослей и высших водных растений в водах Денгизкуль Бухарской области// "CHRONOS" Мультидисциплинарные науки Том 6 #5(55), 2021. 4-7 стр.  
<https://multidisciplinary.chronos-journal.ru/volume-6-issue-5-55/>



2. Определитель растений Средней Азии. В 11-х т. –Ташкент: Фан, 1968 - 2015. - С. 3-169
3. Таубаев Т.Т. Флора и растительность водоёмов Средней Азии. –Тошкент. Фан, 1970. - 490 с
4. Льюе Ю.Ю. Аналитическая химия промышленных сточных вод. Москва.: Химия, 1984 . - 446 с
5. Строгонов Н.С. Практическое руководство по гидрохимии. – Москва. 1980. – 195 с
6. Flora Uzbekistana. 1941 –1962. Editio Academiae Scientiarum UzSSR, Tashkent. Vol. 1 –6 pp.
7. Щербаков А.В., Майоров С.Р. Инвентаризация флоры и основы гербарного дела (Методические рекомендации). Москва: Товарищество научных изданий КМК, 2006. 48 с.
8. Brummit R.K., Powell C.E. (1992): Authors of plant names. - Kew: Royal Botanic Gardens, P. 732.
9. Niyozov D.S. Buxoro vohasi tabiiy suvliklari-yaylov akvakulturasida sadok usulida intensiv baliq boqish buyicha metodik tavsiyalar. Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2017. 4-36 b.
10. Qobilov A.M. Buxoro viloyati Qora-qir ko'lidagi fitoplankton hamda makrofitlarni o'rganish va ularni baliqchilikda qo'llash biotexnologiyasi. Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Buxoro: 2020. 3-125. b.
11. Toshov H.M. Devxona ko'lining gidrobiologik holati va baliqchilikdagi ahamiyati. Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Buxoro: 2021. 3-102. b.
12. Shodmonov F.Q. Dengizko'l suv havzasining baliqlar turlarini aniqlash va ulardan o'txo'rlarini ko'paytirish biotexnologiyasi. Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Buxoro: 2022. 3-128. b.
13. Rashidov N.E. Buxoro viloyati kollektorlarining algoflorasi// Biologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishi. Toshkent. 2007. 101-b
14. Esanov H.K., Shodmonov F.Q., Kobilov A.M. High Plant Species Distributed in and around Dengizkul, Bukhara Region// American Journal of Plant Sciences, 2021, 12, 266-273 <https://doi.org/10.4236/ajps.2021.122016>
15. Xuanxuan Wang <sup>a b</sup>, Yaning Chen <sup>a</sup>, Gonghuan Fang <sup>a</sup>, Zhi Li <sup>a</sup>, Yongchang Liu <sup>a b</sup>, Journal of Cleaner Production Volume 378, 10 December 2022
16. F. Q. Shodmonov, A. M. Kobilov, and G. A. Okilova Propagation of Chlorella Vulgaris and Scenedesmus Obliquus in Dengizkul Lake and determination of protein content in them, E3S Web of Conferences 420, 09012 (2023) EBWFF 2023 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202342009012>
17. Bo'riyev S.B., Okilova G.A., Shodmonov F.Q., Qobilov A.M. Buxoro viloyati Katta tuzkon ko'lining gidrokimyoviy tarkibi va makrofit turlarini aniqlash//Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi –4-1/2023. 11-15 b.
18. International Plant Names Index [Электронный ресурс].– <http://www.ipni.org>
19. The Plant List. 2013. URL: <http://www.theplantlist.org/tpl1.1/record/gcc-133949>

## **O'ZBEKISTON PAST TOG'LARINING LANDSHAFT-GIDROLOGIK IMKONIYATLARI XUSUSIDA**

**Halimova Gulshan Subhonovna, geografiya fanlari falsafa doktori, dostent  
(Buxoro davlat universiteti, Buxoro shahri)**


O'zbekiston respublikasi dunyodagi qurg'oqchil mamlakatlardan biri. Uning 70%dan ortiqroq maydoni cho'l va chala cho'l zonasida joylashgan. Shu sababdan chuchuk suv muammosi mamlakat aholisi va iqtisodiyoti uchun strategik masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatning ichimlik va sug'orma dehqonchilik uchun bo'lgan ehtiyoji asosan Amudaryo va Sirdaryo kabi transchegaraviy ahamiyatga ega bo'lgan daryolar suvi hisobidan qondiriladi. Iqlim o'zgarishi va qurg'oqchilik jarayonining tobora jadallashib borayotganligini hisobga olib, mamlakatda atmosfera yog'inlaridan ham samarali foydalanishni yo'lga qo'yish davr talabiga aylanib bormoqda.

Shu boisdan, O'zbekiston hududining alohida qismlarida joylashgan past tog'larning mahalliy suv resurslarini landshaft-gidrologik nuqtai nazardan kompleks o'rganish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan tog'lar mutlaq balandligiga ko'ra uch toifaga bo'linadi. Bular past tog'lar - balandligi 1 km gacha, o'rtacha balandlikka ega bo'lgan tog'lar – 1-2 km gacha, nihoyat baland tog'lar – 2 km dan yuksak bo'lgan tog'lardir [3, 106-b.; 7, 256-b.]. Past tog'lar esa morfotektonik va hududiy joylashuviga ko'ra ikki guruhga ajralib turadi (1-chizma).

1-chizma



Buxoro viloyatida Qizilqum cho'lining janubidagi past tog'lardan biri Quljuqtov tizmasi joylashgan. Mazkur tizma uzok yillar davomida tadqiqot ob'ekti sifatida ko'plab mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, mahalliy suv resurslari, vaqtincha oqar suv manbalari muallif tomonidan tadqiq qilib kelinmoqda. Tadqiqot natijalari o'laroq, quyida O'zbekiston past tog'larining landshaft-gidrologik jihatdan farqlanishlari jadval tarzida ochib berilgan (1-jadval).

1-jadval

<b>O'rtacha va baland tog' tizimlariga tutash bo'lgan past tog'lar (adirlar)</b>		<b>Cho'l zonasida orolsimon tarzda joylashgan past tog'lar</b>
1.	G'arbiy Tyanshan, Oloy, Turkiston, Zarafshon, Hisor (h 4688 m), Ko'hitang, Bobotog' tizmalariga tutash bo'lgan past tog'lar. Mutlaq balandligi 1 km gacha	Qizilqum cho'li hududida orolsimon tarzda joylashgan past tog'lar: Sul-ton Uvays, Bo'kantov, Oytimtov, Etimtov, To'xtatov, Tomditov (h 974), Ovminzatov, Quljuqtov kabilar, mutlaq balandlik 974 metrgacha boradi.
2.	Bu past tog'lar "qayta tug'ilgan" tog'lar toifasiga kiradi. Paleozoy erasida hosil bo'lgan tog'lar (gerstinidlar) emirilgan va neotektonik harakatlar (N+Q) tufayli geosinklinal sharoitda 4700-5300 metrgacha qayta ko'tarilib burmali-palaxsali tog'larga aylangan. Bu past tog'lar o'rtacha va baland tog'larga tutashdir.	Bu past tog'lar "qayta tug'ilgan" tog'lar toifasiga kiradi. Paleozoy erasida hosil bo'lgan tog'lar (gerstinidlar) emirilgan va neotektonik harakatlar (N+Q) tufayli platforma sharoitida 1300 metrgacha qayta ko'tarilib, burmali-palaxsali tog'larga aylangan.
3.	Subtropik belgilarga ega bo'lgan chala cho'l (yarim arid) iqlimga ega. O'rtacha ko'p yillik yog'inlar miqdori 326 (Andijon) va 734 mm (Chorvoq) atrofida.	Subtropik belgilarga ega bo'lgan cho'l (ekstraarid, arid) iqlimga ega o'rtacha ko'p yillik yog'inlar miqdori 82 (Nukus) – 138 mm (Ko'lquduq) atrofida.

4.	Respublikada ro'yxatga olingan 1448 buloqlardan 90%i past tog'lar hududida joylashgan. Ular chuchuk va shifobaxsh bo'lib, suv berish quvvati 1,0-1000 l/sek gacha boradi.	Cho'l zonasidagi orolsimon past tog'larda buloqlar kam, ularning suv berish quvvati ham cheklangan 0,5-2,0 l/sek atrofida. Ular odatda sho'rtoblashgan mineral tarkibga ega.
5.	Past tog'lar bo'z tuproqlar mintaqasi hisoblanadi. Ular karbonatli, sho'rlanmagan, chirindi miqdori 1,5-4,0% gacha etadi. Qulay joylarda obikor va lalmi (bahorikor) dehqonchilik qilinadi.	Cho'l zonasidagi past tog'larida tuproq qatlami yaxshi rivojlanmagan. Odatda skletli, gipsli sur-qo'ng'ir tuproqlar keng tarqalgan. Bundan tashqari cho'l qumloq, taqir, sho'rxok tuproqlar tarqalgan. Ular kam chirindili – 0,2-0,5%.
6.	Past tog'lar o'simliklar turi va qoplamiga nisbatan boy, efemeroid butali o'tloqlardan iborat. Hosildorlik 10-50 st/ga atrofida.	Orolsimon past tog'larda o'simlik turi va hosildorligi nisbatan kam. Past tog'larda o'simliklarning 272 turi uchraydi [2, 210-b.]. Hosildorlik 0,5-3,0 st/ga atrofida.

Yuqorida qayd qilingan ma'lumotlar quyidagi xulosalarni bildirishni taqozo qiladi:

1) o'rta va baland tog'larga tutash past tog'lar (adirlar) chala cho'l zonasida joylashgan bo'lib, chuchuk suv bilan nisbatan qoniqarli darajada ta'minlangan va to'liq foydalaniladi. Suv tarmoqlari gidrologik nazorat ostiga olingan;

2) cho'l zonasida orolsimon past tog'lardagi soylar qish va bahor oylarida sersuv bo'ladi, suv toshqinlari kuzatiladi. Ular katta miqdorda moddiy va ma'naviy zarar etkazadi. Yirik soylarda gidrologik kuzatuv ishlarini yo'lga qo'yish, ularning suvlaridan samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гранитов И. И. Растительный покров Юго-Западных Кызылкумов. – Ташкент: «Наука», 1964. Т. 1. - 336 с.
2. Зокиров П.К. Геоботаническое районирование низкогорий Кызылкума с точки зрения хозяйственного использования. Очерки по географии растительного покрова Узбекской ССР. – Ташкент: “Фан”, 1969. - С. 210-230.
3. Леонтьев О.К., Рычагов Г.И. Общая геоморфология. – М.: «Высшая школа», 1979. – 286 с.
4. Саидов Д.К., Момотов И.Ф., Алимжанов А.Г. Инструкция по фитомелиорации пастбищ Юго-Западного Кызылкума. – Ташкент. 1972. – 30 с.
5. Ҳалимова Г.С. Қулжуктов тизмасида атмосфера ёғинларининг даврий, миқдорий ва ҳудудий тақсимланиши // “Чўл зонаси ландшафтлари ресурсларидан самарали фойдаланишнинг географик асослари” мавзусидаги республика илмий-назарий-амалий конференцияси. – Бухоро, 2010. – Б. 125-127.
6. Ҳасанов И.А., Фуломов И.Н., Қаюмов А.А. Ўзбекистон табиий географияси. 1,2-қисм. – Тошкент: “Университет”, 2010. – 99 б.
7. Янушко О.Ф. Основы геоморфологии. (Учебное пособие), Минск: “Высшэйшая школа”, 1986. - 302 с.

## ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИ СУВ ОБЪЕКТЛАРИ ЭКОЛОГИК МУВОЗАНАТИНИНГ БУЗИЛИШИ

Туреева К.Ж., Патуллаева З.У., Валиева О.Т.

Дунёнинг етакчи илмий марказларида сув хўжаликлари реабилитацияси ва сув хўжалигидан комплекс фойдаланган ҳолда одамларнинг иқтисодий фаолияти таъсири остида сув экотизимлари ҳолатининг ўзгаришини башорат қилиш усулларини ишлаб чиқиш бўйича кенг кўламли тадқиқотлар амалга оширилмоқда.

Сув экотизими иккита мустакил, лекин фаол ўз-аро муносабатдаги компонентлардан иборат тизим сифатида қаралади: экотизимнинг абиотик қисми, яъни сув, унда таркибидаги эриган (жумладан, газлар) ва аралашма моддалари билан, сув объектлари ёқалари ва туби грунטי ҳамда экотизимнинг биотик қисми, яъни барча гидробионтлар ва уларнинг комплекслари биоценозлар. Сув экотизимининг ривожланиши учун энг катта аҳамиятга эга сув экотизимларининг абиотик қисми характеристикалари қаторига қўйидагиларни киритиш мумкин: ҳарорат, минерализация (шўрлик), ёруғлик, газ режими, унда кимёвий моддаларнинг, шу жумладан, биоген, органик ва ифлослантурувчи) таркиб топиши; кислород ва углерод диоксиди концентрацияси; оқим тезлиги; сув объектининг турли қисмлари ўртасидаги сув алмашилишнинг интенсивлиги; сув қадди, музлик ҳодисалари, тупроқ характери ва ҳ.

Экотизимнинг биотик қисми сув қатлами ва сув туби чўкиндиларининг микро- ва макроорганизмлардан иборат бўлиб, улар планктон, бентос ва сув туби чўкиндиларига бўлинади.

Сув экотизимларининг битта типи бу кўл экотизимларидир. Кўллар қирғоқлик юзасида кенг тарқалган. РосКИИВХ маълумотлари бўйича, Россияда умумий майдони 3,5 минг км<sup>2</sup> ортиқ 2 млн кўллар мавжуд. Шундан 90% – бу майдони 0,01 дан 1 км<sup>2</sup> гача ҳамда теранлиги 1,5 мдан кам сойиз сув ҳавзаларидан ибора.

Кўллар экотизимларини ўрганиш XX аср бошларидан кўлга олинди. Г.Г. Винберг (1934, 1946, 1960, 1974, 1975), С.И. Кузнецов (1952, 1970, 1985, 1989), Л.Л. Россолимо (1967, 1971, 1975) илмий ишларида айрим йирик кўллар морфометрияси, гидрокимёси, гидробиологияси ва микробиологик жараёнлари бўйича илк тўлиқ маълумотлар берилган эди (Оқ, Кўк ва бошқа)

Тўпланаётган билимлар ҳажми кўлами, барқарорлик даражаси, географик жойлашиши, чуқурликнинг пайдо бўлиши, сув алмашилиши характери, сув баланси, термик режими, сув минерализацияси, сув организмларининг озикланиш шароитлари ва бошқ. бўйича кўлларни классификациялашга имконият яратди. Кўллар эволюциясида трофлик ва биологик ҳосилдорлик даражасининг ўзгариши билан характерланадиган бир нечта босқичларга (ёшлик, етуклик, қарилик, ноқулайлик) ажратилади.

Бундан ташқари, кўллар экотизимлари моддалар алмашинувининг аккумулятив сифати, сув йиғишдан ғаразли бўлиши, кучсиз сув алмашинуви, сезиларли даражадаги ҳарорат стратификацияси, ёз мавсумида кислород дихотомияси ва ҳ. билан характерланиши кўрсатилган.

Марказий Осиё цивилизациянинг қадим уюқлари саналади ва узоқ вақт антропоген таъсир остида бўлди, бу таъсир илмий-техник прогресс шароитларида тобора кучайиб борди. Натижада сув йиғиш жойлари худудида инсоннинг фаол иштирок этиши сув ҳавзалари статусининг ўзгариш жараёни кескин тезлашди. Хўжалик ихтиёжи учун интенсив ортиб бораётган сув ресурсларидан фойдаланиш дарё оқими, улар бассейни ва сув қабул қилиш жойлари худуди сув режимининг сезиларли ўзгаришларига олиб келади. Бу таъсир айниқса хўжалик учун оқими фойдаланилмайдиган дарёлари деярли қолмаган арид зоналарида каттадир.

Кўл секинлаштирилган сув алмашинувиға эға қирғоқлик табиий сув ҳавзаси. Одатда кўллар шамол тўлқинланиши таъсири остида ишлаб ҳосил бўлган сув ёқаси зонаси

профилига эга бўлади. Кўлларнинг океан билан бевосита алоқаси йўқ . Кўлнинг пайдо бўлиши учун иккита ўзгармас шароит зарурдир табиий чуқурликнинг мавжудлиги, яъни ер юзасининг қўйи пастлиги, ва ушбу чуқурликда жойлашган маълум ҳажмдаги сувнинг бўлиши.

Кўллар ташқи таъсирларга, жумладан табиий иқлим ўзгаришларига ўта сезувчандир. Сув алмашилиш характери бўйича кўллар иккита катта гуруҳга ажратилади: оқимли ва оқимсиз . Оқимсиз деб ташқаридан сув тушиб, уни табиий ёки сунъий сув оқимига ҳечнарсга бермасдан, фақат буғлантириш учун сарфлайдиган, инфильтрация ёки сунъий сув олиш учун сарфлайдиган кўллар саналади. Бошқача айтганда, бундай сув ҳавзаси юзасидан сув оқими мавжуд эмас. Барча кўлларда улкан ёки кам аниқлик билан асосий морфологик элементлар ажратилади: чуқурлик, яъни ер юзасининг келиб чиқиши ҳар ҳил бўлган табиий пасайиши, унинг чегарасида кўл жойлашган; сув билан банд қилинган кўл қўлтиғи .

Кўл чуқурлигининг муҳим элементи бу унинг ёқа томонлари бўлиб, ёқанинг емирувчи характерига кўра, қирғоқ ёқаси, кўл ёқаси бўйлари ва кўл ёқаси сайёзлигини ўз ичига қамраб олади. Кўл чуқурлигининг сўнгги иккита элементи кўпинча литораль деб номланади, унинг характерли белгиларига сувнинг сайёзлиги ва тўлқинланишнинг таъсири киради. Литораль чегараларидан ташқарида сув ости *откос* (яъни сублитораль) жойлашган. Кўлнинг суви теран қисми бу пелагиаль; кўлнинг туби профундаль деб номланади .

Кўллар ҳар ҳил генезисга эга чуқурликларни тўлдиради. Ушбу чуқурликларнинг шаклланиш жараёнлари аксарият ҳолларда маҳаллий шароитлардан ғаразли бўлганлиги боис, кўллар маълум ҳудудларда концентрацияланган .

Келиб чиқишига қараб кўл чуқурликлари тектоник, вулканик, метеоритлик, музлик, термокарстлик, суффазион, дарёлик, денгизлик, органиген бўлиши мумкин. Ушбу чуқурликларда жойлашган кўлларга ҳам ҳудди шундай номлар берилади .

Ҳозирда мавжуд кўлларнинг энг қадимий ва энг теранлари тектоник фаоллик таъсири остида пайдо бўлган, лекин кўлларнинг аксарияти музлик жараёнлари туфайли шаклланган.

Яқиндагина Амударё қуйиси «кўллар улқаси» деб номланар эди. Амударё кўп сонли ва ҳилма-ҳил сув ҳавзаларини пайдо қилар эди. Қамишзорлар 0,7 млн. га яқин майдонни эгаллар эди .

Сув минерализацияси аксарият кўлларда 400 дан 1400 мг/л гача бўлиб, Амударё гидрорежими билан белгиланар эди: баҳор ва ёзда, сув тошқинида, кўллар сувининг шўрлиги минимал, кузда ва қишда эса максимал. Сувнинг кимёвий таркиби ёзда гидрокарбонатлик, қишда ва кузда хлорид-сульфатлик типда .

Кўллар сув балансининг салмоқли аспектини сув алмашилиши темплари ташкил этади. Мазкур характеристика кўл ҳажмининг ундан оқиб чиққан сув оқимига нисбати орқали ифодаланадиган кўлдаги сувнинг тўлиқ алмашилиши вақти (йилларда) билан, ёки сув ҳавзаси сув алмашинуви коэффиценти деб номланадиган тесқари қиймат орқали аниқланади. Сувнинг тўлиқ алмашилишининг қисқароқ циклига эга сув ҳавзалари ифлослантирувчи моддалардан тезроқ тозаланади ва умуман олганда уларнинг пастроқ концентрациясига эга бўлади .

Сув яхши эритувчидир, ва шунинг учун кўл сувлар таркибида эриган моддалар кўп бўлади. Ушбу моддаларнинг аксарият массаси кўпчилик кўлларда чекланган бирикмалар сони, таъкидлаб айтганда, кальций, магний, натрий ва калий катионлари ҳамда бикарбонат, сульфат ва хлоридлардан иборат анионлар билан намоиш этилган. Бошқа моддалар, масалан ўсимликларнинг озикланиш элементлари (азот ва фосфор) ва металллар (темир ва марганец) деярли кичик сонда иштирок этади. Кўллар уларда буғланиш ёки атмосфера ёғингарчилиги таъсири остида қандай анионлар энг кўп миқдорда тўпланганлигига қараб хлоридли, сульфатли ёки карбонатли деб номланади.

Мутахасисларнинг маълумотларига кўра, сув ҳавзаларининг бир гуруҳи коллектор-дренаж сувларининг ортикчаси ҳар хил геоморф пастликларни тўлдира бошлаганда, стихияли пайда бўлган (Тоғыз-Торе кўли, Сайкўл). Иккинчи гуруҳ сув ҳавзаларига коллектор-дренаж сувлари ўтказилган собиқ кўлларнинг чуқурликлари киради (Қаратерен кўли, Дауткўл, Сарықамыс кўли). Кўлларнинг учинчи гуруҳи чучук сувли оқимга эга, лекин кейинги йилларда улар кучли ифлосланмоқда (Хожакўл, Мақпалкўл, Шегекўл). Амударё дельтаси баъзи сув ҳавзаларининг ҳозирги ҳолати лимнологик характеристикалари 1.1 жадвалда келтирилган. Коллектор-дренаж сувлари туширилиши натижасида Ақчадарё ва Амударё дельтаси текисликларида янги типдаги сув ҳавзалари пайдо бўлган, масалан: ирригацион-чиқинди (Аязқала, Ақчақўл, Қаратерен, судочье кўллар тизими). Мазкур ирригацион-чиқинди кўллар, мутахасисларнинг баҳолаши буйича, сувда эрувчан тузлар, захарлар ва агрохимикатлар аккумулятори ролини бажаради. Бир томондан, минтақада суғориладиган дехқончиликнинг кучли ривожланиши ва тупроқдаги ва чиқинди сувлар туфайли қаралаётган сув ҳавзаларидаги сув алмашилиши ҳамда умумий майдон сезиларли ва кучли тебранишларга дуч келган.

### Оролбўйи сув ҳавзаларининг кенгайиши ва майдонларининг ўзгариш динамикаси

Сув ҳавзалари	Барханскова ва бошк., 1963		Абдиров ва бош., 1970		Сагидуллаев, 1986		Атаназаров, 2017	
	Ум.май дони, га	Усимли билан қопланиши, %	Ум.май дони, га	Усимли билан қопланиши, %	Ум.май дони, га	Усимли билан қопланиши, %	Ум.май дони, га	Усимли билан қопланиши, %
Довуткўл	600	80	1170	90	650	20	3500	30
Қаратерен	640	15	650	12	-	-	2700*	-
Шегекўл	180	65	180	60	150	25	230	10

Изоҳ: — маълумот йўқ, \* - О. Нуритдинов маълумотлари

Мутахасисларнинг маълумотлари буйича, 1964-1965 йй. Довуткўл кўллар тизимида сув-ботқоқлик ўсимликларининг интенсив ўсиши (майдоннинг 90% гача) кузатилди, балиқларнинг локал нобуд бўлишини келтириб чиқарган ўсимлик қолдиқларининг катта массаси тўпланди.

80-йилларда, дренаж тизимларининг магистрал тармоқлари ҳамда суғориш каналлари тозаланиб ва кенгайтирилгандан кейин, сув ҳавзаларининг ўсимликларнинг ўсиш майдони анча қисқарди ва сўнгги вақтларда кўлнинг умумий майдони анча катталашди. Шегекўлда антропоген таъсир Амударё сувининг ёмонлашиши эвазига минерализациянинг кучайишида ифодаланди, унда коллектор-дренаж чиқиндиларининг улуши кескин ошди.

Илмий адабиёт материалларига кўра 1959 й. аксарият ҳолларда кўлдаги сув паст минераллашган ва 127% гача кислород билан тўйинган эди, муҳит реакцияси нейтрал ва паст ишқорли, рН 7,8 ортик эмас. 1963 йил маълумотлари буйича, кўлларда сувнинг рН 7,4-8,4 ташкил қилди, сув массасининг кислород билан тўйиниши 64-204 %, хлор буйича шўрлиги – 86-259 мг/л, яъни 5 йиллик давр ичида муҳит реакцияси нейтралдан паст ишқорга қараб ўзгарди. 1964-1968 йй. чучук сув ҳавзаларида кислороднинг таркиб топиши 22-160% эди, кислород билан тўйинганлик 42-153%, шўрланиш 3,9 -9,9 г/л. Ҳозирги вақтда муҳитнинг фаол реакцияси ва сувнинг умумий минерализацияси бир қанча ортди, кислороднинг таркиб топиши эса, аксинча, пасайди. Қаралаётган даврда Оролбўйи сув ҳавзалари катта ўзгаришларга дуч келди.



XX аср бошларидаёқ кўпчилик тадқиқотчилар кўллар қиёфасида ўзига хос ва тез юз бераётган ўзгаришларни кузатиб бошлади, бу ўзгаришлар антропоген эвтрофланиш деб номланди. Мазкур жараённинг асосий сабаби бу кўл тизимига ортикча озуқа моддаларнинг келиб тушишидир .

Сув ҳавзаларининг эвтрофикацияси муаммоси охириги пайтда ўта муҳим минтақавий экологик муаммоларнинг бирига айланди. Лимник экотизимларда тўпланган аккумуляцияланган сувнинг сифати, сув экотизимларининг сув ва биологик ресурсларини самарали ва фойдаланиш имкониятларини белгилайдиган энг муҳим кўрсаткичлар қаторига киради. Биринчи навбатда бу сувдан хўжалик-ичимлик ва маданий-маиший фойдаланишга таъллукли ҳисобланади.

Кўл суви кимёвий таркибига фотосинтез жараёнини амалга оширувчи ўсимликлар сезиларли таъсир кўрсатади. Чучук сувли сув ҳавзаларида озиклик элементларнинг аксарияти уларга бўлган эҳтиёждан ортиб тушадиган миқдорда мавжуд бўлади, лекин улардан иккитаси азот ва фосфор нисбатан камёбдир. Аини уша элементлар алоҳида ёки биргаликда фотосинтез жараёнини, ёки бирламчи ҳосилни лимитлайди. Бундан ташқари, баъзи кўк-яшил сувутлари атмосфера азотини аммонийга айлантириб ва фотосинтез жараёнида фойдаланиб, уни буғлай олади, фосфор эса бундай манбага эга эмас, шу боис ҳам охириги энг муҳим лимитловчи элемент бўлади. Натижада кўлларнинг кўпчилик муҳим характеристикалари, масалан, бирламчи ҳосилнинг умумий ўсими ёки сувутларининг мўл-кўлчилиги кўлларда фосфорнинг таркиб топишига бевосита боғлиқдир. Шунинг учун ҳам кўллар ушбу кўрсаткич буйича таснифланади. Кўллар олиготроф (таркибида озиклик моддалари кам бўлган), мезотроф (таркибида озиклик моддалари ўртача бўлган) ва эвтроф кўллар (таркибида озиклик моддалари юқори бўлган) деб ажратилади .

Кўл сувидаги биогаз моддалар сув организмларининг ҳаёт фаолияти учун зарурдир, лекин уларнинг ортикча бўлиши кўлларда сув сифатининг ёмонлашишига олиб келади.

Кўлларда сув алмашилишининг секинлашиши термик стратификацияга кўллар сувларининг турли ҳароратли катламларга ажралишига олиб келади. Бир кўлларда ҳарорат йил мавсумига қараб ўзгаради, бошқаларида йил бўйи доимий бўлиб қолади .

Сув объектлари ифлосланиши ва ўз-ўзини тозалашининг ташқи ва ички сув ҳавзалари омилларини ажратиш мақсадга мувофиқдир. Ташқи омилларга, биринчи навбатда сув объектларига чиқинди сувларининг тушиши ва унинг таркибидаги курилаётган ифлослантирувчи моддаларнинг сув муҳитига нисбатан концентрациясининг юқори булиши ҳолатини ўрганиш заърурлиги келиб чиқади. Шу қаторга атмосфера орқали ҳамда улар сувларида у ёки бу лимитловчи моддалар концентрацияси ортишига олиб келадиган сув ҳавзалари юзасидан буғланиши орқали сувнинг ифлосланиши ҳолатларини киритиш мумкин .

Ўз-ўзини тозалашнинг ташқи омиллари бу дарёга ёки кўлга ўша объектнинг сувига нисбатан камроқ ифлосланган сувнинг, ёки ирмоқнинг мутлақо тоза суви ва атмосфера ёғингарчилигининг келиб тушишидир. Сувнинг ўз-ўзини тозалаши ва ифлосланишининг сув ҳавзаси ички омиллари олиб қаралганда, ифлослантирувчи моддаларнинг кўчирилиши ва диффузияси, чуқиши ва бундан кейинги оғир моддаларнинг аралашмасини белгиловчи сув объектларининг гидрологик режимини, уларда шаклландиган оқимларнинг гидрологик хусусиятларини назарда тутиш керак. Ифлосланишнинг биологик жараёнлари, масалан сув ҳавзаларининг эвтрофланиши муҳим рол уйнаши мумкин. Шунингдек, моддалар эришидаги кимёвий жараёнларини, уларнинг тарқалиши, синтез ҳолатини ҳисобга олиш зарур .

Сув объектларида ифлосланган сувларнинг тарқалиши, ўз-ўзини тозалаши ва ифлослантирувчи моддалар эриши жараёнининг кўп қирлиги ҳозирги вақтгача антропоген таъсирга дуч келаётган дарёларда ва сув ҳавзаларида сув сифатининг шаклланиши муаммоси етарлича тўлиқ ечим топмаганининг сабаби саналади. Дарёлар, кўллар ва сув

омборларида ифлосланиш ва ўз-ўзини тозалаш динамикаси қаралганда, биринчи навбатда сув муҳиtida ифлослантирувчи моддалар концентрацияси камайишининг энг сезиларли омили сифатида суйилтириш жараёнига эътибор қаратилади. Суйилтиришнинг дарё оқимидаги охирги эффекти умумий олганда оқим учун тузилган модда балансини тенглаштириш асосида аниқланиши мумкин .

Дарёлар, кўллар ва сув омборларида ифлослантирувчи моддалар концентрациясини пасайтириш жараёнида нафақат суйилтириш, балки шунингдек биокимёвий ва физик-кимёвий жараёнлар энг муҳим рол ўйнайди. Сўнгги кўрсатилганлар ичида энг аҳамиятли органик ва ноорганик бирикмаларнинг окисланиш-қайта тикланиш эришлари, сорбция ва десорбция, қийин эрувчан ва комплекс бирикмалар, полимеризация ва конденсация реакциялари. Сув объектларининг ўз-ўзини тозалашида айрим омилларнинг роли у ёки бу ифлосланган сув объектининг муайян шарт-шароитларига тааллуқли: унга ташланаётган моддаларнинг кимёвий табиати, биомассаси, микроорганизмлари, кислород режими, турбулентлик даражаси, ҳарорат режими, гидрокимёвий фон ва баъзи бошқаларни ҳисобга олиш зарур.

Эвтрофикация жараёни Амударё сув ҳавзаларини ҳам четлаб утмади. Антропоген таъсир остида қолган Амударё қўйиси кўллари сезиларли трансформацияга учрамоқда. Бу ўз навбатида лимник экотизимларда сув режимининг сезиларли ўзгаришига олиб келмоқда, айниқса сув ҳавзалари ўз-ўзини тозалаш жараёнлари биологик механизмларига таъсир қилмоқда. Сўнгги йилларда сув ҳавзалари ва сув оқимларига азот ва фосфорни туширишнинг кескин ортиши туфайли, шунингдек аксарият текислик дарёлари оқимларининг тартибга солиниши натижасида сув ҳавзаларининг гидрокимёвий ва гидробиологик режимининг ўзига хос бузилиши юзага келди. Масалан, фитопланктоннинг интенсив ривожланишида органик модданинг ҳосил бўлиши ортди ва сув ҳавзаларининг трофлиги ошди. Амударё қўйиси қишлоқ хўжалигининг асосий экини бу шолдир. У юқори дозада ўғитлар (хлорли калий, фосфор, аммонийсульфати) киритишни ўз ичига оладиган янги технологияларни қўлланилган ҳолда етиштирилади. Мутахассисларнинг ҳисоб-китоби шуни кўрсатадики, ўғитларнинг учдан бир қисми ва, ҳаттоки, ярми сув ҳавзаларига тушади . Тез юзага келаётган кўллар қиёфаси бузилишининг асосий сабаби биогенларнинг, биринчи навбатда азот ва фосфорнинг ортаётган юкидир.

Амударё қўйиси ҳозирги лимник экотизимларининг шаклланишида коллектор-дренаж сувлари асосий рол ўйнайди. Мутахассисларнинг берган баҳосига кўра, коллектор-дренаж сувларининг ҳажми сўнгги вақтларда 1 км<sup>2</sup>дан ошади. Дельтанинг аксарият сув ҳавзалари учун улар кўпинча ягона озуқа манбаидир. Коллектор-дренаж сувлари биогенэлементлар билан ниҳоятда бой: катта миқдорда аммиак азоти, унинг нитрат формалари, шунингдек фосфор бирикмалари мавжуддир . Сув ҳавзаларининг тубида биоген моддаларнинг тўпланиши ҳамда сув туби чўкиндиларидан сув массасига келиб тушиши сув экотизимлари ҳосилдорлигига ҳамда сув сифатига таъсир қилувчи асосий омилларнинг бири бўлиши мумкин. Узоқ вақт биоген моддаларнинг (биринчи навбатда, фосфорнинг) сезиларли юки остида қолган сув ҳавзаларида юк пасайганидан сўнг сув туби чўкиндилари ушбу моддаларнинг сувга тушишининг асосий манбаси бўлади.

Маълумки, Амударё қўйисида юқори ҳосилдорли лимник экотизимларнинг шаклланиши минг йиллар давомида асосан Амударё чучук сув оқими ҳисобига амалга ошиб ўтирди. Орол денгизи бассейнидаги интенсив фаолият Амударё дельтасидаги барча гидрологик тармоқнинг сезиларли қайта қурилишига олиб келди. Аридизация ва чўлга айланиш жараёнлари минтақа сув экотизимларининг трансформацияси жараёнларини тезлаштирди ва барча лимник тизимларнинг қайта қурилишига оилб келди ҳамда, охир-оқибатда, сув ҳавзаларининг био- ва гидрокимёвий режимининг ўзига хос бузилиши юзага келди. Масалан, фитопланктоннинг интенсив ривожланишида органик модданинг пайдо

бўлиши ортди ва, шундай қилиб, сув хавзаларининг трофлиги ортди. Кўлларнинг озикланиш характери ҳам ўзгарди, Амударёнинг чучук (0,6-1,2 г/л) суви ўрнига биогенлар, пестицидлар қолдиғи билан бойиган минераллашган (1,8-8,0 г/л) сувлар туша бошлади.

Сув хавзаларининг эвтрофланишида ва ифлосланишида биоценозлар турлари таркибининг, улар структураси ва хизматида ўзгаришлар юзага келди. Охирги вақтларда эвтроф турларга таркибида мўл-хўл биоген моддалар мавжуд, одатда теран бўлмаган, уларнинг лой қатламлари чўкмалари органик моддага ҳамда сув туби фаунага бой кўлларни киритиш керак.

Хуллас, антропоген омилнинг таъсири натижасида аввалгига нисбатан бошқа параметрлар ва сув хавзаси ички жараёнлари билан характерланувчи янги сув экотизимларининг пайдо бўлишига олиб келган тубдан ўзгаришлар юзага келди.

Аридизация жараёнлари ҳамда чучук сув танқислиги минтақанинг табиий экотизимлари деградациясига олиб келди, бу чўлга айланиш жараёнларининг ривожланишида намоён бўлди. Оролбўйи табиий ўсимликлари вегетацияси ёмонлашди, кўп ярусли ҳосилдор ўсимликлар ҳамжамиятининг майдонлари қисқаряпти, сийрак кам баҳоли утлар ривожланмоқда, натижада яйловларнинг табиий салоҳияти пасаймоқда, бунда 5,5 млн т қимматли озуқа йўқотилган. Жанубий Оролбуйида табиий муҳитнинг асосий бузилиши хўжалик фаолияти, ишлаб чиқарувчи кучнинг экстенсив ривожланиши билан боғлиқдир. Чўллар ва дарё водийси экотизимига таъсир қилувчи барча антропоген омиллар ичида ландшафтларда энг теран ва сезиларли ўзгариш суғориш ҳамда ерларни ўзлаштиришда амалга ошади. Суғориш тупроқнинг барча компонентларига кучли таъсир қилади. Суғоришнинг ривожланиши билан сўнгги 30-40 йилда 4,5 млн га яқин табиий экотизимлар йўқотилган.

Кўп асрлик қишлоқ хўжалиги учун узлаштириш туфайли бу ерда антропоген ландшафт шаклланди, фаолияти инсон томонидан белгиланадиган ва бошқариладиган сунъий экотизимлар (агроценозлар) барпо этилди. Табиий комплекслар бутунлай вайрон бўлган, сукцессион жараёнлар ва табиий теварак-атроф билан экологик алоқалар бузилган. Дельтада чўлга айланиш жараёнлари тезлик билан кечаяпти ва уларнинг оқибатлари йил сайин сезиларли булаяпти. Ҳозирги вақтда Амударё дельтаси нормал дельта экотизими сифатида энди хизмат қилмаяпти .

1950-1960 йй. Амударё дельтасида умумий майдони 840 км<sup>2</sup> бўлган 490 кўллар мавжуд эди, 1980 й. майдони 76,3 км<sup>2</sup> бўлган 30 кўллар қолди. Ҳозирги вақтда 9 та йирик кўл қолди, уларнинг теранлиги 2-5 м, умумий майдони 26500 га ташкил этади.

Қорақалпоғистон Республикаси гидролойиха муассасаларининг маълумотларига кўра, 1992-1993 йй. Амударё дельтаси намланган худудининг умумий майдони тахминан 1250-1300 минг. га ташкил этди. Маълумки, суғориш тупроқнинг барча компонентларига кучли таъсир қилади. Суғориш каналларининг аксарияти уларнинг туби ва ён тарафларининг ҳимоя қопламасисиз қурилган ва қурилмоқта, бунда улар филтрлашга 40-50% сув йўқотади. Амударё ва Сирдарё оқимининг Орол денгизига тушишининг тўхташи ҳамда ундаги сув садҳининг йил сайин пасайиб бориши Оролбўйи тупроғи тупроғидаги сув садҳининг пасайишига ва минерализациясининг ошиб боришига олиб келади.

Мелиоратив кадастр бўйича, Қорақалпоғистоннинг деярли 96% ери шўрланган. Мутахассисларнинг ҳисоб-китобига кўра, 78 минг га (15%) кучли шўрланган, 201,1 минг га (41%) ўртача шўрланган, 194,7 минг га (40%) – паст шўрланган. Шунингдек аниқланганки, атмосфера ёғингарчилиги минерализацияси сўнгги ўн йилликларда 6-7 баробар ошди.

Мутахассислар тадқиқотларининг кўрсатишича, тўқай ўсимликларига антропоген таъсирнинг таҳлили ва баҳоси катта худудлардаги табиий комплексларининг кучли ва қайта тиклаб бўлмас ўзгаришларига олиб келади.

XX асрнинг 30-йиллар бошларида ёғоч тўқайларининг умумий майдони 300 минг га дан ортиқ майдонни ташкил этган. Ҳозирги вақтда у деярли 90% га қисқарди ва 30 минг га ни ташкил этади. Тўқайлар майдонининг энг интенсив қисқариши 50-йиллар ўртасидан бошланди. Йирик тўқай массиви: Назархан, Шортанбай, Саманбай, Шаббас, Нурумтубек, Еркиннинг майдони анча қисқарди. Қуянчик, Аққамиш, Қулатау, Жумалақ, Қатеп сингари йирик тўқай массивлари йўқолиб кетди.

Мутахассисларнинг баҳосига кўра, кенг қамишзорлик тўқайликлари Амударё дельтасида 600 минг га дан ортиқ майдонни эгаллар эди. 1980-йиллар ўртасига уларнинг майдони 6 баробар қисқарди, ўтлоқ ерлар ва яйловлар майдони ҳам сезиларли қисқарди, уларнинг унумдорлиги пасайди. Масалан, 1960 йиллардаги 420 минг га ўтлоқ ерлардан 1980-йиллар охирига келиб фақат 70-75 минг га сақланиб қолди. Олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, Амударё кўйиси ва дельтаси туқайларидаги динамик ўзгаришлар чўлга айланишнинг сукцессионал стадияларига олиб келадиган худуднинг гидрологик режимининг минтақавий ўзгариши билан белгиланади.

Суғориш учун сувни олишнинг ортиши билан ҳамда дарё оқимининг кескин қисқариши натижасида Амударёнинг ўз-уздини тозалаш қобилияти жуда пасайиб кетди. Бундан ташқари, Ўзбекистон ва Туркменистон худудидан 3 млрд. м<sup>3</sup> дан ортиқ захарли химикатлар билан тўйинтирилган коллектор-дренаж ва тозаланмаган саноат-маиший сувлари Амударёга туширилади, улар ичимлик сувини пестицидларнинг қолдиқ миқдори ва оғир металллар билан тўйинтириб, уни фойдаланиш учун ярамайдиган ҳолга келтиради.

Коллектор-дренаж сувлари билан Амударёга қишлоқ хужалигида фойдаланиладиган, турли захарли химикатлар келиб тушади. Ифлослантирувчи моддалар таркиб топиши нормативининг ортиши феноллар, мис, хром 4 баробар, нефть маҳсулотлари 5 баробар, пестицидлар (гексахлоран, линдан) 10 баробарни ташкил қилган. Амударё дельтасидаги 40 қўллар ва коллекторларни текширишнинг натижалари шунингдек юқори минерализация, фенолларнинг (10-15 РЭМ), нефть маҳсулотларининг (3-5 РЭМ), пестицидларнинг (3 РЭМ гача), мис, хромнинг (6 РЭМ гача) юқори таркиб топишидан гувоҳлик беради. Дарё сувларининг бактериал ифлосланиши санитария талабларидан 10 баробар ошқидир. 1994 йили кимёвий кўрсаткичлар буйича санитария талабларига жавоб бермайдиган пробаларнинг улуш миқдори 68,9%, бактериологик кўрсаткичлар буйича эса 13,4% ташкил қилди.

Қишлоқ хўжалиги саноати жараёнида табиий муҳитга антропоген таъсирини тадқиқ қилиш нафақат иқтисодиёт нуқтаи назаридан, балки экологик характердаги юз бериши мумкин булган оқибатларни назарда тутган ҳолда ҳам қаралиши зарур, шунингдек табиатдан фойдаланишни оптимизациялашга, энг аввало сув ресурсларидан эҳтиёткорлик билан фойдаланишга қаратилган тадбирларни ишлаб чиқиш зарур.

Шундай қилиб, Оролбўйи табиий шароитларнинг прогрессив ёмонлашиши тахмин қилиб бўлмас экологик оқибатларга олиб келиши мумкин. Табиий муҳитнинг деградацияси биосферанинг фаолиятига антропоген аралашининг салбий таърибасидир: бунда кўп асрлик барқарор экотизимларнинг бузилиши, юқори ҳосилдорли ноёб табиий комплекслар йўқотилмоқда, тирик табиатнинг бебаҳо бойлиги эндемик флора ва фауна генофонди исиз йўқолган. Салбий гидроэкологик муаммоларнинг олдини олиш, энг аввало самарали ва маданий сувдан фойдаланиш ва сувни ишлатиш билан боғлиқ.

Тўпланишни оқим тизимининг буғини сифатида ҳамда ландшафт элементлари сифатида қўлларнинг ўзига хослигининг асосий белгиси сифатида қараш мумкин. Географик муҳитнинг хоҳлаган шарт-шароитларида қўллар жамловчи тизим бўлади. Сув алмашинувининг секинлашиши оқибат сифатида қўллардаги тўпланиш ходисаси ўзаро тифиз боғлиқ бўлган қўлларга хос қатор ходиса ва жараёнларга эга бўлади.

Қўллардаги тўпланишга қўлларнинг асосий хосияти сифатида қарашни назарий жиҳатдан асослаш уларнинг табиий ресурс сифатидаги моҳиятини тўлиқ тарзда очиб

беради. Бу кўллардаги тўпланиш билан бевосита боғлиқ бўлган сув ҳавзаларидан хўжалик мақсадларда фойдаланиш формаларида ўз тасдиғини топади, яъни кўллар томонидан тўпланган хўжаликда фойдали маҳсулотлар ҳисобланади (туз кўлларининг турли тузлари, кўпгина турдаги кўл туби чўкмалари сапропеллар, диатомитлар, кўл рудаси, табиий лойлар).

Шундай қилиб, табиий объектларни тиклаш экология ва атроф -муҳитни муҳофаза қилишнинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади, лекин шуни эътироф этиш керакки, ҳозирда кўллар экотизимларини тиклаш концепцияси ва методологияси ҳали ҳам ривожланмоқда. Қайта тиклаш масалалари асосан МДХ мамлакатлари ва хорижий мамлакатларда кўриб чиқилган, Жанубий Оролбўйи минтақасида бундай тадқиқотлар кам бўлган, фақат қисмли тадқиқотлар бор. Шу сабабли, экотизимларни, шу жумладан ички кўлларни тиклашнинг назарий асосларини ишлаб чиқиш, шубҳасиз, экологиянинг долзарб вазибаларидан биридир ва кичик кўлларни тиклаш хусусиятлари ва қонуниятларини аниқлаш экологияда янги йўналишнинг шаклланиши ва экотизим назариясини ривожланишига ёрдам беради .

Тизимли экология концепцияси, сув омборини бир бутун сифатида, барча элементлар бир -бири билан чамбарчас боғлиқ бўлган уюшган тизим сифатида кўриб, типологик йўналишни ривожлантиришда, кўлларнинг биологик таснифини такомиллаштиришда муҳим қадам қўйишга имкон берди.

Сув экотизимларининг деградациясига олиб келадиган сув муҳити омиллари сув объектларига келиб тушадиган биоген элементларнинг интенсивлиги ва миқдорига қараб шаклланади ва уларнинг кулларда аккумуляцияланишига олиб келадиган узига хос биологик режим ва ишлаб чиқариш ва йўқ қилиш жараёнлари даражасидаги маълум бир шароитни яратади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Мирзиёев Ш.М. 2017-2021 Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: Адолат, - 2017. – 193 б.
2. Алексеенко В.А., Алексеенко Л.П. Биосфера и жизнедеятельность: Учебное пособие. – М.: Логос, 2002. – 212 с.
3. Быков Б.А. Экологический словарь. – Алма-Ата: Наука, 1983. – 216 с.
4. Иберла К. Факторный анализ. - М. Статистика.- 1980. - 398 с.
5. Дрейпер Н., Смит Г. Прикладной регрессионный анализ. М. Статистика, 1973.- 392 с.
6. Дубров А. М. Обработка статистических данных методом главных компонент. М.- Статистика.- 1978.- 135 с.
7. Лакин Г.Ф. Биометрия. – М. Высшая школа, 1990. – 352 с.
8. Никаноров А.М. Справочник по гидрохимии. – Л. Гидрометеиздат, 1989. – 390 с.
9. Строганов Н.С., Бузинова Н.С. Практическое руководство по гидрохимии. - М. Изд. Моск. ун - та, 1980. - 196 с.
10. Унифицированные методы анализа вод //Под ред Лурье Ю.Ю.- М.- Химия.- 1971.- 375 с.
11. Ўзбекистон Республикаси атроф-муҳит ҳолати ва табиий ресурслардан фойдаланиш тўғрисидаги миллий маруза. Тошкент, 2008. – Б. 26-31.
12. Ўзбекистон Республикасида атроф табиий муҳит муҳофазаси ва табиий ресурслардан фойдаланишнинг ҳолати тўғрисида миллий маъруза. Тошкент, 2006. 31- 40 б.

## **ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА ОЛИБ БОРИЛГАН ИҚЛИМИЙ ВА ГИДРОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ДИНАМИКАСИ (XX-АСР)**

**Ҳамидов Абдусамад Абдумаликович.**

**г.ф.н., доцент**

**Фарғона давлат университети, Фарғона шаҳри, Ўзбекистон Республикаси**

Россия Ер тузиш ва деҳқончилик бошқармаси қошида «Ерлар ҳолатини яхшилаш бўлими» таркибида 1910 йилда Тошкентда Гидрометрик бўлинма ташкил этилди. Бўлинма ерларни суғориш манбаи бўлган дарёларнинг тўйиниши, оқим режими, иқлимий шароитларни ўрганиш ҳамда гляциологик тадқиқотларга жуда катта эътибор берди.

Аср бошида иқлимий ва гидрологик тадқиқотларнинг шаклланиши ва ривожланиши натижасида В.В.Цинзерлинг раҳбарлигидаги Вилоят Ер тузиш бошқармаси тадқиқот гуруҳи Фарғона водийси ҳудудида янги ўзлаштирилиши мумкин бўлган зоналарни карталаштирдилар (О.П.Шчеглова, 1951). 1917 йилга келиб, Фарғона водийсидаги дарёларда гидрологик постлар ва метеорологик станциялар сони бирмунча кўпайди (1990 йилларга келиб Фарғона водийсининг ўзида 32 та метеорологик станция об-ҳавони кузатиш ишлари билан шуғулланди. В.Г.Глушков ва Э.М.Олдекоп раҳбарлигидаги гидрологик ва метеорологик тадқиқотлар натижасида дарёларнинг тўйиниш манбалари ва сув режими ўрганилди. Дарёларнинг сув сарфи билан метеорологик ва иқлимий омиллар ўртасидаги алоқадорликни аниқлаш борасида дастлабки натижаларга эришилди. Бу тадқиқотлар натижасида дарёларнинг вегетация даврдаги серсувлигини башорат қилишга доир ғоялар шакллана бошлади [1].

Бу даврда Л.А.Молчанов, Р.Р.Циммерманнинг ўлка иқлимига оид Л.Н.Бабушкин ва Ю.А.Скворцовнинг табиий географик, биоиклимий ҳамда агроиклимий районлаштириш ғоялари шаклланди. Н.А.Караулов, Н.Л.Корженевский, М.М.Крилов, В.Л.Шульц, О.П.Шчеглова ва бошқаларнинг ўлка гидрологиясига бағишланган ғоялари шаклланди. В.А.Бугаев, В.А.Жоржио, К.А.Каретникова, Н.Н.Пальгов, Б.Д.Зайков ва бошқаларнинг иқлимий, гидрологик, гляциологик тадқиқотларида Фарғона водийсига оид ўша даврларда шаклланаётган концепция тасаввурлар олға сурилди, иқлим ва сувга оид қонуниятларни илмий исботлашга ҳаракат қилинди.

Бу тадқиқотларнинг натижалари водий ҳудудига бағишланган умумлашма асарларда тўлиғича баён қилинди.

Л.А.Молчанов ва Р.Р.Циммерман 1926 йили Ўрта Осиёни иқлимий районлаштириш бўйича илгари сурган қарашлари «Ўрта Осиёнинг иқлимий районлаштирилиши» (1926) асарида баён қилинган. Улар Фарғона водийсида «чўл», «дашт», «тоғолди» минтақалари иқлимини жанубий ва шимолий гидротермик режими асосида тафовутини кўрсатадилар, ҳар иккала тадқиқотчи ҳам худди мана шу регионда иккита мўътадил ва субтропик иқлим минтақалари таъсирини тўқнашишига эътибор бермадилар. Улар Ўрта Осиё иқлими тафовутларини Қоратов ва Фарғона тизмалари йўналиши бўйича аниқлаб, бир вақтнинг ўзида муҳим географик чегара бўлишини исбот қилиб бера олмадилар. Бу ғоя Е.П.Коровин ва А.Н.Розановларнинг классик тадқиқотлари «Ўрта Осиёнинг тупроқлари ва ўсимликлари табиий ишлаб чиқариш кучлари сифатида» (1938) номи асарида ўзининг ривожини ҳамда янги асосланишини топди [2].

Л.А.Молчановнинг тадқиқот натижаларини Фарғона водийси иқлими ҳақидаги бирламчи қарашларнинг умумлашмасида кўришимиз мумкин. Ҳали иқлимий районлаштириш ғояларини ниҳоясига етказмаган олим ўзининг 1925, 1934, 1935-йиллардаги тадқиқотлари асосида Фарғона водийсига алоҳида мустақил ҳудуд сифатида қарайди. Водийнинг марказий қисмлари энг қурғоқчил бўлиб, чўл иқлимига хос. Наманган районидаги тоғ тизмаларида жанубий экспозицияларнинг мавжудлиги бу ҳудуднинг иссиқ даврнинг энг узок давом этадиган ва энг кўп намликка эга бўлган қисмларига асосан тоғолди районлари ҳамда водийнинг шимоли-шарқий ва шарқий



қисмларини киритади. Фарғона водийсининг Ўзбекистон қисмига паст ва қуруқ районлар тўғри келади, намлик кўп бўлган районлар Қирғизистонга тегишлидир. Водийнинг шимолий тоғолди районларида атмосфера ёғинлари нисбатан кўпроқ тушади, жанубий тоғолди районлари эса қуруқлиги билан ажралиб туради, лекин тоғларнинг ички қисмлари бундан ҳар ҳолда мустасно. Баъзан 1000-1500 м баландликларда ҳам 250-280 мм атрофида ёғин тушади. Ҳавонинг қуруқлиги туфайли баҳорикор деҳқончилик зонаси анча баландга кўтарилади. Водийнинг ғарбий қисми водийдан чиқиш жойи бўлганлиги учун кучли шамоллар билан характерлидир (Молчанов, 1935).

Фарғона водийсининг табиати, хусусан иқлими, сувларини тадқиқ қилишда Ўзбекистон Фанлар Академияси, Ўрта Осиё Давлат Университети, маҳаллий илмий ташкилотлардан Ўрта Осиё метеорология институти, Ўрта Осиё сув хўжалиги бошқармасининг хизматлари катта бўлди. Чунончи, Ўрта Осиё метеорология институти 1924 йилдан бошлаб ҳар йили гидрометеорологик экспедицион ва стационар тадқиқотларни ўтказишни бошлади. Бу экспедицияларга Л.К.Давидов илмий раҳбарлик қилди. Изланишлар натижасида Л.К.Давидов дарёларда сув микдорининг ўзгариб туриши қонуниятини асослади. В.Л.Шульц (1935) эса ўлканинг гидрологик районлаштириш схемасини яратди.

Фарғона водийсида олиб борилган кўплаб иқлимий ва гидрологик тадқиқотларнинг илмий натижалари сифатида унинг дарёлари, қўллари, ер ости сувлари ва иқлимга бағишланган Л.К.Давидов ва Н.Л.Корженевскийнинг «Норин дарёси режимига метеорологик омилларнинг таъсири» (1929) ва Н.Л.Корженевскийнинг «Исфайрамсой» (1936) асарларини киритиш мумкин. Бу илмий асарлар бошқаларидан фактик материалларининг кўплиги, чуқур таҳлил қилинганлиги ва иқлимий ғоя, хулосаларининг қанчалик теранлиги билан ажралиб туради[3].

Фарғона водийси иқлимга бағишланган ишлардан энг йириги бу Тошкент гидрометеорология хизмати бошқармаси ходимларининг К.А.Каретникова раҳбарлигидаги об-ҳавони узоқ муддатларга башорат қилиш бўйича амалга оширган ишларини айтиб ўтиш мумкин. К.А.Каретникова раҳбарлигидаги тадқиқотларнинг илмий натижаларини В.М.Четиркин «Ўрта Осиё» (1960) монографиясида чуқур таҳлил қилган ва юқори баҳо берган.

1950 йилларга келиб водий иқлимининг барча элементлари бўйича анчагина илмий маълумотлар тўпланди. Л.А.Манегина «Фарғона водийси» (1954, I-том) асарида унинг иқлимини таҳлил қилган, бироқ шунча катта бой материал мантиқий тартибда ёритиб берилмаган.

Л.Н.Бабушкин Ўрта Осиё қишлоқ хўжалигига катта зарар етказувчи қурғоқчилик ва гармселни ўрганиш юзасидан муҳим илмий тадқиқотларни олиб борди, агроиқлимий таҳлил методларини такомиллаштирди. 1960 йилда нашрдан чиққан «Ўрта Осиёнинг агроиқлимий тавсифи» ва «Ўрта Осиёни агроиқлимий районлаштириш» номли монографияларида ҳамда 1953 йили нашр этилган Ўзбекистон иқлимга оид асарида Фарғона водийси иқлимга тўхталиб, унда 5 та гуруҳ (Қорамозор, Чотқол, Туркистон, Фарғона, Марказий Фарғона) районларидан иборат бўлган битта Фарғона агроиқлимий округини ажратди. Муаллиф ушбу районларни асосий агроиқлимий кўрсаткичларини ҳисоблаб чиққан, улар амалий мақсадлар учун катта қизиқиш ўйотади.

Л.Н.Бабушкиннинг энг асосий хизматлари шунда бўлдики, Ўрта Осиёни қишлоқ хўжалик мақсадларида агроиқлимий районларга ажратиб, суғорма ва баҳорикор деҳқончилик ҳудудларини тавсифлаб беришидадир. Шундай қилиб у Ўрта Осиёда 13 та агроиқлимий округни ажратади, шундан 5-округ Фарғона округи бўлиб, унинг ҳудудига атрофидан ўраб турган тоғ тизмаларини сувайриғичигача бўлган қисми тўлиқ киритилган[4].

Фарғона водийсининг ўзига хос табиий географик шароитида сув муаммоси энг долзарб илмий ва амалийлиги билан тавсифланади. Шу сабабли бу муаммо географ ва

гидрологларнинг ҳамиша диққат марказида бўлган. 50-йиллардан сўнг Ўрта Осиёда жуда катта миқёсда бошланган гидротехник ва мелиорация ишлари кўпинча республикалараро аҳамиятга эга бўлиб, гидрологик жараёнларни ҳар томонлама чуқур таҳлил қилишни тақозо этди.

Ўтган асрнинг 30-йилларидан сўнг Фарғона водийсида ерларни суғориш мақсадида кўплаб гидротехник иншоотлар қурила бошланди. В.Л.Шульцнинг 1958 йилда нашрдан чиққан “Ўрта Осиё гидрографияси” номли китобида дарёларнинг гидрологик тавсифидан ташқари водий тоғларнинг музликлари, кўллари ва ер ости сувлари ҳақида ҳам муҳим географик маълумотлар мужассамлашган[5].

Гляциология соҳасида Г.А.Авсюк, Н.Н.Пальгов, Р.Д.Забилов, В.Л.Шульц ва О.П.Шчеглованинг оригинал изланишлари, айниқса, эътиборга лойиқдир. Жанубий Фарғона тоғларидаги қадимги муз босиш ўчоқларини 1965-1970 йиллар орасида М.М.Маматқулов томонидан чуқур тадқиқ қилинди ва бу ҳудудни асосий муз босиш сабаблари интенсив тектоник қўтарилишлар ва у билан боғлиқ бўлган иқлимнинг ўзгаришлари эканлиги тўғрисидаги концепция илгари сурилди (Маматқулов, 1970).

Водий ер ости сувлари ҳақидаги муҳим маълумотларни тўпланишида ва илмий қарашларнинг ривожланишида А.Н.Султонхўжаев, Б.А.Бедер, Д.М.Кац ва А.А.Худойбердиевнинг илмий монографиялари, мақолалари муҳим аҳамиятга эга бўлди. Бу ўринда айниқса А.Н.Султонхўжаевнинг Фарғона водийси ер ости сувларига бағишланган ишлари муҳим ўрин тутди. У ўзининг “Фарғона артезиан ҳавзаси” (1972) монографиясида водийнинг ер ости сувлари тўғрисида атрофлича маълумот берган. Н.Л.Корженевский Исфайрамсойни атрофлича ўрганиб чиқади ва ўзининг бу дарё тўғрисидаги хулосаларини “Помир-Олой тоғ тизмаларининг геоморфологияси ва музликлари” (1960) асарида баён қилади.

Айниқса, И.А.Ильиннинг “Фарғона водийсининг сув ресурслари” (1959) асарида 50-йилларнинг охиригача бўлган гидрологик тадқиқот натижалари ва гидрометеорологик кузатишлар тўлиғи билан мужассамлашди.

Ўтган аср охирига келиб эса иқлимий ва гидрологик тадқиқотларнинг тавсифи бир мунча ўзгарди, бунинг сабаблари биринчи навбатда водий ҳудудининг атмосфера ҳавоси ҳамда сувларининг экологик ҳолатини ўзгариши билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишга қаратилди.

Фарғона водийсининг гидрологияси, сув ҳўжалиги, ерларни ўзлаштириш ва мелиорацияни ривожлантиришда 1975 йилда нашр этилган «Ўзбекистон ирригацияси» (2-жилд) китоби амалий аҳамиятга эга бўлди. Олимлар ва мутахассислар иштирокида тайёрланган ушбу китоб водий сув ҳўжалиги ва мелиорациясининг амалий мақсадлар учун йўналишини ўрганишга хизмат қилади.

Фарғона водийси агроиқлимий ресурсларини ўрганишга бағишланган илмий ва амалий маълумотномали китоб (1977) Ўрта Осиё гидрометеорология регионал илмий-тадқиқот институти мутахассислари томонидан чоп этилди. Бунда таниқли олим Ф.А.Мўминовнинг хизматлари катта бўлди[6].

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ҳамидов. А.А. ва бошқ. Фарғона водийсининг экологик вазиятларини яхшилашда табиий географик ва геоэкологик ғоялар, қарашлардан фойдаланиш масалалари. Сб.науч.тр. КУУ.-Ош, 2003.-С.219-223.
2. Молчанов Л.А., Циммерман Р.Р. Климатические. районирование Средней Азии. //Бюллет. ком. по райониров. -№3. -Ташкент: 1926. С.6-80.
- 3.Давыдов Л.К., Корженевский Н.Л. Влияние метеорологических факторов на режим р. Нарын. - Ташкент: 1929. -С.67-73.
- 4.Бабушкин Л.Н. Физико-географический районы. //В кн. «Ферганская долина». - Ташкент: Изд-во АН. УзССР, 1954. -С.280-304.
- 5.Шульц В.Л. Гидрография Средней Азии. // Крат. очерк. -Ташкент: -1958. -С.60-74.

6.Хамидов А.А.”Фарғона водийсида олиб борилган табиий географик тадқиқотларни геоэкологик аҳамияти” геогр.фанл. номз. Илм дараж. олиш учун ёзилган диссерт. Тошкент 2006. 167 бет.

## **ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА 1946-1965 –ЙИЛЛАРДА ОЛИБ БОРИЛГАН ГИДРОЛОГИК ВА ИҚЛИМИЙ ИЗЛАНИШЛАР**

**Хамидов Абдусамад Абдумаликович.**

**г.ф.н., доцент**

**Фарғона давлат университети, Фарғона шаҳри, Ўзбекистон Республикаси**

Фарғона водийсининг иқлими континентал иқлим. Водий иқлимнинг шаклланишида ғарбий шамолларнинг таъсири катта. Ғарбий шамоллар баҳор фаслида тез-тез эсиб, баъзан нам ҳаво келтирса, баъзан қуруқ ҳаво келтиради. Ёзда (июлда) ўртача ҳарорат Фарғона, Андижонда 27 градус, Наманганда 26,3 градус, Қўқонда 26,8 градус, максимал ҳарорат айна шу жойларда 40-42 градус. Январнинг ўртача ҳарорати Фарғонада -3 градус, Наманганда -2,3 градус, максимум ҳарорат -23-26 градус. Вегетация даври 210 кун атрофида. Ёғин миқдори ғарбида 80-100 мм, шарқда 150-200 мм, жануби-ғарбида 74 мм, шарқи ва шимолида 200-300 мм. Ёғинларнинг кўп қисми баҳор ойларида ёғади, ёзда эса баъзан деярли ёғмайди[1].

Фарғона водийсида оқар сувлар кўп.Тоғлардан дарё ва сойлар оқиб тушади (Норин, Қорадарё, Сўх, Исфара, Шоҳимардонсой, Оқбура, Ғовасой, Чодаксой). Дарёлар асосан, қор, ёмғир сувларидан тўйинади. Фарғона водийси ер ости сувларига ҳам бой. Сойлик атрофидаги тош-шағалли ёйилмаларда ер ости сувининг сатҳи октябрь-ноябрь ойларида кўтарилади, май-июнда пасаяди; сув юзасининг йиллик тебраниши 1-3 м. Текислик қисмида ер ости суви 2 м чуқурликда, баъзан ер юзасига чиқиб қолади. Грунт сувидан ташқари 400 м чуқурликда учта сув қатлами жойлашган. Бу қатламлардаги сувлар артезиан кудуклари орқали олинади. Фарғона водийсида Катта Фарғона канали, Жанубий Фарғона, Катта Андижон каналлари, Сирдарёга Қайроққум сув омбори қурилган[2].

1946-1965 йиллар оралиғи ҳам Ўрта Осиёда жумладан, Фарғона водийси ва унга тутуш ҳудудларда иқлимий ҳамда гидрологик тадқиқотлар давом эттирилди.

1950 йилларнинг бошларида Фарғона водийси ва унга тутуш ҳудудларнинг иқлимини барча элментлари бўйича жуда катта илмий ахборотлар тўпланди. Л.А.Манегина томонидан “Фарғона водийси” (1-қисм) асарининг 5-бобида Фарғона водийси ва унга тутуш ҳудудларнинг иқлими чуқур таҳлил қилинган. Бу асарда Фарғона водийси ва унга тутуш ҳудудларнинг қуёш радиацияси, атмосфера циркуляциясининг хусусиятлари, шамоллар тавсифи (уларнинг режими, ўртача йиллик тезлиги), ҳарорат режими, ҳавонинг намлиги, ёғинлар ва уларнинг йиллик тақсимланиши, ёғинларнинг суткалик максимуми, ёмғир ва жалалар, қор қоплами, музгарчилиги, туман ва иқлимнинг бошқа элментлари ҳақида маълумот берилган. Бироқ муаллиф томонидан шунча катта илмий материал тизимлаштирилмаган, қандайдир ўлда-жўлда тавсифда бўлиб қолган[3].

Бу даврдаги Ўрта Осиё иқлимшунослигининг асосий ютуқлари аввало Л.Н.Бабушкин, Ю.А.Скворцов, Л.А.Молчанов, Б.А.Айзенштат ва Тошкент синоптика илмий мактабининг асосчилари В.А.Жоржио ҳамда В.А.Бугаевнинг қизгин илмий фаолияти билан чамбарчас боғлиқ. Таниқли географ ва иқлимшунос Л.А.Бабушкин Ўрта Осиё иқлимини қишлоқ хўжалик экинлари нуқтаи назардан ўрганиш ва баҳолаш жараёнида агроиқлимшунослик илмий мактабига асос солди.

Л.А.Бабушкин 1940-1950 йилларда Ўрта Осиё қишлоқ хўжалигига катта зарар етказувчи қурғоқчилик ва гармселни ўрганиш юзасидан муҳим илмий тадқиқотлар олиб борди. Агроиқлимий таҳлил методларини такомиллаштирди. Л.А.Бабушкиннинг 1960 йилда нашрдан чиққан “Агроклиматическое описание Средней Азии” монографиясида

ҳамда 1953 йили босмадан чиқарилган Ўзбекистон иқлимига оид асарида Фарғона водийси ва унга тутуш ҳудудларнинг иқлимига ҳам тўхталиб, Фарғона водийсини 5 та гуруҳ районларидан иборат бўлган битта Фарғона агроиқлимий округига ажратади. Районлар гуруҳи қуйидагича:

1.Қорамозор. 2.Чотқол 3.Фарғона 4.Туркистон 5.Марказий Фарғона.

Муаллиф томонидан бу 5 та гуруҳ районларни асосий агроиқлимий кўрсаткичлари ҳисоблаб чиқилиб, улар тўғридан-тўғри амалий мақсадлар учун қизиқиш ўйғотади[4].

Умуман Фарғона водийси ва унга тутуш ҳудудларни иқлими ҳақида гап кетганида В.М.Четиркин (1960) ва Л.Н.Бабушкин (1954, 1957, 1964)ларнинг илмий тадқиқотлари ва уларнинг Фарғона водийси ва унга тутуш ҳудудлардаги ландшафт-географик ва агроиқлимий ғоялари бу даврда асосий ўрин тутган десак муболаға бўлмайди. Ўрта Осиёнинг ўзига хос географик шароитида сув муаммоси энг катта долзарб илмий-амалий муаммолардан биридир. Шу сабабли 1946,1960 йиллар оралиғида ҳам бу муаммо географ ва гидролог олимларнинг диққат марказида бўлди. Ўрта Осиёда жуда катта масштабда бошланган гидротехника ва мелиорация ишлари кўпинча республикалараро аҳамиятга эга бўлиб, гидрологик жараёнларни ҳар томонлама чуқур таҳлил қилишни тақозо этди. Кўплаб марказ олимлари ва маҳаллий тадқиқотчилар томонидан тўпланган катта фактик маълумотлар жадал умумлаштирилиб, ўлканинг асосий гидрологик қонуниятлари шакллана бошланди. Бу жиҳатдан Ўрта Осиё гидрологиясининг энг йирик вакили В.Л.Шульцнинг “Ўрта Осиё дарёлари” (1949) монографияси ва кўплаб илмий мақолалари айниқса тавсифлидир. В.Л.Шульц ўз монографиясида ўлка гидрологиясининг асосий хусусиятларини батафсил ёритиб берди. У дарёларнинг тўйиниши ва оқим режимида турли манбаларни ролини кўрсатиб берди. 1950 йилларнинг охирида В.Л.Шульц Ўрта Осиё дарёлари режими ҳақида қуйидаги хулосалар ва аниқланган қонуниятларни баён этди.

1.Ўрта Осиёнинг арид иқлими шароитида дарё оқими рельеф ва инсоннинг хўжалик фаолияти билан чамбарчас боғлиқдир.

2.Дарё оқими жараёни ва режими аниқ бўйлама зоналикка эга. (Тоғлар-оқим ҳосил бўлиш области, текисликлар эса оқим сарф бўлиш ва оқим мувозанати областидир).

3.Ўрта Осиё дарёларининг асосий тўйиниш манбаи қор сувларидир; ёмғир ва музлик сувлари ҳамда ер ости сувларининг салмоғи унча катта эмас.

4.Ўрта Осиё тоғларида дарё хавзаларининг сувдорлигида ҳам маълум қонуният кузатилади; нам ҳаво массаларига рўпара хавзалар сувдорлиги энг катта бўлиб, 50 л/сек/км<sup>2</sup>га етади.

5.Баландлик ортган сари йиллик оқимнинг ўзгарувчанлиги камаяди.

6.Сув йиғиш хавзаси баландда жойлашган дарёларда тўлин сув даври узоққа чўзилади ва сув сарфи максимуми июль, август ойларига тўғри келади. Бинобарин дарёлар режими бу дарёлар сувидан деҳқончиликда фойдаланиш учун анча қулайдир.

7.Ўрта Осиё дарёлари гидроэнергетика ресурсларига бой. Олим томонидан чиқарилган бу хулосалар ва аниқланган қонуниятлар ўз-ўзидан кўриниб турибдики, Фарғона водийси ва унга тутуш ҳудудлар дарёларига ҳам тегишлидир. Атоқли олимнинг 1958 йилда нашр этилган “Ўрта Осиё гидрографияси” асарида дарёлар гидрографиясидан ташқари ўлка музликлари, кўллари, ботқоқликлар ва ер ости сувлари ҳақида ҳам муҳим географик маълумотлар берилган[5].

1940 йилларнинг охири ва 1950 йиллар гляциология бўйича тадқиқотлар тарихида ҳам муҳим босқич бўлди. Бу соҳада Г.А.Авсюк, Н.Н.Пальгов, Р.Д.Забиров ва В.Л.Шульц, О.П.Шчегловларнинг оригинал тадқиқотлари айниқса эътиборга лойиқдир.

Ўрта Осиё музликлари географиясига оид асосий маълумотлар Р.Д.Забировнинг бутун Ўрта Осиё ва Помир тоғлари музликларига бағишланган асарларида умумлаштирилди.

Бундан ташқари 1936, 1948, 1955,1960 йилларда Н.Л.Коржиневский ҳам Олой тоғларидаги музликлар билан шуғулланади.

1949 йилда С.Т.Алтунин “Кампирровот ва Куйганёр тўғонларини тадқиқ қилиниши”, М.С.Визго эса “Фарғона областидаги Сўх дарёси Сарикқўрғон узелини тадқиқ қилиниши” номли илмий мақолаларини эълон қиладилар.

1950 йилларда Ўрта Осиё айниқса, Тяньшаннинг гидрологик хусусиятларини аниқлашга М.Н.Большаков ва И.С.Соседовлар баракали хисса қўшдилар. Ўрта Осиё сувлари ҳақидаги муҳим умумлашма маълумотлар “Ўрта Осиё” (1958) асарида А.О.Киммерих ва В.Н.Кунин томонидан баён қилинган. Ўлка гидрогеологиясининг йилик вакиллари В.Н.Куниннинг ер ости сувларининг генезиси, тарқалиши, заҳиралари ва амалий аҳамияти ҳақидаги, О.К.Лангенинг гидрогеологик районлаштиришга оид хулосалари алоҳида ажралиб туради.

1950 йиллар ўлканинг ер ости сувлари ҳақидаги муҳим маълумотларни тўпланишида ва илмий ғояларнинг ривожланишида В.А.Ковда, Б.А.Бедер, Д.М.Кац, А.А.Худойбердиевларнинг илмий мақолалари муҳим аҳамиятга эга бўлди.. Ўрта Осиё (Тошкент) давлат университетида профессор М.М.Крилов раҳбарлигида мелиоратив гидрогеология илмий йўналиши бўйича катта илмий тадқиқотлар олиб борилди.<sup>1</sup>

Шу йиллари Н.Л.Коржиневский Исфайрамсойни атрофлича ўрганиб чиқади ва ўзининг бу дарё тўғрисидаги хулосаларини “Геоморфология и оледнения Памиро-Алая” асарида баён қилади.

1954 йилда Д.П.Резва томонидан Шоҳимардонсой ва Сўх дарёлари атрофлича таҳлил қилинади ва гидрографик режими ўрганилади.

Фарғона водийси ва унга тутуш ҳудудларни иқлимни ўрганишда Л.Н.Бабушкин (1960), В.А.Бугаев (1964), З.А.Рязанцева (1961,1962)ларнинг хизматлари жуда катта бўлган бўлса, гидрографиясини ўрганишга Н.Л.Коржиневский (1948, 1960), В.Л.Шульц (1950, 1956), И.А.Ильин (1959) ва бошқалар баракали хисса қўшдилар. Айниқса, И.А.Ильин ўзининг “Фарғона водийсининг сув ресурслари” (1959) асарида ўтган асрнинг 50-йилларнинг охиригача бўлган Фарғона водийси ва унга тутуш ҳудудларни гидрологик тадқиқот натижалари ва гидрометеорологик ўрганилиши туласича ёритилган.

Фарғона водийси ва унга тутуш ҳудудларнинг сув объектлари ва гидрогеологик материалларини умумлаштириш ва таҳлил қилишда Л.Н.Коржиневский, Л.А.Молчанов, В.Л.Шульц, О.П.Шчеглова ва бошқаларнинг хизматлари жуда катта бўлди.

Ўрта Осиё гидрологиясининг энг йирик вакили В.Л.Шульцнинг 1949 йилда нашрдан чиққан “Ўрта Осиё дарёлари” асаридан ташқари жамоавий муаллифлар томонидан ёзилган “Фарғона водийси” (1954) монографиясида В.Л.Шульц томонидан Фарғона водийси гидрологиясига бағишланган махсус боб ҳам ёзилган. Бунда Фарғона водийси ва унга тутуш ҳудудлардаги барча дарёларни сув режими, сув балансига умумий тавсифнома берилган [5].

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

- 1.Хамидов. А.А. ва бошқ. Фарғона водийсининг экологик вазиятларини яхшилашда табиий географик ва геоэкологик ғоялар, қарашлардан фойдаланиш масалалари. Сб.науч.тр. КУУ.-Ош, 2003.-С.219-223.
- 2.Хамидов А.А.”Фарғона водийсида олиб борилган табиий географик тадқиқотларни геоэкологик аҳамияти” геогр.фанл. номз. Илм дараж. Олиш учун ёзилган диссерт. Тошкент 2006. 167 бет.
- 3.Манегина Л.А. Климат Ферганской долины. //В кн. «Ферганская долина» (Основные проблемы развития производительных сил Ферган. дол.) Т.І. -Ташкент: -1954. -С.109-144.
- 4.Бабушкин Л.Н. Физико-географический районы. //В кн. «Ферганская долина». - Ташкент: Изд-во АН. УзССР, 1954. -С.280-304.
- 5.Шульц В.Л. Гидрография Средней Азии. // Крат. очерк. -Ташкент: -1958. -С.60-74.

---

<sup>1</sup> Р.У.Раҳимбеков, З.Н.Донцова. Ўрта Осиё табиатини географик ўрганиш тарихи. «Ўқитувчи», 1982. 100-бет.

## **TOG‘-KONCHILIK ISHLARINING YER OSTI SUVLARIGA TA‘SIRINI OLDINI OLISH CHORALARI**

**Yarboboev To‘lqin Nurboboevich**

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

*“Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi dotsenti, O‘zbekiston*

**Qosimova Karima Yodgor qizi**

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ta’lim yo‘nalishi talabasi, O‘zbekiston*

Yer osti suvlarining ifloslanishi keskin ekologik muammolardan biri bo‘lib, ayniqsa aholi zichligi yuqori bo‘lgan hududlar, sanoat ob‘ektlari va infratuzilma ob‘ektlari uchun dolzarbdir. Uzoq vaqt davomida yer osti suvlarining ifloslanishiga e‘tibor berilmadi va bu uzoq masofalarga tarqalgan katta maydonlarda keng ko‘lamli ifloslanish o‘choqlarini paydo bo‘lishiga olib keldi.

O‘zbekistonda aksariyat foydali qazilma konlari cho‘l-voha va tog‘li hududlarda joylashgan. Insonning yer qa‘riga deyarli har qanday kirib borishi yer osti suvlarini doimiy olish zaruriyati bilan bog‘liq. Buning natijasida tog‘-konchilik ishlari yoki quduqlar tizimi ta‘sir ko‘rsatadigan hududlarda tog‘ jinslari massivlari suvsizlanadi, grunt suvlarining oynasi pasayadi, manbalar quriydi, suv oqimlarining debiti kamayadi yoki umuman yo‘qoladi. Tuproqlarning strukturasi yomonlashadi, yer yuzasi cho‘kadi, qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi keskin kamayadi, va nihoyat, ilgari ushbu hududda faol harakatda bo‘lgan ekologik tizim qashshoqlashadi yoki yo‘qoladi. Tog‘-konchilik ishlarining suv havzalariga ta‘siri suv rejimining o‘zgarishi, suvlarning ifloslanishi va to‘planib qolishida namoyon bo‘ladi.

Karerlar va kesmalar, ko‘mir konlari va shaxtalari, yer osti transport va kommunal tunnellar va boshqa inshootlarni qurish va ishlatish paytida yer osti va yer usti suvlari mavjudligi sababli sezilarli asoratlar yuzaga keladi: tog‘ inshootlarining deformasiyasi kuzatiladi, uskunalarning unumdorligi pasayadi, burg‘ulash va portlatish ishlarini amalga oshirish murakkablashadi.

Shuning uchun tog‘-konchilik sanoatining o‘ziga xos xususiyati foydali qazilma konlarini quritish zarurati hisoblanadi. Ana shu maqsadda ishlatishga mo‘ljallangan konlar yoki ularning uchastkalari hududidan yer yuzasidagi suv havzalari va suv oqimlari ko‘chiriladi, va tog‘ inshootlarini yer osti suvlari bosishidan himoyalash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Tog‘ ishlari olib boriladigan zonalarini quritishning asosiy usuli turli tog‘ inshootlarini o‘tish, suvni chiqarib tashlash yoki o‘z oqimi bilan chiqarib yuborish yo‘li bilan suvni kamaytirish, so‘ngra ishlatilayotgan uchastkadan tashqarida ahamiyatli hajmdagi yer osti suvlarini gidrografik tarmoqqa yig‘ish hisoblanadi.

Tog‘-kon qazib chiqarish korxonalari uchun qayta ishlash korxonalaridan farqli ravishda texnologik jarayonlarni ta‘minlash va korxonalarining boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun suv iste‘moli hajmidan oqava suvlarning hajmini sezilarli darajada oshishi xarakterli. Sifatsiz shaxta suvlari inshootlar bo‘lmagan taqdirda, yer usti suv havzalari va suv oqimlariga kirib, ularni ifloslantiradi. Bu yer usti suvlarining florasi va faunasiga, shuningdek, atrofdagi hududlarning o‘rmon va qishloq xo‘jaligi yerlarining florasi va faunasiga, hududning sanitariya-gigiena sharoitlariga salbiy ta‘sir qiladi. Xususan ko‘mir konlarining drenaj suvlari juda ifloslanadi. Ko‘mir shaxtalaridan chiqarib olinadigan suvlarda quyidagi asosiy ifloslantiruvchi moddalar ajratiladi: muallaq zarralar, asosan ko‘mir va tosh changlari, gil zarralari, xlorli birikmalar, erkin sulfat kislotasi va ular bilan bog‘liq tuzlar - temir sulfatlari, erigan va muallaq fenolli birikmalar,



moylar. Ifloslantiruvchi omillar qatoriga shaxta suvi kanalizasiyasining haroratini ko'tarilishi ham kiradi.

Aksariyat ko'mir shaxtalari va ochiq konlarda asosiy ifloslantiruvchi ko'mir va jinslarning qattiq zarralari bo'lib, ular temir tuzlari bilan birgalikda yer usti suv havzalarining ko'rinishini, ulardagi biologik muvozanatni buzadi, natijada baliqlar nobud bo'ladi. Ko'pincha og'ir metallar to'planib, sanoat inson faoliyati natijasida g'ayritabiiy shakllanishlarni hosil qiladi. Kadmiy, nikel, molibden, rux, marganes, vanadiy, berilliy, tellur kabi og'ir metallarning tuproqda yoki suvda to'planishi barcha tirik mavjudotlar uchun xavfli bo'lishi mumkin. Metall - zaharlarning to'planishi yanada xavfli: simob, qo'rg'oshin, mishyak, selen. Bir qator metallar saraton kasalligini keltirib chiqaradigan moddalar deb tasniflanadi, xususan mishyak va xrom. Qizilo'ngach saratoni kasalliklarining o'simliklardagi molibden konsentrasiyasiga bog'liqligi qayd etilgan [1].

Kon suvlari, chang va aerezollar atrof-muhitga ko'plab kimyoviy elementlar yoki hosilalarni olib kiradi, ular erkin shaklda yoki kolloid shaklida yer usti va yer osti suvlari bilan uzoq yoki qisqa masofalarga tashilib, tegishli hududlarni ifloslantiradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, kimyoviy elementlarni ma'dan suvlari bilan olib chiqilishi konning ishlashi tugaganidan keyin ham davom etishi mumkin, ya'ni tarqalgan geokimyoviy anomaliyaning ushbu elementlar bilan to'yinishi davom etadi va shu bilan birga tuproq va suvlarning ifloslanishi ham davom etadi [2, 3, 4].

Shuning uchun gidrogeologik xizmatlar nafaqat an'anaviy masalalarga chuqurroq kirib borishi, balki yer osti suvlarini ifloslanishdan himoya qilish usullarini ishlab chiqishi, yer osti qatlamidagi ifloslantiruvchi moddalarning xatti-harakatlarini o'rganishi, shuningdek yer osti suvlarini lokalizatsiya qilish, va yer osti suvlaridagi ifloslantiruvchi moddalarni zararsizlantirish yoki yo'q qilish usullarini aniqlashi lozim.

Tabiiy suvlarni muhofaza qilish tashkiliy, iqtisodiy va muhandislik majmuasini, shu jumladan texnologik, gidrotexnik, o'rmon xo'jaligi, agrotexnik va boshqa tadbirlarni bevosita bajargan holda, suvlarning holati va sifatini doimiy nazorati ostida (gidrogeologik, gidrologik, sanitariya) amalga oshiriladi.

Tabiiy suvlarni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun uchta uslubiy prinsip asos bo'lib xizmat qiladi: 1) resurslarni saqlash va suvlarning holati va sifati buzilishining oldini olish; 2) zarur hollarda buzilishlar - oqilona foydalanish; 3) foydalanish paytida va undan keyin - sifat va holatni tiklash, zaxiralarni to'ldirish.

Ushbu tamoyillarga muvofiq tabiiy suvlarni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhga yer usti va yer osti suvlarining zaxiralari, rejimlari va sifatini saqlashga qaratilgan himoya choralari kiradi.

Ikkinchi guruhga tiklash xarakteridagi chora-tadbirlar, jumladan, suvdan oqilona foydalanish, tozalash va yer usti suv omborlari, suv oqimlari, yer osti gorizontlariga qaytarish kiradi.

Agar konni suv bosgan bo'lsa, lekin drenaj suvidan maqsadli foydalanish mumkin bo'lmasa, yer osti suvlari zaxiralarni saqlash uchun quyidagi choralarni ko'rish kerak: 1) ishlatilayotgan jinslar qatlamlarining yer osti suvlarini pastki qatlamlarga tashlash yoki haydash; 2) "gruntidagi devor" turidagi to'siqlar, sizilishga qarshi to'siqlar, gidro va pnevmatik to'siqlar o'rnatish.

Birinchi usul tog' ishlari amaliyotida keng qo'llaniladi va asosan yer yuzasidan suvni yutuvchi yoki haydovchi quduqlarini burg'ilash orqali amalga oshiriladi. Xuddi shu usul toza yer osti suvlari zaxiralarni to'ldirish uchun ishlatiladi. Shu maqsadda yer usti suv omborlari va suv oqimlarida to'plangan yoki to'plangan toza suv zaxiralardan foydalanish mumkin. Tegishli yer osti suv qatlamlariga yoki tabiiy yer osti suv omborlariga (karst bo'shliqlari, darzli qatlamlar va boshqalar) toza suv haydaladi.

So'nggi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida sanoat chiqindi suvlarini, ayniqsa zaharli moddalarni quduqlar orqali haydash yo'li bilan ularni yer qa'riga ko'mish amaliyoti kirib keldi. Ba'zi hollarda massivning geologik va gidrogeologik xususiyatlarini, chiqindi suvlarda ifloslantiruvchi moddalarning zaharlik darajasi va konsentratsiyasini hisobga olgan holda, yer osti suv omborlari tuzlarni yuvish orqali barpo etiladi.

Yer osti suvlarining ekspluatatsion zaxiralarini ko'paytirish uchun, ayniqsa ko'pincha katta chuqurlikda (200-300 m va undan katta) yotgan bosimli suvlarni, sanoat chiqindi suvlarini yo'q qilishda neft qazib chiqarish sanoatida 1000 m va undan katta chuqurlikdagi neft uyumlariga suv havdash usullarida to'plangan tajribadan foydalanish mumkin [5]. Usulni amalga oshirish, birinchi navbatda, yer osti kollektorlarining qabul qilish qobiliyatini, ularning izolyatsiyasini va ularning holatining ishonchligini aniqlash uchun keng qamrovli tadqiqotlarni talab qiladi. Bunda zaxiralarning to'planishi, ularning sifatini saqlab qolinishi, qamrab olgan jinslarning yuvilishi yoki minerallasgan suvlarning kirib borishi natijasida chuchuk suvlarning ifloslanishining oldini olinishi, sanoat oqava suvlari bilan yer osti suvlarining ifloslanishining oldini olinishi ta'minlangan bo'lishi lozim. Sanoat chiqindi suvlari bilan yer osti qatlamlarining ifloslanishini jiddiy holatlari hali qayd etilmagan bo'lsa-da, bu usul potensial xavfli hisoblanadi va uni qo'llash ilmiy va iqtisodiy asoslashni, puxta bajarilishini va doimiy gidrogeologik nazoratni tashkil qilishni talab qiladi.

Yer osti suvlarining statik va dinamik resurslari tashlanganda foydali qazilma konlarini quritishning an'anaviy usullaridan farqli ravishda sivilizatsiyaga qarshi turli xil to'siqlarni hosil qilish nafaqat konlarni o'zlashtirishga tayyorlashga imkon yaratadi, balki tog' ishlarini me'yorida va xavfsiz amalga oshirish sharoitlarini, shuningdek boshqa muhim vazifalarni yechilishini ham ta'minlaydi:

- 1) tog'-kon ishlari maydoniga suv oqimini kamaytiradi yoki oldini oladi va shunga mos ravishda ochiq suv omborlari va suv oqimlariga tushadigan drenaj suvlari hajmini kamaytiradi;
- 2) konga tutash hududda yer osti suvlarining resurslarini saqlaydi;
- 3) yer osti suvlarining tabiiy rejimini saqlaydi.

Suvga boy foydali qazilma konlarini o'zlashtirishda himoya choralari qo'llash tabiiy suv resurslarini tejashga yordam beradi va katta milliy iqtisodiy samara beradi. Suv resurslaridan foydalanishni yaxshilashning istiqbolli yo'nalishi – ishlab chiqarishning suv sig'imini va ishlab chiqarish birligiga suv sarfini kamaytirish, keyinchalik "quruq" ishlab chiqarishga o'tish (imkoni bo'lsa) sanaladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Успенский, М. С. Об изучении влияния техногенных процессов на деформации земной поверхности и стабильность геодезических пунктов / М. С. Успенский // Геодезия и картография. – М. – № 4 – 1975. – С. 58-65.
2. Трубецкой К.Н. Экологические проблемы освоения недр при устойчивом развитии природы и общества / Россия. М.: Изд. Научтехлитиздат, 2003. – 262 с.
3. Ярбобоев Т.Н. Комилов Б., Қосимова К. Геологик-қидирув ишлари билан боғлиқ экологик муаммолар // Eurasian journal of academic research. ООО «Innovative Academy RSC». Volume 2 Issue 5, May 2022. R. 353-357.
4. Komilov B., Qosimova K. Tog'-konchilik sanoatining atrof-muhitga ta'sirini va ularni bartaraf qilish muammolari // International scientific journal "Global science and innovations 2022: Central Asia" Astana, Kazakhstan, September 2022 №3 (17). 27-30 b. [www.bobek-kz.com](http://www.bobek-kz.com).
5. Yarboboyev T. N., Xaitov O.G'. Neft va gaz uyumlarini izlash va qidirish metodlari. Qarshi 2018. – 462 b.

## **CHO'L ZONASI VOHALARI VA ULARNI OQILONA TASHKIL ETISH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)**

**X.R.Toshov**

Ekologiya va geografiya kafedrası dotsenti, g.f.n.  
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

**A.N.Nematov**

Ekologiya va geografiya kafedrası katta o'qituvchisi  
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

**D.D.Qalandarova**

Ekologiya va geografiya kafedrası o'qituvchisi  
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Buxoro viloyati hududida to'lig'icha cho'l zonasida joylashgan. Bugun bu hudud inson va tabiat munosabatlari namoyon bo'lgan eng qadimgi maskanlardan biri. Bu munosabatlar hozirgi ma'lumotlarga ko'ra 7000 yillik tarixga ega. O'tgan davr mobaynida Buxoro viloyatida 3 ta (Buxoro, Qorako'l, Qorovulbozor) vohalar vujudga keldi. Ularning tabiati inson ta'sirida turli darajada o'zlashtirilgan, hozirgi davrda ham ular takomillashtirilib borilmoqda. Vohalar viloyat hududining 11,4 foizini tashkil qiladi.

Hozirgi davrga qadar Buxoro viloyati tabiati, resurslari va ulardan foydalanish tarixi, geografik va iqtisodiy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha turli darajali izlanishlar olib borilgan. Bu sohada olimlardan V.V.Bartold, V.A.Shishkin, Y.G'.G'ulomov va A.R.Muhammadjonovlar, geograf olimlardan I.Q.Nazarov, U.Nurov, Y.Rahmatovning ishlarini misol qilish mumkin [1, 2, 3, 4, 8, 10].

Buxoro vohasi Zarafshon vodiysining qadimgi va hamisha navqiron vohalaridan sanaladi. Ularning tarixi, iqtisodi, ijtimoiy hayoti asrlar davomida vodiyning Zarafshon daryosi bilan bog'liq bo'lgan. Albatta, bugun Buxoro vohasi o'zining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati bilan alohida o'rin tutadi. Arxeolog va sharqshunos olim V.A.Shishkin o'zining "Varaxsha" (1963) nomli kitobining birinchi qismini Buxoro vohasi deb nomlaganda "Buxoro vohasi – Zarafshon in'omi" deb aytishga haqlimiz deb yozgan edi [10, 8 b.]. Taniqli olim mazkur kitobda Zarafshon daryosini asrlar davomida mintaqa aholisi va xo'jalik tarmoqlarini suv bilan ta'minlaganni qayd etgan. Bu tadqiqotchilar uchun vohaning geografik o'rni, chegaralari, relyefi, geologik va gidrologik rivojlanish tarixini bilish vohalarning taraqqiyoti va salohiyatini o'rganishlarida, kelajak uchun bashoratlashda asos bo'ladi.

Qorako'l vohasi ham Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan. Voha atrofi to'liq (Kemirakqum, Sandiqli, Qarshi va Ishakchi) cho'llar bilan o'ralgan. Asosan alluvial-ko'l yotqiziqlaridan tashkil topgan. Qorako'l vohasi Buxoro vohasidan keyin vujudga kelgan.

Qorovulbozor vohasi 1970-yillardan boshlab, yangi yerlarni o'zlashtirish davomida vujudga kelgan. Qorovulbozor vohasining asosiy qismi qizg'ish - qo'ng'ir tusdagi alluvial qumoq (suglina) yotqiziqlar bilan qoplangan. Bu jinslar aniqrog'i Paleo-Qashqadaryoning III terrasasiga mansubdir.

Buxoro - Qorako'l vohalari va ularning atrofida mavjud bo'lgan 403 ming gektardan ortiq qumlar taniqli olim I.Q.Nazarov tomonidan 1971-1974-yillar davomida o'rganilgan (X.Toshov, 2008). Mazkur olimning shu vohalar atrofidagi qumlarning negizi, mexanik, mineralogik, agrokimyoviy tarkibi, yer osti suvlari, o'simliklari, hayvonot dunyosi, nihoyat ularni o'zlashtirishga oid agroekologik xususiyatlarini aks ettiruvchi maqolalari e'lon qilingan. Ammo ular maxsus kitob qilinmagan.

Buxoro, Qorako'l va Qorovulbozor vohalarining geografik tavsifi quyidagilardan iborat:

1. Tabiiy geografik jihatdan Buxoro va Qorako'l vohalari Quyi Zarafshonda joylashgan. Qoravulbozor vohasi esa tabiiy geografik jihatdan Paleo-Qashqadaryo o'rnida vujudga kelgan;
2. Buxoro va Qorako'l vohalari "Zarafshon in'omi"dir;

3. Buxoro va Qorako‘l vohalari va unda yashovchi xalqlar hayoti doimo Qadimgi Zarafshon daryosi va uning tarmoqlari bilan bog‘liq bo‘lgan;

4. Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalari hududining geografik sharoiti (iqlimi, ichki suvlari, tuprog‘i, biologik dunyosi) bir-biridan farq qiladi va bu omillarni hisobga olish zarur;

5. Barcha vohalarda ichki suvlar chetdan keladi. Demak, vohalarda suvni tejash texnologiyalarini ishlab chiqish davr talabi.

6. Vohalar geografik jihatdan daryolar deltasi, terrasalarida, orografik jihatdan past joylarda vujudga kelgan. Demak, uning tuprog‘i sho‘rlanishga moyil.

Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalari hududidagi muhim va yechimini kutayotgan muammolar quyidagilar:

1. Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalarida sug‘oriladigan va oqava suvlarni o‘rganish va oqilona foydalanish muammosi;

2. Vohalardagi 199,6 ming gektar sug‘oriladigan yer maydonlarida cho‘llanish xavfi ortib bormoqda;

3. Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalaridagi “Yashil makon”larida bioxilma-xillikni ta‘minlash;

4. Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalari atroflari cho‘l landshaftlari bilan chegaralangan. Ularda yashil ihotalar maydonlarini saqlash, kengaytirish;

5. Buxoro viloyati aholisining geografik va ekologik madaniyatini yuksaltirish uchun xizmat qiladigan ilmiy-amaliy mazmundagi adabiyotlarni yetishmasligi va shu kabi muammolar.

Bugun viloyatdagi jurnalistlar, adabiyotshunoslar kabi jonkuyar insonlar tomonidan vohalar va ularda yashaydigan xalqlar hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ommabop badiiy, tarixiy asarlar yozilgan va chop etilgan. Ammo geografiya va ekologiya sohalaridan bundan mustasno. Jumladan, Buxoro viloyati geografiyasiga oid ma‘lumotnoma 1994-yil, Qorako‘l deltasi nomi bilan nashr etilgan monografiya esa rus tilida 1984-yilda nashr qilingan, xolos [4, 8].

Yuqoridagi muammolarning asosiy “ildiz”i aholining umumiy geografik va ekologik savodxonligiga borib taqaladi. Demak, Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalari hududni oqilona tashkil qilishda quyidagi tavsiyalarga rioya etish zarur:

1. Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalari geografiyasi va ekologiyasiga oid risolalar yaratish zarur. Ularning mazmunida vohalardagi yerlar qaysi sohaga tegishli bo‘lmasin iqtisodiy jihatdan yuqori samara berishi kerak, tamoyili asosda foydalanish an‘anasi saqlab qolinishi zarur.

2. Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalaridagi hududlar inson salomatligi va organik dunyo uchun sog‘lom bo‘lishi, boshqacha aytganda ekologik meyorlarga javob berishi kerak.

3. Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalaridagi aholi manzilgozlari estetik jihatdan jozibali bo‘lishi kerak.

4. Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalari cho‘l tabiatiga mos va xos bo‘lmog‘i, yani tabiat bilan inson faoliyati bilan uyg‘un bo‘lishi kerak.

5. Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalari ayni joyda yashaydigan xalq millatning madaniyatiga, qadriyatiga xos bo‘lmog‘i kerak.

6. Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalari ijtimoiy talab va maqsadlar asosida tashkil qilinishi muhim.

#### **Adabiyotlar**

1. Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро. Тошкент, «Фан», 1991.-Б 52.

2. Назаров И.К. Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования. (На материалах нижней части р. Зарафшан). Ташкент, «Фан», 1992.-101 с.

3. Назаров И.К, Тошев Х.Р. Ландшафтлар ресурсунослиги. Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 23-жилд. Тошкент, 2003. 18-20 б.

4. Назаров И.К. Аллаёров И.Ш. Бухоро географияси. 1- қисм. Бухоро, 1994.-67 б.

5. Назаров И.К. Факторы опустынивания в Бухарской области Узбекистана. // Проблемы освоения пустынь. Международный научно-практический журнал. Ашхобод, 2000, №1, С. 45-48.
6. Наршахий. Бухоро тарихи. Тошкент «Шарқ баёзи», 1993.-128 б.
7. Нуров У. Динамика и природные ресурсы дельты р. Зарафшан. Автореф. на соиск. уч. степени канд. геогр. наук. Ашхабад, 1990.-25 с.
8. Рахматов Ю.Б. Природные условия и ландшафтное районирование Каракульской дельты р. Зарафшана и ее сельскохозяйственное освоение. Ташкент, «Фан». 1984.-102 с.
9. Реймерс Н.Ф. Природопользование. М.: «Мысль», 1990.-637 с.
10. Шишкин В.А. Варахша. М.: 1963.-250 с.

## **QASHQADARYO VILOYATI TEKISLIK SUV OMBORLARINING GIDROGRAFIK XUSUSIYATLARI**

**Suyarqulov Nizomiddin Maxmatqulovich**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası

Geografiya fani o’qituvchisi

[nizomiddin-suyarqulov@mail.ru](mailto:nizomiddin-suyarqulov@mail.ru)


***Annotatsiya:** ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati tekislik suv omborlarining suv resurslari va ulardan kelajakda foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek maqolada viloyat suv omborlardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari va suv tejamkorligi, gidrografik xususiyatlari haqida so’z boradi.*

***Kalit so’zlar:** suv ombori, suv resurslari, suv tejamkorligi, iqtisodiy mexanizmlar, irrigatsiya.*

**Kirish.** Davlatimiz tomonidan istiqloqlning dastlabki yillaridayoq suv xo’jaligi rivojiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Qishloq va suv ho’jaligi Vazirligida Suv resurslari balansi va suvni tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi tashkil etildi. Bugungi kunda suv resurslari 800 ta yirik gidrotexnik inshoot, ununiy sig’imi 19.4 mlrd km<sup>3</sup> bo’lgan 54 ta suv ombori yordamida boshqarilmoqda. O’zbekistonda ham XX asrning ikkinchi yarmida ko’plab, turli kattalikdagi suv omborlari qurilib, ular asosan daryo suvlarining suv rejimini boshqarish va energiya olish manbai hisoblanadi. Ularning qurilishi va faoliyati bugungi kunda ham aholi ichimlik maqsadlarida bo’lib, yangi suv omborlari loyihalashtirishi va qurilishga olib kelmoqda. 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’jallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot staretigiysi”ning 31-maqsadi: “**Suv resuslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo’yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish**” bandida alohida ta’kidlab o’tiganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda lalmi yer maydonlarni o’zlashtirish maqsadida 7 ta yangi suv omborini qurilish ishlari boshlangan. Bundan tashqari Qashqadaryo viloyatida Guldara va Ayoqchisoy, Samarqand viloyatida Bulung’ur suv ombori barpo etiladi. Suv omborning umumiy sig’imi 45 million kub metrni tashkil qiladi. Sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida davlat byudjedidan qariyb 1.7 trilion so’m (205 million dollarga yaqin) xalqaro moliya insitutlar hisobidan 84 million dollar miqdorida mablag’ yo’naltiriladi. Kelgusi ikki yilda 1 million 200 ming gektar maydon suv ta’minoti barqarorlashtirilib, yiliga 1 million 700 ming kup metrqa yaqin suv tejaladi, shuningdek 600 ming gektar yer o’zlashtirildi.

**Asosiy qism.** Qashqadaryo viloyatining Qamashi va Nishon tumanlari hududida joylashgan Chimqo’rg’on va Tolimarjon suv omborlari tekislik suv omborlari hisoblanib, ular viloyatning markaziy va janubiy qismida joylashgan. Bu suv omborlarining gidrografik xususiyatlari eng avvalo, joylashgan geografik o’rni bilan chambarchas bog’liqdir. Chimqo’rg’on suv ombori – Qashqadaryoning o’rta oqimida qurilgan gidrotexnika inshooti hisoblanib, Qamashi tumani

hududida, Qarshi shahridan 60 km sharqda joylashgan. Chimqo'rg'on suv ombori qurilishi 1958-yilda boshlangan. 1960-yildan doimiy foydalanishga topshirilgan. To'la sig'imi 500 mln.m<sup>3</sup>. foydali sig'imi 450 mln.m<sup>3</sup>. Suv yuzasi sathi 49,2 km<sup>2</sup>, suv ombori o'zan tipida. Uzunligi 17,5 km. maksimal chuqurligi 17,2 m. Qashqadaryo mavsumiy tartibga solish uchun mo'ljallangan. Qashqadaryo viloyatining Qamashi, Qarshi, G'uzor va Koson tumanlaridagi 188 ming gektar yerni sug'oradi. Chimqo'rg'on suv ombori tarkibiga tuproqli to'g'on, minorali suv chiqargich, quyi be'fda joylashgan chap sohil (27 m<sup>3</sup>/s) va o'ng sohil (22m<sup>3</sup>/s) bosh taqsimlagichlari kiradi. To'g'on balandligi 33 m. Minorali suv chiqargich sug'orish uchun suv berish va ayni vaqtda ortiqcha suvni chiqarib tashlash uchun mo'ljallangan (suv o'tkazish imkoniyati 350 m<sup>3</sup>/s). Xo'jaliklarni suv bilan ta'minlovchi ariq va kanallar (Chim, Jonbo'z, Tayoqli, Sag'anak kabilar) shu suv omboridan boshlanadi (1-rasm). Qamashi tumanida bugungi kunda ekin maydonlarining 9,8 ming ga. yeriga paxta, 25,6 ming ga. yeriga g'alla, shuningdek, sabzavot va kartoshka, yem-xashak ekinlari ekiladi. Qashqadaryo daryosi tumanning eng g'arbiy qismidan 30 km masofada oqib o'tadi va uning irmog'i Langar asosiy suv mabalaridan biri hisoblanadi.



**1-rasm. Chimqo'rg'on suv omborining xarita-sxemasi**

Qashqadaryo viloyatining tekislik mintaqasida joylashgan suv omborlaridan yana biri Tolimarjon suv ombori Nishon tumanidagi yirik gidrotexnika inshooti. Qarshi magistral kanali etagida barpo etilgan. Tolimarjon temiryo'i stansiyasi yaqinida, Amudaryo va Qashqadaryo o'rtasida suvayirg'ich vazifasini bajaruvchi tekislikda joylashgan. 1965-1973-yillarda qurilgan. 1977-yilda qisman, 1985- yil to'liq ishga tushirilgan. Tolimarjon suv ombori Qarshi magistral suvi bilan kuzgi – qishki mavsumda 6 oy davomida to'ldiriladi. Uzunligi 14 km. kengligi 5,5 km. o'rtacha chuqurligi 19,8 m. Qirg'oq chizig'I uzunligi 36 km. maydoni 77,4 km<sup>2</sup>. umumiy hajmi 1,53 mlrd m<sup>3</sup>, foydali suv hajmi 1,4 mlrd m<sup>3</sup>. Tolimarjon suv omborining asosiy ishootlari majmuyi 1- va 2- tuproq to'g'onlari, nasos stansiyasi, suv oqib keladigan va chiqib ketadigan kanal, kollektor – drenaj tarmoqlaridan iborat. Suv qudratli elektr nasoslar orqali 26,6 m balandlikkacha ko'tarilib beriladi. Qarshi cho'lida o'zlashtirilgan qo'riq yerlarni suv bilan ta'minlaydi. Sug'orish mavsumida omborda to'plangan suv Qarshi magistral kanaliga suv o'tkazish imkoniyati 360 m<sup>3</sup>/sek. bo'lgan suv chiqargich orqali beriladi. Bugungi kunda Nishon tumanida 47 ming 196 ga yer maydoni sug'oriladi, shu jumladan, 24 ming 553 ga yer paxta, 18 ming 640 ga yer g'alla, 596,6 ga yer sabzavot va poliz ekinlari, 1637 ga yer yem – xashak ekinlari bilan band. Tolimarjon suv ombori yaqinida Tolimarjon GRES qurilish boshqarmasi, Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasi shu'ba korxonasi faoliyat ko'rsatadi.





**2-rasm. Tolimarjon suv omborining xarita-sxemasi**

Tolimarjon suv omboriga suv tashlab beradigan qudratli nasos stansiyalari qo'shni Turkmaniston Respublikasida joylashganligi, bu jihatdan dunyoda yetakchi o'rin tutishi bilan xarakterlanadi. Viloyat suv omborlari orasida Tolimarjon suv ombori suv hajmining kattaligi, gidrotexnik ahamiyati jihatidan muhim o'rin tutadi.

Viloyat hududida dastlabgi suv ombori Qashqadaryoning o'rta oqimida bunyod erila boshladi. U Chimqo'rg'on nomi bilan yurutilib, 1963 yilda to'liq quvvat bilan ishlay boshladi. Bu davrga kelib uning umumiy maydoni 44,4 km<sup>2</sup> maydonini egallaydi. Uning umumiy uzunligi 15 km bo'lib eng keng joyi 5,5 km, engchuqurjoyies 30 metr ni tashkil qiladi. Suvomborining to'la suv sig'imi 500 mln.m<sup>3</sup>, shundan 425 mln.m<sup>3</sup> foydali suv sig'imi hisoblanadi. XX asrning 1967 yilidan 1987 yiligacha bo'lgan davrda [4].

Ma'lumki, namlik tanqis bo'lgan hududlarda tashkil qilingan suv omborlar suvdan oqilona foydalanish birinchi navbatda asosiy e'tibor irrigatsiya maqsadlarga qaratilgan bo'ladi. Biz quyidagi Qashqadaryo viloyatdagi 13 ta suv omborida 2017 yildan 2020 yilgacha bo'lgan vaqt davomida suv omborida to'plangan suv miqdori va uning sarflanishi haqida tadqiqotlarni olib bordik (1-jadval).

**1-jadval**

**Qashqadaryo viloyatidagi suv omborlarida 2017-2020 yillarda yig'ilgan suv hajmi miqdori**

T/r	Suv omborlarning nomi	Yig'ilgan suv hajmi mln.m <sup>3</sup>			
		2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
1	Talimarjon	214,4	213,5	233,9	298.2
2	Chimqo'rg'on	13.2	23.5	106.3	37.4
3	Pachkamar	2	9	105.1	83.2
4	Hisorak	9.5	16.5	65.2	36.9
5	Qamashi	2.1	2.2	6	8.8
6	Dehqonobod	---	---	0.3	15.9
7	Langar	0.7	0.1	2.5	5.2
8	Qorabog'	0.7	0.2	1	3.2
9	Yangiqo'rg'on	0.8	0.4	1.8	1.9
10	No'g'ayli	0.4	0.3	0.4	1
11	Qizilsuv	0.4	0.1	1.1	3.8
12	Sho'robsoy	0.1	---	0.2	1.8
13	Qalqama	0.2	0.1	0.0	2,4
	<b>Jami</b>	<b>244.3</b>	<b>265.8</b>	<b>523.8</b>	<b>499.7</b>

Jadval ma'lumotlari Qashqadaryo viloyati suv xo'aligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

**Xulosa.** O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023 yillarga mo'ljallangan strategiyasi, umuman olganda, ushbu hujjatlar konsepsiya va strategiyada belgilangan vazifalar doirasida amalga oshirilayotgan ishlar suvni tejash samaradorligining yildan-yilga yaxshilanib borishiga xizmat qilishi shubhasiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tilovov T., Tilovova N. Hayot ekologiyasi. Qarshi: "Nasaf" NMIU, 2022. 292 b.
2. Shoto'rayev T., Baratov P. O'rta Osiyoning sun'iy ko'llari. – T.: "Fan", 1972.
3. Husanxo'jayev Z.X. Gidrotexnika inshootlari. –T.:, 1978. – 432 b.
4. "O'zbekistonovozi" №20, 2022-yil 18 may, (32.714)
5. Shuls V.L., Masharipov R. "O'rta Osiyo gidrografiyasi" – T.: "O'qituvchi", 1969.

#### **References**

1. Tilovov T., Tilovova N. Ecology of life. Against: "Nasaf" NMIU, 2022. 292 p.
2. Shotorayev T., Baratov P. Artificial lakes of Central Asia. - T.: "Science", 1972.
3. Husankhojayev Z.Kh. Hydrotechnical facilities. - T.:, 1978. - 432 p.
4. "Voice of Uzbekistan" No. 20, May 18, 2022, (32,714)
5. Shuls V.L., Masharipov R. "Hydrography of Central Asia" - T.: "Teacher", 1969.

## **IQLIM O'ZGARISHINING SABABLARI VA OQIBATLARI**

### **Asadullayev Anvar Narzullayevich**

Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro sh.  
Ekologiya va geografiya kafedrası o'qituvchisi

Tabiatdagi o'zgarishlar, turli hodisalar insonning aqliga, hissiyotiga va tanasiga kuchli ta'sir qiladi. Demak, tabiat bilan inson o'rtasida uzluksiz bog'lanishni his qilgan holda atrof – muhitga bo'lgan munosabatda har tomonloma oqilona yondashish kerak. Tabiatda sodir bo'layotgan tabiiy favqulotdagi hodisalar geografik joylashuviga ko'ra qachon tirik mavjudotlarga, xususan insonlarga ta'sir etish jarayonlari mutaxassislar tomonidan chuqur o'rganib tahlil qilinmoqda.

Xususan, iqlim o'zgarishi ham keng tarqalayotgan, jadal va tezlashib borayotgan jarayondir. Mutaxassis ekspertlar guruhi yer ilgari hisob - kitob qilinganidan ko'ra tezroq isib borayotganini [ma'lum qilishmoqda](#). Yer sayyorasida umumiy haroratning ko'tarilishi atrof muhitning, ayniqsa atmosfera havosining zararlanganligini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Atmosfera havosi tarkibida qator zararli moddalar miqdorining ko'payishi nafaqat haroratning, balki sayyoramizning barcha mintaqalarini iqlimi o'zgarishiga olib kelmoqda. [2].

Global iqlim o'zgarishlari XXI asrning asosiy muammolaridan biridir. Insoniyatning taraqqiyotga erishish yo'lida tabiatga nisbatan xo'jasizlarcha munosabatda bo'lishi atrof - muhitdagi muvozanatning izdan chiqishiga va o'nglab bo'lmas salbiy oqibatlariga olib keldi, natijada ob - havo va iqlim butunlay o'zgarib ketish arafasida turibdi. Dunyo bo'yicha o'rtacha harorat 1,1 darajaga ko'tarilgan. Bu esa 2040 yilga borib o'rtacha harorat 1,5 darajaga oshishini bildiradi. Havo haroratining ko'tarilishi 1850 yildan boshlab, bugungi kunga kelib 1 darajaga oshgan. Agarda u 2 darajaga yetsa, krizis holatlar vujudga keladi. Ishlab chiqarishning jadal suratlarida rivojlanishi bilan atmosferada karbonat angidridning miqdori 30 foizga oshib bormoqda.

BMTning ma'lumotiga ko'ra 2100 yilga borib, harorat darajasi 2.7°C ko'tarilishi kutiladi. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra harorat 2°C ko'tarilsa, bu holat iqlimning xavfli darajada o'zgarishiga olib keladi va qashshoq mamlakatlarga qattiq salbiy ta'sir qiladi. «Interfaks» xabari va BMT ma'lumotiga ko'ra 2030 yilga kelib global iqlim o'zgarishi jahon iqtisodiyotiga yiliga 2 trln dollar zarar keltira boshlaydi.

2030 yilga kelib global isish har yili jahon iqtisodiyotiga 2 trillion dollar zarar keltirar ekan. Global iqlim o'zgarishi tufayli YaIM hajmining tushishi 43 mamlakatda kuzatilar ekan, bular orasida Hindistonda - yillik zarar 340 milliard funt, Xitoyda - 188 milliard funt, Malayziyada - 188 milliard funt va Tailandda - 113 milliard funtni tashkil qilishi mumkin ekan. Sharqiy - Yevropa mintaqasi, Markaziy Osiyo va Kavkaz (jami 28 mamlakat) mamlakatlarining sezuvchanlik va tez zarar ko'rishi darajasini tavsiflovchi miqdoriy baholash o'tkazilgan. Baholash natijalariga ko'ra, O'zbekiston iqlim o'zgarishlariga juda sezuvchan (2 o'rin) va undan zararlanadigan (6 o'rin) mamlakat hisoblanadi. [1].

Issiq to'liqlar, kuchli shamollar, qurg'oqchilik, suv toshqinlari va yong'inlar yanada ko'proq sodir bo'la boshladi, muzliklar erishi yanada kuchaydi. Ayniqsa, keyingi yillarda bu jarayon judayam tezlashganini kuzatishimiz mumkin.

Shuningdek, yer yuzida iqlim o'zgarishiga olib keluvchi faktorlardan biri yer osti qazilma boyliklaridan me'yoridan ortiqcha foydalanish, foydalanish tartiblariga rioya qilmaslik hisoblanadi. Ko'mir, neft, gaz kabi qazilma boyliklar dunyoda global iqlim o'zgarishiga eng ko'p hissa qo'shmoqda. Mutaxassislarining statistik ma'lumotlariga ko'ra ular global issiqxona gazlari chiqindilarining 75 foizdan ortig'ini va barcha karbonat angidrid chiqindilarining deyarli 90 foizini tashkil qiladi.

Haroratning oshishi vaqt o'tishi bilan ob - havo sharoitlarini o'zgartiradi va odatdagi tabiiy muvozanatni buzadi. Bu odamlar va yerdagi hayotning boshqa barcha shakllari uchun juda ko'p xavf tug'diradi.

Iqlimshunoslarning ma'lumotlariga ko'ra, iqlim o'zgarishining asosiy sababi yer yuzasidan chiqadigan uzun to'liqlik radiatsiyani yutib atmosferada issiqxona effekti hosil qilayotgan gazlardir. Shu toifaga kiruvchi gazlar "Issiqxona gazlari" deb ataladi. Bu jarayonning mohiyati quyidagicha: quyoshdan keladigan radiatsiyaning bir qismi (30 foiz) atmosfera tufayli bulutlar orqali kosmosga qaytadi. 15 foiz atrofida esa, atmosfera qatlamlarida yutiladi, qolgan energiya atmosferadan o'tib yer yuzasiga yetib keladi va uni isitadi.

O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonning Orol fojiasining kuchli ta'siri ostida qolgan mintaqalarini aholisi har kuni suv resurslari yetishmasligi, ichimlik suvi sifatining pasayishi va tuproq tarkibining buzilishi, iqlim o'zgarishi, aholi, birinchi navbatda, aholining turli kasalliklarga chalinishi ko'payib borayotgani bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarni boshdan kechirmoqda.

Iqlim o'zgarishlari sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda erdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bugungi kunning asosiy masalasi.

#### **Iqlim o'zgarishi O'zbekistonda ham qator salbiy oqibatlariga olib kelyapti:**

- suv resurslari taqchilligining kuchayishi;
- o'rtacha haroratning oshishi;
- yog'ingarchiliklarning notekis taqsimlanishi – yog'ingarchiliklarsiz qurg'oqchilik uzoq davom etishi va bir martada ko'p miqdorda yog'ingarchiliklar bo'lishi;
- qishloq xo'jaligida yetishtirish uchun maqbul ekinlar tarkibi butunlay o'zgarishi;
- harorat rejimi kuchayishi natijasida aholi salomatligi bilan bog'liq muammolar ko'payishi;
- o'simliklar va hayvonlarning aksariyat turlari yashaydigan areallar qayta taqsimlanishi, demak, ekologik jarayonlar, beriladigan mahsulotlar va bajariladigan funksiyalar tubdan o'zgarishi;

- saholashish jarayonlarining kuchayishi, demak, yashash va xo‘jalik yuritish mumkin bo‘lgan erlar kamayishi;

- iqtisodiyot sektorlari ta‘sirining to‘liq qayta taqsimlanishi va boshqalar.

Yuqorida sanab o‘tilgan salbiy oqibatlar natijasida quyidagi holatlarning ortishi ortmoqda:

harorat ko‘tarilishi natijasida suvning bug‘lanish koeffitsienti oshishi hududlarda suv resurslari kamayishiga, tanqisligiga ta‘sir etmoqda;

ekologik tanglik oqibatida yil davomida umuman yog‘ingarchilik bo‘lmagan kunlar soni ko‘paymoqda;

tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg‘oqchilik xavfi ortmoqda va hosildorlik ko‘rsatkichlari tushib ketmoqda;

Orol dengiziga quyiladigan suv hajmining kamayishi daryo deltasining cho‘lga aylanishi va qurigan dengiz tubida yangi cho‘l maydonlari paydo bo‘lishini tezlashtiryapti;

atmosfera havosida katta maydonlarda changlanish ortmoqda;

isish va sovish kabi anomal hodisalarning o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo‘lishiga olib kelmoqda. [1].

Jumladan, iqlim o‘zgarishini oldini olish uchun quyidagi tavsiyalarni ko‘rsatib o‘taman:

- qazib olinadigan yoqilg‘idan foydalanishni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish;

- energiya samaradorligini oshirish va sohalarni energiya tejavchi texnologiyalar bilan modernizatsiya qilish;

- ekologik toza qishloq xo‘jaligiga o‘tish;

- tuproq tarkibidagi organik moddalarni saqlab qolish (chunki ularning yo‘qolishi to‘g‘ridan to‘g‘ri issiqxona effektiga ta‘sir qiladi);

- ekologik tejamkor transport turlariga o‘tish.

Shuningdek, O‘zbekistonda issiq ob-havo (issiqlik to‘lqinlari) va tobora qurg‘oqchil iqlim sharoitida ichimlik suvi yetishmasligi hamda suv resurslari taqchilligi kuchayishi bilan bog‘liq inson salomatligi uchun xavf ortib borishi mumkin. Iqlimning o‘zgarishi qurg‘oqchilik va qishloq xo‘jaligida beqarorlikni keltirib chiqarishi va respublikaning oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan chang bo‘ronlari, sellar, toshqinlar va shu kabi boshqa xavfli gidrometeorologik hodisalar sonining ko‘payishiga olib keladi. Iqlim o‘zgarishi oqibatlari mavzusi allaqachon har bir insonni o‘ziga tortgan va bu ta‘sir yil sayin ortib boradi. O‘zbekiston ko‘ngillilari daraxtlar ekishda, inson faoliyati va iqlim o‘zgarishi oqibatlari tufayli muammoga duch kelgan yovvoyi hayvonlarni saqlab qolishda ham faol ishtirok etmoqdalar.

Iqlim ko‘rsatkichlarining yil sayin tobora yomonlashib borayotganini insoniyat yerdan shavqatsizlarcha foydalanishni davom ettirayotgani bilan bog‘lash mumkin. Ko‘pchilik davlatlar tomonidan bu jarayon xavfsizlikka qarshi eng katta tahdid sifatida ko‘rilmoqda. Dunyo bo‘ylab sodir bo‘lgan ayanchli hodisalar ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning qo‘shimcha mexanizmlarini ishlab chiqishga yetarli darajada kuchli turtki berishi kerak.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ў.А. Набиев. Иқлим ўзгариши, унинг таъсирини тушуниш ва хавфли оқибатларини баҳолаш, Ўзбекистонда иқлим ўзгаришига мослашиш чора-тадбирлари ва қўллаш чоралари, хорижий тажриба. Ўқув қўлланма. Тошкент 2018.

2. Асадуллаев А.Н. Экологик осойишталикни таъминлашнинг геоэкологик асослари. Научно-практической конференции с международным участием на тему: “Проблемы экологии и экологического образования” сборник тезисов 11-12 ноября 2022 года. –С. 27-28.

3. Ҳайитов Ё.Қ., Шарипов А.Э., Суғорма ерларнинг экомелиоратив жиҳатлари ва ечимлари (Бухоро вилояти мисолида). Орол бўйи худудларида ноқулай экологик омилларнинг салбий таъсирларини юмшатиш масалалари мавзуидаги Республика миқёсида илмий-амалий анжуман. Бухоро. 2020. –Б.15-17.

4. Asadullayev A.N., Akramova M.M. Geoekologik muammolarning inson salomatligiga ta'siri (Qorako'l vohasi misolida). Тупроқ унумдорлиги ва қишлоқ хўжалиги экинлар ҳосилдорлигини оширишнинг замонавий инновацион технологиялари, муаммо ва ечимлар мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман тўплами. Бухоро. 2021. – Б.157-159.

5. Asadullayev A.N. Cooperation of family and educational institutions in ecological education of children. II-я Международная научно-практическая конференция «Насыири укулары» – «Насыровские чтения» ТОМ 2 г. Казань 16-17 февраля 2023 г. -Р. 18-19.

## **ЗАРАФШОН ДАРЁСИ ОҚИМИНИНГ СУҒОРИШ КАНАЛЛАРИДА САРФЛАНИШНИ МИҚДОРЙ БАҲОЛАШ**

**ЮНУСОВ Ғ.Х<sup>1.</sup>, ДОВУЛОВ Н. Л<sup>1.</sup>, БАРАТОВ Х. А<sup>2.</sup>**

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий университети Қуруқлик гидрологияси кафедраси мудири. г.ф.д.  
Тошкент шаҳри, Ўзбекистон.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий университети таянч докторанти.  
Тошкент шаҳри, Ўзбекистон.

<sup>2</sup> Самарқанд давлат университети таянч докторанти.  
Самарқанд шаҳри, Ўзбекистон.

**Кириш.** Мамлакатимизда дарёлар сув ресурсларидан самарали фойдаланиш халқ хўжалигининг асосий тармоқларини, жумладан қишлоқ хўжалиги секторини ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга. Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлигини маълумотларига кўра, ҳозирги кунда Республикада 900 га яқин мустақил суғориш тизимлари мавжуд бўлиб, улар йилига 40 км<sup>3</sup> дан ортиқ сувни экин майдонларига етказиб беради. Мазкур вазирликнинг махсус кузатув маълумотларига кўра, олинаётган 40 км<sup>3</sup> сувнинг 40-50% и самарасиз йўқотилади ёки, бошқача қилиб айтганда, деярли 20 км<sup>3</sup> сув инсон хўжалик фаолиятига ҳеч қандай фойда келтирмасдан беҳудага буғланади, шимилади, ташлама оқимга қўшилиб, худуддан ташқарига чиқарилади [4].

Ўрта Зарафшон воҳаларининг ғарбий, шимолий-шарқий қисмларига сув келтирувчи Нарпай ҳамда Мирза-Пай каналлари ҳам юртимиздаги йирик суғориш иншоотларидан бири ҳисобланади. Каналларнинг ўрганилаётган қисмлари умумий узунлиги 53,8÷137,6 км бўлиб, худуднинг 19,897÷18,442 минг гектарга яқин экин майдонларини сув билан таъминлайди [3].

Ўрта Зарафшон воҳаларида юқори ҳарорат, ёзнинг узок давом этиши, шамолларнинг тез-тез эсиб туриши, каналлар ўзани тупроғининг механик таркиби, каналнинг сув сарфи, грунт сувларнинг жойлашиш чуқурлиги ва бошқа табиий омиллар натижасида, Зарафшон дарёсининг каналлар орқали олинаётган сувининг, жуда катта йўқотишлар эвазига (шимилиш ва буғланиш) суғориш майдонларига етиб боради. Ушбу масалани гидрологик нуқтаи-назардан ўрганиш ҳозирги кунда долзарб аҳамият касб этади.

Ишнинг **асосий мақсади** Зарафшон дарёсидан Ўрта Зарафшон воҳалари суғориладиган майдонларга Нарпай ва Мирза-Пай каналларидан суғоришга олинadиган сув миқдорларининг ер остига шимилишга сарфланишини миқдорий баҳолашдан иборат. Шу мақсадида Нарпай ва Мирза-Пай каналларининг маълум узунлиги бўйича гидрологик, гидравлик кўрсаткичлари ҳақидаги маълумотлар тўпланди (1-жадвал).

Таъкидлаш лозимки, каналларнинг узунлиги бўйича унинг қисмлари табиий ўзанли ҳамда бетон қоплама билан қопланган. Нарпай ва Мирза-Пай каналларининг асосий гидравлик кўрсаткичларидан бири, яъни канал узунлиги бўйича унинг сув юзаси кенлиги

(В, м), чуқурлиги (h, м) ўзгариб боради. Нишаблик (i) эса 0,005-0,0065 оралиғидаги қийматларда ўзгариб туради [2].

Суғориш тизимидаги каналлардан ер остига шимилишни ҳисоблашнинг В.Ведерников, С.Ф.Аверьянов, Н.Н.Повловский ва бошқа бир қанча муаллифлар томонидан таклиф этилган ифодалари мавжуд [1, 5].

Мазкур усулларнинг Ўрта Зарафшон воҳалари шароитига мос келадиган ва ҳисоблашларда қийинчилик туғдирмайдигани Н.Н.Повловский таклиф этган усулидан фойдаланилди. Шу сабабли ҳисоблашларда ушбу усул танлаб олинди ва унинг ифодаси куйидаги кўринишга эга:

$$Q_{\phi} = 0,0116 \cdot (B + 2 \cdot h) \cdot K,$$

ифодадаги:  $Q_{\phi}$ -шимилишга сарфланган сув; В-каналнинг сув юзаси бўйича кенглиги; h-каналнинг чуқурлиги; К-шимилиш коэффиценти.

Мазкур ифода ёрдамида Нарпай ва Мирза-Пай каналларида шимилиш ҳисобига сарфланаётган сув миқдори аниқланди. Унинг максимал қиймати 32 минг м<sup>3</sup> га тенг бўлиб, бу қиймат каналнинг энг узун қисмига, яъни ҳеч қандай қоплама билан қопланмаган қадимги дарё ўзанида оқувчи қисмига тўғри келган. Минимал қиймати эса 4 минг м<sup>3</sup> га тенг, бу қиймат каналнинг энг қисқа бетон қопламали қисмига хосдир. Ҳисоблашлар натижалари жадвалда келтирилган (1-жадвал).

#### Каналдан бир йилда шимилишга сарфланган сув миқдори

$$W = Q_{\phi} \cdot L \cdot T,$$

ифода ёрдамида ҳисобланди. Бу ерда L-канал қисмлари узунлиги, T-бир йилдаги секундлар сони.

1-жадвал

#### Нарпай каналининг гидравлик кўрсаткичлари ҳамда улардан шимилишга сарфланаётган сув миқдорлари

Канал қисмлари	Канал кўрсаткичлари			Канал туби қопланган материал тури	1 метрга 1 суткада шимилган сув миқдори м <sup>2</sup> /сутка	1 йилда шимилишга сарфланган сув миқдори, минг м <sup>3</sup>
	В, м	h, м	L, км			
0÷64	21	3,00	6,4	Табиий ўзан	0,0078	18,3
64÷127	18	2,6	6,3	Бетон	0,0017	4
127÷206	20	2,8	7,9	Табиий ўзан	0,0074	21,4
206÷329+40	19	2,7	12,34	Табиий ўзан	0,0071	31,9
329+40÷538	18	3,1	20,86	Бетон	0,0018	13,9
<b>Жами:</b>			<b>53,8</b>			<b>89,5</b>

Нарпай каналининг қисмлар бўйича шимилишга сарфланган сув миқдорлари йиғиндиси, каналнинг ўрганилаётган узунлиги бўйича жами сарфланган сув миқдори 89,5 минг м<sup>3</sup> га тенг бўлди.

2-жадвал

#### Мирза-Пай каналининг гидравлик кўрсаткичлари ҳамда улардан шимилишга сарфланаётган сув миқдорлари

Канал қисмлари	Канал кўрсаткичлари			Канал туби қопланган материал тури	1 метрга 1 суткада шимилган сув миқдори м <sup>2</sup> /сутка	1 йилда шимилишга сарфланган сув миқдори, минг м <sup>3</sup>
	В, м	h, м	L, км			
0÷234	16	1,8	21,2	Тупроқ ўзан	0,0057	44
0÷428	18	1,5	42,8	Тупроқ ўзан	0,0061	95,2



0÷496+15	8,5	1,4	24	Тупроқ ўзан	0,0033	28,7
0÷496+15	8,5	1,4	25,6	Бетонли қисми	0,0009	8
0+240÷00	5	1	24,0	Тупроқ ўзан	0,0020	17,8
<b>Жами:</b>			<b>137,6</b>			<b>193,6</b>

Мирза-Пай каналининг қисмларида сарфланган миқдорлари йиғиндиси каналнинг ўрганилаётган узунлиги бўйича шимилишга сарфланган сув миқдорини 193,6 минг м<sup>3</sup> га тенг эканлиги аниқланди.

Ҳисоблашлардан кўришиб турибдики, каналларнинг бетон билан қопланган қисмларида шимилишга сарфланаётган сув миқдори жуда кичик. Бунинг биринчи сабаби, каналларнинг фойдали иш коэффицентининг пастлиги, магистрал каналлар тўлиқ бетонлаштирилмаганлиги, хўжаликлараро ва хўжалик ичидаги ариқларнинг 70% дан ортиқ табиий ўзанлардан иборат. Иккинчи сабаби, хўжаликларда суғориш каналлари ўз вақтида тозаланмайди ҳамда лоток системалари сифатли таъмирланмайди. Бетон қопламаларнинг туташган ва синган жойларидан сув доим оқиб, исроф бўлади. Бунга ўхшаган фойдали иш коэффиценти жуда паст бўлган магистрал, хўжаликлараро, хўжалик ва хўжалик ички каналлар Ўрта Зарафшон воҳасида юзлаб километрни ташкил этади.

Шундай қилиб, Ўрта Зарафшон воҳасида дарё сувларининг йўқотилиши турли кўринишларда рўй беради. Қайд этилган ҳолатларнинг барчаси Ўрта Зарафшон воҳасида дарё сувларининг йўқотилиши таркибий қисмларини ва ҳудуд сув балансини батафсилроқ тадқиқ этишни тақозо этади.

Юқоридагиларга **хулоса** қилиб айтганда, Зарафшон дарёсининг 70% дан ортиқ суви Ўрта Зарафшон воҳасида суғориш мақсадларида фойдаланилади. Суғоришга олинган сувнинг қарийб 20% и каналларнинг узунлиги бўйича шимилишга йўқотилмоқда. Бундай кўринишдаги сарфланишлар воҳадаги бошқа суғориш каналларида ҳам кузатилмоқда. Биргина канал тубига шимилиш миқдорини камайтириш мақсадида каналларнинг барча қисмларини сув ўтказмас қопламалар билан қоплаш йўли билан сувнинг шимилишга сарфланишини камайтириш мумкин. Бундан ташқари канал сув юзасидан бўладиган буғланишни ҳам ҳисобга оладиган бўлсак, каналларга олинган сувнинг беҳудага сарфланган сув миқдори яна ортади. Бу масалани кейинги тадқиқотларимизда кўриб чиқамиз.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Аверьянов С.Ф. Рассоляющее действие фильтрации из каналов. // В кн. «Влияние орошения на режим грунтовых вод. Сб. 2. – М.: АН СССР, 1959. – С. 44-120.

2. Иригация Узбекистана. Том III. Ташкент: Фан, 1979. 357 с.

3. Ҳикматов Ф.Ҳ., ... Ширинбоев Д.Н. ва бошқ. Зарафшон дарёси хавзасининг гидрометеорологик шароити ва сув ресурслари. Монография. –Тошкент: «Fan va texnologiya», 2016. -276 б.

4. Юнусов Ғ.Х., Ҳикматов Ф.Ҳ., Аденбаев Б.Е., Умирзоқов Ғ.Ў., Турғунов Д.М., Довулов Н.Л. Суғориш каналлари эксплуатацион ишончилигини таъминлаш ва улардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш технологиялари. Тошкент.: «Fan texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. -146 б.

5. Юнусов Ғ.Х., Жумаев И.С., Қодирова Г. Суғориш каналларида дарё сувининг йўқотилишини миқдорий баҳолаш // Ўзбекистон География Жамияти ахбороти. -Тошкент, 2018. 54 -жилд, -Б. 178-180.

## QUYIMOZOR – TO'DAKO'L SUV OMBORLARI YONDOSH HUDUDLARI LANDSHAFTLARI VA ULARNING EKOLOGIK HOLATI

**Mirzoyeva Istat Elmurodovna**  
**(Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston)**

**Kirish.** O'zbekistonning qurg'oqchil kontinental iqlimli cho'l, chala cho'l va tog' oldi dashtlari keng tarqalgan sharoitda suv muammosi hamisha eng jiddiy muammo bo'lib kelgan. So'nggi yarim asrda yangi-yangi cho'l massivlarining dehqonchilik uchun o'zlashtirilishi, mavjud ekin maydonlarining muttasil kengayishi, yangi-yangi suv omborlari va kanallar qurilishi bilan oqar suvlar tobora taqchilligining vujudga kelishi hamda ifloslanishi ko'plab jiddiy iqtisodiy-ijtimoiy va geoekologik muammolarni keltirib chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»dagi PF-60-son Farmonida «Suv resurslaridan foydalanish mexanizmlarini tubdan isloh qilish, ulardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash...» yuzasidan muhim vazifalar belgilangan. Bu borada O'zbekistondagi kichik daryolar va soylar suv resurslarini ichimlik suv ta'minoti, qishloq xo'jaligi, yaylovlarni suvlantirish va boshqa maqsadlarda suv omborlaridagi suv resurslarini muhofaza qilish bu jarayonda qo'llaniladigan usullarni takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

**Asosiy matn.** Mamlakatimizda mavjud suv boyligi manbalarini qat'iy hisobga olish, tejab-tergab foydalanish, ularni turli omillar ta'sirida ifloslanishdan saqlash davrimizning eng muhim vazifalaridandir. Bu masala butun dunyo mamlakatlarida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, ularning iqtisodiy taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Suvga bo'lgan talabning yildan yilga oshib borishi, mavjud suv manbalaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda yangi suv zaxiralarini izlash va foydalanishga jalb qilish katta ahamiyat kasb etadi. Mavjud suv resurslarini tejab-tergab ishlatishda suv omborlarining roli beqiyosdir.

Suv omborlari va ularning qurilishi natijasida ko'plab daryo vodiylarining landshaft – ekologik holatining o'zgarishi, bu yerdagi jarayonlar nafaqat suv omborining bevosita ta'siri doirasida, balki ulardan o'nlab, hatto yuzlab kilometr uzoqlikdagi tabiiy sharoitlarga ham ta'siri borligi kuzatilmoqda.

Suv omborlarining qurilishi va faoliyati natijasida tabiiy landshaftlar o'zgaradi, ularning yangi tiplari, inson tomonidan boshqariladigan, gidrotexnika inshootlari (to'g'on, kanal, damba va boshqalar), suv bosishi bilan bog'liq bo'lgan gidrogen landshaftlar, sho'rlangan, botqoqlashgan maydonlar, tabiiy landshaftlarning tabiiy antropogen tiplari bilan almashishi kuzatiladi. [5].

Quyimozor - To'dako'l suv omborlari hududi cho'l, qismangina chala - cho'l zonasida joylashgan. Shu sababli mahalliy suv manbalari atmosfera yog'inlarini hisobga olmaganda yo'q hisobida. Yer osti sizot va qatlamlararo suvlar turli chuqurliklarda va turlicha gidrokimyoviy tarkibga ega. Sizot suvlari qadimdan buyon qazilgan quduqlar orqali foydalanib kelingan. Bu quduqlarning ko'pchiligi Quyimozor - To'dako'l suv omborlarining qurilishi, O'rtacho'l vohasini o'zlashtirilishi hamda Amu - Buxoro mashina kanallarining bunyod etilishi tufayli, tashlandiq holga kelgan, hattoki ularning o'rni yo'qolgan va topografik kartalarda nomlari saqlanib qolgan.

Hozirgi kunda bu hududlar inson qudrati tufayli Buxoro qisman Navoiy viloyatini suv bilan ta'minlovchi maskan hisoblanadi. 1957 yilda Zarafshon daryosining Quyimozor tarmog'ining quyi qismida joylashgan erozion tektonik pastqamlikda Quyimozor suv ombori barpo etildi. Amu - Buxoro mashina kanalining birinchi navbati 1965 yilda, ikkinchi navbati esa 1975 yilda qurib bitkazildi va bu suvlarni Buxoro, O'rtacho'l, Malikcho'l vohalariga yetkazish uchun Quyimozor, Qiziltepa nasos stansiyalari foydalanishga topshirildi. 1981 - 1982 yilalarda O'rtacho'l, keyinchalik esa Malikcho'l kanallari ishga tushirildi. 1983 yilda esa To'dako'l pastqamligi o'rnida To'dako'l suv ombori bunyod etildi.

Mazkur gidrotexnik inshootlar obikor dehqonchilik uchun hayot - manbai hisoblanadi. Quyimozor - To'dako'l suv omborlari va unga yondosh hududlar landshafti uzoq davr va turli geografik sharoitlarni kechirgan, hamda o'tmish davrlar tabiiy sharoitlarini o'z xotiralarida saqlab kelgan. Bu merosiy xususiyatlar o'z navbatida hozirgi landshaftlarning negizi barqarorligi, biomahsuldorligi, ekologik sifatlariga, xullas ularning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini belgilab turadigan muhim omillarda hisoblanadi. Shu ma'noda K.K.Markov (1986) geografiya uchun yer yuzasining o'tmishi, uning hozirgi manzarasini bilish uchun kalitdir deb qayd qilgan edi. Hozirgi landshaftlar o'tmish landshaftlarining vorisidir. Falsafiy til bilan aytganda, bugungi kun o'tmishining inkori va ayni paytda uning davomidir.

Har bir hudud o'ziga xos tabiiy xususiyatiga ega. Inson o'z hayoti davomida tabiatdan foydalanishda mazkur hududning tabiiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ya'ni tabiat bilan uyg'un yashashga, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanishga intiladi. Ana shunday joylardan biri Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugiga tegishli joy – Quyimozor - To'dako'l hududidir. [1].

Hozirgi kunda bu hudud ma'muriy jihatdan Navoiy viloyatining Qiziltepa tumaniga tegishli. Hududning markaziy qismida Quyimozor, To'dako'l suv omborlari joylashgan. Ushbu sun'iy ko'llar asosan Buxoro qisman esa, Navoiy hududiga tegishli obikor yerlarni hamda, Buxoro viloyati aholisini ichimlik suv bilan ta'minlash maqsadida barpo qilingan edi. Keyinchalik esa suv omborlari atrofida suv bilan bog'liq infratuzilmalar hamda Navoiy, Buxoro viloyati aholisi uchun dam olish maskanlari tashkil qilindi. Suv omborlarining janubi - sharqiy qismida esa Amu - Buxoro mashina kanalining ishga tushirilishi (1975) tufayli yangi o'zlashtirilgan maskan – O'rtacho'l vohasi barpo etildi. Hozirgi kunda mazkur hudud Navoiy va Buxoro viloyatlari chegaralariga tutash bo'lgan joyda tabiiy resurslar shiddat bilan o'zlashtirilayotgan hayotning "Qaynoq" joylaridan biriga aylanib bormoqda. Quyimozor – To'dako'l hududi Zirabuloq - Ziyovuddin tog'larining eng g'arbiy qismi etagida joylashgan bo'lib, nishab va to'lqinli relyefga ega. Mazkur hudud topografik jihatdan Buxoro vohasi yuzasidan 4-8-12-40 metr balandda bo'lib, yassi va gumbazsimon to'lqinli yuzali relyefga ega. Hozirgi davrda mazkur suv ombori atrofida ko'lmakli, botqoqli landshaftlar, dam oladigan maskanlar va ular bilan bog'liq infratuzilmalar barpo qilingan. Suv omborlarini o'rab turgan Quyimozor, To'dako'l platolaridan allyuvial negizga ega bo'lgan qurilish xomashyosi qum – shag'al ma'dani qazib olinmoqda. Shu bois kovlangan, uydin – chuqur, tashlandiq yerlar katta maydonlarni egallab yotibdi. Xullas, 1965 yillarga qadar faqat cho'l, sho'rxok yaylovzorlardan iborat bo'lgan bu maydon hozirgi kunda tobora jo'shqin hayot o'chog'iga aylanib bormoqda.[2].

Quyimozor platosidagi chag'il konlaridan foydalanish natijasida chuqurligi 5-6 metr, diametri 55-60 metr va undan katta bo'lgan xandaklar hosil bo'lgan. Joylarda ularning maydoni 0,5-4,0 gektargacha boradi. Achinarlisi shundaki, hozirgi kunda bu xandaklarga Kogon tumanidan keltirilgan chiqindilar tashlangan. Mazkur maydonlarni "buzilgan yerlar" deb qarash joiz. Ular foydali qazilmalarni qazib olish natijasida tuproq - grunt qoplami va gidrogeologik sharoitning buzilishi va texnogen relyef shakllarining hosil bo'lishi natijasida xo'jalik va estetik ahamiyatini yo'qotgan va tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yerlardir.

Buxoro vohasi chegarasida joylashgan bu texnogen landshaft 20 gektardan ortiq maydonni egallaydi. Bunday antropogen relief shakllarini O'rtacho'lning ko'p joylarda uchratish mumkin. Yilning issiq va quruq davrida bunday maydonlar deflyatsiya o'chog'i bo'libgina qolmasdan, qon so'ruvchi hasharotlarning ko'payish maskani hamdir. Bunday yerlarni agrotexnik va biologik rekultivatsiya qilish kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir.

**Xulosa.** Cho'l sharoitida yangi yerlarni sug'orma dehqonchilik maqsadlarida o'zlashtirish katta iqtisodiy, ijtimoiy samara beradi. Ammo bu borada yo'l qo'yilgan har bir xatolik tuzatib bo'lmaydigan ekologik oqibatlariga olib keladi. Amu-Buxoro kanalining ikkinchi navbatini ishga tushirilishi munosabati bilan Azkamar platosi, Qoratog', Buermana qirlari etagida yastanib yotgan bo'z tuproqlarni nishab tekisliklarni o'zlashtirishga kirishildi. ABMK ikkinchi navbatini O'rtacho'l tarmog'i qurildi va 10 ming gektarga yaqin maydon o'zlashtirildi. Tog' qirlar etagida

O'rtacho'l vohasi bunyod etildi. Qayd etish lozimki, sug'orma yerlar nisbatan unumdor, sho'rlanmagan bo'lsada, suv eroziyasiga moyil bo'lgan nishablikka ega. Sug'orma yerlarning umumiy nishabligi To'dako'l suv ombori tomon yo'nalgan bo'lib, bir kilometr masofada 4-10 metrga pasayib boradi. Sug'orma yerlar hududida zovurlar tizimi barpo etilgan bo'lib, ularning yo'nalishi To'dako'l suv ombori tomon yo'nalgan. Natijada, To'dako'l suv omborining halqasimon o'rab turgan ABMKning ikkinchi navbatining o'ng sohilidagi pastqamliklar zovur suvlari bilan to'lgan. Suv bosishi, botqoqlanish, namiqish, sho'r bosish tufayli katta maydonlarda tabiiy geotizimlar izdan chiqqan, ular o'rnida ko'l, botqoq landshaftlari paydo bo'lgan. Achinarlisi shuki, O'rtacho'l hududida hosil bo'ladigan zovur suvlari hozirgi kunda ABMKning ikkinchi navbati ustidan o'tkazilgan beton ariq-zovur orqali To'dako'l suv omboriga tashlanmoqda. To'dako'l esa Buxoro-Navoiy viloyatlarini sug'orma suv bilan ta'minlash uchun foydalaniladi. Buning ustiga ABMKning "Jayron" ekomarkazi va To'dako'l suv taqsimlagichi oralig'idagi yangi yerlarni o'zlashtirishda yo'l qo'yilgan tartibsizliklar tufayli katta maydonlar botqoqlanish, namiqish sho'rlanishga chalingan. [4].

Shu boisdan hududning geografik imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

1. Quyimozor – To'dako'l suv omborlariga yondosh yerlarda mavjud bo'lgan yalang, tashlandiq chag'il konlarining ayrim qismlari hozirgi davrda chiqindi–axlatxonalariga aylantirilgan. Bu yerlarni rekultivatsiya, ya'ni fitomelioratsiya qilish zarur. Buning uchun qorasaksovol, shuvoq, ili astragili kabi gipofitlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

2. To'dako'l suv omborining janubiy sohilida hosil bo'lgan ko'lmakli maydonlarni suv va suv bo'yida yashovchi, O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan nodir qushlar uchun buyurtmaxona tashkil qilish lozim.

3. Sho'rxok landshaftlardan samarali foydalanish maqsadida Xojkab sho'rxokligida tuz, balchiq sanatoriyasini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, bu shahar aholisiga nisbatan qulay masofada joylashgan. Ikkinchidan, tuz-balchiq terapiya xalqqa ma'lum bo'lgan an'anaviy davolash usullaridan biri bo'lib, juda foydali hisoblanadi.

Hududning inson omili ta'sirida kambag'allashuvi jarayonini yumshatish hamda landshaftlarning biomahsuldorligini oshirish maqsadida dam olish zonalari atroflarini fitomelioratsiya qilish va muhofaza choralari kuchaytirish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бозоров З. Ўртачўл, Қизилтепа, 1998. 64 б.
2. Мамадрасулов С.М. Водная проблема бассейна Зарафшана и пути и решения. Тошкент, Ўзбекистон, 1972. 214 с.
3. Mirzoyeva I.E. To'dako'l suv ombori hududining tabiiy geografik xususiyatlari. Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari. III-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2023. B.98-101
4. Назаров.И.Қ, Тошов.Х.Р. Табиий географик районлаштиришнинг методологик асослари ва амалиёт. Табиий ва иқтисодий географик районлаштиришнинг долзарб муаммолари. Тошкент, 2004. 15-18 б.
5. Ҳикматов Ф.Ҳ., Сирлибоева З.С., Айтбаев Д.П. Кўллар ва сув омборлар географияси, гидрологик хусусиятлари. –Тошкент: Университет. 2000.- 122 б.

## **EKOLOGIK TANGLIK - GEOEKOLOGIK MUAMMOLAR (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)**

**Anvarova Z.M.**

Buxoro davlat universiteti

Hozirgi ekologik vaziyat tang bo'lgan bir davrda voha va cho'l o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ilmiy jihatdan o'rganish va to'g'ri tahlil qila bilish respublika- mizda tabiatni

muhofaza qilish bilan birga uning kelajakdagi holatini ham to'g'ri barqarorlashtirishga asos bo'ladi.

Buxoro viloyat hududining 70 foizi Qizilqum cho'llariga to'g'ri keladi. uning umumiy yer maydoni 4,2 mln gektarni tashkil etadi. Shundan sug'orilib dehqonchilik qilinadigan maydonlar 273 ming gektarni, yoki 5% ni, yaylovlar esa 2,8 mln gektarni, yoki 67% ni tashkil etmoqda. Viloyatimizda dehqonchilik qilinayotgan yerlarning 20 ming gektari sho'rlanmagan, 167 ming gektari kuchsiz sho'rlangan va 58,7 ming gektari o'rtacha sho'rlangan (1-jadvalga qarang). Shuning uchun yer osti suvlarning sathi 0,2 m dan 5 m gacha ko'tarilgan.

Buxoro viloyatining sho'rlangan ekin maydonlari va yer osti suvlari sathining balandligi (2019 y.) 1- jadval

№	Yerlar	Umumiy maydoni,	Yer osti suvlari sathining balandligi, m
1	Sho'rlangan yerlar	31297	3-5
2	Kam sho'rlangan yerlar	150932	2-3
3	O'rtacha sho'rlangan yerlar	58725	1,5-2,0
4	Kuchli sho'rlangan yerlar	26754	1,0-1,5
5	Sho'rxok yerlar	1727	0,2-1,0

Voha va cho'l termogidrodinamik va gidravlik jihatdan o'zaro aloqadorlikda rivojlanuvchi geotizimlardir. Voha va cho'l geotizimlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik eng avvalo ularning litologik-geomorfologik sharoitlarining bir-birlariga yaqinligidadir. Ular asosan allyuvial delta, daryolarning prolyuvial-allyuvial terrasalarida, prolyuvial shleyf va konus yoyilmalarida mujassamlashgan tabiiy hududiy majmualardir. Bu geotizimlarning ma'lum qismini yoki to'lig'icha dehqonchilik ishlarida foydalanilishi ular o'rtasidagi aloqadorlikni ma'lum qonuniyatlar asosida davom etishiga olib keladi. Geotizimlar o'rtasidagi issiqlik, namlik, turli tuzlar va boshqa moddalar bilan bo'ladigan o'zaro almashinuv, avvalo yer usti oqar suvlari, sizot suvlari hamda shamol yordamida amalga oshadi. Bu aloqadorlikda voha tabiatiga atrofdagi cho'lning va vohaning cho'l tabiatiga bo'ladigan ikki taraflama ta'sirini to'g'ri aniqlash lozim.

Voha geotizimlarining atrofidagi cho'l tabiatiga ta'siri. Vohalardagi ekin maydonlari, sug'orish (irrigatsiya) shoxobchalaridan gruntga sizib o'tgan suvlar voha atrofidagi cho'lda sizot suvlarining sathi va minerallashuv darajasining o'zgarishiga bevosita ta'sir etadi. O'sha hududlarda namlik miqdori ortadi. Vohaning ta'sir doirasining katta-kichik bo'lishi joyning litologik-geomorfologik tuzilishi bilan bog'liqdir. Sizot suvlarning yer yuzasiga juda yaqin joylashgan (0-1, ba'zan 2-3 m) mintaqada zax suvlari to'planishidan subakval (ko'l) hamda superakval (ko'l-botqoq) geotizimlar rivojlanadi (masalan, Buxoro vohasining janubida voha bilan Amu-Buxoro kanali oralig'idagi pastqamliklarda va h.k.). Vohadan uzoqlashgan sari sizot suvlarining sathi pasayib, ta'siri kamayadi.

Muntazam inson nazoratida bo'lgan vohalar doimo atrofidagi cho'l ta'sirida bo'ladi. Vohalarda sug'orish tugallanishi bilan sizot suvlarning sathi asta-sekin pasaya boshlaydi. Nihoyat, qishki sho'r yuvish boshlanishi oldidan eng past darajaga tushadi. Shundan so'ng atrof cho'ldan sho'rlanish darajasi nisbatan ancha yuqori bo'lgan (har litr suvda 10,0 g dan ortiq) sizot suvlari vohalarga tomon sizib kela boshlaydi. Ayniqsa, voha atrof-cho'ldan pastqamroq joyda bo'lsa, sizot suvlarining kelishi tezlashib, tuproqda tuz to'planishi ham jadallashadi.

Cho'ldan esuvchi shamollar ham odatda turli chang, tuz va qum zarrachalarini vohalarga keltiradi. Yozda bir necha kun janubdan esuvchi, afg'on" shamoli ham O'zbekistonning janubiy vohalariga ancha miqdorda chang va qum zarrachalarini keltiradi. Ayrim vohalarda sug'oriladigan yerlarning qum bosishi avj olmoqda. 1992 yilda Xorazm vohasining 200 gektardan ortiq sug'oriladigan yerini qum bosganligi sababli qishloq xo'jaligida ancha yillardan buyon foydalanilmay kelmoqda.

Yer usti suvlari vohalardagi yerlarning meliorativ holatiga bilvosita, ya'ni grunt suvlari orqali ta'sir ko'rsatadi. Yer usti suvlari – sug'orish kanallari, suv omborlari, deltalarning daryo

tizimlari – grunt suvlari to‘yinishining mahalliy manbasi bo‘lib, tuzlarni aralashishi va erishida, ularni tuproq-gruntda saqlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. V.A. Kovda (1968) ta’kidlaganidek, yer usti suvlari sug‘orish vaqtida tuproqda akkumulyatsiyalanadigan tuzlar manbai, sug‘orma suvlarning ifloslanish darajasi sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish darajasini belgilaydi. Tuproq qoplami – vohalardagi sug‘oriladigan yerlar holatining indikator bo‘lib, tuproqlarni baholash natijalari asosida agrogeotizimlarning meliorativ sharoiti holati to‘g‘risida umumiy xulosa qilish mumkin. Vohalarda yerlarning meliorativ holatini belgilovchi bosh omil tuproqlarning suv-tuz tartibi hisoblanadi. Gruntning tabiiy suv o‘tkazuvchanligi vohalardagi meliorativ sharoitning umumiy holatini, tuz to‘planish va sho‘rlanish, suv toshqinlari, botqoqlanish va grunt suvlari sathining chuqurligi, drenaj turlari va ularning texnik jihatlarni belgilaydi.

Ma’lumotlarga qaraganda yillik yog‘ingarchilik miqdori Buxoro viloyatida 125 mm ni tashkil etmoqda. Yerlarni sug‘orish natijasida hosil bo‘lgan tuproq qalinligi (agroirrigatsion qatlam) 2-3 m ni tashkil etmoqda. Ma’lumotlarga qaraganda, 3 yillik beda tuproqda 600 kg azot va 20 tonna chirindi (gumus) to‘playdi. Tuproqning fizik xossalari (ya’ni tuproqning zichligi, suv o‘tkazuvchanligi va suv sig‘imi) ni yaxshilash uchun tuproq zarrachalarining o‘lchami 0,25 mm dan kattaroq bo‘lishi kerak. Ammo paxta yakka hokimligi tufayli tuproq tarkibidagi chirindining miqdori 40% ga kamaydi. Chirindi (gumus) tuproq unumdorligining asosiy omilaridan biri hisoblanadi. O‘simliklar ozuqa moddalarining asosiy qismini chirindi tarkibidan qoplaydi. Tuproqning haydov qatlamida chirindining miqdori 0,5-1,5% ni, fosfor 0,13-0,19% ni va azot 0,03-0,09% ni tashkil etadi. Hozirgi paytda faqat 15-20 % maydonlarga go‘ng kiritiladi, xolos. Paxta dalalarida yomg‘ir chuvalchangi deyarli yo‘qolib ketdi, natijada tuproq zichligi ortdi. Go‘ngdan unumli foydalanish o‘simliklarda suv miqdorini 20-25% ga tejash imkonini beradi. Yuqori hosildorlikka erishish uchun mahalliy o‘g‘itlarni 15-20 sm qalinlikda tuproq bilan qo‘shib, uni sug‘orish shart. Natijada go‘ng 3-4 oy davomida yaxshi chiriydi va tuproqning gumus qatlami yaxshilanadi.

Hozirgi vaqtda fosforli o‘g‘itlar (superfosfat, ammos, nitrofos) ning 12-15% ni, azotli o‘g‘itlar (ammiak selitrasi, karbamid, ammoniy sulfati) ning 30% ni, kaliyli o‘g‘itlar (kaliy tuzi, kaliy xlor tuzi, kaliy fosfati) ning 30-40% ni o‘simliklar o‘zlashtirib, ularning qolgan qismi atrof-muhitni ifloslantirmoqda. Ba’zi-bir rivojlangan mamlakatlarda har bir gektar ekin maydoniga 2 kg pestitsidlar ishlatilsa, viloyatimizda 11 kg dan ishlatib kelindi. Qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish maqsadida me‘yoridan ortiq madaniy o‘g‘itlardan foydalanish va zararkunandalarga qarshi kurashda zaharli ximikatlardan foydalanish oqibatida tuproq tarkibidagi gumus miqdori me‘yoridagi 1,5-2,0% dan 0,3-0,5% ga kamayib borayapti. Bu esa, o‘z navbatida, tuproqning zaharlanishidan, biologik va biokimyoviy jarayonlarning izidan chiqqanidan dalolat beradi. Viloyatimiz xo‘jaliklarida 1991-1995 yillar davomida har bir gektar yerga kiritilgan organik o‘g‘itlarning miqdori 6-11 tonnaga, yalpi tayyorlangan o‘g‘itlarning miqdori esa 1,9-2,5 mln. tonnaga oshdi. Bundan tashqari, organik va mahalliy o‘g‘itlarni jamg‘arish, biogumus tayyorlash va almashlab ekish ishlari bugungi kun talablariga javob bermayotir. Hozirgi paytda viloyatimiz miqyosida 70 dan ko‘proq biolaboratoriyalar mavjud bo‘lib, qishloq xo‘jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi yiliga 350 ming gektarga biologik ishlov berilmoqda. Bu o‘z navbatida, zaharli ximikatlardan zaharlanishni kamaytirmoqda.

Buxoro viloyati ekinzorlariga kimyoviy moddalardan foydalanish ko‘rsatkichlari (ming tonna) quyidagi 2-jadvalda ko‘rsatilgan.

№	Kimyoviy moddalar	Yillar 1990 -1991
1	Jami kiritilgan pestitsidlar	85,9 - 59,8
2	Gerbitsidlar	3,2 - 1,1
3	Defoliantlar	38,8 - 34,6
4	Oltinugurt preparati	37,2 - 20,9
5	Biopreparatlar	0,1 - 0,1



Ammo yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining tarkibini kimyoviy tahlil qilish ishlari qoniqarli ahvolda deb bo'lmaydi. Ko'pincha mahsulotlar tekshirishdan o'tkazmasdan to'g'ridan-to'g'ri qayta ishlash korxonalariga yoki iste'molchilarga yuboriladi. Natijada aholi o'rtasida turli kasalliklar kelib chiqmoqda. Ma'lumki, 1 gektar yer maydonining meliorativ holatini yaxshilash uchun 26 pog'ona metr zovur kerak bo'ladi. Ammo viloyat miqyosida zovurlar 5-10 yillar davomida tozalanmasdan qolgani tufayli, Qorako'l, Olot, Jondor, Kogon, Romitan va Peshku tumanlarida bu ko'rsatgich ancha past va bugungi kun talablariga javob bera olmayapti.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro viloyatida ekologik tanglikni oldini olish maqsadida qishloq xo'jalik tarmoqlarida meliorativ va sug'orish tadbirlarini to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirish, zararkunandalarga qarshi kurashda biologik kurash usullaridan yanada kengroq foydalanish, qum va changlarning ko'tarilishi hamda yaylovlarning mahsuldorligini oshirish uchun esa yashil maydonlarni kengaytirish yaxshi iqtisodiy samara beradi.

#### Adabiyotlar

1. Ekologiya huquqi. Darslik. / Mas'ul muharrir: M.B. Usmonov. - Toshkent: TDYI, 2006. - 361 b.
2. Ekologicheskoe pravo Respubliki Uzbekistan. Uchebnik dlya studentov, obuchayushixsya po spetsialnosti «Pravovedenie» // Avtorskiy sostav: Rustamboev M.X., Usmanov M.B., Juraev YU.A. i dr. // Otvetstvennye redaktory: Skripnikov N.K., Juraev YU.A. - Tashkent: TGYUI, 2006. - 415 s.
3. Nigmatov A.N. O\_zbekiston Respublikasining Ekologiya huquqi. Darslik. - Toshkent: TDYUI, 2004. - 320 b

## ABIOTIK OMILLAR VA ULARNI O'RGANISHNING ILMIIY-AMALIY AHAMIYATI

**Adizova H.R., Fayziyeva F.A.**

Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Yer yuzida uchraydigan turli organizmlarning hammasi o'z-o'zidan yashamaydi, ularning ko'payishi, rivojlanishi va tarqalishi atrof-muhit omillari ta'sirida boradi. Tirik organizmlarni o'rab turgan, ularga turli xil yo'llar bilan ta'sir qiladigan jonli va jonsiz tabiat kuchlari, komponentlari oddiy bir tabiiy manzara emas, balki bir-biri bilan bog'langan tabiiy ekologik omillar bo'lib, ularga organizmlar moslashadi.

**Kalit so'zlar:** Organizm, atmosfera sirkulyatsiyasi, geografik zonalar, tabiat komplekslari, fitomelioratsiya

**Аннотация:** Встречающиеся на земле, не все различные организмы, живут сами по себе, их размножение, развитие и распространение происходят под влиянием факторов окружающей среды. Силы живой и неживой природы, окружающие живые организмы, воздействующие на них по-разному, составляющие не простой природный ландшафт, а взаимосвязанные природные факторы окружающей среды, к которым организмы приспособляются.

**Ключевые слова:** Организм, атмосферная циркуляция, географические зоны, природные комплексы, фитомелиорация

**Abstract:** Not all different organisms found on earth live by themselves, their reproduction, development and distribution occur under the influence of environmental factors. The forces of living and inanimate nature surrounding living organisms that affect them in different ways, make up a complex natural landscape, and interrelated natural environmental factors to which organisms adapt.

**Keywords:** Organism, atmospheric circulation, geographical zones, natural complexes, phytomelioration

Mamlakatimizda 2023 yilni **“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”** deb e’lon qilinishi oliy ta’lim tizimida mehnat qilayotgan ziyolilar zimmasiga juda muhim va strategik vazifalarni yukladi. Shulardan biri universitetdagi har bir tayyorlanadigan mutaxassislarni o’ziga tegishli fan sirlarini, ayniqsa ekologiya fanlarini chuqur bilishlarini ta’minlashdir. Bu mutaxassislar hududlar iqtisodiyotining barqarorligini saqlash, birinchi navbatda qishloq xo’jalik tarmoqlarida yetishtirilayotgan mahsulotlar umumiy hajmini turg’unlashtirish va ularni uzluksiz ko’paytirishda ishtirok etishadi.

Ma’lumki, yer yuzida uchraydigan turli organizmlarning hammasi o’z-o’zidan yashamaydi, ularning ko’payishi, rivojlanishi va tarqalishi atrof-muhit omillari ta’sirida boradi. Tirik organizmlarni o’rab turgan, ularga turli xil yo’llar bilan ta’sir qiladigan jonli va jonsiz tabiat kuchlari, komponentlari oddiy bir tabiiy manzara emas, balki bir-biri bilan bog’langan tabiiy ekologik omillar bo’lib, ularga organizmlar moslashadi.


Bugun biosferaning kelajagini, nafaqat bugungi kuni, balki ertangi kunini o’ylaydigan madaniyatli, aql-zakovatli kishilarni topish qiyin emas. Biosfera taqdiri bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan tabiiy, texnogen, ma’naviy element sifatida qabul qilinmoqda. Ko’pchilikka hozirgi kunda ijtimoiy muammolar ekologik muammolar bilan chambarchas bog’liqligi sir bo’lmaganligi kabi, zamonaviy ekologiya ham o’z navbatida sotsiologiya, siyosatshunoslik, etika, ma’naviyat va boshqa ijtimoiy fanlarsiz o’z ma’nosini yo’qotadi. Yuqorida qayd etilganlardan mantiqan ekologiyaning dunyoqarashni shakllantiruvchi funksiyasi kelib chiqadi, ya’ni inson o’zi ham tabiatni bir bo’lagi ekanligini his etishi, tabiiy jarayonlarga o’z ta’sirini ko’rsatishi, iqtisodiy va ekologik qiziqishlarni hisobga olishi shart.

Talabalarning ekologik bilimlari majmuini iqlimshunoslik, agroiqlimshunoslik va bioiqlimshunoslik yo’nalishlaridagi (iqlim, agroiqlim, bioiqlim) tushunchalar boyitadi. Ma’lumki, qishloq xo’jalik tarmoqlarini rivojlanishi har bir mintaqaning joylashgan o’rniga, qolaversa birinchi navbatda iqlimiga bog’liq. Demak, har bir qishloq xo’jalik sohasini rivojlanishi hududning bevosita agroiqlimining xususiyatlari ta’sirida bo’ladi. Iqlim deb, ma’lum joyda ob-havoning ko’p yillik takrorlanishiga aytiladi. Iqlim ham ob-havo singari, bir necha omillarga bog’liq. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Quyoshning yoritishi va isitishi
2. Atmosfera sirkulyatsiyasi
3. Yer usti tuzilishi
4. Okean va dengizning yaqin yoki uzoqligi

Rus olimi N.F.Reymers iqlimni o’ziga xos tabaqalarga ajratgan (1-chizma). Jumladan, geografik zonalar iqlimiga artika iqlimi, tayga iqlimi, tropik cho’l iqlimi va boshqalarni misol qilgan.

1-chizma  
Iqlim klassifikatsiyasi (N.F.Reymers bo’yicha)



Agroiqlim deganda, iqlimning qishloq xo’jalik ishlab chiqarishida muhim omil sifatidagi ishtiroki tushuniladi (Reymers, 13 b.). U abiotik omillar toifasiga kiradi. Demak, harorat, yog’in

va boshqalar agroiklim ko'rsatgichlarini ifodalaydi. Bular bir vaqtni o'zida fiziologik omil ham bo'ladi. Masalan, atmosfera havosi tarkibidagi yoki tuproqdagi nisbiy namlik abiotik omil sifatida chiqitning unib chiqishidan hosilning yig'ib olishigacha (ijobiy yoki salbiy) ta'sir qiladi.

Kuzatuv davomida aerotenkda oqova suv tarkibidagi organik moddalar birinchi navbatda bakteriyalarning faoliyati, miqdori xilma-xilligi bilan belgilanishi qayd qilingan. A.G. Rodina (1965) ning bergan ma'lumotlariga ko'ra oqova suv tarkibida bakteriyalar oqova suv tarkibidagi organik ifloslantiruvchi moddalarni parchalanishi logoritmik grafik fazada amalga oshadi, qolgan etaplarda bakteriyalar zoogel (loyqa) fazasiga o'tishi qayd qilingan. Oqova suvni organik moddalardan tozalanish nitrofikatsiya jarayonida ishtirok qiluvchi aerob bakteriyalar ishtirokida parchalanish davrida mikroorganizmlar tarkibi xilma-xilligini kuzatish mumkin. Mikroorganizmlar oqova suv tarkibida organik moddalarni o'z hayotiy faoliyatiga ozuqa sifatida foydalanishga asoslangan. Oqova suv tarkibida nitrofikatsiya jarayonini jadallashuvi ya'ni suvda erigan kislorod miqdorini (4-6 mg/l) ammoniy tuzlar, azot ikki oksidlari nitratga o'tishi bilan faol il tarkibida kolvratka vakillari turg'in va erkin suzuvchi infuzoriyalar o'rnini egallab dominantlik qila boshladi. Bulardan lekana, braxionus, mikrokolidiya, asplanxiya va keratellaning bir nechta turlari dominant turlar qatoridan o'rin olishi o'tkazilgan tahlil va test sinovlarida o'z aksini topdi.

Oqova suvning indeksi deganda il tarkibidagi organizmlar miqdorini bildiradi. Faol ilning ta'sirchanlik darajasi bo'yicha maxsus ko'rsatkichlari tarjibalar orqali aniqlandi. Tasirchanlik darajasi seriodafniyalar yordamida tez tajriba sinovlar o'tkazish yo'li bilan aniqlandi. Bunday tez tajribalar Buxoro viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi tahlilxona mutaxassislari bilan hamkorlikda tozalash inshootidan olingan namunalardan amalga oshiriladi.

Buxoro Shahar tozalash inshootining aerotenksida uchraydigan faol il tarkibida 120 dan ortiq mikroorganizmlar qayd qiladi. Ko'p xollarda faol il tarkibi 20-25 ta doimiy turlari uchraydi va ulardan 15 tasi dominant hisoblanadi. Kop turlar kam sonli, doim ham uchramasligi mumkin. Faol il tarkibida indekator organizmlar mavjud bo'lib, oqova suv tarkibidagi organik moddalarga moslashgan.

Faol il tarkibida mikroorganizmlar dominant turlar sifatida qayd qilindi:

Amyobalardan- *Pelomyxa palustris*.

Infuzoriyalardan- Colpidium Cotruit, Colpidium Colpoda, Euplotes charon, Chilodou Cuculatus, opesculariya coarstata, Poramaeccium caudatum, Vorticella microstoma, V.convulariya, Philodnia rosiola, calidina vorax, acpidiska turuda.

Kolovratkalaridan- Keratela longispina, Notholca longispina, Keratela quadrata, Leucane lunaris, Rotaria rotatoria, Filin asp, Asplanchna vitullus, Braxionus sp va boshqalar.

Rangsiz kipriklilar-faol il oqova suv tarkibida organik moddalar ko'p bo'lgan yuqori yuklama holatida ishlaganda va suvda erigan kislorod miqdori 2mg/l dan past hollarda uchraydi va uning o'lchami 10mk atrifida qayd qilindi .

Yaxshi rivojlangan faol il tarkibida turg'un va erkin suzuvchi infuzoriyalarni dominantligi yuqori il indeksi 250mg/l ko'rsatkichlardan dalolat beradi. Ipsimon bakteriyalar- Cladothriks va sphaerotilus oqova suv tarkibida asosan ulevodorodlar bilan ifloslangan hamda tekstil sanoati oqova suvlari tarkibida ishqoriy yoki kislotali muhit bo'lganda, tozalashda ishtirok qilishi kuzatildi. Hatto bu bakteriyalar ovqatlanish turiga qarab cladothriks azotni har qanday birikma tarkibidan sintezlaydi va sphaerotilus faqat organik azot hisobiga o'sadi va uzun iplar hosil qiladi. Aerob sharoitida yaxshi rivojlanadi va faol il tarkibida g'ovaklashtirib il massasini ko'piksimon shishlar hosil qiladi.

Ipsimon seriobakterialar-sanoat oqova suvlari tarkibidagi serovodorodni va maishiy xo'jalik oqova suvlar tarkibidagi achigan oqsillarni tozalashga ixtisoslashgan. Serovodorodni oksidlash ikki fazada amalga oshadi. Dastlab serovodorod oltingugurtga oksidlanadi. Kislorodsiz sharoitda (anaerob) serovodorodni oksidlanish jarayoni to'xtaydi.

Oqova suv tarkibi kislotali muhitga ega bo'lganda aerotenk devorlarga yopishgan holda Fusarium aquaeductum zamburug'I rivojlanadi. Faol il yuklamasi yuqori kislorodning biologic singdirilishi(KBS-5) 15-20mg/l bo'lib erigan kislorod miqdori 2mg/l dan past bo'lganda Vertitsella bakteriya turi paydo bo'ladi. Faol ilni regeneratsiya davrida vertitsella (infuzoriya) ilni shakllanishida vujudga keladi. Noqulay sharoitda oqova suv tarkibida erigan kislorod miqdori meyordan past(2-3mg/l) suv muhiti kislotali (pH6-5) bo'lganda, o'ta tasirchan moddalar kirib kelishi sharoitida faol il tarkibidagi infuzoriyalari sista hosil qiladi.

Faol il tarkibida infuzoriya vakillari Aspidisca kcosta, A. turida doimiy uchraydi, ayniqsa yoz faslida dominant bo'lib oqova suv tarkibida nitrofikatsiya jarayoni jadallashtirishi qayd qilindi.

Kolovratkalarini bir qator vakillari lecanne, braxionus, mikropoludiya, karatella, asplanhina kabi turlarida kislorod yuqori(4-6mg/l) bo'lganda va faol il uchun ozuqa yetarli sharoitda bu turlar yaxshi rivojlanadi. Aerotinkning qoniqarli ishlashi faol il tarkibiga uning xilma-xilligiga bog'liq bo'lib qaysidir turlarni dominantligiga asosiy omillardan hisoblanadi. Dominant turlarning faolligi harakatchanligi hatto faol ilning tashqi ko'rinish rangi ham katta ahamiyatga ega. Faol harakatchan (jonlu) ilning ko'rinishi jigar rang tusda bo'ladi.[5,7,9]

Aerotenkda faol ilni ochlik davri ham qayd qilinadi. Bu davrda faol il rangi oqish-yashil tus oladi. Bunday holat oqova suv tarkibida ozuqa organik moddalar kam bo'lganda il tarkibidagi infuzoriyalarning bir qismi nobud bo'ladi va bir qismi sistaga aylanadi. Kolovratkalarining vakillari bir muncha keyinroq sista hosil qilib, aerotenk ostiga cho'kadi. Faol il rangsizlanadi va cho'kma hosil qilgan il usti rangini hosil qiladi. Aerotenkda oqova suvlarni tozalanish samaradorligi uchta muhim ko'rsatkichlarga bog'liqligi qayd qilindi.

\*Oqova suvni aerotsiyalash davriga;

\*Faol ilning konsentratsiyasiga va ilni regeneratsiyasiga;

\*Aerotenk sarflanadigan havo hamiga

Buxoro Shahar oqova suvlarini tozalash inshootining aerotenkda mikroorganizmlar yordamida tozalash samaradorligi faol ilning dozasi 5j/l dan yuqori ko'rsatkichi bilan belgilanadi. Faol ilning indeksi esa 100-250mg/l oralig'ida qayd qilindi. Bu ko'rsatkichni o'zgarishi oqova suvlarni tozalanishga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tozalangan suvning shaffofligini pasayishiga yoki oshishiga olib keladi. Shaffoflik ko'rsatkichi 3-4 sm va

undan yuqori bo'lsa, boshqa ekologik umumiy sanitariya ko'rsatkichlar yuqori darajada tozalashni ta'minlaydi.

Bioprutlar 3-4 bosqichdan iborat. Havzalarda bakteriyalar fotosintez jarayonida hosil bo'lgan kislorodni ifloslantiruvchi moddalarni oksidlash uchun sarflanadi. Yuksak suv o'simliklari o'z navbatida organik moddalarni biokimyoviy parchalanishida hosil bo'ladigan CO<sub>2</sub> gazini azot nitratlarni iste'mol qiladi va ko'p miqdorda fitomassa hosil qiladi. Jumladan Buxoro Shahar tozalash inshootining bioprudlaridan birida o'tkazilgan tajribalarda (Yuldoshov 2022) 1 m kv yuzaga 150g kichik ryazka (lemna minor) o'simligini ekib 8 kun davomida 625 g biomassa hosil qilishi aniqlangan.

Tozalash inshootining biogen moddalardan mavsumiy tozalash samaradorligi 3-jadvalda keltirilgan malumotlarga ko'ra, ammoniy tuzlardan bahor-yoz fasllarini 95-96% gacha kuz- qish fasllarida esa 91% gacha tozalanish qayd qilindi. Xuddi shunday ko'rsatkichlar nitratlardan tozalashda ham 87,4% dan 93% gacha tozalanishi, fosfatlardan esa 93-97% gacha tozalanishiga erishildi.

To'liq tozalangan oqova suvlar bioprudlardan o'tib, zararsizlantirilib, zooplanktonning *Daphnia longispina* Mull vakili yordamida 48 soat davomida bir necha bosqichda sinov tajribalar o'tkazildi. Tajribada Daphnianing 5-7 kunlik naupliylari (lichinkalari) yordamida o'tkazilgan test tajribalar 85-90% yashab qolganligi qayd etildi.

### **Xulosa**

1. Tozalash inshootida mikroorganizmlarning faolligini taminlash va yuqori tozalash samaradorligini oshirish maqsadida aerotenkda kislorodning miqdori 4,6 mg/l hamda il indeksi 150 mg/litrdan past bo'lmasligini ta'minlashga erishish. 2. Tozalangan oqova suvlardan texnik ekinlarni va manzarali ko'chatlarni sug'orishda foydalanish tavsiya qilindi.

3. Ilk bor "Buxoro suv ta'minoti" MCHJ ga qarashli tozalash inshootida mikroorganizmlarning 120 dan ortiq turi aniqlandi va ularning 15 turi dominant indekator turlar hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Pardayev Sh. S, Hikmatov U. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ekologik holati. Barqaror rivojlanishning muhim ekologik holatlari. Buxoro 2013, 9-12b

2. Pardayev.SH, Niyozova. F, Xayriyeva. D," Oqova suvlarni tozalashning muhim ekologik omillari ". "Mintaqada yuzaga kelgan ekologik muamolarini yumshatish omillari " Buxoro 2019

3. Пардаев Ш, Пардаев О. Ш. "Гидробиологические методы очистки сточных вод". Материали научнотеорической конференции. Навои 1996, 74-75

4. Пардаев Ш., Неизвестнова И.А. "Некоторые аспекты работы Бухарских городских очистных сооружений и пути повышения эффективности". Теоретические и прикладные проблемы экологии. Бухара 1992, 48-51 ст.

5. Mustafoyeva B.O. Shamsiyeva N.A "Биологическая очистка стоков" barqaror rivojlanishning muhim ekologik omillari. Buxoro 2023 144 b.

6. Родина А.Г. Методы исследования качества водной микробиологии, практическое руководство. "Наука" 1965 г.

7. Унифицированные методы исследования качества вод. "Атлас сапробных организмов" Москва 1977 г.

8. Унифицированные методы исследования качества вод. "Методы биологического анализа вод" Москва 1976 г.

## SOYA NAVLARI BIOEKOFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

**Norboeva Umida Toshtemirovna**

Buxoro davlat universiteti professori, biologiya fanlari doktori

**Hamroqulova Nargiza Komilovna**

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti  
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

**Kirish.** Inson iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarida oqsilning yetarli bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, inson bir sutkada iste'mol qiladigan ovqat mahsulotlari kaloriyasining 12 foizini yoki 90-100 grammni oqsil tashkil etishi kerak. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 90-95 grammga, endigina taraqqiy etib kelayotgan mamlakatlarda esa 20-25 grammga to'g'ri keladi. Ayniqsa, o'simlik oqsiliga bo'lgan talab juda katta, yer yuzi bo'yicha o'simlik oqsili ishlab chiqarish talabga nisbatan 4 marta kamdir.

Oqsilga bo'lgan talab to'xtovsiz oshishi natijasida jahon bozorida uning bahosi ortib bormoqda. Shuning uchun ham o'simlik va hayvon oqsili yetishtirish va kishilarni ta'minlash asosiy masala bo'lib, oqsil eng muhim strategik mahsulotga aylanib bormoqda. Bu muammoni hal qilishning asosiy yo'li oqsilga boy o'simliklarni, shu jumladan, soyani keng maydonlarga ekilishini joriy qilish va almashlab ekish strukturasi kiritish zarur.

Soya donida navlariga va yetishtirish sharoitlariga bog'liq holda 40-45% gacha oqsil, 20-26% yog', 25-30% uglevodlar, 6% gacha mineral moddalar va 12 xil asosiy vitaminlar mavjud. Soya doni tarkibida barcha almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar uchraydi. Soya donidan mingdan ortiq parhez oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlanadi. Soya donining kunjarasi hayvonlar uchun to'yimli seroqsil ozuqa hisoblanadi. Dunyoda ishlab chiqarilayotgan o'simlik yog'ining 40% ni soya yog'i tashkil qiladi. Shu bois, bu o'simlikka olim va tadqiqotchilarning e'tibori ortib bormoqda: har yili soyaning yangi navlari yaratilmoqda, turli genotiplarning bioekologik, fiziologik va biokimyoviy xususiyatlari o'rganilmoqda, soya navlari yetishtirishning mintaqaviy agrotexnologiyalari yaratilmoqda.

Dunyo dehqonchiligida soya dukkakli don va moyli ekinlar orasida eng ko'p ekiladigan o'simlikdir. AQSh, Braziliya, Argentina, Xitoy va Hindistonda soyaga e'tibor katta bo'lib, ularga dunyoda soya ekiladigan maydonlarning 90% ga to'g'ri keladi. Keyingi yillarda Kanada, Italiya, Frantsiya, Boliviya va Rossiya mamlakatlarida ham soya yetishtirishga katta e'tibor berilmoqda. Keyingi 20 yil mobaynida soya donini yetishtirish 2,16 barobar (yiliga 130 mln. tonna), ekin maydoni 1,6 marta va hosildorligi 1,35 marta oshgan [1,2].

**Asosiy qism.** Soyadan yuqori va sifatli hosil olish kompleks muammolarni yechishni taqozo qiladi. Bulardan asosiysi – soya yetishtirishning mintaqaviy agrotexnikasini ishlab chiqish va muayyan tuproq-iqlim sharoitlariga mos soya navlarini tanlashdir. Bu esa o'z navbatida soya navlarining bioekologik xususiyatlarini aniqlashni va muayyan mintaqaning tuproq-iqlim xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Soya navlarining biologik xususiyatlarini yaxshi bilmaslik ekish muddatlari va agrotexnik tadbirlarni noto'g'ri belgilanishiga, pirovardida o'simliklar hosildorligining keskin kamayishiga olib keladi.

Vavilov N.I. (1989) o'z ma'lumotlarida turli (*Glicine hispida*) navlarining o'sishi, rivojlanishi, tashqi muhit omillari ta'sirida o'zgarib borishini ta'kidlab o'tgan. Soya o'simligi madaniy o'simliklar orasida biologik omillarga o'ta moslashuvchan o'simliklar turiga kiradi. Tashqi muhitga tez moslashuvchi bo'lgani uchun ham uning maydonlari shimoliy va janubiy qutblarga kengayib ketmoqda [3].

Soya navlaridan yuqori hosil uchun avvalo, ularning ma'lum tuproq iqlim sharoitiga mosligini aniqlab olish zarur, deb yozadi Yormatova D.Yo. va boshqalar (2017 y) qayd etishlaricha, eng ma'qul deb tanlangan muddatda soya urug'larining unib chiqishi uchun

tuproqda issiqlik, namlik va havo rejimlari qulay bo'lishi kerak. O'sish va rivojlanish xususiyatlarini belgilaydigan asosiy agrotexnik tadbirlardan biri ekish muddati, deya olimlar xulasa qiladilar. O'simlikning biologik xususiyatlari, nav belgilari va mazkur hududning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda belgilanishi lozim [4].

Bir qator olimlar - Yenken V.B. (1959); Yormatova D.Yo. va boshqalar (2017); Babich A.A. (2014); Baranov V.F., Ugo Toro Korrea, Yefimov A.G. (2006), Baranov V.F., Lukomes V.M. (2005), Buxanova L.A. va b. (2011) olib borgan tajribalar ko'rsatishicha, tuproq yuzasi 12-18 °C qiziganda soya urug'larini ekish uchun juda qulay vaziyat vujudga keladi [5,6,7,8,9,10,11].

Yormatova D.Yo. (2014) fikricha O'zbekistonda soyani juda erta yoki mart oylarida tuproq qizimasdan turib ekish natijasida urug'larning 12-15%i chirib ketmoqda yoki unib chiqqan maysalar ham kasalliklarga chalinmoqda. Mart oyi oxirlarida tuproq harorati 10-12 °C tashkil etadi. Bunda unib chiqish darajasi pasayadi, sustlashadi, tuproq harorati 14-15 °C bo'lganda esa oshadi. Takroriy ekin sifatida ekilgan soya tuproq harorati 20-24 °C bo'lganda 3-4 kunda unib chiqadi va urug'lari nobud bo'lishi kuzatilmaydi[12].

Atabaeva X.N., Isroilov I. (2003) ma'lumotlariga ko'ra, ekish muddatini belgilashda navlarning o'suv davriga e'tibor berish lozim. Takroriy ekilganda o'rtapishar Orzu va o'rtapishar O'zbekiston-2 navlari pishib yetilgan, ammo kechpishar O'zbekiston-6 navi pishmagan va bu nav ko'k poya sifatida o'rib olingan [13].

Litvinov V.D., Sevastyanov A.A. (2006) tajribalaridan ma'lum bo'ldiki, o'rganilgan soya navlaridagi biologik hosildorlik ekish muddatlariga qarab o'zgarib boradi. Bu o'simliklar o'sish va rivojlanish uchun ortiqcha agrotexnik tadbirlar talab qilmaydi, biologik xususiyatiga ko'ra, tuproq turlariga ham talabchan emas. Umuman olganda, o'rganilgan adabiyotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, soya navlarining o'sib-rivojlanish va hosildorligi agrotexnik tadbirlar va biologik omillar ta'sirida o'zgarib boradi.

Soya turlari va shakllarining xilma-xilligini o'rganar ekan, olimlar uni asosan uchta markazda shakllangan deb xisoblashadilar: Janubiy-Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Sharqiy Afrika. Ammo ko'pgina olimlar o'simlikning kelib chiqishi deb Xitoy markazini ko'proq tan olishadi - Xitoy, Koreya, Xindiston, Yaponiya. Yevropa va AQShda soya 1712-yilda paydo bulgan. Ko'p asrlar davomida soya va uning maxsulotlari sharq mamlakatlari axolisi uchun asosiy oqsil manbasi sifatida xizmat qildi. Xitoyda soya 6-7 ming yil avval madaniylashtirilgan. U Yaponiya, Xindiston va Indoneziya, Vetnam va Osiyoning boshqa mamlakatlarida xam qadimdan yetishtiriladi. Xitoydan Uzoq Sharqqa soya eramizdan 3 ming yil avval kirib borgan. Xitoyliklar soyani qadimdan oziq-ovqatda ishdatishtgan. An'anaviy soya maxsulotlari - tofu, soya suti, soya sousi xitoyliklarning yoqimli oziqalari bo'lib xisoblanadi.

Soyaning turli mamlakatlarda keng maydonlarda yetishtirilishining boisi shundaki, uning doni va yashil massasi to'yimli bo'lib, oziq-ovqat, yem-xashak, texnik va tibbiyot sohalarda soyani ishlatish mumkin.

Soya o'simligi o'sishi va rivojlanishi uchun asosiy talablar bir nechta olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan.D.Y.Yormatovaning [12] ta'kidlashiga ko'ra soya O'zbekiston sharoitiga introduksiya qilingan o'simlik hisoblanadi, chunki respublikaga bu o'simlik XX asrdagina kirib keldi. Dastlab 1933-1935 yillarda soya ekilgan va soya issiq haroratda o'smaydi degan noto'g'ri xulosa bilan uzoq yillar ekilmay ketgan. 1970 yillarda kirib kelgan navlari har tomonlama mukammallashgan, issiq va sovuq haroratga chidamli navlarni urug'lari ekildi va biologik jihatdan boshqa dukkaklilarga o'xshab ketdi. Shuning uchun olim, soyaning o'suv davri qisqa bo'lgan navlarini, yozgi muddatlarda ekish lozim, degan xulosaga keladi.

Soya termofil o'simlik hisoblanadi. Urug'lar 6-7 °S haroratda unib chiqa boshlaydi, lekin eng qulay harorat 12-15 °C, ekishdan to unib chiqgunga qadar faol haroratlar yig'indisi 110-130 °C ni tashkil qiladi. Uning o'sishi va rivojlanishi uchun optimal harorat 21-22 °C . Gullarning ochilishi va changlanishi 21-23 °C haroratda boshlanadi. Soya ko'chatlari qisqa muddatli bahor sovuqlariga katta zarar etkazmasdan minus 2-3 °C gacha bardosh beradi, ammo o'sish juda sekinlashadi. Kuzda o'simliklar sovuqdan nobud bo'ladi[13].



Soya fotofil o'simlik hisoblanadi, ammo ertapishar navlar o'rtacha yorug'lik yetishmasligiga qoniqarli darajada bardosh bera oladi [14].

Yorug'likning etishmasligiga juda sezgir bo'lib, bu poyalarning o'sishi, cho'zilishi, erta joylashishi, ildiz tizimining yomon rivojlanishi, yomon gullash va meva berish, oqsillar, shakar va kraxmal miqdorining va hosilning mahsuldorligi pasayishiga olib keladi. Yorug'lik intensivligining 50% ga kamayishi bilan o'simliklardagi dukkaklar va urug'lar soni keskin kamayadi. Siyrak ekinlarda va yaxshi yoritilgan joyda kuchli qalin shoxlangan poyalar ko'p barglar va dukkaklar miqdori ortadi [14].

Tuproq qatlamini to'liq ag'darilishini, begona o'tlar urug'lari va ildizpoyalari chuqur ko'milishini ikki yarusli plug orqali amalga oshirish mumkin. Shuning natijasida o'simliklarning oziqlanish sharoiti, mikrobiologik jarayonlari yaxshilanadi va hosildorligi ko'payadi. Mexanik tarzda yig'ishtirib olingan dalalarni shudgorlashdan oldin haydov qatlamida qolgan ildizlarni yo'qotish maqsadida, ajriq va g'umayga qarshi gerbitsid sepish o'tkazilgan tadbirning samarasini tuproqqa ishlov beruvchi qurollar yanada oshiradi. Texnika yordamida ildizpoyalarni mexanik ravishda tirmalab yig'ishtirilganda dalalardagi g'umayning o'sib chiqishi 70-72%, ajriq esa 63-65% kamayganligi kuzatilgan [13].

O.Yaqubjonov, S.Baxromovlar, A.Mamatalievlar tashqi omillar ta'sirida soya o'simligining ontogeneziga ta'siri ko'rsatish mumkinligini yozadi. A.A.Mo'minov, A.M.Abduazimov, N.F.Mirzaevlar olib borgan tajribalari ko'ra, soya navlarining rivojlanish ontogenezi va introduksiyasi bir qator biotik va abiotik omillar- yorug'lik va kunning uzun yoki qisqaligini belgilaydi, deydi. Olimlar har bir yaratilgan biologik nav uchun o'ziga xos biologik omillarni to'g'ri tanlash o'suv davri uzun yoki qisqaligiga asos bo'ladi, deb xulosa chiqaradi. O'simlik doni tarkibining o'zgarishi va yuqori hosil berishi tuproq-iqlim sharoiti yoki biologik omillar va navlarga bog'liq ekanligi A.I. Mordashev, V.L.Maxonin, S.V.Zelensovlar olib borgan tajribalarida isbotlangan.

Soya tuproq unumdorligiga unchalik talabchan emas, uni barcha turdagi tuproqlarda yetishtirish mumkin, agar kislotali bo'lmasa va yaxshi havoga ega bo'lsa yetarli. Yer osti suvlari, sho'rlangan, botqoq, og'ir gil va yengil tuproqlar biroz noqulaylik tug'dirishi mumkin. Soya uchun eng yaxshi tuproq unumdor qumloq va qumli tuproqlardir [13].

Soya - issiq iqlimli o'simlik, namlikni yaxshi ko'radigan o'simlik. Soya uchun eng qulay sharoitlar iyul-avgust oylarida 300-350 mm yog'ingarchilik, havoning nisbiy namligi 70-75% oralig'ida bo'ladi. Quruq massa birligini hosil qilish uchun sezilarli miqdorda suv sarflaydi. Uning transpiratsiya koeffitsienti 400 dan 700 gacha. Vegetativ davrda soya ekinlarining umumiy suv sarfi joy va o'sish sharoitiga bog'liq bo'lib, 3000 dan 5500 m<sup>3</sup>/ga gacha, shuning uchun u sug'orishga javob beradi. O'sish davrida suvga bo'lgan ehtiyoj bir xil emas. Soya unib chiqishdan gullash boshlanishigacha (birinchi vegetatsiya davrida) namlikka kamroq talabchan bo'lib, may oyi qurg'oqchiligiga nisbatan yaxshi chidaydi. U havo qurg'oqchiligidan ko'ra tuproq qurg'oqchiligiga bardoshli hisoblanadi. Ekin tuproqning optimal namligi 60 dan 80% gacha bo'lgan holda yuqori hosil beradi [12].

**Xulosa.** Qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori va barqaror hosil olish uchun ularning hayot omillari va ular bilan doimiy aloqada bo'lgan atrof-muhit sharoitlariga bo'lgan talablarini bilish kerak. Soya navlarni turli iqlim sharoitida yetishtirish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, bu o'simlik turli tuproq iqlim shu jumladan o'rtacha-kuchli sho'rlangan tuproq sharoitiga moslashish jarayoni juda tez kechadi.

Soyadan yuqori va sifatli hosil olish kompleks muammolarni yechishni taqozo qiladi. Bulardan asosiysi – soya yetishtirishning mintaqaviy agrotexnikasini ishlab chiqish va muayyan tuproq-iqlim sharoitlariga mos soya navlarini tanlashdir. Bu esa o'z navbatida soya navlarining bioekologik xususiyatlarini aniqlashni va muayyan mintaqaning tuproq-iqlim xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Soya navlarining biologik xususiyatlarini yaxshi bilmaslik ekish muddatlari va agrotexnik tadbirlarni noto'g'ri belgilanishiga, pirovardida o'simliklar hosildorligining keskin kamayishiga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Herklots G.A.C. Vegetables in South –East ASIA. London, George Allen, 1972-525p. (238-241pp.,270-272pp).
2. Kapoor A. S., Gurta U.P. Effect of phosphorus on constituents of soybean // J. Agric. Food. Chem 1977. vol. 25.-P.670-673
3. Lichtenthaler H.K. Chlorophyll and Carotinoids: Pigments of Photosynthetic Biomembranes // Methods in Enzymology. 1987. Vol. 148. P. 331–382.
4. Mo'minov A.A., A.M.Abduazimov, N.F.Mirzaev. janubiy mintaqalar sharoitida soyaning oqsil miqdori va moylilik darajasi yuqori bo'lgan navlarini yetishtirish. // Konferentsiya maqolalari. Don va dukkakli ekinlar ITI. Andijon. 2019. –B.383-386.
5. Rahimov G'.N., Rahmanov A.R., Shokirov A.A. O'zbekistonda dukkakli don ekinlari etishtirish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent, Mehnat, 1998. -20b.
6. Кузин В.Ф. Основная направления интенсификации соеводства на Дальнем Востоке. М.Ж. Технические культура 1990 г. Нв. 13-15 с.
7. Sakai T., Kogiso M. (2008) Soy is of flavones an immunity. J. Med. Invest. 55: 176-173.156.
8. Sarus G. Indications sur le climat et vegetation dur Turcestan.- Ann.Sci,natur., ser, t 15, 1983yea.
9. Sharkey T.D. (1988) Estimating the rate of photorespiration in leaves. Physiol. Plant. 73: 147-152.
10. Streter J. Nitrogen nutrition of soybeans. A persistent paraclox – Ohic.Pep, 1973, V. 58, № 2, - p.37-39.
11. Won Jun Yeon, Li Hee Chung, Cho Jin Woong. Nitrogen uptake and growth of soybean seedlings under flooding stress // Korean Journal of Crop Science, 2006. vol 51. no 2.-P. 118-122.
12. Yormatova D.Yo. (2014) O'zbekiston doni. Toshkent, Fan va texnologiya. 2014. s 51-53
13. Yormatova D.Yo. va boshqalar , Soya agrotexnikasi. Tavsiyanoma. Toshkent. 2017, 56 b
14. Atabayeva X.N. Soya ekishni etishtirish bo'yicha tavsiyalar.T. KSXV, 2003. – B 8.
15. Работнов Т.А. Жизненный цикл многолетних травянистых растений в луговых ценозах // Труды БИН АН СССР. сер. 3. Геоботаника. 1950. Вып. 6. С. 7-204 с.

### **ЎСИМЛИК ҚОПЛАМИ ЎЗГАРИШИ ВА ЧЎЛЛАНИШ ЎЧОҚЛАРИНИ АНИҚЛАШДА ЎСИМЛИКЛАР ВЕГЕТАЦИОН ИНДЕКСЛАРИ КАРТАСИ (NDVI) ДАН ФОЙДАЛАНИШ**

**Ярашов Қувондик Сафарович**

**Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети**

**Уругт филиали директори., География фанлари доктори**


**Кириш.** Ландшафтларни масофадан тадқиқ этишда масофадан тадқиқ этиш методларининг имкониятлари катта. Космик суратлар ёрдамида ландшафтларни баҳолаш, уларни трансформацияланишини кузатиш, ландшафтлар динамикаси ва уларнинг структурасини ўрганишга имкон беради ҳамда космик суратлар ландшафт карталарини тузиш ва йирик ўлчамлардаги ландшафт комплексларини тадқиқ этишда муҳим аҳамият касб этади. Жумладан, ўсимликлар вегетацион индекслари картасини яратиш орқали

ландшафт комплексларида ўсимлик қопламнинг ўзгариши ва чўлланиш ўчоқларини аниқлаш имконини беради.


**Асосий қисм.** Ўсимликлар вегетацион индексини аниқлаш ва уларни макон ва замонда ўзгаришини таҳлил қилиш учун <https://earthexplorer.usgs.gov/> сайти орқали Landsat-8 OLI ва Landsat-9 нинг космик суратлари юклаб олинди ва ўсимликлар вегетацион индекслари карталари яратилди. Одатда NDVI қийматлари -1 дан 1 гача ўзгариб туради. Спектрнинг инфрақизилга яқин ҳудудида юқори акс эттирувчи ва қизил нурланишни яхши сингдирувчи ўсимликлар учун NDVI қийматлари аниқ ифодаланмайди ва уларни индикатор сифатида танлаб олиш мумкин эмас [2]. Қийматнинг 0 дан паст қийматлар салбий қиймат сифатида қаралади. Салбий қийматлар асосан булутлилик билан боғлиқ, шунингдек, сув ҳавзалари ва қор қоплами ҳам салбий кўрсаткичга эга ҳудуд сифатида қаралади. NDVI қийматлари жуда паст (0,1 дан кам) ҳудудлар ўсимликсиз, яланғоч ҳудудларга тўғри келади 0,2 дан 0,3 гача бўлган қийматлар буталар ва ўтлоқларни, 0,6 дан 0,8 гача бўлган кўрсаткичга эга қийматлар ўрмонзорлар ёки тўқайзорларни билдиради .

Ўсимликларда фотосинтез жараёнининг амалга ошиши, ҳудудларнинг ўсимликлар билан қопланганлиги, уларнинг биологик маҳсулдорлиги, тупроқларнинг намланганлик даражаси ва ўсимликларнинг бошқа ўсиш фазалари билан боғлиқлиги каби омиллар NDVI кўрсаткичларига ҳам таъсир кўрсатади. Шунинг учун ҳам NDVI геотизимлардаги кўплаб ўзига хос кўрсаткичларга боғлиқ. Хусусан бирламчи маҳсулдорлик, яланғоч ҳолдаги ёки ўсимлик ўсмаган тупроқ қоплами бунга мисол бўлиши мумкин. Бундан ташқари, NDVI кўрсаткичлари қиялик, тасвир олинган дапазон ва горизонтга қараб қараб нурлар диапазонида фарқларни вужудга келтиради. Шу билан бирга тасвирлар олинган давр (кун ёки фасл)лар оралиғи тасвирлар орасида вужудга келадиган турли фарқларни ўрганишга имкон беради. Шундай қилиб, NDVI кўрсаткичлари ландшафт-экологик аҳамиятга эга бўлган турли ва муҳим ўзгаришларни излаб топиш учун даврлар ўтиши билан олинган турли космик суратларни бир-бири билан таққослашга, яъни уларни мониторингини олиб боришга ва динамикасини аниқлашга имкон беради [2].

Фойдаланишга қулайлиги ва кўплаб геотизим параметрлари билан боғлиқлиги сабабли NDVI ландшафтларни ўрганишда катта имкониятлар яратади. Жумладан, ҳудудларда чўлланиш ўчоқларини аниқлашга имкон беради. Бизнинг тадқиқотларимизда Жанубий Ўзбекистон ҳудудларини дифференциал вегетацион индекслар картаси яратилди (1-2-расмларга қаранг). Бу карталар ёрдамида ҳудудларнинг ўсимлик билан қопланганлигини йиллар бўйича қай даражада ўзгарганини аниқлаш имкони мавжуд [1, 2].




**1-расм. Жанубий Ўзбекистоннинг 2013 йилдаги вегетацион индекслари**



**2-расм. Жанубий Ўзбекистоннинг 2021 йилдаги вегетацион индекслари**


Худудларимизда сув танқислиги ўтган асрнинг 80-90-йилларнинг бошларида вужудга кела бошлади. XX асрда сайёрамизнинг қуёш тизимининг барицентрига яқинлашишининг ноёб (ҳар 178 йилда бир марта такрорланган) циклида, бутун дунё бўйлаб бир асрлик минимал ёғингарчилик кузатилган, аммо 35-40° шимолий кенгликларнинг Осиё қисмида, ўша пайтда (3-расм) шу билан бирга, вегетация даврида тўшалган сиртга туташ ҳаво ҳароратининг пасайиши, ўсимликларнинг ўсиши билан алмашади [1].



**3-расм. 35-40° ш.к.да йиллик ёғин миқдорининг ўзгариши, полиномиаль тенденция** (<https://psl.noaa.gov/data/timeseries/> сайти маълумотлари асосида ҳисобланган)


Фотосинтезда биомасса ҳолатининг фаол кўрсаткичи сифатида қаралади. Ўсимликлар динамикасини таҳлил қилиш учун маълумот манбаи бўлган вегетация индексининг (NDVI) ойлик қийматлари масофавий зондлаш усуллари ёрдамида ўртача 1° x 1° (110 км x 80 км) квадратлар бўйича 2000-2020 йиллар учун ҳисоблаб чиқилган. Бунда фақат арид ҳудудлардаги ўсимликларнинг фотосинтези ҳисобга олинган [1, 2, 3]. Маълумотлар 35-40° шимолий кенглик ва 64-68° шарқий узунлик чегаралари доирасида умумлаштирилди ва ўртача ойлик, йиллик ва 10 йиллик даврлар учун ҳисоблашлар амалга оширилди.

Ўсимликларни динамикаси билан боғлиқ ўсимликлар вегетация индексларига доир материалларни таҳлил қилишда олинган барча NDVI қийматларини, шу жумладан ўсимлик қопламини сийрак ўсимлик формацияларига айланишини акс эттирувчи жуда паст қийматларни ҳам ҳисобга олиш мақсадга мувофиқ деб топилди. Бундай қарорнинг асоси сифатида биз NDVI қийматларида ҳудудда биомассанинг узоқ муддатли ижобий тенденциясини кўрсатишимиз мумкин, бу катта масшабли космик суратлар учун чегара ҳисобланади [2, 5]. Бу жараёнда ўсимлик биомассасининг камайиш тенденцияси ажралиб туради, бунда салбий ҳолат ҳудуднинг эоль қумли чўл ландшафтлари тарқалган ҳудудларда аниқланди (4-расмга қаранг).



**4-расм. Биомассани ўртача йиллик қийматларини 2000-2020 йилларда 35-42° ш.к. ва 62-72° ш.у. да тақсимланиши** (<https://modis.gsfc.nasa.gov/data/> сайти маълумотлари асосида ҳисобланган)

Биомассанинг умумий миқдори ўсимлик ривожланиш фазасидаги мавсумлараро ўзгаришда ҳам бир-биридан катта фарқ қиладиган жойлар ҳам мавжуд. Тасвирланган ҳодисалар, узоқ тадқиқот давомида табиий муҳитни инсон томонидан мелиорациялаш натижасида яхши томонга ўзгармоқда [1, 4]. Бу дарёларни сув йиғилиш ҳавзасидан қуйи томон ўзгариб боради (5-расмга қаранг).



**5-расм. Биомасса (NDVI) қийматида 35-42° ш.к. ва 64-42° ш.у. да тақсимланишининг чизиқли тенденцияси**

Шубҳасиз, юқорида қайд этилган маҳсулдорликнинг ошиши тоғли ҳудудларда бошқа сабабга эга. Бу ўзига хос антропоген таъсир билан изоҳланади. Афсуски, ўрта масштабли карталаштириш ҳудуддан кўтариладиган чанг тўзон ва тузли кимёвий бирикмалар миграцияси салбий ландшафт-экологик оқибатларни вужудга келишига доир аниқ маълумотлар олишга имкон бермайди. Юқорида келтирилган, умумлаштирилган кўрсаткичлар шуни кўрсатадики, ўзаро боғлиқликни топиш жараёни ҳали ҳам дастлабки босқичда турибди. Функционал-динамик геотизимлар барқарорлигини таъминловчи механизмлар ҳали ҳам тўлиқ аниқланган эмас, бунинг учун узоқ муддатга мўлжалланган мониторингни ташкил этиш талаб этилади [2, 4].

Умуман олганда ўсимликлар вегетацион индекслари картасини яратиш ва уларни тағлил орқапли ландшафт комплексларида ўсимлик қопламанинг ўзгариши ва антропоген таъсир натижасида вужудга келадиган чўлланиш ўчоқларини аниқлаш уларни оқибатларини бартараф этиш имконини беради. Жумладан, яйловларда ўсимлик қопламанинг деградацияга учраши билан боғлиқ равишда тупроқ эрозиясининг кучайиши ва чанг бўронларнинг авж олишига олиб келади. Ҳудудларда дарахт ва буталарнинг қирқиб юборилиши, табиий ўсимлик қопламанинг сийраклашиши тупроқлар ювилишини жадаллаштиради ва ўзига хос чўлланиш ўчоқларини вужудга келишига сабаб бўлади. Шу билан бирга ер юзасининг ўсимликларсиз ялонғочланиб қолиши натижасида ҳудудлар радиацион балансга ҳам катта таъсир кўрсатади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ретеюм А.Ю., Ярашев К.С. Аральский очаг опустынивания по данным о вегетационной активности // Общество. Среда. Развитие. – 2023, <sup>1</sup> 1. – С. 125–128.
2. Ярашев Қ.С. Жанубий Ўзбекистон дарё ҳавзалари ландшафтларининг функционал-динамик боғлиқлиги ҳамда уларни ландшафт-экологик районлаштириш // География фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Самарқанд, 2022. -39 б.
3. Yarashev Q., Meliyev B. Problems of studying and mapping paragenetic landscape complexes in Surkhandarya region //European Sciences review. Scientific journal. № 3–4 2015. –Vienna (Austria). –p. 7-9.
4. Yarashev K.S., Ulugmurodov E.B. Functional-Dynamic Landscaping Complexes Of River Basins Of Southern Uzbekistan And Their Cartography // Journal Natural and Science. Volume 20, Number 1. USA, 2022. – p. 47-51.
5. Yarashev K.S., Eshqvvatov B.B. Scientific and Practical Measures of Analysis of Plains and Landscapes // Journal Natural and Science. Vol. 18, № 3. USA. March 25, 2020. – p. 60-62.



## GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI VA CHO'LLANISH MUAMMOLARI

**X.Juraqulov,**

Samarqand davlat universiteti Hidrometeorologiya kafedrası professori.

**Z.Normamatov,**

Samarqand davlat universiteti Hidrometeorologiya kafedrası ilmiy xodimi

**E.Xojiyev,**

Samarqand davlat universiteti Hidrometeorologiya kafedrası tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Global muammolar va ularning mohiyati, iqlimiy o'zgarishlari va oqibatları, xalqaro munosabatlar, O'zbekistonda iqlim o'zgarishi, ch o'llanishi muammosi bo'yicha Xalqaro hamkorlik harakat, O'zbekistonda cho'llanishga qarshi kurash choralari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Global muammolar, iqlim, ob-havo, iqlimiy omillar, iqlimiy davriylik, astronomik omil, genetik iqlimiy klassifikasiya, uzun to'lqinli infraqizil nurlar, "issiqxona"ları, "ulushlar savdosi" ( chiqindilar kvotasi savdosi).

### ПРОБЛЕМЫ ГЛОБАЛЬНОГО ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА И ОПУСТЫНИВАНИЯ

Х. Джуракулов,

Профессор кафедры гидрометеорологии Самаркандского государственного университета.

З. Нормаматов,

научный сотрудник кафедры гидрометеорологии Самаркандского государственного университета

Э. Ходжиев,

Докторант кафедры гидрометеорологии Самаркандского государственного университета

**Аннотация:** Описаны глобальные проблемы и их природа, изменение климата и последствия, международные отношения, движение международного сотрудничества по изменению климата и изменению климата в Пакистане, меры по борьбе с изменением климата в Узбекистане.

**Ключевые слова:** Глобальные проблемы, климат, погода, климатические факторы, климатическая периодичность, астрономический фактор, генетическая классификация климата, длинноволновые инфракрасные лучи, «теплицы», «торговля акциями» (торговля квотами на выбросы).

### PROBLEMS OF GLOBAL CLIMATE CHANGE AND DESERTIFICATION

Kh. Dzhurakulov,

Professor of the Department of Hydrometeorology, Samarkand State University.

Z. Normamatov,

Researcher at the Department of Hydrometeorology, Samarkand State University

E. Khodzhiev,

Doctoral student of the department of Hydrometeorology of the Samarkand State University

**Abstract:** Global problems and their nature, climate change and consequences, international relations, the movement of international cooperation on climate change and climate change in Pakistan, measures to combat climate change in Uzbekistan are described.

**Key words:** Global problems, climate, weather, climatic factors, climatic periodicity, astronomical factor, genetic classification of climate, long-wave infrared rays, "greenhouses", "stock trading" (emissions quota trading).

**Kirish.** Iqlim o'zgarishi muammosi urush va tinchlik, qashshoqlik, ekologik, xalqaro terrorizm, cho'llanish kabi dunyoviy (global) muammoalar sirasiga kiradi. "Global" atamasi



*fransuzcha global* - eng umumiy, o'z ko'lami va yo'nalishi jihatdan xilma-xil va butun Yer shariga tegishli bo'lgan muammolardir.

Global muammolar keng ma'noda tabiat va inson (jamiyat) o'rtasidagi munosabatining buzilishi natijasida kelib chiqadi. Demak, mazkur muammolar tabiiy - antropogen ildizga ega. Insoniyatning munosib hayot kechirishi uchun jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun boshqa omillar qatorida iqlimiy sharoit ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Uning oz bo'lsa-da, me'yordan chetga chiqishi muammolarni keltirib chiqaradi.

Iqlimiya atamasi *grekcha kluma* - qiyalik, ya'ni quyosh nurlarining tush paytida yer yuzasiga "og'ishi" qiyaligini anglatadi. Bu atama grek astronomi, matematik geografiyaning asoschilaridan biri Gipparx (mil.avv. 160 - 125 yillar) tomonidan fanga kiritilgan.

Iqlim - Quyosh va uning atrofidan aylanib turadigan yo'ldoshi - Yer o'rtasidagi munosabatlar natijasida yer betiga yaqin bo'lgan atmosfera qatlamida ro'y berib turadigan tabiiy jarayonlar natijasidir. Iqlim fasliy mohiyati, sifat va o'zgarishlarga ega. Ob - havo esa iqlimiy ko'rsatkichlarning ayni joy, ayni vaqtdagi holatidir. Ob - havo bir kecha - kunduzda bir necha marta o'zgarishi mumkin. Yil davomida ayni joyning iqlimi va uning fasllariga xos ob - havo holatlari sodir bo'lib turadi. Iqlimni yaratuvchi omil, asosiy manba, eng avvalo, Quyoshdir. Yer betiga yetib keladigan quyosh nurlarining tushish burchagi qancha katta bo'lsa, nurlarning issiqlik va yorug'lik quvvati shuncha kuchli, aksincha bo'lsa, shuncha kam va kuchsizdir. Quyosh bo'lmaganda, Yerdagi hayotning bo'lishi mumkin emas edi.

Asosiy qism. Qayd qilish joizki, iqlimiy sharoit bilan bog'liq bo'lgan Quyosh va Yer munosabatlari, hamda Yer iqlimiga ta'sir etuvchi omillar Yer tabiatining rivojlanishi tarixida o'zgarib turgan. Bunda Antarktida materigi va Shpisbergen orollarida mavjud bo'lgan ko'mir konlari hamda to'rtlamchi davrda ro'y bergan takroriy muzlanishlar davri inkor etib bo'lmaydigan dalillardir. Olimlar iqlimiy jarayonlarda davriy o'zgarishlar mavjudligini ham e'tirof etadilar. Masalan, A.V.Shnitnikov tomonidan Yerning shimoliy yarim sharidagi materiklarda tabiiy namlikni 1800-yil davomidagi davriy o'zgarishlari aniqlangan. Har bir davr ikki fasldan iborat. Birinchisi, 300 - 500 yil davom etadigan salqin, nam, iliq, ikkinchi esa, 1000 yildan ortiqroq kuzatiladigan issiq va quruq iqlim davridir. Uning fikricha, bu ikki "fasllar" o'rtasida 100 - 300 yillik oraliq davr kuzatiladi (Jekulin, 1989).

Yer tarixida ro'y bergan iqlimiy o'zgarishlar paleo - iqlimshunoslik fani vakillari tomonidan o'rganiladi. Bundan tashqari, bu sohaga tegishli paleogeomorfologiya, paleobotanika, paleozoologiya kabi ilmiy yo'nalishlar ham mavjud. Bu o'rinda geologik fanda alohida o'rin tutadi.

Yer yuzida hukm surayotgan hozirgi iqlimiy sharoit asosan yaqin o'tmishda, to'rtlamchi davrning quyi, o'rta va yuqori qismida ro'y bergan muzlanishlar davridan so'ng yuzaga kelgan. Yerdagi hayotning asosiy manbai quyosh bo'lsa - da, atmosfera qobig'ining iqlim hosil qiluvchi ahamiyati alohida o'rin tutadi. Atmosfera tarkibining shakllanishi va o'zgarishi esa organik dunyoning rivojlanishi jarayoni bilan bevosita bog'liq. Akademik I.V.Vernadskiy ta'biri bilan aytganda, u organik dunyoning taraqqiyoti hosilidir. Atmosfera Yer sayyorasini o'rab turgan "chopon" dir. U yerning haddan tashqari isib va sovub ketishidan saqlaydi. Atmosfera bo'lmasa, yerda hayot bo'lmas edi. Iqlimshunoslarning hisoblashlariga ko'ra, atmosferada karbonat angidrid gazi bo'lmaganda harorat 6 °C ga, suv bug'lari bo'lmaganda esa sirtidagi harorat 25 °C ga pasaygan bo'lur edi (Ososkova va boshq., 2005, 5 - bet).

Olimlar iqlim hosil qiluvchi tabiiy omillarni uch guruhga - astronomik, geografik va sirkulyasion omillarga ajratadilar. Bu omillar qanday guruhlanmasin, yer iqlimining shakllanishida quyidagilar asosiy o'rin tutadi. Bu borada bosh omil quyoshdan yer sirtiga yetib keladigan radiasiya va yorug'lik miqdoridir. Yer yuzasida okean va quruqliklarning taqsimlanishi, joyning geografik o'rni, rel'yefi, quyosh nurlarining yer sirtidan qaytishi ko'rsatkichlari, atmosfera tarkibi va sirkulyasiyasi, dengiz oqimlari kabidir.

Yer shari iqlimini guruhlantirishda turlicha yondashuvlar mavjud. Bular orasida B.P.Alisov tomonidan 1930 yillarda ishlab chiqilgan genetik klassifikasiya ko'pchilikka ma'qul bo'ladi. Bu

klassifikatsiyada yil davomida yoki issiq va sovuq davrlarda humkronlik qiladigan havo massalari tiplari asos qilib olingan. U geografik kengliklar bo'ylab humkronlik qiladigan yettita havo massalarini ( ekvatorial, 2 ta tropik, 2 ta mo'tadil va arktika, antarktika ) ajratadi. Shu asosda 4 asosiy ( ekvatorial, tropik, mo'tadil, arktika - antraktika ) va 3 ta otkinchi - oraliq ( subekvatorial, subtropik, subarktika - subantarktika ) iqlimiy mintaqalarini ajratadi (Xromov, Mamontova, 1974, 202 - bet). Yuqorida qayd qilingan havo massalarining shakllanishida yer yuzasida radiasiya balansi, havo harorati va namlikning qutblardan ekvatorga tomon o'zgarishi asos qilib olingan ( Географич. словарь, 1988, 137 - bet).

Yer yuzasida qaror topgan ushbu iqlimiy sharoit XX-asrning o'rtalariga kelib kuchli antropogen ta'sir, kuchiga duch keldi. Ya'ni aholi sonining ko'payishi, tabiiy resurslarga bo'lgan talabning - beto'xtov ortib borishi va nihoyat fan va texnika bilan qurollangan insonning tabiatga ta'sir kuchining ortib borishi Yer shari iqlimiga o'zgarishiga olib keladi.

Bu jarayon quyidagi dalillar bilan asoslash mumkin:

- atmosferaning kimyoviy, fizik tarkibiga antropogen faoliyat ta'sirining ortib borayotganligi, ozon qatlamini yemiruvchi freon gazlarini hamda karbonat anhidrid va boshqa issiqxona effekti hosil qiluvchi gazlarni va aerezollarni chiqarish, turli organik yoqilg'ilarni yoqish va energiya sarflash orqali atmosfera haroratiga ko'rsatilayotgan ta'sirning ortib borayotganligi;
- tabiiy resurslarning jadal sur'atlar bilan o'zlashtirilishi (yer, suv, o'rmon, tog' - kon ) tufayli Yer sirti albedosining o'zgarganligi;
- dunyo okeani sathining ko'tarilishi va suvi tarkibining ifloslanishj tufayli atmosfera - okean - quruqlik tizimida kechadigan havo, suv almashinuviga salbiy ta'sir ko'rsatish;
- yer yuzasida sodir bo'layotgan etnik nizolar, davlatlararo kelishmovchilik, urushlar, xalqaro terrorizm, tabiiy va industrial halokatlarning jadal tus olayotganligi;
- antropogen ta'sir tufayli Yer yuzida modda, energiya almashinuvi tufayli tabiiy, iqtisodiy - ijtimoiy jarayonlar shiddatining ortayotganligi;
- xavo transporti va yaqin kosmosni o'zlashtirish tufayli atmosferaga antropogen ta'sir yukining ko'payib borayotganligi va boshqalar.

Iqlimshunoslarning ma'lumotiga ko'ra, yuqorida qayd qilingan jarayon tufayli global iqlim isishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi yer yuzasidan chiqadigan uzun to'lqinli radiatsiyani yutib, atmosferada issiqxona effekti hosil qilayotgan gazlardir. Shu toifaga kiruvchi gazlar "issiqxona gazlari" deyiladi. Bu jarayonning mohiyati quyidagicha: quyoshdan keladigan radiatsiyaning bir qismi (30%) atmosfera tufayli (asosan bulutlar orqali) kosmosga qaytariladi. Taxminan 15 % esa atmosferada yutiladi. Qolgan energiya atmosferadan o'tib, Yer - betiga yetib keladi va uni isitadi. Yer esa o'z navbatida atmosfera orqali uzun to'lqinli infraqizil nurlarni koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o'rniga issiqxona gazlari tomonidan yutiladi va shu asosda atmosfera me'yoridan ortiqroq qiziydi va nihoyat Yer iqlimiga ta'sir ko'rsatadigan issiqxona qatlami hosil qiladi. Issiqxona hosil qiladigan gazlarning atmosferada ortishi esa, yuqorida qayd qilinganidek, insonning yer yuzidagi faoliyati bilan bog'liq. Bunday gazlar asosan oltita. Eng asosiysi karbonat anhidrid gazidir ( CO<sub>2</sub>). Ular toifasiga yana metan ( CH<sub>4</sub>), azot oksidi ( N<sub>2</sub> O), perfroruglerod ( PDC<sub>s</sub>), gidroftoruglerodlar ( HFC<sub>s</sub>)va oltingugurt geksaftoridi (SF<sub>6</sub>) kiradi.

Qayd qilish joizki, insoniyatning energetik qurollanish darajasi past bo'lgan tarixiy davrlarda uning global iqlimga ta'siri sezilarli bo'lmagan. Ammo XX asrning o'rtalariga kelib, tobora qudratli kuchga aylanib borayotgan antropogen faoliyatning dunyo iqlimiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri sezilarli bo'lib qoldi. Iqlimshunoslarning ma'lumotlariga ko'ra, keyingi 100 yil davomida Yer sharida havo harorati 0.6 C ko'tarilgan bo'lsa, ko'rsatkich Yevropa qit'asi bo'yicha 1.2 C ni tashkil qilgan (hozirgi davrda Yer sirtida o'rtacha global harorat + 15 C ga teng). Dunyo okeani va dengizlarida suv sathi 10 - 20 sm ga ko'tarilgan. Agar tegishli chora - tadbirlar ko'tarilmasa, kelgusi yuz yillikni har o'n yilligida global harorat 0.3 C ga ortadi. Iqlimning isishi qutblardagi muzliklarning erishiga va Dunyo okeani sathining 2030-yilga borib 20 sm ga, XXI asr oxiriga borib esa 65 sm ga ko'tarilishi ro'y beradi.

Global iqlim o'zgarishining foydali oqibatlaridan ko'ra salbiy zararlari, ayniqsa, qirg'oqbo'yi mamlakatlari hamda qirg'oqchil iqlim mintaqalarda tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ushbu global salbiy jarayonlar 1960 yillar oxirida iqlimshunos va dunyo muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlar e'tirboriga tushdi va ushbu muammolarni hal etish yo'lidagi harakatga rahbarlik qilishni BMT o'z zimmasiga oldi.

Iqlimning isishi 1972-yilda davlatlar rahbarlarining tabiat muhofazasiga bag'ishlangan Stokgolm Deklaratsiyasida o'z ifodasini topdi. 1979-yilda bo'lib o'tgan birinchi Jahon iqlim konferensiyasida esa antropogen iqlim o'zgarishlaridan jahon hamjamiyatini ogohlantiruvchi Deklaratsiya qabul qilinadi. 1980 - 1990 yillarda ushbu mavzuga bag'ishlangan bir necha Xalqaro anjumanlar bo'lib o'tdi. 1988-yilda iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (МГЭИК ООН) ta'sis etildi. Ushbu tashkilot 1990-yilda o'zining iqlim o'zgarishini baholovchi ilk ma'ruzasini taqdim etdi. Ekspertlar xulosasiga ko'ra, kerakli chora - tadbirlar ko'rilmasa, kelgusi 100 yil davomida har 10 yillikda global harorat o'rtacha 0.3 C ko'tariladi. Iqlim o'zgarishi borasidagi tadbirlarning davomi sifatida 1992-yilda Rio - de - Janeyroda o'tkazilgan Jahon sammitida BMTning Doiraviy Konvensiyasi qabul qilindi. Bu hujjatdan 1994-yil 21-mart kuni kuchga kirdi. Bugungi kunda 189 mamlakat Konvensiya Tomonlari (a'zolari) hisoblanadi. Anjumanda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar qatorida atmosferada issiqlik effekti hosil qiluvchi "issiqxona gazlari"ni havoga chiqarishni cheklashga tegishli huquqiy, dasturiy hujjat qabul qilindi. BMTning ushbu Doiraviy Konvensiyasini amalga oshirish jarayonlarini baholovchi va navbatdagi tadbirlarni belgilovchi bir necha xalqaro anjumanlar o'tkazildi.

Bu borada 1997-yilda imzolangan va 2005-yilning 16-fevral kuni kuchga kirgan Kioto (Yaponiya) Protokoli alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu anjumanda, avvalgilardan farqli o'laroq, rivojlangan mamlakatlar uchun issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarishni qisqartirilgan hajmlari belgilandi. Muzokaralar natijasida 2008 – 2012-yillar davomida issiqxona gazlarini 1990-yilga nisbatan Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 8 % ga, AQSH 7 % va Yaponiyada 6 % ga qisqartirish majburiyati yuklandi. Boshqa rivojlangan davlatlar uchun ham eng yuqori "chegaralar" belgilandi ( Iqlim o'zgarishi to'g'risida ... 1999, 32 - bet).

O'zbekiston Respublikasi aniq majburiyatlar olgan mamlakatlar qatoriga kirmasada, unga AQSH tomonidan bildirgan "ulushlar savdosi"ga tegishli takliflar (chiqindilar kvotasi savdosi) ahamiyatlidir. Ushbu taklif bo'yicha rivojlangan mamlakatlar o'z majburiyatlaridan ortiq atmosferaga chiqargan gazlari uchun, emissiya darajasi kam bo'lgan mamlakatlardan ularning ulushlarini sotib olishlari mumkin. U pul ekvivalentini to'lash yoki yangi texnologiyalarni berish, yoxud mablag' bilan ta'minlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Ayni davrda tomonlar (mamlakatlar) Kioto Protokoli majburiyatlarini bajarish maqsadida o'zlarining ijtimoiy - iqtisodiy salohiyatiga mos holda tuzilgan milliy dasturlariga ega.

Kioto Protokoli insoniyatning issiqxona effektini hosil qiluvchi gaz chiqindilarni o'sishiga qarshi kurash borasidagi birinchi amaliy qadamidir.

**O'zbekistonning global iqlim isishi muammosiga munosabati** Istiqlol tufayli O'zbekiston BMTning teng huquqli a'zosi bo'ldi va u Insoniyat taqdiri va kelajagi hamda tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan Xalqaro hamkorlikni uzluksiz qo'llab - quvvatlab kelmoqda. BMTning Doiraviy Konvensiyasi (PKIK ООН) 1993 yilning iyun oyida O'zbekiston hukumati tomonidan ratifikatsiya qilindi. Uni o'rganish va yechimini topishga umumdavlat maqomi berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi O'zbekistonda PKIK ООН majburiyatlarini bajarishga mas'ul tashkilot deb belgilandi. Uni amalga oshirishda qatnashuvchi 34 ta muassasalar va ularning ishini muvofiqlashtiruvchi kotibiyat ta'sis etildi (1995 yilda Milliy vakil qilib O'zgidromet boshlig'i V.Y.Chub tayinlangan). 1999-yilda BMTning iqlim o'zgarishi Doiraviy Konvensiyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining birinchi milliy axboroti taqdim etildi (2008. 137 - bet). O'zbekiston bo'yicha 1933 – 2007-yillar uchun havo haroratining o'rtacha yillik o'zgarishlari tahlil qilinganda, uning har 10 yilda 0.2 C ga ortib borayotganligi ma'lum bo'ldi. Bu shimoliy

yarim shar bo'yicha havo isishining o'rtacha sur'atidan 40 % ga ortiqdir. Isish oqibatida Orol dengizi havzasida joylashgan tog'lardagi qor va muzlik maydonlari 1/3 dan ortiqqa qisqargan. Mintaqada yillararo iqlimning barqaror isish yo'nalishi (trend) kuzatilmoqda. Standartlashtirilgan yog'ingarchiliklar indeksining (tayanch deb olingan 1961 – 1990-yillarga nisbatan foiz hisobida) o'zgarishi ham isish negizida atmosfera yog'inlarining nisbatan ko'payishi kuzatilmoqda ("Geografik bashorat va amaliyot" mavzusiga qarang). Kioto Protokoli majburiyatlarini bajarish bo'yicha respublikada e'tiborli ishlar amalga oshirilmoqda. Bevosita issiqxona gazlari hisoblangan (metandan tashqari) karbonat angidridi (CO<sub>2</sub>) va azot (zakisi bijitqisi)ni atmosferaga chiqarishni (1990 – 2005-yillar davomida) kamaytirishga erishildi.

Iqlimning isishi suv resurslarining suv - betidan bug'lanishi xisobiga 10 - 15 % ga, transpiratsiyasi tufayli esa 10 - 20 % ga kamayishiga olib keladi. Yillik haroratlar yig'indisi 5 - 10 % ga ortadi, sovuq davrning davomiyligi 5 - 15 kunga qisqaradi. Bu esa qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda agroiqlimiy sharoitlarining o'zgarishiga olib keladi (6)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 10-aprel kuni "Kioto Protokoli toza taraqqiyot mexanizmi doirasida investisiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish tartibi haqidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida" gi qarori global iqlim isishini yumshatish va unga moslashish yo'lidagi vazifalarni belgilab berdi. Iqlim isishining ekologik, ijtimoiy - iqtisodiy oqibatlari juda murakkab va ko'p qirralidir. Uni uzluksiz o'zgarish va unga moslashish strategiyasi asosida ish ko'rish maqsadga muvofiq.

Iqlim isishi, ya'ni havo haroratining global ortishi muammosini bartaraf qilish juda murakkab vazifadir. Chunki bu muammo ham "tabiat - inson - jamiyat" munosabatlariga, ya'ni bu uchlikning muvozanatda, uyg'un rivojlanishiga borib taqaladi. Ushbu muvozanat yo'llarini topish va uni saqlash uchun quyidagi amaliy chora - tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- iqlim o'zgarishi muammosi mazmun - mohiyatini chuqur anglash, Yer shari aholisi, davlatlar, xalqaro tashkilotlarning hamkorligiga erishish;
- issiqxona hosil qiluvchi gazlar emissiyasini (atmosfera ga chiqishini) kamaytirish imkoniyatini beradigan yangi texnologiyalarga o'tish;
- imkon darajasida shamol, suv, quyosh energiyasi kabi ekologik jihatdan toza, tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish;
- ekinzorlardan, ayniqsa, sholipoyalardan metanning ajralib chiqishini kamaytiradigan texnologiya va usullarga erishish;
- chorvachilikda, ularning sonini emas, balki metan emissiyasini kamaytirish yo'llaridan biri bo'lgan har bosh chorvaning mahsuldorligini oshirishga erishish;
- uy - joy va kapital qurilish binolarini isitishda tejamkor, ekologik talablarga javob beradigan usullarni joriy etish;
- texnologik va transport halokatlari hamda yong'in ofati xavfsizligi chora - tadbirlarini kuchaytirish;
- xalq ommasi orasida iqlim o'zgarishi to'g'risida targ'ibot ishlarini uzluksiz olib borish;
- har bir insonda "sayyoramiz - umumiy uyimiz" tuyg'usi va mas'uliyatini his qilish va loyiq madaniyatni shakllantirish. Chunki tabiat va jamiyat munosabatlarini muvofiqlashtirishda Inson shaxsiyati hal qiluvchi o'rin tutadi;
- uy - ro'zg'or va ishlab chiqarish tarmoqlaridagi chiqindilarni oqilona bartaraf qilish texnologiyasini takomillashtirish;
- iqlim isishi indikatorlari va oqibatlarini hududlar doirasida o'zgarish va uni bartaraf qilishning geografik asoslarini izlash va ushbu mavzudagi muammolarni targ'ibot qilish.

**Cho'llanish muammosining mazmun – mohiyati** Cho'llanish ham global maqomga ega bo'lgan muammolardan biri bo'lib, ekologik muammolar toifasiga kiradigan tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarining buzilishi oqibatidir. Muammoning xalqaro jamoatchilik e'tiboriga tushishiga asosiy sabab Afrikadagi Sahroi Kabir cho'lining janubiy chegarasida joylashgan Saxel zonasida ro'y bergan surunkali qurg'oqchilik va uning fojiiyali oqibatlaridir.

Taniqli fransuz olimi O.Sheval 1900-yilda dunyo eng katta hisoblangan Sahroi Kabir (maydoni 7 mln.km<sup>2</sup>) cho'lining janubida joylashgan Atlantika okeanidan Qizil dengiz va Hind okeani sohillarigacha bir necha ming km cho'zilgan va kengligi 159 km atrofida bo'lgan yo'lakni "Saxel" deb aytiladi. Bu atama arabcha "chegarasi zonasi", "chekkasini" ma'nosini bildiradi. Saxel yarim qurg'oqchil savannadan iborat bo'lib, qumli, toshloqli yerlardir. Ushbu hudud o'ndan ortiq (Senegal, Mavritaniya, Mali, Chad, Niger, Burkina - Faso, Gana, Nigeriya, Markaziy Afrika Respublikasi, Sudan, Efiopiya, Somali, Keniya) davlatlariga tegishli bo'lib, asosiy xalq bo'lgan tuagerlar o'troq va ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanadi. Mazkur Sudan - Saxel zonasida 1964, 1968, 1970 - 1972 yillarda ro'y bergan surunkali qurg'oqchilik tufayli Sahroi Kabir cho'lining chegarasi 1965-yildan so'nggi 10 yillik davomida har yili o'rtacha 9 km janubga surilgan (Orловский 2018). Keyingi 1968 – 1973-yillarda ro'y bergan "buyuk qurg'oqchilik" tufayli ushbu o'lkaning 250 mln. aholisi ochlik, kasallik natijasida xalok bo'lgan, ikki mln. bosh chorva qirilib ketgan.

Cho'llanish jarayoni Yer yuzidagi quruqlikning 30 % ga yaqin maydonini egallab turgan arid (qurg'oqchil) iqlimli xududlar uchun xosdir. Cho'llanish ba'zi yarim nam iqlimli joylarda ham kuzatiladi. Qurg'oqchilik esa cho'llanish jarayonining "xamirturushi" dir. X – XVIII-asrlar davomida Rossiyada 40 marta qurg'oqchilik sodir bo'lgan, XIX asrda esa 9 marta. Hozirgi davrda o'rmon - dasht va dasht zonalarida ham har 3 - 4 yilda ushbu zararli ofat takrorlanmoqda.

"Cho'llanish" atamasi Afrikaning nam tropik o'rmonlarini o'rgangan fransuz geobotanigi A.Orevil tomonidan 1949-yilda fanga kiritilgan. Cho'llanish atamasining mazmun - mohiyati haqidagi turlicha talqinlar mavjud. Lekin ko'pchilik olimlar cho'llanishni landshaftlarning (ekotizimlarning) kambag'allashuvi, ya'ni ularning biologik mahsuldorligining pasayishi, (kambag'allashuvi), deb e'tirof qiladilar. Cho'llanish jarayonida tuproqlarning sho'rlanish darajasi ortadi, shamol, suv eroziyasi kuchayadi, atmosferajing tarkibi chang - to'zon aerezollari bilan ifloslanadi, ekologik muhit sifati pasayadi va nihoyat juda katta ijtimoiy - iqtisodiy, ma'naviy zararlarga olib keladi. Cho'llanishga olib keladigan sabablar juda ko'p, ular ikki guruhga mansub omillardan, ya'ni tabiiy va insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'sir kuchidan iborat.

Tabiiy omillar ichida iqlim yetakchi ahamiyatga ega (Iqlim o'zgarishi to'g'risida, 1999, 19 bet). Ayniqsa, arid iqlimli (cho'l va chala cho'l zonalar) yetarli cho'llanish o'chog'i hisoblanadi. Chunki cho'l landshaftlarining barqarorligi kuchsiz bo'ladi. Ya'ni ular qurg'oqchilik bilan bog'liq tashqi ta'sirlarga chidamsiz bo'ladi va tez o'zgaradi.

Arid - lotincha "arid" - quruq, qurg'oqchil ma'nosiga ega. Shundan kelib chiqib, ekstraarid - o'ta arid, semiarid - lotincha "semi" - yarim arid, gumid - lotincha "humus" - nam, sub gumid - "sub" - "yoni" ma'nosiga ega. Aniqroq qilib aytganda, landshaftlarning barqarorligi ularning bioiqlimiy (qurg'oqchilik) darajasiga bog'liq bo'ladi, ya'ni tabiiy namlanish ortgan sari ularning barqarorlik darajasj ortib boradi (1 – jadval, 4).

**Bioiqlimiy (arid) zonalarining qurg'oqchilik darajasi (Зонн, Орловский, 1984).**

Bioiqlimiy zonalar	Yillik atmosfera yog'inlari miqdori mm	Namlanish koeffitsiyenti
Estraarid	<100	<0.03
Arid	100-200	0.03-0.20
Semiarid (yarim arid)	200-400	0.20-0.50
Subgumid (namlik yetishmaydigan hududlar)	400-800	0.50-0.75

Ushbu jadvalga ko'ra, O'rta Osiyo cho'llari arid zonaga kiradi. Lekin Gazli - Urganch (Tayamo'yin) xalqasi doirasida joylashgan cho'llar nisbatan qurg'oqchil. Mazkur yerlarni yer ekstraarid bioiqlimiy zonaga tegishli deb hisoblash lozim. Chunki ushbu landshaftlarda o'rtacha yillik yog'inlar miqdori 100 mm dan ham kam.

Cho'llanish jarayoni global tabiiy, ijtimoiy - iqtisodiy muammo sifatida BMT ning 1974-yilda bo'lib o'tgan XXIX Bosh Assambleyasida tilga olingan va bu borada maxsus kengash

o'tkazishga qaror qilingan. Nihoyat, uch yil davom etgan tayyorgarlikdan so'ng, Keniyaning Nayrobi shahrida 1977-yilning 29-avgustida ish boshlagan BMT Konferensiyasida cho'llanish muammosi muhokama etildi. Ushbu nufuzli anjuman 20 kun davom etib, unda jahonning 100 ta davlati va 50 dan ortiq Xalqaro tashkilotlardan 1500 dan ortiq delegatlar qatnashadi. Ushbu anjumanda sobiq Ittifoq cho'lshunos olimlaridan I.P.Gerasimov, A.G.Babayev, V.A.Kovda, B.G.Rozanov, T.N.Nechayeva, M.P.Petrov, V.N.Kuninlar faol ishtirok etganlar. Anjumanda insonning samarasiz xo'jalik faoliyati tufayli sodir bo'layotgan inqirozning oldini olish, ya'ni tabiatni asrab - avaylash zarurligi dunyo hamjamiyatining vazifasi deb belgilandi va "Cho'llanishga qarshi kurash Rejasi" qabul qilindi. Ushbu rejaga tarafdor mamlakatlar va xalqaro ilmiy jamoatchilik uchun dasturi amal vazifasini bajarib keldi. BMT rahnamoligida ushbu mavzu bo'yicha bir necha Xalqaro va mintaqaviy anjumanlar bo'lib o'tdi.

BMTning Bosh Assambleyasida 1992-yilda Hukumatlararo Qo'mita tuzildi ( bosh qarorgohi Jenevada). Cho'llanish muammosi BMT ning 1994-yilning 14 - 15 oktabrida Parij sharida bo'lib o'tgan konferensiyasida qayta ko'rib chiqildi va bu boradagi kamchiliklarni hisobga olgan holda yangi dastur - "Cho'llanishga qarshi kurash Konvensiya"si qabul qilindi. Hozirgi kunda bu Konvensiya 100 dan ortiq davlatlar tomonidan qabul qilindi va ko'pgina davlatlar olingan majburiyatlarini bajarib kelmoqdalar. Qayd qilish joizki, sobiq Ittifoqda va O'rta Osiyoda cho'llanishga qarshi kurash, ya'ni uning tashkiliy va bevosita amaliyoti bilan bog'liq masalarni hal qilishda Turkmasinton Fanlar Akademiyasi huzuridagi Cho'llar instituti jamoasining o'rni beqiyos bo'ldi. Bu institut 1962 yilda tashkil etildi. Mazkur ilmiy markazga 1967-yildan boshlab sobiq Ittifoq hududidagi qurg'oqchil (arid) hududlarning tabiiy tesurklarini o'rganish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy jamoalar ishini muvofiqashtirish huquqi berildi. Institut huzurida "O'rta Osiyo va Qozog'iston cho'l hududlarini o'rganish va o'zlashtirish" muammolari bo'yicha Ilmiy kengash tashkil qilindi 1967-yildan boshlab har yili 6 marta " Cho'llarni o'zlashtirish muammolari" nomli Xalqaro ilmiy - amaliy jurnalni chop etish yo'lga qo'yildi. Ushbu jurnalni cho'llanishga qarshi kurash, cho'lshunoslik ilmi va cho'l zonasi tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va ularni asrab - avaylashning jarchisi deb baholash lozim.

Cho'llanish instituti huzurida 1978 – 1992-yillarda Xalqaro maqomga ega bo'lgan "Cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha o'quv kurslari" tashkil qilindi. O'quv darslari "qo'shimcha qumlarni mustahkamlash" va "sho'rlangan sug'oriladigan yerlar meliorasiyasi" muammolari bo'yicha olib borildi. Ushbu yillar davomida 3 ta Xalqaro simpozium, 40 ta o'quv kurslari, seminarlar, ma'rifiy safarlar, 10 ta maslahat beruvchi, baholovchi uchrashuvlar o'tkazilgan. Ushbu tadbirlarda 81 mamlakatda 700 dan ortiq mutaxassislarning ishtiroki ta'minlangan. 1984 yilda Cho'llar instituti arid o'lkalarni o'rganish, cho'llanishga qarshi kurash usullarini ishlab chiqarilganligi, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun mutaxassislar tayyorlab berganligi uchun BMTning atrof - muhit Dasturi (IOHEII) tashkilotining kumush medali bilan mukofotlangan. (3).

Cho'llar instituti jamoasi tomonidan 1992-yilda "Orol havzasidagi yerlarning antropogen ta'sir tufayli kambag'allashuvi" kartasi ishlab chiqildi (masshtab 1:2500000). Mazkur ishlanmaning izohiga bag'ishlangan risolasida cho'llanish darajasi (kuchsiz, mo'tadil, kuchli), o'simliklar qoplaminig kamayishi, qumli cho'llardagi deflyasiya, suv eroziyasi, Orol dengizining qurishi tufayli tuproqlarni sho'rlanishi, sug'oriladigan yerlarda sho'rlanish, texnogen cho'llanish va yaylovlarning botqoqlanishi bo'yicha baholash mezonlari o'z aksini topgan. Bundan tashqari Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, O'zbekiston Respublikasi va niyohat Orol havzasi bo'yicha antropogen ta'sir tufayli inqirozga yuz tutgan yerlar maydoni, cho'llanish tarkibi aniqlangan. Ushbu uslubiy ishlanma mintaqalarda cho'llanish jarayonlarini o'rganish va ularni baholash uchun darsturi amal vazifasini o'tab kelmoqda.

Ko'p yilik tadqiqotlar natijasida cho'llanishning 45 sababi aniqlangan bo'lib, ulardan 13 % tabiiy, 87 % esa antropogen faoliyat bilan bog'liqdir (2). Ammo iqlimning global isishi xuruj

qilayotgan hozirgi davrda cho'llanishga sabab bo'ladigan omillar ko'lami va nisbatini yanada oydinlashtirish maqsadga muvofiq.

**O'zbekistonda cho'llanish va unga qarshi kurash** O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyo o'lkasining markaziy qismida joylashgan, qurg'oqchil iqlimli davlatlardan biri. Uning 75 % dan iborat tekislik qismi cho'l va chala cho'lli yerlardan iborat. Cho'llanish jarayoni aynan ushbu hududlar uchun xos. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi BMTning cho'llanishga qarshi kurash harakatlarini dastlabki kunlardan oq'q'lab – quvvatlab kelmoqda. O'zbekistonlik cho'lshunos olimlar, ayniqsa, O'zbekiston FA huzuridagi geografiya bo'limi (hozir u Seysmologiya ilmiy – tekshirish instituti huzurida) A.A.Rafiqov rahbarligidagi olimlar guruhi bu muammoni o'rganishga birinchilar qatorida kirishdilar. Cho'llanishga bag'ishlangan izlanishlar natijasida 1988-yilda "O'zbekistonda cho'llanish va unga qarshi kurash" monografiyasi "Fan" nashriyotida rus tilida chop ettirildi. Shu bilan birga, "O'zbekistonning qurg'oqchil zonasida cho'llanish xavfi" xarita – chizmasi yaratildi (masshtab 1:500 000). O'zbekistonda 1980 – 1990-yillarda cho'llanish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarning aksariyati Orol dengizi muammolariga qaratilgan edi (5).

Cho'llanish jarayoniga qarshi kurash respublikamiz taraqqiyoti uchun zarurligini inobatga olib, BMTning "Cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi Konvensiyasi" 1995-yilning 31-avgustida O'zbekiston Respublikasi Parlamenti tomonidan qabul qilindi va ijrochi tashkilot sifatida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh Gidrometeorologiya markazi mas'ul tashkilot deb belgilandi. Ushbu tashkilot jamoasi va respublikaning mutaxassis olimlari ishtirkoida 1999 yilda "O'zbekiston Respublikasida cho'llanishga qarshi kurashish Milliy Dasturi" (130 – bet) ishlab chiqildi. Ushbu Dasturni tayyorlashda geograf olimlardan A.A.Rafiqov, I.Q.Nazarovlar faol ishtirok etganlar. Uni bajarish maqsadida ilmiy – tadqiqot ishlari va ularning yakunlari hamda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarga bag'ishlangan uchrashuv, seminarlar, xatto Xalqaro ilmiy konferansiyalar o'tkazilib kelinmoqda. Cho'llanishga bag'ishlangan Xalqaro anjumanlardan biri 2000-yilning 16 – 18-oktabrida Samarqand shahrida "Arid zonalarida cho'llanish muammolari" mavzusida bo'lib o'tdi. Professor L.A.Alibekov tashabbusi bilan o'tkazilgan ushbu anjumanda AQSH, Polsha, Rossiya, Armaniston, Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston hamda O'zbekistonlik cho'lshunos olimlarning 107 ma'ruzasi tinglandi va mavzuga tegishli bo'lg'usi rejalar belgilab olindi. O'zbekistonda cho'llanish jarayonlari bilan bog'liq vaziyat Turkmanistonlik olimlarning ma'lumotlariga ko'ra quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

**2-jadval**

№	Cho'llanish (deglarasiya) tiplari	Cho'llanish sinflari			Jami
		Kuchsiz	O'rtacha	Kuchli	
Foydalanilayotgan yoki foydalanishga yaroqli yerlar					
1	O'simlik qoplarning cho'llanishga uchraganligi	<u>132475</u> 37.4	<u>93370</u> 26.4	<u>16635</u> 4.4	<u>241480</u> 68.2
2	Deflyasiya	<u>3955</u> 1.1	-	-	3955 1.1
3	Suv eroziyasi	<u>9825</u> 2.8	<u>325</u> 0.1	-	<u>10150</u> 2.9
4	Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanishi	-	<u>65745</u> 18.5	-	<u>65745</u> 18.5
5	Orol dengizi sathining pasayishi tufayli sho'rlanish	<u>6115</u> 1.7	<u>2140</u> 0.6	<u>14895</u> 4.2	<u>32150</u> 6.5
6	Texnogen cho'llanish	-	-	<u>9975</u> 2.8	<u>9975</u> 2.8
<b>Jami</b>		<b><u>152370</u></b> <b>43.0</b>	<b><u>161680</u></b> <b>45.6</b>	<b><u>40508</u></b> <b>11.4</b>	<b><u>354455</u></b> <b>100</b>
	Kuchma qumlar				3635
	Sho'rxoklar				3330



	Suvli maydonlar				27810
	Tub jinslar chiqib yotgan yuzalar				16615
	<b>Jami</b>				<b>51390</b>
	<b>O‘zbekiston bo‘yicha hammasi</b>				<b>405845</b>

**Manba:** Пояснительная записка к карте антропогенной деградации земель Аральского моря, Ашгабат, 1993,87ст

**Xulosa o‘rnida,** bugungi kunda cho‘llanish jarayonlarini yumshatish va unga qarshi kurash maqsadida birinchi navbatdagi quyidagi ilmiy – amaliy chora – tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- shamol va suv eroziyasiga qarshi kurash chora – tadbirlarini takomillashtirish;
- cho‘l – voha, cho‘l – yaylov zonalaridagi yerlarning ikkimlamchi sho‘rlanish, kimyoviy, bakteriologik ifloslanishini bartaraf qilish;
- biologik jihatdan kambag‘al, buzilgan, tashlandiq yerlarni rekultivasiya qilish;
- cho‘l – voha, cho‘l – yaylov zonalarida joylashgan aholi mazilgohlarini mahalliy tabiiy sharoitni hisobga olgan holda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish;
- keng xalq ommasiga, ayniqsa, ma‘muriy rahbarlar, tabiatdan foydalanuvchilarning ekologik madaniyatini yuksaltirishga bag‘ishlangan chora – tadbirlarni kuchaytirib borish zarur. Ilmiy – nazariy nuqtai nazardan cho‘llanish jarayonini o‘rganish bo‘yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:
- cho‘llanish jarayoni monitoringini (kosmik va yer usti mintaqaviy kuzatuv tizimi asosida) olib borish va uning natijalarini inobatga olgan holda ish yuritish;
- cho‘llanishga qarshi kurashning qonuniy – huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- cho‘llanish jarayonlarining mahalliy, mintaqaviy va dunyoviy mohiyati va oqibatlarini ilmiy tahlil qilish, ularning kartografik tasvirlarini yaratish va cho‘llanishga qarshi kurash bo‘yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Абдулкасимова.А, Журакулов Х. Закономерности дифференциации ландшафтов Зарафшанских гор и прилегающих равном. Самарканд; изд-во (У-2014.- 155-стр.
2. Бабаев А.Г., и др. Пустыни. Природа Мира. М.: Мысль, 1986 – 318 с.
3. Бабаев А.Г. Проблемы пустынь и опустынивания Ашхабад: Туркменская государственная издательская служба, 2012,
4. Орловский Н.С. и др. Пустыни и опустынивание. М.Междуународное ошношение.2018 – 752с.
5. Рафиков А.А. кортографирование опустынивания. В хн Опустынивание в Узбекистане и борьбасним. Ташкент. 1988. С 77 – 113,
6. Чуб. В.З. Изменения климата и его влияние на гидрометеорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан, Ташкент. 2007,с. 134

### **BUXORO VOHASI SHAROITIDA G‘O‘ZANING O‘SISH VA RIVOJLANISHIGA NOQULAY EKOLOGIK OMILLARNING TA‘SIRI**

**Boltayeva Zarina Azamatovna**

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Buxoro davlat universiteti

Ma‘lumki, tabiatda kuzatilayotgan global ekologik o‘zgarishlar, noqulay stress omillarning kuchayib borayotganligi, o‘ta yuqori harorat, qurg‘oqchilik, sho‘rlanish va boshqa omillar uzoq davom etayotganligi qishloq xo‘jaligiga, xususan paxtachilikka juda katta zarar keltirayotganligi har bir viloyat tuproq-iqlim sharoitlariga mos, noqulay sharoitlarga chidamli va

moslashuvchan g'oz navlarini tanlash va to'g'ri joylashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Viloyat hududida tabiiy namlik yetarli emas. Atmosfera yog'inlarining yillik miqdori 90-150 mm ni tashkil qiladi. Yer sathidan mumkin bo'lgan bug'lanish miqdori 2000 mm gacha yetadi. Bu jihatdan Buxoro hududi o'ta qurg'oqchil (arid) zonaga mansubdir.

O'simliklarning o'sishiga ekologik omillarning ta'sirini o'rganish uchun o'simlik hayotini yetarli darajada aniq va to'liq o'rganish, eng oldin unga xos bo'lgan qarama-qarshiliklarni ochish, uning hayotini tashkil etgan jarayonlarni mufassal o'rganish va o'simlik organizmining umumiy rivojlanishida shu jarayonlardan har biri qanday ahmiyatga ega bo'lganligini aniqlash zarur. O'sish jarayonlari tashqi muhitning noqulay omillari ta'sirida keskin o'zgaradi. Suv tanqisligi o'simlik va uning shakllanayotgan organlarining o'sishini sekinlashtiradi, qurg'oqchilik sharoitida biologik va xo'jalik hosil salmog'ining kamayishi o'sish jarayonlarining sekinlashishi bilan bog'liq. Suv tanqisligi o'sish jarayonlarini sekinlashtirib, hosil sifatiga hamda o'simliklarning barcha rivojlanish bosqichlariga salbiy ta'sir qiladi. [2].

O'simliklarda normal fiziologik jarayonlarni amalga oshishi uchun ular yetarli darajada suv bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. O'simliklar tomonidan qabul qilinadigan barcha mineral elementlar suvda erigan holatda bo'lishi kerak. Suvda erigan anion va kationlar ildiz orqali qabul qilinadi va o'simliklar tanasi bo'ylab harakatlanadi hamda taqsimlanadi. Suv tanqisligi sharoitida o'simliklar tomonidan suv va oziq moddalarning qabul qilinishi qiyinlashadi. Mabodo bunda tuproq sho'rlangan ham bo'lsa, suv va oziq moddalarning kirishi yanada qiyinlashadi. Bu o'z navbatida o'simliklarning suv balansiga salbiy ta'sir qiladi va o'simliklar tanasida kuchli suv tanqisligi kuzatiladi [7].

G'oz navlarining o'sish jadalligiga suv tanqisligining ta'sirini o'rganish maqsadida dala tajribalari o'tkazildi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar g'oz navlarining shonalash, gullash va ko'saklash bosqichlarida o'rganildi. Chunki, tabiiy sharoitda g'ozaning ushbu bosqichlari tashqi muhitning noqulay omillari, ya'ni suv tanqisligi, yuqori harorat, tuproq qurg'oqchiligi va sho'rlanish ta'siriga duch keladi.

Tashqi noqulay ekologik omillarining ta'siri qisqa va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. O'simliklar to'qimalarida o'ziga xos fiziologik - biokimyoviy o'zgarishlar ro'y beradi. Natijada o'simlik shu sharoitga moslasha boradi va kelajak avlodlarning noqulay sharoitlarga bo'lgan chidamliligi ortib boradi.

Tajribalarimizni ikki xil variantda olib bordik. Ya'ni: 1-variant nazorat-tuproq namligi-mo'tadil; 2-variant tajriba-tuproq namligi-cheklangan. Tajribalarimiz davomida olingan natijalarga qaraganda ushbu ko'rsatkichning qiymati barcha nav va variantlarda shonalash bosqichidan gullash bosqichigacha oshib borishi aniqlandi. Ayniqsa tuproq namligi cheklangan sharoitda o'stirilgan g'oz navlarining bo'yi past bo'lishi kuzatildi.

Jumladan, ushbu ko'rsatkichning qiymatini shonalash bosqichida navlar kesimida qaraydigan bo'lsak Buxoro-10 navining nazorat variantida -45,0 sm, tajriba variantida -41,4 sm; Buxoro-8 navining nazorat variantida -47,8 sm, tajriba variantida esa -43,1 sm; Buxoro-102 navining nazoratida -46,2 sm, tajriba variantida esa -42,8 sm; Andijon-35 naviga e'tibor beradigan bo'lsak ushbu ko'rsatkichning qiymati quyidagicha bo'lganligi aniqlandi. Nazorat variantida -43,2 sm, tajriba variantida esa -38,5 sm; Sulton navida qo'yidagi ko'rsatkichlar qayd etildi: nazorat variantida -44,4 sm, tajriba variantida esa -40,6 sm ga teng bo'lishi aniqlandi.

Navlarning o'sish jadalligiga suv tanqisligining ta'siri rivojlanish bosqichlariga bog'liq holda har bir nav va variantlarda har xil qiymatga ega bo'lganligi kuzatildi.

Navlar kesimida gullash va ko'saklash bosqichlarini solishtiradigan bo'lsak, quyidagi natijalar olindi: Buxoro-10 navining gullash bosqichi mo'tadil namlik sharoitida -72,0 sm, cheklangan namlik sharoitida esa -67,3 sm, ko'saklash bosqichida mo'tadil namlik sharoitida -107,3 sm, cheklangan namlik sharoitida esa -90,5 sm; Buxoro-8 navi gullash bosqichining mo'tadil namlik sharoitida -75,0 sm, cheklangan namlik sharoitida -72,1 sm; ko'saklash bosqichida mo'tadil namlik sharoitida -110,9 sm, cheklangan namlik sharoitida esa -95,4 smga

yetdi. Buxoro-102 navida gullashda mo'tadil namlik sharoitida -78,4 sm, cheklangan namlik sharoitida -74,2 sm, ko'saklashda mo'tadil namlik sharoitida -112,6 sm, cheklangan namlik sharoitida esa- 94,8 sm; Andijon-35 navining gullash bosqichining mo'tadil namlik sharoitida poyaning balandligi -72,8 sm, cheklangan namlik sharoitida -65,0 sm; ko'saklash bosqichining mo'tadil namlik sharoitida -103,0 sm, cheklangan namlik sharoitida esa-81,5 sm; Sulton navining gullash bosqichida mo'tadil namlik sharoitida -70,6 sm, cheklangan namlik sharoitida 66,2 sm; ko'saklash bosqichida esa mo'tadil namlik sharoitida -115,4 sm, cheklangan namlikda -86,3 smga yetdi.

Umuman, navlarda poyalar bo'yining har xil bo'lishi navlarning biologik xususiyatlariga, rivojlanish bosqichlariga hamda tuproqdagi namlikka bog'liq holda har xil bo'lishi aniqlandi.

Ma'lumki o'simlik o'sishi va rivojlanishining barcha fazalarida yuqori haroratdan ta'sirlanadi, lekin reproduktiv faza yuqori haroratga o'ta sezgir hisoblanadi. Bunday sharoitda ertapishar navlar o'sish bosqichini to'xtatib birdan agronomik xususiyatlarini namoyon qiladi [5].

Ayrim manbalarda iqlim o'zgarishi dunyoning bir nechta mintaqalarida ekstremal haroratni yuzaga kelishiga sabab bo'layotganligi ta'kidlangan. Stress harorat omili g'o'za o'sishi va rivojlanishidan to iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarigacha ko'p tomonlama salbiy ta'sir qiladi. Bunday muammolarni oldini olish va zararini minimallashtirish uchun bir nechta strategik uslublarni taklif etishgan. Bular issiq haroratga chidamli navlarni ekish, seleksion jarayonda yovvoyi tur va foydali stress omilga chidamlilik genini yoki markerni aniqlash orqali genetik xaritalashni ta'klif etganlar [3].

Respublikamizning janubiy va qisman markaziy mintaqalarida iyun, iyul va avgust oylarida sodir bo'ladigan o'ta yuqori issiq harorat (+40-50°C) va havoning qizib ketishi, ba'zan chang-to'zonli shamollarning paydo bo'lishi g'o'za navlarining suv va ozuqaga bo'lgan talabchan kritik davri, ya'ni gullash-hosil to'plash bosqichiga to'g'ri kelishi, juda ko'p hosil elementlari nobud bo'lishiga, shonalar shakllanmay tuguncha holida qurib qolishiga, o'simlikda morfo-fiziologik va biokimyoviy jarayonlarning keskin buzilishiga olib kelar ekan. Chunki, aksariyat o'simliklar uchun o'sish va rivojlanishida maqbul havo harorati +35-40°C ga teng bo'lib, haroratning bundan ortib borishi ularni shikastlantiradi yoki hosil elementlarining ma'lum bir qismini to'kilishiga olib kelganligi ta'kidlab o'tilgan [6].

O'simliklarning vegetatsiya davri qaysi bosqichida bo'lishidan qat'iy nazar, bir necha kun davom etgan yuqori havo harorati hosil sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maqbul talabga javob bermaydigan har qanday omil (yuqori harorat, namlik va boshqalar) ta'sirida o'simlik yashab qolishi uchun gul va shonalarini, hatto ko'saklarini ham to'kib yuborishi aniqlagan [4].

Tadqiqot manbalarida ekologik stress omillar va havo haroratining qizib o'zgarib borishi, tabiatda suv tanqisligi paxta hosildorligi uchun salbiy ekanligini ma'lum qilingan. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, kun davomidagi yuqori havo harorati, tungi harorat bilan birga zararli ta'sirini kuchaytirish mumkinligi va qishloq xo'jaligi ekinlari uchun o'zgaruvchanligining muhim sababi ekanligi aniqlangan [1].

Tadqiqotlarimiz davomida navlarning o'sish jadalligiga harorat ta'sirini o'rganish maqsadida bir qancha tajribalar o'tkazdik. Tajribalarimizni 3 xil harorat darajalarida, ya'ni 3 xil variantda olib bordik. 1- variant nazorat bunda havo harorati +30-35°C; 2-variant tajriba-1 bunda havo harorati +35-40°C; 3-variant tajriba-2 deb nomlanadi bunda havo harorati +40-45°C.

Jumladan, Buxoro-10 navining shonalash bosqichida +30-35°C da 52,9 sm, +35-40°C da 56,8 sm, +40-45°C da 60,0 sm; gullashda +30-35°C da 77,7 sm, +35-40°C da 85,0 sm, +40-45°C da 87,9 sm, ko'saklash bosqichida +30-35°C da 112,0 sm, +35-40°C da 117,5 sm, +40-45°C da 120,3 smga teng bo'ldi. Buxoro-8 navining shonalash bosqichida +30-35°C da 55,3 sm, +35-40°C da 60,2 sm, +40-45°C da 65,0 sm; gullashda +30-35°C da 83,8 sm, +35-40°C da 88,0 sm, +40-45°C 91,8 sm; ko'saklash bosqichida +30-35°C da 116,1 sm, +35-40°C da 118,6, +40-45°C da 121,2 sm;

Buxoro-102 navida quyidagi raqamli ma'lumotlar olindi: shonalashda nazoratda 50,4sm, tajriba-1 variantida 54,6 sm, tajriba-2 variantida esada 61,7 sm; gullashda nazoratda 80,1 sm, tajriba-1 variantida 84,7 sm, tajriba-2 variantida 88,8 sm; Ko'saklash bosqichida nazorat variantida 113,8 sm, tajriba-1 variantida 115,5 sm, tajriba-2 variantida esa 117,1 smga teng bo'ldi. Andijon-35 navi shonalash bosqichida nazorat variantida 49,4 sm, tajriba-1 variantida 52,5 sm, tajriba-2 variantida esa 55,3 sm, gullash bosqichida esa nazorat variantida 75,0 sm, tajriba-1 variantida 77,5 sm, tajriba-2 variantida 78,3 sm, ko'saklash bosqichida nazorat variantida 104,4 sm, tajriba-1 variantida esa 109,3 sm, tajriba-2 variantida 114,7 smga teng bo'lganligi kuzatildi.

Sulton navida nazoratda 50,0 sm, tajriba-1 da 55,4 sm, tajriba-2 da 58,2 sm, gullashda nazoratda 75,4 sm, tajriba-1 da 79,3 sm, tajriba-2 da 81,1 sm, ko'saklash bosqichida nazoratda 110,2 sm, tajriba-1 da 114,1 sm, tajriba-2 variantida esa 116,4 smga teng bo'lganligi aniqlandi. Buxoro-8 va Buxoro-102 navlarida ushbu ko'rsatkichning qiymati ya'ni, bo'yining balandligi boshqa navlarning bo'yiga qaraganda baland bo'lganligi tajribalarimiz davomida aniqlandi.

Masalan, Buxoro-8 navining bo'yi 40-45<sup>0</sup>C harorat darajasida ko'saklash bosqichida poyaning balandligi 121,2 smga teng bo'lgan bo'lsa, Andijon-35 navining 40-45<sup>0</sup>C harorat darajasida ko'saklash bosqichida poyaning balandligi 114,7 smga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich Buxoro-102 navining 40-45<sup>0</sup>C harorat darajasida gullash bosqichida 88,8 smga teng bo'lgan bo'lsa, Andijon-35 navining 40-45<sup>0</sup>C harorat darajasida gullash bosqichida 78,3 smga teng bo'lganligi kuzatildi.

Tadqiqotlar davomida olingan natijalarga asoslanib, noqulay ekologik omillar kuzatiladigan Buxoro viloyati va unga yondosh hududlarda chidamlilik darajasidan kelib chiqib, viloyatning qurg'oqchil, sho'rlangan va yuqori harorat kuzatiladigan hududlariga noqulay omillarga chidamlilik darajasi yuqori bo'lgan Buxoro-8, Buxoro-102 va Buxoro-10 navlarini ekish tavsiya etiladi. G'o'za navlarining stress omillarga majmuaviy chidamlilik darajasini aniqlashning ekofiziologik usullarini qo'llash orqali hosil salmog'ini oshirish va uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun ushbu usullardan foydalanish va ayni paytda barcha agromeliyativ tadbirlarni yuqori darajada amalga oshirish taklif etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Oosterhuis D.M. Day or night high temperatures: A major cause of yield variability// Cotton Grower. 2002. Vol-.46. -P. 8-9.
- 2.195. Sung D., Kaplan F., Lee K., Charles L. Acquired tolerance to temperature extremes // Trends Plant Sci. 2003.-V.-8.-P. 179-187.
3. 196. Syed Adeel Zafar, Mehmood Ali Noor, Muhammad Ahmed Waqas, Xiukang Wang, Tayyaba Shaheen, Mubashar Raza, Mehboob-Ur-Rahman. Temperature Extremes in Cotton Production and Mitigation Strategies // Chapter. 2018 .V.-4.-P. 10-15.
4. Williams S., Bange M. The cotton plant. In Australian Cotton Production// Manuel. 2015.- P.10-80.
5. Мурадуллаев А.М., Рахмонкулов С. Иқлим ўзгариши барқарор қишлоқ хўжалиги учун муҳим муаммо сифатида//Ўза ва бошқа экинлар генофонди биохилма-хилликларини ўрганиш, ривожлантириш, сақлаш ва самарали фойдаланиш истиқболлари мавзусидаги халқаро илмий анжуман материаллари.-Тошкент, 2020.- Б.172-173.
6. Рахмонкулов С., Данабоев А., Жалолов Х., Дадахужаев Х. Гармселга бардошли ўза навларини танлаш бўйича тавсиянома.- Тошкент, 2015.- Б.3-4.
7. Хўжаев Ж.Х. Маданий экинлар ҳосилдорлигини оширишнинг биологик асослари // Ўзбекистон флораси биохилма-хиллиги ва ундан оқилна фойдаланиш муаммолари: Республика илмий-амалий конф. материаллари. – Самарқанд, 2011. –Б. 69-72.

## **BUXORO VILOYATI SHAROITIDA MOSH NAVLARINI MAHALLIYLASHTIRISH**

**Atoyeva Ruxsora Odilovna, q.x.f.f.d.(PhD)**

**Komilova Aziza Asror qizi, magistr**

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Hozirgi kunda dunyo miqiyosida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi, o'simliklardan yuqori hosil olish yo'llarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim masalalardan sanaladi. Shu boisdan, birlamchi va zaruriy ahamiyatga ega bo'lgan ekinlarning yaratilgan turli xil navlarni morfologik, biologic, ekologik va fiziologik nuqtai nazardan o'rganish va mahalliyashtirish ishlarini amalga oshirish zarurdir.

Mosh donida oqsil, vitaminlar ko'p bo'lishi, to'yimli va tezpisharligi bilan boshqa dukkakli o'simliklardan ajralib turadi. Mosh donidagi oqsil miqdori va kuchi javdar, bug'doy donlaridagi oqsildan 1,6-2,0 barobar, kartoshka va karamdan 3,5 va 5 barobar yuqori bo'lishi aniqlangan. Mosh donida lizin 8%, argenin - 7%, triptofan kabi bir qator aminokislota va B1,PP kabi vitaminlar mavjud. Mosh doni tarkibidagi triptofan aminokislota ayniqsa, yosh bolalar uchun foydali bo'lib, o'sish uchun zarur bo'ladigan oqsillarni qurilishida va qonda gemoglobin hosil bo'lishida muhim o'rin tutadi [1].

To'la etilgan mosh urug'ida makromolekulalardan magniy, kaliy, kalsiy, fosfor tuzlari uchrab, ularning miqdori go'sht va non mahsulotlariga qaraganda ikki barobar ko'p. Agar iste'mol qilinadigan taomlar ro'yxatiga muntazam moshli ovqat qo'shilsa, asabni tinchlantirish, ich ketishni to'xtatish, yurak, jigar va buyrak faoliyatini yaxshilash, ko'z kasalliklarini davolash, ko'rish qobiliyati va xotirani yaxshilash, stress holatlarni osonlik bilan o'tkazishda hamda suyak va bo'g'imlarni yanada mustahkamroq bo'lishida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, tabobat sohasida moshdan tayyorlangan damlama allergiya va astma kasalliklarni davolashda foydalaniladi [2].

Moshning biologiyasi bilan tanishsak, hayotiy shakli bir yillik o'simlik, ildiz tizimi – o'q ildiz, 1-1,5 m chuqurlikka kirib boradi. Asosiy va yon ildizlarida no'xatsimon tuganaklar hosil qiladi. Poyasi qirrali, ko'p shoxlaydi, balandligi 40-60 sm, chirmashuvchi yoki yarim chirmashuvchi o'simlik Barglari uchtalik, yirik, uzun bandli. O'simlikning barcha organlarida, shu jumladan dukkaklarida ham tuklar bor [2]. O'simlikning gullari yirik, sariq yoki qizg'ish sariq, har shingilida 10-12 gul to'pgul hosil qilgan. Mevasi dukkak bo'lib, shakli silindrsimon, to'g'ri yoki bukik, uchida tumshug'i yo'q, uzunligi 10-18 sm. Dukkagi pishganda rangi qo'ng'irdan qora tulgacha bo'ladi. Har bir dukkagida 7-25 dona 3-6 mm kattalikdagi mayda urug'lari bo'ladi. Urug'lari yashil, sarg'ish va qoramtir rangda bo'lib, 1000 urug'ining vazni 30-80 g ni tashkil etadi [2].

Mosh ekini issiqsevar o'simlik sanalib, odatda takroriy ekin sifatida kuzgi boshqoli don ekinlari, kartoshka sabzavot ekinlaridan so'ng takroriy ekin sifatida ekiladi. Mosh o'simligi shuningdek, namsevar bo'lib, bir vegetatsiya davrida 4-5 marta sug'orilib, asosan sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladi. Shuningdek, mazkur o'simlik yorug'sevar, qisqa kun o'simligi bo'lganligi bois, takroriy ekin sifatida yozning chillasida ekiladi. O'simlik tuproq tanlamaydi va shuning uchun o'tloqi-allyuvial, o'tloqi-botqoq tuproqlarda ham yaxshi o'sadi. Sho'r, sho'rxok yerlarda yaxshi rivojlanmaydi. Mosh siderat ekin sifatida ham ekiladi. U ko'k tanasi o'g'it sifatida ishlatilganda g'o'za hosili 40-60 % ortadi. U ang'izga ekilganda ham gektaridan 15-18 s/ga urug' hosili beradi. Almashlab ekishda u dalani to'la egallamaydi [1].

Mosh o'simligining ko'k hamda qurigan poyalari chorvachilikda yaxshigina, yem-xashak sifatida foydalaniladi. Mosh soya o'simligi singari ildizidagi tuganak bakteriyalar hisobidan har gektariga 60-80 kg ga yaqin sof azot to'playdi hamda tuproq unumdorligini oshirishda ishtirok etadi.

Buxoro viloyati sharoitida mosh navlarini mahalliyashtirish maqsadida, 2022-2023 yil 3-5 iyul oylarida, moshning 25 xil navlari o'tloqi-allyuvial tuproq sharoitida 2-3 sm chuqurlikda

ekildi. Mosh navlaridagi urug' unuvchanligi aniqlash maqsadida, kuzatuv va tahlil ishlari olib borildi. Mosh o'simligi urug'larining unuvchanligi va unish tezligi navlariga, haroratga va tuproq holatiga bog'liq ravishda turlicha ko'rsatkichda bo'lishi, laboratoriya va dala sharoitlarida aniqlandi. Agar tuproqda harorat 12-15 °C ni tashkil etsa, mosh urug'lari bir hafta davomida, tuproq harorat 22-25 °C ni tashkil etganda, 2-3 kunda unib chiqishi aniqlandi. 2023 yil 3 iulda ekilgan navlar, tuproq harorati optimal bo'lganligi bois, urug'lar 2-3 kunda, ya'ni 5-6 iyul kunlari aksariyat navlarda urug'larning unib chiqish foizi 70 ni tashkil etdi. Ammo, navlar ichida L-92, L-22 hamda Marjona navlarida unuvchanlik juda past foizlarni tashkil etishi aniqlandi.

Moshning vegetatsiya davri navga, agrotexnika, ekilish muddatiga bog'liq ravishda, o'rtacha 65-110 kunni tashkil etadi. Mosh dukkaklarning 70 foizi yetilganda o'rim-yig'im ishlari olib boriladi. Mazkur navlarda vegetatsiyasi davrining oxiriga kelib, dukkaklar bir xil pishib yetilmasligi aniqlandi. Bunda, Andijon, Barqaror, Baraka, Durdona, Zilola va tur xil navli AVMU larda dukkaklar L-8, L-22, L-88, L-92 va Marjona navlariga nisbatan erta pishishi aniqlandi. Shuningdek, turli navlarda dukkakning shakli, o'lchami hamda donlar soni, rangi va o'lchami farq qilishi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, mosh o'simligi xalq xo'jaligida keng foydalaniladigan, dukkakli o'simliklardan biri sanaladi. Shu boisdan, Buxoro viloyatining o'tloqi-allyuvial, tuproq-iqlim sharoitida ekilgan 25 xil mosh navlarining xalq xo'jaligida qimmatli va ahamiyatli bo'lgan navlarini aniqlash va mahalliyashtirish ishlari olib borilmoqda.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Atabayeva X.N., Idrisov X.A. Mosh yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish // Monografiya. – Farg'ona: 2021. – 6. 56-73
2. Mavlyanova R.F., Sulaymonov B.A., Boltayev B.S., Mansurov X.G., Kenjabayev Sh.M. Mosh yetishtirish texnologiyasi (Tavsiyanoma) // Toshkent – 2018. 2-4 b.
3. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari – Toshkent: 2007.-b.12 - 143

**UO'T 598.289.1(575.146)**

#### **BUXORO VOHASIDA REMIZ CORONATUS (SEVERTZOV, 1873) NING BIOLOGIYASIGA DOIR MA'LUMOTLAR**

**Doniyorov Boymurod Normurotovich**  
*Ekologiya va geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi*  
*Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

Qushlarni areal hududlarida tarqalishi, biologiyasi va ekologiyasini tadqiq qilish, ularni agrotsenozlarga, qishloq, shaharlarga jalb etish, muammoli turlar sonini boshqarish, muhofaza qilish chora-tadbirlarini aniqlash dolzarbdir.

Buxoro vohasi agrotsenozlarida Chumchuqsimonlar turkumi Chittaklar oilasiga mansub Qorabosh vahmaqush uchraydi. Uchrash holatiga ko'ra bu qush uchib o'tuvchi-uyalovchi turdir. Mamlakatimiz va unga chegaradosh hududlarda mazkur turning biologiyasiga doir ma'lumotlar M.A. Voinstvenskiy (1954), L.A. Portenko (1955), A.K. Sagitov (1961), T. Abdreimov (1969, 1981), Y.P. Spangenberg (1941), A.K. Rustamov (1958), A.V. Popov (1959), N.A. Rashkevich (1965), A.I. Ivanov (1969), E.I. Gavrilov (1972), I.A. Abdusalomov (1973), A.M. Mambetjumayev (1973) kabi tadqiqotchilar tomonidan to'plangan. Ammo, tadqiqotchilar tomonidan yig'ilgan materiallar bugungi kunda ancha eskirganligini, e'lon qilingan materiallarning to'kis emasligini, tabiiy o'zgarishlarni inobatga olgan holda, tegishli xulosalar chiqarish uchun yangi materiallarni yig'ishga ehtiyoj bor. Shuningdek, bu qushlarning biologiyasi Buxoro vohasi misolida maxsus o'rganilmagan. Shuni e'tiborga olib ushbu maqolada 2018-2019 yillarda Qorabosh vahmaqushning bioekologiyasi bo'yicha o'tkazilgan kuzatishlar, to'plangan ma'lumotlarga asoslangan holda fikr, mulohazalarimizni keltiramiz.

Qorabosh vahmaqush bioekologiyasini o'rganishda, stasionar kuzatishlarni amalga oshirishda zoologik, ornitologik, morfologik va statistik usullardan foydalanilgan. Qorabosh vahmaqushning 4 ta uyasi topildi, 5 ta tuxumlari, 5 ta polaponlari o'rganildi. Yana bir qancha kuzatishlar ham amalga oshirildi.

Qorabosh vahmaqush ko'rinishidan Buxoro vohasida uchrovchi Oddiy vahmaqushga juda o'xshab ketadi. Hatto turmush tarzi o'xshash bo'lsa ham, bu ikki oiladosh turlarni bir-biridan ajratishda qanotlari tashqi yuzasi tuslanishi va naqshlanishi hamda bosh qismidagi qora tusli parlarning miqdori ahamiyat kasb etadi. Quyidagi 1-rasmda Qorabosh vahmaqushning umumiy ko'rinishi tasvirlangan



**1-rasm. Qorabosh vahmaqushning umumiy ko'rinishi**

Qorabosh vahmaqushning sayrashi mart oyi oxiridan-sentabr oyigacha eshitiladi. Uya qurishdan oldin boshqa turlardek juft hosil qiladi. Bu davrda ular bir-birini quvib uchadi, ba'zan tumshuqlarini bir-biriga tekkizishi, bir-biriga yaqin turishi, turiga xos diskonfort tovush chiqarishi, uya xom-ashyosini tashish, uya qurish, uyada tunab qolish, qisqa masofaga sayrab uchishi kabi fe'l-atvorini mahorat bilan namoyon qiladi.

Buxoro vohasi sharoitida Qorabosh vahmaqushlar uyalarini suvga yaqin ekilgan gujum, tol, bodom, terak kabi daraxtlarga quradi. Yil oshgan yoki oldin foydalanilgan o'z uyalaridan takror foydalanmaydi. Uyani qurishda ikkala jins ishtirok etadi. Qurilish muddati ba'zan bahorning kelish vaqtiga, ob-havoga, jumladan, haroratga, xom-ashyoga bog'liq holda 7-9 kun vaqt talab etadi. Uyasini qurishda asosan 150 metr radiusda tevarak-atrofdagi qoqio't, qamish, qo'g'a, kakra, qushqo'nmas kabi o'simliklarning havoda uchub tarqaladigan yumshoq va yengil qismlaridan hamda qo'y junidan foydalanadi. Uyasi aniq shaklga ega emas, ya'ni ko'rinishi jihatidan qalpoqqa o'xshaydi. Insonlarga yaqin nuqtalarda joylashtirilsa ham ko'p hollarda kuz fasligacha ko'zga ko'p tashlanmaydi. Uya (n=4) larning yerdan balandligi 2,7 (2,3-4,3) metr. Uya kirish yo'lagining uzunligi 92,0 mm, diametri 31,0 x 26,6 mm, uya devori har xil qalinlikda bo'lib, o'rtacha 10,4 (3,7-15,0) mm.ni tashkil qiladi. Uya xartumi (kirish va chiqish yo'lagi) dan poyanak qismigacha uya devori qalinlashib boradi. Uya qurilishi tugagach, unga oq rangli, ichki suyuqligi qizg'ish, po'choq sirti asosan silliq ba'zan g'adir-budir katta-kichik, oval shaklli tuxumlar qo'yadi. Tuxum har kun 1 tadan, ba'zan bir kun tashlab qo'yilar ekan. Uyalardagi tuxumlar soni manbalardan 4-9 ta bo'lishi ma'lum, biz kuzatishlarimiz jarayonida 5 ta ekanligini aniqladik. Tuxumlarni bosish, isitish uyaga birinchi tuxum qo'yilishi bilan boshlanadi. Qush tuxum (n=5) lari morfometriyasi quyidagicha: uzunligi 16,1 (15,8-16,3) mm, eni 10,1 (9,9-10,6) mm, massasi 0,7 (0,7-0,8) gramm. Tuxum bosish jarayoni 14 kungacha davom etadi. Oradan yana ikki hafta o'tgach yosh avlod morfometrik jihatdan ota-onalariga o'xshab qoladi. Voyaga yetgan Qorabosh vahmaqushning morfometrik o'lchamlari quyidagicha: tumshug'ining uzunligi 8,8 mm, tumshug'ining asosdan uzunligi 9,7 mm, tumshug'ining balandligi 3,4 mm, umumiy



tana uzunligi 105,7 mm, qanotining uzunligi 51,8 mm, ikki qanotining umumiy uzunligi 163,0 mm, dumining uzunligi 40,0 mm, sevkasi 14,9 mm, tana vazni 6,6 gramni tashkil qiladi. Qorabosh vahmaqush asosan agrotsenozlardagi ayrim hasharotlar va ularning lichinkalari bilan oziqlanib, ularning sonini boshqarishda ishtirok etadi.

Qorabosh vahmaqush biologiyasini o'rganish davrida aniqlandiki, bu qush oziq zanjirida ahamiyatga ega. Jo'ja boqish davrida zararkunandalar bilan oziqlanib, qishloq xo'jaligiga foyda keltiradi. Axlati fosforgia boy, tuproqqa aralashib, unumdorlikka ta'sir etadi. Uya qurishda begona o'tlarning tana qisimlaridan foydalanib, ularni agrotsenozlarda tarqalishini chegaralaydi. Keyingi vaqtlarda odamlar tomonidan turar joylarni o'zgartirish, daraxtlarga novaqt shakl berish, ularni kesish, kuchli shamollar va toshqirg'iy, zag'izg'on tomonidan Qorabosh vahmaqushlar soniga ta'sir bo'lmoqda.

#### **Adabiyotlar:**

1. Doniyorov B.N. Materials on the biology of *Streptopelia decaocto* Friv 1838 in Bukhara region//ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. India, Vol. 11, Issue 2, 2021.DOI:10.5958/2249-7137. 2021.00313.X.
2. Doniyorov B.N. Buxoroda uchrovchi qushlarning shahardagi milliy-madaniy yodgorliklarga ta'siri//Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti.-Buxoro, 2016.№4. -B.42-46.
3. Doniyorov B.N. Buxoro shahri sharoitida uya qiluvchi qushlar//Актуальные научные исследования в современном мире Сборник научных трудов. Переяслав-Хмельницкий, 2016. №3.10-18 стр.
4. Doniyorov B.N. Turizm sohasida ahamiyatli Buxoro viloyati agrotsenozlaridagi manzarali va sayroqi qushlar//«Ипак ва зираворлар» фестивали даврида 2018 йил 26 май куни Бухоро шаҳрида «Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти» мавзусида ўтказилган халқаро илмий-амалий конференция тезислар тўплами.-Бухоро, 2018.-Б.169-173.
5. Мамбетжумаев А.М. Биология размножения черноголового ремеза *Remiz coronatus* в низовьях Амударьи//Рус. орнитол. журн. 2001 Экспресс-выпуск № 166. 959-967 стр.
6. Мальчевский А. С. Орнитологический экскурсии. Л.: ЛГУ, 1981. 296 стр.
7. Михеев А.В. Определитель птичьих гнезд. М.:1975.171 стр.
8. Мальчевский А.С. Гнездовая жизнь певчих птиц. Л.: Изд., ЛГУ, 1959. 281 стр.
9. Collins "BirD GUIDE" //Colorgrafic, Milano Printing: Graphicom, 2006 Printed in Haly 400.

## **IQLIMNI MO'TADILLASHTIRISHDA MANZARALI DARAXTLARNING AHAMIYATI VA TURAR JOYLARNI KO'KALAMZORLASHTIRISH**

**Muratova Gulsara Saidovna**

Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro sh.

Ekologiya va geografiya kafedrasi o'qituvchisi

Ma'lumki, manzarali o'simliklardan ko'chalar, xiyobonlar, istirohat bog'lari hamda hovlilarni ko'kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi. Bunday o'simliklar orasida daraxtlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat kislorod manbai, balki, muhit mikroiklimini mo'tadillashtirishda asosiy o'rinni egallaydi. Keyingi yillardagi kuzatishlar natijasiga ko'ra, sanoatlashgan yirik shaharlarda yoz oyida havo harorati 50<sup>0</sup>C dan ortib, havoning nisbiy namligi 30 foizdan pasayib ketadi. Daraxtlar qalin o'sgan hiyobonlarda esa bu ko'rsatkich 35 – 37<sup>0</sup>C ni, havoning nisbiy namligi esa 40 – 45 foizni tashkil etishi kuzatilgan. Bundan tashqari, esgan issiq shamol (garmsel) daraxtlar qalin o'sgan joylarda bir oz soviydi. Daraxtlar nafaqat issiqdan himoya qiladi, balki, qahraton qishning ham nisbatan iliqroq bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, daraxtlar shovqinni pasaytiruvchi xususiyatga ham ega. Shuning uchun ham inson

daraxtlar qalin o'sgan joyga oshiqadi. Xiyobonlar va bog'lar maydonining asosiy qismini egallagan shaharlarning iqlimi mo'tadil va musaffo bo'ladi.

Mustaqillik yillarida Buxoro shahrining infratuzilmasi yangidan tashkil etilishi munosabati bilan markaziy ko'chalar, istirohat bog'lari va dam olish maskanlarida zamonaviy shahar arxitekturasiga mos keladigan landshaft dizayni yaratilmoqda. Buning uchun Buxoroning yangi qiyofasiga mos, kishiga estetik zavq beradigan, ularning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, eng asosiysi, shahar iqlimiga mos hamda ko'p yillik daraxt turlari keltirib ekilmoqda.

Ochiq urug'lilarga mansub qarag'ay, archa, botqoq kiparisi kabilar keyingi yillarda keng maydonlarga ekilmoqda. Bu daraxtlar tuproq tanlamaydi. Nisbatan tezroq o'sadi va tezda quyuq soya beradi. Ular o'zidan efir moyi ajratib chiqaradi. Bu modda havodagi turli zararli mikroorganizmlarning rivojlanishini cheklaydi, havoning musaffoligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, bu daraxtlar bahorda changlanib, ulardan ajraladigan chang donalari yuqori nafas yo'li kasalliklarini samarali davolaydi. Yurak qon-tomir va turli allergik kasalliklarni davolaydigan sanatoriy-profilaktoriylarda, shuningdek, dam olish sihatgohlarida ochiq urug'li daraxtlar shu maqsadda ekiladi.

Soxta kashtan, Yapon saforasi, shoyi akatsiya, katalpa, oqqayin kabi daraxtlarning shox-shabbasi, bargi va guli nihoyatda chiroyli. Ular kishini beixtiyor o'ziga jalb etadi. Qolaversa, ularning guli va mevasidan turli xil kasalliklar, jumladan insult, infarktning oldini olishda, davolashda va xalq tabobatida keng foydalanilmoqda. So'nggi yillarda Buxoro shahriga xorijdan iqlimimizga tez moslashuvchan, jozibador, har tomonlama foydali, vaqt guli, barglari uzoq vaqt saqlanadigan daraxtlar keltirilib ekilmoqda. Shulardan biri – Lola daraxti. Uning vatani Shimoliy Amerika. Guli, g'unchasi lolani eslatgani uchun shunday nomlangan. Oq, sariq, qizil va pushti ranglarda bo'ladi. Bargi yirik, shox-shabbasi piramidasimon, oval shakllarda bo'ladi. Keskin sovuqqa chidamli. Yozda quyuq soya beradi. Gullari birin ketin 20-25 kungacha ochilaveradi. O'zidan efir moyi ishlab chiqaradi. Guli asal shirasiga boy. Barglari yirik bo'lgani uchun ko'p kislorod ajratadi va daraxt atrofida o'ziga xos mikroiklim xosil qiladi. Bu daraxtni dunyodagi yirik shaharlarning ko'cha, xiyobon va istirohat bog'larida uchratish mumkin. Jumladan, Toshkent shahrining markaziy ko'chalarida ham bir necha yirik tuplari barq urib o'sib turibdi.

Magnoliya daraxti ham shunday o'simliklardan hisoblanadi. Vatani Xitoy. Gullari yirik, barg chiqarmasdan oldin qiyg'os gullaydi. Oq, qizil, pushti ranglarda bo'ladi. Barglari yirik, butun. Gullari efir moyiga boy. Bu daraxtning barglarini to'kmaydigan turlari ham mavjud. Ko'p miqdorda kislorod ajratishi aniqlangan. Bizning iqlimga tez moslashadi. Sovuqqa, qurg'oqchilikka chidamli. Keyingi yillarda ushbu daraxtni ham Buxoro shahrida ekish keng miqyosda olib borilmoqda.

Daraxtzorlar havoni kislorod bilan boyitib, turli iflosliklardan tozalaydi, iqlimni yaxshilaydi, yo'lka va tuproqni qizib ketishdan saqlaydi. Daraxtzorlar suv bo'ylarida barpo etilgan xiyobonlar, qator ekilgan madaniy daraxtlar shahar husniga husn qo'shadi, kishilarning dilini yoritib, asabini yaxshilaydi. SHuning uchun shahar- qishloqlar qurilishini loyihalashda ularni ko'kalamzorlashtirish inobatga olinadi. Zamonaviy loyihalashda istirohat bog'laridan tashqari bolalar uchun maxsus ko'kalamzor maydonlar bo'lishi inobatga olinadi. Yirik shaharlarda kishi boshiga 10m<sup>2</sup>, o'rtacha shaharlarda 6-8 m<sup>2</sup> yashil maydon rejalashtiriladi. Olimlarning fikricha, o'rtacha kattalikdagi bir tup daraxt 24 soat ichida 3 kishi uchun kerak bo'ladigan kislorod ishlab chiqarar ekan. Bir gektar yerdagi daraxtzor bir sutkada 220-280 kg karbonat gazini yutib, o'zidan 180-200 kg kislorod ajratar ekan. Avtomobildan ajralib chiqadigan zaharli gazlarni zarasizlantirishda ko'chalarga ekilgan daraxtlar katta foyda beradi. Istirohat bog'lari ustidagi 1kub/m havoda 800- 1000, sanoat korxonalar ustida 200-400 va aholi zich yashaydigan joydagi havoda 150-200 atrofida yengil ionlar bo'lishi aniqlangan. Og'ir ionlar dud, suv bug'lari, va changlar bilan qo'shilib, havoni ifloslanishiga olib keladi.

O'simlik va daraxtlarning sanitariya va gigiena jihatidan ahamiyati shundaki, ular uchuvchan organik birikmalarni havoga ajratib chiqaradi-bu moddalar fitonsidlar deb ataladi va

In reports on the herpetofauna of Tajikistan, from two to six species of amphibians were noted, which is currently a pressing issue for further research on distribution, biological features, as well as determining strategies for the protection and establishing of conservation status. Here, we provide some historical and recent data on taxonomical status and our new records of amphibians in Tajikistan inhabited waterbodies in the arid and mountain landscapes.

Amphibians were collected and determined in arid and mountain areas of four Tajikistan regions (Varzob, Panj, Levakant and Rudaki Districts) in July 2023. Three localities in the Varzob River (Varzob River 1: 38.7163 N, 68.8147 E; Varzob River 2: 38.7203 N, 68.8168 E; Chorbed mountain: 38.7025 N, 68.8126 E), one locality near the Panj River (37.2134 N, 68.5916 E), one locality in the Vakhsh River valley (37.8834 N, 68.9486 E), and one near Danghara (38.0509 N, 69.2591 E) were examined.

During the expedition in Tajikistan of 2023, we found new records of two amphibian species in arid ecosystems: *Bufotes turanensis* and *Pelophylax persicus* (fig. 1). Adult *B. turanensis* were found in two localities in the Varzob River, one locality near the Panj, one locality in the Vakhsh River valley, and one near Danghara. Tadpoles of *B. turanensis* were found in Varzob Ravine and the Vakhsh River valley. Adult individuals and tadpoles of *Pelophylax persicus* were observed in the Vakhsh River valley and a small river near Danghara.

The first studies on green toad biology contained information on the entire *Bufotes viridis* complex. Thus, the green toad ("*Bufo viridis*") was observed by S.A. Chernov in 1945 in the Gissar valley and on the southern slope of the Gissar Ridge [11]. S.A. Said-Aliev in the field seasons of 1954 – 1973 observed green toads in the northern (recent Sughd Province), central (recent Districts under Central Government Jurisdiction) and southwestern parts of Tajikistan (Khatlon Region), as well as in the south of modern Badakhshan Mountainous Autonomous Region (recent Shughnon, Roshtqal'a, and Ishkoshim Districts) [11]. The marsh frog (previously "*Rana ridibunda*") has been found in many water bodies of the Zeravshan, the Vakhsh, the Panj and the Syr Darya Rivers drainages in the northern, central and southwestern parts of Tajikistan [11]. *Pelophylax* species was not found in the south of modern Badakhshan Mountainous Autonomous Region.

The arid territories of Tajikistan were often typical for the description of new taxa and were under the focus of researchers close attention. In 1978, H. Hemmer, J.F. Schmidler and W. Böhme described a new subspecies of *Bufo viridis* near the City of Dushanbe (*B. v. turanensis*) [12]. In the same year, E.M. Pisanets described tetraploid species *B. danatensis* from the southern Turkmenia [13]. After his work, in the 1980s and 1990s, Central Asian tetraploids (*B. oblongus*, *B. pewzowi*) were mostly called "*B. danatensis*", a recent younger synonym of *B. oblongus*.

In 1996, diploid toads from the Beshkent sands (south-western Tajikistan) were described as *Bufo shaartusiensis* according to allozyme analysis [14]; however it has been recently synonymized with *B. turanensis* [3].

One of the most important discoveries in amphibian cytogenetics was the identification of a bisexual triploid species ("*Bufo pseudoraddei baturae*", recently *Bufotes baturae*) characterized by genome elimination and endoreduplication processes in the germ line cells [15]. It was found that the southernmost parts of Pamirs in Tajikistan inhabited by these triploids [16]. Batura toad was reliably found in the Badakhshan Mountainous Autonomous Region: Ishkoshim (Ishkoshim District), Lyangar and Bulunkul (Murghob District) [14]. In the vicinity of Bulunkul, the Batura toad is known from Yashilkul Lake with geothermal streams in the Sasyk-Bulak and Issyk-Bulak [14, 17].

According to allozyme data, S.V. Mezhzherin described *Rana terentievi* [18] and further molecular analysis confirmed the validity of this species, which is distributed south of the Vakhsh River valley. Modern molecular genetic studies have shown that the marsh frog is a

complex of closely related cryptic species [19]. Three species were found to inhabit the East European Plain: *P. ridibundus*, *P. kurtmuelleri*, and *P. cf. bedriagae*. While the first two taxa have few genetic differences and are often considered within a single species, while the *P. ridibundus* and *P. cf. bedriagae* are widespread species with the widest hybrid zone among amphibians. Genes of the Anatolian water frog, *P. cf. bedriagae*, were found in the southern Kazakhstan populations, including localities close to the borders of Tajikistan (in the Syr Darya River drainage, near Khujand) [20].

Thus, according to the above-mentioned studies, the following five reliably identified anuran amphibian species are found in Tajikistan:

1. Terentjev's Frog – *Pelophylax persicus* (Schneider, 1799).
2. Turan Toad – *Bufotes turanensis* (Hemmer, Schmidtler et Boehme, 1978).
3. Pewzow's Toad – *Bufotes pewzowi* (Bedriaga, 1898).
4. Perrin's Green Toad – *Bufotes perrini* Mazepa, Litvinchuk, Jablonski et Dufresnes, 2019.
5. Batura Toad – *Bufotes baturae* (Stoeck, Schmid, Steinlein et Grosse, 1999).

Possibly, “Syrdarya” species of the marsh frog [20] occurs on some northern territories of Tajikistan. Further molecular analysis will shed light on the relationships within this complex of water frogs from Tajikistan.

I would like to thank to Leonid A. Neymark for help in the expedition.

#### Reference

1. Rahmonov O., Majgier L., Andrejczuk W., Banaszek J., Karkosz D., Parusel T., Szymczyk A. Landscape diversity and biodiversity of Fann Mountains (Tajikistan). *Ekológia (Bratislava)*, 2013. 32(4): 388–395.
2. Bondarenko D.A., Ergashev U.H. Reptiles of the Southwestern Tajikistan desert plains: Spatial distribution, population density and communities structure. *Current Studies in Herpetology*, 2022. 22(1–2): 17–39.
3. Dufresnes C. et al. Fifteen shades of green: The evolution of *Bufotes* toads revisited. *Molecular Phylogenetics and Evolution*. 2019. 141: 106615.
4. Betto-Colliard C., Sermier R., Litvinchuk S. et al. Origin and genome evolution of polyploid green toads in Central Asia: evidence from microsatellite markers. *Heredity*. 2015. 114: 300–308.
5. Dufresnes C., Probonas N.M., Strachinis I. A reassessment of the diversity of green toads (*Bufotes*) in the circum-Aegean region. *Integrative Zoology*, 2021. 16(3): 420–428.
6. Litvinchuk S.N., Svinin A.O., Dujsebajeva T.N. Morphological differentiation between diploid and polyploid species of green toads (Anura: Bufonidae: *Bufotes*) in Central Asia. *Bonn Zoological Bulletin*, 2021. 70 (2): 361–371.
7. Petrosyan V., Osipov F., Feniova I., Dergunova N., Warshavsky A., Khlyap L., Dzialowski A. The TOP-100 most dangerous invasive alien species in Northern Eurasia: invasion trends and species distribution modelling. *NeoBiota*, 2023. 82: 23–56.
8. Frost D. *Amphibian Species of the World: an Online Reference*. Version 6.0. American Museum of Natural History, New York, USA, 2023.
9. Tunner H. G. Die klonale Struktur einer Wasserfroschpopulation. *Z. Zool. Syst. Evolut.-Forsch.*, 1974. 12: 309–314.
10. Dubey S., Maddalena T., Bonny L., Jeffries D.L., Dufresnes C. Population genomics of an exceptional hybridogenetic system of *Pelophylax* water frogs. *BMC Ecology and Evolution*, 2019. 19(1): 164.
11. Said-Aliev S.A. *Amphibians and Reptiles of Tajikistan*. Dushanbe: Donish, 1979.
12. Hemmer H., Schmidtler J.F., Bohme W. Zur Systematik zentralasiatischer Grunkroten (*Bufo viridis*-Komplex) (Amphibia, Salientia, Bufonidae). *Zool. Abh. Staatl. Mus. Tierk. Dresden*, 1978. 34(24): 349–384.

13. Pisanets E.M. On a new polyploid species of toads *Bufo danatensis* Pisanetz sp. n. from Turkmenia // Dokl AN USSR Ser B Geol Geogr Khim Biol, 1978. 3:280–284.
14. Litvinchuk S.N., Mazepa G.O., Pasyukova R.A., Saidov A., Satorov T., Chikin Yu.A., Shabanov D.A., Crottini A., Borkin L.J., Rosanov J.M., Stöck M. Influence of environmental conditions on the distribution of Central Asian green toads with three ploidy levels. Journal of Zoological Systematics and Evolutionary Research, 2011. 49(3): 233–239.
15. Stöck M., Schmid, M., Steinlein, C., Grosse, W-R. Mosaicism in somatic triploid specimens of the *Bufo viridis* complex in the Karakoram with examination of calls, morphology and taxonomic conclusions. Italian Journal of Zoology, 1999. 66:215-232.
16. Litvinchuk S.N., Rozanov J.M., Usmanova N.M., Borkin L.J., Mazanaeva L.F., Kazakov V.I. Variability of microsatellites BM224 and Bcal7 in populations of green toads (*Bufo viridis* complex) differing by nuclear DNA content and ploidy. Tsitologia, 2006. 48:332–345.
17. Kidov A.A., Ivolga R.A., Kondratova T.E., Kidova E.A. Peculiarities of reproduction and early development in the highest mountain amphibian of the territory of the former USSR - the Batura toad (*Bufo baturae*, Amphibia, Bufonidae) (according to the results of laboratory studies). Zoologicheskii Zhurnal. 2022. 100, 2: 153-164.
18. Mezhzherin S.V. A new species of green frogs *Rana terentievi* sp. nova (Amphibia, Ranidae) from South Tadjikistan. Dopovidi Akademii nauk Ukrain'skoi RSR. Seriya B, Matematicheskie, Estestvennye, Tekhnicheskie Nauki, 1992. 5: 150-153.
19. Akin Ç., Bilgin C.C., Beerli P., Westaway R., Ohst T., Litvinchuk S.N., Uzzell T., Bilgin M., Hotz H., Guex G.D. et al. Phylogeographic patterns of genetic diversity in eastern Mediterranean water frogs were determined by geological processes and climate change in the Late Cenozoic. J. Biogeogr. 2010, 37, 2111–2124.
20. Ualiyeva D., Ermakov O.A., Litvinchuk S.N., Guo X., Ivanov A.Y., Xu R., Li J., Xu F., Arifulova I.I., Kapyonkina A.G. et al. Diversity, Phylogenetic Relationships and Distribution of Marsh Frogs (the *Pelophylax ridibundus* complex) from Kazakhstan and Northwest China. Diversity 2022, 14: 869.

## **ЭКСТЕРНАЛИИ ПУСТЫННЫХ ТЕРРИТОРИАЛЬНО-ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ КОМПЛЕКСОВ**

**Рафиков Вахоб Асомович, д.г.н., профессор,**  
 директор Института сейсмологии АН РУз.  
 E-mail: [uz-hydrolog@mail.ru](mailto:uz-hydrolog@mail.ru)

### **Введение**

В протекающей фазе индустриального развития территориально-производственного комплекса (ТПК), требуется обеспечение экологической безопасности не только в его собственных интересах, но и всей страны. Способ достижения этой цели основывается на экологизации ТПК. При этом смысл экологизации заключается в переходе производительных сил ТПК на более высокий уровень, техника, технология и производственные отношения которого максимально минимизировали бы или вовсе исключили бы негативные воздействия на экосистемы и обеспечили бы сохранение природно-ресурсного потенциала и здоровых условий для протекания естественного отбора всего разнообразия их растительного и животного населения на отдалённую перспективу.

Опустынивание ТПК – имеет место не столько из-за аридизации – глобального феномена, а в большей мере – из-за технологических погрешностей и нарушений пастбищеоборота и правил выпаса животных, а также других производств.

## Основная часть

Руководящим принципом экологизации производства, отрасли, природно-производственной системы, территориально-производственного комплекса, как следует из доктрины современной экологии [2], отражает максима – «не навреди!». Не исполнение или отступление от этого принципа является нарушением правил сосуществования, что должно порождать ответственность нарушителя за содеянное. Но, а если субъект природопользования не только не вредит, а ещё и приносит пользу среде обитания, то, очевидно, должен быть поощрён.

Эти обстоятельства в экологии и экономике природопользования отражаются в структуре экстерналий или «внешних эффектов (последствий) экономической (хозяйственной) деятельности субъектов», которые положительно или отрицательно воздействуют на другую хозяйственную сторону или компонент среды обитания [1].

Экстерналии для их производителей не всегда поддаются интернализации [1] или замыканию внутри своих производств (территорий и т.д.). Но и если они выявляются и интернализируются, то субъекты хозяйствования игнорируют их, так как заинтересованы прежде всего в минимизации своих внутренних издержек. Поэтому издержки по предупреждению или ликвидации негативных экстерналий «вынуждены нести другие стороны» [1].

В этом контексте рассмотрим межсекториальные (межотраслевые) экстерналии характерные для территориально-производственных комплексов экстрааридных регионов.

Характерными секторами экономики этих регионов являются орошаемое земледелие, недропользование (добыча минеральных и топливно- энергетических ресурсов, их передел) и пастбищное животноводство. Инфраструктуру этих отраслей составляют водохозяйственные, энергоснабжающие, транспортные системы и другие виды коммуникаций. Жизнедеятельность населения – хозяйствующего субъекта – протекает в поселениях разной крупности: городах, посёлках, сёлах, стойбищах и т.д.

Каждому из этих секторов экономики и жизнедеятельности в целом присущи характерные воздействия (импакт) на экосистемы соответствующих уровней организации.

Орошаемому земледелию по течению большой реки характерны как межрегиональные, так и межсекториальные экстерналии.

Межрегиональные экстерналии орошаемого земледелия сводятся к изъятию речного стока и засолению вод в верхнем и среднем течении бассейна, который поступает в нижние регионы бассейна в уменьшенных количествах и с повышенной минерализацией, а также с группами поллютантов с разнообразными лимитирующими признаками [3].

В пределах экстрааридных регионов эта вода (и не раз) используется в орошаемом земледелии, а также повторно в рыбохозяйственных, природоохранных и т.п. целях. В орошаемом земледелии вода расходуется на продуктивное и непродуктивное испарение, «солевую вентиляцию почв», которая достигается отводом заселённых коллекторно-дренажных вод в водоемы – солеприёмники [3]. За счёт эвапотранспирации (продуктивного и непродуктивного испарения в сумме) сток воды с орошаемых массивов (или сельскохозяйственных природно- производственных систем) сокращается, а сток растворённых веществ, как правило, существенно возрастает из-за испарительного концентрирования [3, 4]. Тем самым сокращается площадь акваторий регионов и повышается солёность водоёмов. С коллекторно-дренажными водами орошаемых массивов выносятся в эти водоёмы поллютанты, каковыми являются продукты распада или разложения минеральных и органических удобрений и других химических веществ, употребляемых в растениеводстве. Поэтому водоёмы – солеприёмники, особенно концевые, характеризуются неблагоприятием не только по солевому фактору, но и по токсичности.

Экстерналии орошаемого земледелия проявляются в формате сокращения площадей акваторий, засоления и загрязнения водных объектов, что ведёт к дигрессии сопряжённых

наземных и водных экосистем. Катагенез или дисклимакс этих экосистем, по-видимому, из-за неуправляемости пока равновероятны. Но следует заметить, что ожидания по дисклимаксу в случае его наступления вряд ли могут быть утешительными по части продуктивности.

Недропользование – поиски, добыча и первичный передел рудных и нерудных, нефтегазовых и других полезных ископаемых – весомый сектор экономики экстрааридных регионов.

Недропользование конкурирует с другими отраслями экономики за «жизненное пространство». Его внедрение в экономику региона обуславливает все изъятия земель из традиционного сектора и весь послед акции – уменьшение кормовой базы пастбищного животноводства, сокращение ареалов распространения «дикой природы» и многое другое. Но более глубокие трансформации происходят в социокультурной среде при конвергенции местного населения с мигрантами, в их сосуществовании в «индустриальном», а ныне уже и в постиндустриальном обществе. На данный социально-экологический аспект накладываются и негативные изменения качества среды обитания из-за её нарушения и загрязнения при недропользовании. Однако недропользование экономически весьма эффективное и пока наиболее конкурентоспособное производство в регионе, а поэтому и более ответственное за свои экстерналии.

Эта ответственность выразилась в создании транспортной инфраструктуры региона – сети железных и автомобильных дорог с твёрдым покрытием, водоводов, систем обводнения пастбищ, газопроводов и линий электропередач, а с достижением страной независимости – железнодорожная сеть существенно расширилась и приобрела стратегическое значение. Пастбищное животноводство – это традиционная экологическая ниша местного населения. Его экстенсивный рост во второй половине двадцатого столетия в какой-то мере скомпенсировал демографический взрыв, но не обеспечил ожиданий по повышению качества жизни местного населения. Наоборот, рост поголовья каракулевых овец и других направлений животноводства – усугубляет опустынивание.

### **Заключение**

В общем орошаемое земледелие, недропользование, пастбищное животноводство и сама жизнедеятельность населения в экстрааридных регионах – это антагонисты или конкуренты за жизненное пространство, а их характер воздействия на среду обитания, если не синергетичный, то, не исключено, что аддитивный.

Поэтому рассмотренные экстерналии предстают объектом экоманеджмента, а основа его результативности усматривается в оптимизации взаимоотношений секторов хозяйствования пустынных территориально-производственных комплексов.

### **Литература**

1. Бобылев С.Н., Ходжаев А.Ш. Экономика природопользования. – М.: ТЕИС, 1997. – 272 с. 2
2. Реймерс Н.Ф. Экология. – М.: Россия молодая, 1994. – 367 с. 7
3. Хасанов А.С., Шерфединов Л.З. Аридный гидрогеолого-мелиоративный процесс. – Ташкент: Фан, 1987. – 152 с. 8
4. Шерфединов Л.З., Курбонов Б.Т., Назаров Г.В. Систематизации экологических процессов Центральной Азии. Сб. докл. конф. «Проблемы охраны водных ресурсов и окружающей среды». – Ташкент: ИВП АН РУз, 2000. – С. 34-38. 10



# O'ZBEKISTON CHO'L MINTAQASI EKOTIZIMLARINING GEOEKOLOGIK MUAMMOLARI

**Norboeva Umida Toshtemirovna**

Buxoro davlat universiteti professori, biologiya fanlari doktori

**Idiyeva Umida Akbarovna**

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich talabasi  
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

**Kirish.** Tabiatning bir bo'lagi bo'lgan cho'l ekotizimlarini muhofaza qilish ham geografik, ham ekologik, ham ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega. Bugungi kunda insoniyatning global muammolaridan biriga aylangan cho'llanish muammosi ekologik tizimga antropogen yukning kirib kelishi natijasida yuzaga kelayotgani hech kimga sir emas.

Mavzuni yoritish barobarida aynan cho'llanish muammosi va uning o'zimiz yashab turgan hudud – O'zbekiston miqyosidagi ta'siri va mintaqadagi geoekologik vaziyat tahlil qilinadi. O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston cho'l mintaqasi ekotizimlarida har yili tabiatda iqlimning aridlashishi tufayli hosil urug'i yetilmasdan to'kilib ketadi. Cho'llarda yog'ingarchilikning kam bo'lishi va uning bir necha yillar davom etishi esa geokomplekslar biomassasining ikkilamchi holatini keltirib chiqaradi. Bunday uzoq davom etuvchi davr tez orada ekotizimlarda qayta tiklanmaydigan jarayon boshlanishini ta'kidlab turadi va cho'llanish jarayoni boshlanayotganini anglatadi. O'zbekiston Respublikasida cho'llanishga qarshi kurashish harakatining milliy dasturi 1999-yilda ishlab chiqildi. Bundan tashqari 1995-yilda O'zbekiston cho'llanishga qarshi kurashish Xalqaro Konvensiyasiga qo'shildi. Hozirgi kunda ushbu konvensiyaga dunyoning 139 ta davlati a'zo[1].

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda cho'l ekotizimlariga e'tibor qaratish, cho'l ekotizimlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

“O'zbekiston respublikasida cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”[2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida muhim vazifalar belgilab berilgan, cho'llanishga qarshi kurashish, degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash bo'yicha ishlarni olib borish samaradorligini oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini samarali bajarishni ta'minlash maqsad qilingan. Agar yarim cho'llarning ekologik muammolari haqida ko'proq gaplashadigan bo'lsak, unda asosiy muammo bu ularning kengayishi ko'plab yarim cho'llar, cho'llari bo'lgan o'tish davri tabiiy zonalaridir, ammo ma'lum omillar ta'siri ostida ular hududni kengaytiradi va cho'lga aylanadi.

Ma'lumki, O'zbekiston hududining 70 foizini cho'l va chala cho'lli hududlar egallaydi. Ushbu holat istiqbolda cho'llarga bo'lgan munosabatning yaxshilanishini va ularni o'rganishning muhimligini taqozo etadi. Agar okean bo'yidagi mamlakatlarining kelajak taraqqiyoti bevosita okeanlar bilan bo'g'liq bo'lsa, cho'l zonasida joylashgan mintaqalarda cho'llarni o'zlashtirish bilan bog'liq. Shu jihatdan olib qaraganda, quruqlikning ichki qismida o'rnashgan davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun cho'llarni tadqiq etish o'ta muhim. Chunki, cho'l zonasi respublika kelajagining “qo'rig'i”, o'zlashtirish, kengayish maydoni hisoblanadi. Har bir maskan yer shari tabiatining ajralmas bo'lagi hisoblansada, o'ziga xos tabiiy xususiyatlarga ega. Bu yerdagi organik dunyo vakillari esa ana shu xususiyatlar zaminida rivojlanib unga uyg'unlashgan holda yashaydi. Shunday bo'lsada, ekologik muhitning qulaylik darajasi joylardan farqlanadi[3].

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Aholi sonining (70 mln kishiga yaqin) ko'payishi, sanoat, qishloq xo'jalik va nomoddiy sohalarning intensiv sur'atlarda rivojlanishi, o'lkaning tabiiy resurslaridan foydalanish ko'lamini kengaytirdi. Bu o'lkada yer va suv resurslaridan foydalanishda yaqqol ko'zga tashlandi. Mazkur resurslardan ekstensiv usulda foydalanish avj oldi. 1980- yillarning oxiriga kelib, O'rta Osiyoda haydaladigan yerlar maydoni 7 mln gektardan, sug'oriladigan

yerlar maydoni esa 5,7 mln gektardan oshdi. Oqibatda, o'lka sobiq Ittifoqning qishloq xo'jaligi ekstensiv rivojlangan regioniga aylandi. Bunday iqtisodiyotni tashkil etish modeli birinchi navbatda suv resurslaridan samarasiz foydalanishga sabab bo'ldi. Yirik irrigatsiya inshootlaridan hisoblangan suv omborlari, kanallarning qurilishida ekologik vaziyatni hisobga olmaslik oqibatida, ularda "foydali harakat koeffitsienti (KPD)" past darajada (40-60 %) bo'ldi. Yaxlit ekosistemaga ega region tabiati antropogen ta'sir tufayli ekologik nomutanosiblikka duch keldi. Bu birinchi navbatda daryolar suv rejimida o'z aksini topdi. 1970-yillardan boshlab, ayrim yillarda Amudaryo va Sirdaryo suvlarining Orol dengiziga yetib bormasligi kuzatilgan bo'lsa, bugungi kunda "Orol dengizi" muammosi global tus oldi. Shuningdek, cho'llanish nomi bilan mashhur global muammolardan – ekin yerlari unumdorligining pasayishi, ikkilamchi sho'rlanish, bioxilma-xillikning kamayishi kabi salbiy holatli "o'choqlar" soni o'lkada ko'paymoqda. Bu o'lkaning 2 yirik tabiat komplekslari hisoblangan tog', tog'oldi va tekislik-cho'l ekosistemi orasidagi nomutanosiblikka (disproportsiyaga) sabab bo'ldi. XXI asrning dastlabki o'n yili orasida o'lkaning tog'li qismida yangi suv omborlarining barpo etilishi, energetika sanoatini keng rivojlantirish maqsadida daryolarda yangi to'g'onlar qurilishi bir butun bo'lgan tabiat kompleksining geoekologik vaziyatini yanada keskinlashtirmoqda. Bugun bu muammolar davlatlar darajasida transchegaraviy hududlarda o'z yechimini topishi zarur.

Regionda demografik faollik hamda urbanizatsiya darajasining o'sish sur'ati yuqori bo'lib, o'z navbatida suv resurslariga bo'lgan talabni oshirmoqda. Keyingi yillarda bir kunda shahar aholisi jon boshiga 300-400 litr suv sarflanmoqda. Hatto poytaxt shaharlarda yashovchi aholi jon boshiga esa 500-600 litr to'g'ri keladi. Agar har bir shahar aholisi kuniga 1 litrdan suvni tejaganda yiliga million litrlab ichimlik suvi iqtisod qilinadi. Uning iqtisodiy, ma'naviy foydasi beqiyosdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, O'rta Osiyo hududining asosiy qismini cho'l tashkil qilgan ekan, avvalo o'lkada suv resurslaridan samarali foydalanish yo'llarini takomillashtirish zarur[4].

Ular orasida ta'lim muassasalarining ahamiyati katta va samaralidir. Chunki cho'llanishning 98 % i antropogen asosga ega ekan yoshlarni tabiatga mehr ruhi bilan tarbiyalash lozim. Buning uchun bakalavr va magistrlar tayyorlash o'quv rejalariga "Eremologiya" – cho'lshunoslik fanini tanlov asosida kiritish zarur. "Eremos" - yunoncha so'z bo'lib, "cho'l" ma'nosini anglatadi. Albatta, bu fan faqat cho'l tushunchasini emas, balki yaxlit, ekosistema, geosistemani o'rganadi. Chunki bu so'z zaminida o'ziga xos iqtisodiy, ekologik va geografik mazmun yotadi: cho'l – yaxlit ekosistema, suv resurslari cheklangan yoki o'ta cheklangan; cho'l – antropogen ta'sirdan tez zararlanuvchi, tabiiy tiklanish sust boradigan geosistema; cho'l – tog' kompleksining yog'inlarini qabul qiluvchi tabiiy kompleks. Shuningdek, o'quv rejalariga "cho'l haqidagi ta'limot", "suv ekologiyasi", "geosistemalar barqarorligi va o'zgaruvchanligi haqida konseptsiya", "global ekologiya konseptsiyasi" kiritilishi zarur, bu tabiat komplekslarini yaxlit predmet sifatida o'qitadigan ekologiya va geografiya fanlarining mavqeini mustahkamlab, siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy qonunlarni o'rganish va bu sohadagi muammolarni yechishda "kalit" bo'lib qoladi[5].

Buxoro viloyati hududi tabiatining biologik xususiyatlari eng avvalo bu maskanning cho'l zonasi va Zarafshon daryosining deltasida joylashganligi, o'zga yurtlardan (tog'lardan) keladigan daryo suvlari sharofati tufayli insonlar qudrati bilan yaratilgan vohalar, yirik suv inshootlarining mujassamligi bilan belgilanadi. Viloyat hududida tabiiy namlanish yetarli emas. Atmosfera yoginlarining yillik miqdori 90-150 mm ni tashkil qiladi. Yer yuzidan mumkin bo'lgan parlanish esa 2000 mm gacha boradi. Bu jihatdan Buxoro hududi o'ta qurg'oqchil zonaga mansubdir. Bu yoginlar ham yil davomida notekis taksimlanadi. Bahorga nisbatan sernam bo'lib yoginlarning 45-55 % shu davrda to'g'ri keladi. Qish faslida esa bu kursatgich 35-40 % ga teng. Yoz fasli o'ta quruq havoning nisbiy namligi iyul, avgust oylarida 10-20 % gacha pasayadi va ofatli issik (garmsel) shamollarga sabab bo'ladi. Bu o'rinda qayd qilish lozimki, cho'l zonasining tabiati yil davomida organik dunyo uchun talay qulayliklarga ega, lekin quruq, o'ta yorug', jazirama uzoq davom etadigan yoz davri organik dunyo va insonlar uchun qiyin kechadi. Bu

davrda cho‘l cho‘lligini aynan namoyon qiladi. Cho‘l zonasidagi bioekologik holatni shamollarsiz tasavvur qilib bulmaydi[3].

Shamollar kuchi tufayli harakatga keladigan bu qumlar XIX asrning ikkichi yarmidan asrimizning birinchi choragigacha organik dunyoga, odamlar boshiga katta kulfatlar keltirgan. “Qum bosish” davrida faqatgina Buxoro- Qorako‘l vohalarining shimoliy etagida joylashgan 60 ming gektardan ortiq obod yerlar, qishloq, shaharlar qumlar ostiga qolib ketgan.

Suvga bo‘lgan talabning beqiyos ortishi 1962-1975 yillarda Amu-Buxoro mashina kanali tizimini qurishga olib kelgan. Hozirgi kunda viloyatning suvga bo‘lgan talabi Amudaryo hisobidan qondirilmogda. Daryodan har yili o‘rtacha har minutda 130-145 m<sup>3</sup> suv olinmogda. Uning xususiy tomoni shundaki, bu kanal suvi qoplama nasoslar orqali yerlar relefi nishobligiga teskari tomonga oqiziladi. Ularning iste‘moldan bushagan chikindi oqova qismi esa yana orqaga Amudaryo tomon yo‘naladi. Bu esa ro‘y buradigan tabiiy jarayonlarni yanada murakkablashtiradi va ekologik muvozanatni barkarorlashtirishni qiyinlashtiradi. Vohadagi chiqindi oqava suvlarini bartaraf qilish maqsadida zovurlar tizimi yaratilgan. Zovur suvlari yuqorida qayd qilinganidek vohalar atrofidagi cho‘kmalarga tashlama ko‘llarga yuboriladi. Xomaki hisob-kitoblarga qaraganda har yili besh mln tonnadan ortiq tuz va turli kimyoviy moddalar hamda 9-10 mln tonna atrofidagi qattiq oqiklar (loyka) sug‘orma yerlar, tashlama ko‘llar havzasida to‘planmogda. Bu holl suvni maydonlarni ko‘paytirish; yerlarni botqoqlanishi, sho‘rlanishi, zaharli ximikatlar bilan iflosnashiga, tipik cho‘l landshaftlarining buzulishiga, kambag‘allashuviga salbiy ekologik oqibatlariga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi kunda Amu-Buxoro kanali ta‘siriga bevosita duchor bo‘lgan yerlar maydoni viloyatni 20 % qismini tashkil qiladi[4].

Cho‘l - o‘simlik dunyosining yaxshi rivojlanishiga yo‘l bermaydigan doimiy quruq va issiq iqlimli o‘lkalardagi biom tipi. Buxoro viloyati tabiatida uchrovchi yovvoyi o‘simliklar egallagan umumiy maydonining 93 % cho‘l landshaftiga xos o‘simlik jamoalari hisobidan shakllangan. Qumli cho‘llarda saksovul, quyonsuyak, qandim, chyerkez, patloq, choycho‘p, selen, iloq, yaltirbosh turkumlari dominantlik qilsa, gipsli toshloq cho‘llarda qizilcha, sassiq kovrak, shuvoq, astragal, isiriq, partak kabi o‘simliklar uchraydi. Amudaryo sohillarida, Zarafshon daryosining eski qayirlarida, viloyatda hosil bo‘lgan ko‘llar va zovurlar atroflarida to‘qay o‘simliklari jamoalari uchraydi. Ulardan turang‘il, suv toli, kaptar jiyda, yulg‘un, bo‘yra qamish, shirinmiya, qamoq, devpechak, yantoq, qo‘g‘a va kendir keng tarqalgan[5].

Har yili dunyo bo‘ylab 12 million gektar, 1 daqiqada esa 23 gektar yer cho‘llanadi. Hozir Yer yuzining 75 foizi cho‘llangan. Agar bu tahdid davom etaversa, 2050 yilga borib Yer yuzining 95 foizi yaroqsiz holga keladi.

**Xulosa.** Ekologik va geoekologik muammolar kun sayin o‘sib bormogda. Cho‘llanishga qarshi kurash masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalaridan biridir. Har soniyada dunyo bo‘ylab 23 gektar cho‘llanib boryapti. Bu holat davom etaversa, 2050 yilga borib, Yer yuzining 95 foizi cho‘llanishi va bu odamni oziq-ovqat tanqisligida qoldirishi mumkin. O‘tgan asrdan beri geoekologik muammolar qatoriga cho‘llanish ham qo‘shildi. **Cho‘llangan o‘lkalarda ekologik tizimlar buziladi, organik hayotning barcha shakllari yomonlashadi.** Cho‘llanish qashshoqlikni keltirib chiqaradi. Va hozir yaxshi yashayotgan odamlarni yaqin kelajakda oziq-ovqat tanqisligidan aziyat chekishiga sabab bo‘lishi [mumkin](#).

Fanlar akademiyasi qoshidagi Seysmologiya instituti ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirga kelib cho‘llanish jadallashmogda. “Agar cho‘llanishga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirmasak, 2030–40 yillarga borib, eksport hajmi keskin tushib ketadi. Bu jarayon yildan yilga kuchayib boryapti[6].

Qarnacho‘l, Mirzacho‘l, Sherobod, Dalvarzin, Qoraqalpoq cho‘llari chegaralari kengayishda davom etyapti. Ular qatoriga o‘tgan yillar ichida eng yosh bo‘lgan cho‘l – Orolqum ham qo‘shildi. Orolqum hozir 60 yoshga to‘ldi va uni dunyodagi eng yosh cho‘l desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Orolqum cho‘li Turkmanistondagi Qoraqum cho‘li bilan O‘zbekistondagi Qizilqumni birlashtirib yubordi. Avval bularning o‘rtasidan Amudaryo oqib o‘tardi”. Orolning tubidan

ko'tarilgan chang tuz, 300–400 kilometr radiusda atrofga yog'iladi. 2018 yil cho'llanishning bevosita ta'siri mayda cho'l zonasidan ko'tarilgan qum changlar respublikamiz va Turkmaniston, hamda Qozog'istonga ta'sir ko'rsatdi.

Hozirgi tendensiya kuzatiladigan bo'lsa, bevosita Orolning qurigan qismi, Qoraqalpog'iston, Navoiy kabi hududlarda cho'llanish jadallashadi. Faqatgina Toshkent va vodiy qismlarida bu jarayon nisbatan sekin kechadi. Chunki bu yerlar suv resurslariga boyroq. Cho'llanishga olib keladigan omillardan biri – qishloq xo'jaligining oqilona tashkil qilinmagani. Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi chorva mollarining noto'g'ri o'tlatilishi ham bunga sabab bo'ladi. Chorva mollari o'tlatishga yuborilganda, ular o'simliklarni ildizi bilan yeb yuboradi. Bu esa degradatsiya jarayonini tezlashtiradi.

Ilmiy jihatdan esa insonning tabiatga bo'lgan munosabatini yaxshilash kerak. Bunda ekologik madaniyatni, insonlarning tabiatga mehrini oshirish kerak. Inson – tabiatning bir bo'laki. Tabiatdan unga zarar yetkazmasdan foydalanish kerak. Tabiatdan oladigan resurslarimiz ertaga tiklanishi kerak. Agar tiklanmaydigan resurslarni olsak, bu – yerning qashshoqlanishi va cho'llanishiga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.S.B.Abbasov “Qizilqum cho'llari landshaftlari dinamikasi va ekologiyasi” monografiya 2019 yil, 19- bet)

2.O'zbekiston respublikasida cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 22.02.2019 yildagi PQ-4204-son

3.Barotov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. -Toshkent, O'qituvchi, 2002-440 b.

4.Qoriev M. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. -Toshkent, O'qituvchi, 1968.-332 b.

5.G'ulomov P., Hasanov I. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi.-Toshkent, Universitet, 2002.

6. Абдулқосимов А.А., Аббосов С.Б. Чўлларнинг вужудга келиши, шаклланиши ва географик тарқалиши // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. – Т., 2007. 28-жилд, – Б. 6-10.

## **TEKISLIK MINTAQASI SHAHARLARI VA ULARNING IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA RIVOJLANISHI**

### **(JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA)**

**Qurbonov Pahlavon Rustamovich, geografiya fanlari nomzodi, dotsent.**

Qarshi davlat universiteti, Qarshi shahri, O'zbekiston

**Kirish.** Hozirgi geoeologik sharoitda shaharlarning milliy iqtisodiyotdagi rolini e'tiborga olgan holda, ularda sanoat korxonalarini joylashtirishda tabiiy sharoit va resurslardan oqilona foydalanishning amaliy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan foydalanish alohida hududlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga, ulardagi mehnat va xom ashyo resurslarining ishga solinishi mavjud shaharlarning kengayib borishi hamda yangi shaharlar tashkil topishida muhim o'rin tutadi. Biroq, bunday vaziyatda tabiatning ta'sirini faqatgina bir tomonlama baholamaslik lozim. Masalan turli xil agrotexnik va meliorativ tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida shahar hududidagi tabiiy landshaftlar o'zgarib boradi va madaniy landshaft turlari shakllanadi. Bu o'zgarishlar ayniqsa yirik shaharlar va ular atrofida yaqqol namoyon bo'lib, ularda buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, xo'jalik oborotiga kiritish, xususan, tog' – kon sanoati rayonlarida dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O'z o'rnida tabiiy sharoit, ya'ni joyning reliefi, seysmik holati, iqlimi, tuproq qoplami, yer usti va yer osti suvlari - shaharlar shakllanishi, aholi joylashuvi, arxitektura–loyihalashtirish ishlarining olib borilishiga, aholi punktlarining tashqi qiyofasiga ta'sir qilsa, tabiiy resurslar–foydali qazilma konlari, gidroenergiya, rekreatsiya, fitoresurslar shahar manzilgohlarda sanoat

tarmoqlarining shakllanishida ijobiy rol o'ynaydi. Shuningdek tabiiy sharoitning qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvida yetakchi o'rin tutishi, ushbu tarmoq mahsulotlarini asosan shahar joylarda qayta ishlanishi ham shaharlar rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, respublikada yetishtiriladigan paxta, pilla, meva, qorako'l va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlash uchun shaharlarga yuboriladi hamda ular agroindustrial markaz sifatida rivojlanib boradi[8].

**Asosiy qism.** Tabiiy sharoitni shaharsozlik nuqtai nazaridan o'rganishning ilmiy uslubiy asoslarini ishlab chiqish va umumlashtirilgan xulosalar berish, shaharlarda murakkab infratuzilma va xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishda ahamiyati katta. Shaharlar rivojlanishining tabiiy geografik jihatlari bilan sobiq Ittifoq iqtisodiy geograflari V. V. Pokshishevskiy [5;6], Yu.G. Saushkin [7], V.V. Vladimirov [2], A.M. Kolotiyevskiy [4], mamlakatimiz olimlaridan N.V. Smirnov, T. Raimov, A. Soliyev, G'. Pardayev, A.Soatov va boshqalar shug'ullanishgan. Ularning ilmiy ishlarida ayrim shaharlar shakllanishiga tabiiy geografik tavsif, shaharlarning geomorfologiyasi va mikro iqlimiga ta'rif berilgan. Ammo respublikani shaharsozlik nuqtai nazardan tabiiy rayonlashtirish ishlari global iqlim o'zgarishlarini hisobga olgan holda mukammal darajada yakunlanmagan. Buning uchun iqtisodiy va tabiiy geograflar, iqlimshunoslar, gidrologlar, geologlar, geomorfologlar va boshqa tegishli soha vakillari birgalikda tabiiy sharoit holatini tadqiq qilgan holda hududni shaharsozlik maqsadida tabiiy rayonlarga ajratish shaharlarni to'g'ri joylashtirish va rivojlantirishda katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shaharsozlik nuqtai nazaridan eng avvalo joyning reliefi, iqlimi, yer usti va yer osti suv manbalarining ta'siri va ahamiyati juda katta. Shunga o'xshash tabiiy landshaft xususiyatlari va ularning aholi punktlarining vujudga kelishi, arxitektura planirovkasiga ta'siri kabi munosabatlarini – urboekologiya o'rganadi [2].

Shaharlarning rivojlanish jarayonlariga tabiiy sharoit va tabiiy resurslarining ta'sirini tadqiq etish hamda hududni shaharsozlik nuqtai-nazardan rayonlashtirish ishlarida joyning geologik tuzilishi, rel'efi, iqlimi, foydali qazilmalari, tuproq va o'simlik qoplami ketma-ketligida o'rganish maqsadga muvofiq. Bu esa bugungi global iqlim o'zgarishi sharoitida tabiiy sharoitning nafaqat qishloq xo'jaligi hududlarini, balki sanoat va xizmatlar markazi bo'lgan shaharlarni ham yaqin kelajakda rivojlanish muammolari tadqiq etish, ularni oldini olish va ta'sirini yumshatish imkonini beradi. Ma'lumki, tabiiy komponentlar orasida eng muhim omillardan biri iqlim hisoblanadi. Iqlimning shaharlar tashkil topishi va rivojlanishida ta'siri yuqori bo'lib, bunda ayniqsa, havo harorati va namligi, shamol rejimi va yo'nalishi, atmosfera yog'inlari singari iqlimning eng muhim elementlarining o'rni katta. Respublika iqlimining shakllanishida eng asosiy omil quyosh radiatsiyasi bo'lib, ushbu omil iqlimshunos olimlar tomonidan mamlakatimiz xududini cho'l–dasht , tog' oldi, tog' iqlim zonalariga ajaratilishida ham asosiy mezon sifatida xizmat qilgan. Binobarin, joyning iqlim xususiyatlari shaharsozlikda qurilish materiallarining turlariga, binolarining past–balandligiga, shahar ko'chalarining yo'nalishiga ta'sir etadi. Shu bilan birga, sanoat mujassamlashuv darajasining va aholi zichligining yuqoriligi bois, shaharlarda, ayniqsa yirik shaharlarda o'ziga xos mikro iqlim shakllanadi.

Tabiiyki, O'zbekiston Respublikasi kabi keskin kontinental iqlim mintaqasida joylashgan davlatlarda aholi joylashuvi, sanoat, qishloq xo'jaligini kabi iqtisodiyot sohalarining normal faoliyat yuritishi yog'inlar miqdori va namlik katta ahamiyat kasb etadi. Suv manbalari, xususan tekislik (cho'l) hududlarida shaharlarning joylashishi va vujudga kelishiga yanada kuchliroq ta'sir etadi. Qolaversa, bunday sharoitda hududning iqtisodiy negizini nafaqat shaharlar va yo'llar (Baranskiy N.N.[1]), balki gidrografik to'r ham belgilab beradi. Gidrografik omilda daryo va soylar, ularning gidrografik rejimi, o'zani, qiyaligi, uzunligi va havzasining eni, oqim tezligi, suv hajmi kabilar joyning demografik sig'imini, shaharlarning katta – kichikligini belgilab beradi. Aynan gidroresurslarning aholi joylashuviga ta'sirini Namangan viloyati misolida Sh.

Jumaxanov o'zining nomzodlik dissertatsiyasida yoritib bergan [3]. Janubiy O'zbekiston shaharlari ham aynan ushbu gidrografik omillar asosida shakllangan.

Janubiy O'zbekiston tekislik zonasini tabiiy xo'jalik nuqtai nazardan farq qiluvchi Sandiqli cho'li, Quyi Qashqadaryo va Surxon–Sherobod zonachalariga ajratiladi. O'z navbatida, Quyi Qashqadaryo va Surxon–Sherobod tekislik kichik zonalarini qadimdan sug'oriladigan daryo vodiylari hamda qishloq xo'jaligida yangi o'zlashtirilgan yerlarni (Qarshi va Surxon–Sherobod cho'llari) o'z ichiga oladi. Mazkur zona yer usti tuzilishi, ba'zi qoldiq tog'lar va platolarni hisobga olmaganda, deyarli tekis bo'lib, u Qashqadaryo viloyatida g'arbdan sharqqa, Surxondaryo viloyatida janubdan shimoli – sharqqa ko'tarilib boradi. Qarshi va Sherobod cho'llaridagi yerlar meliorativ holatining yomonlashuvi yer osti suvlari va ularning minerallasuv darajasining ko'tarilib borishiga, pirovardida tuproqning ikkilamchi sho'rlanishiga olib kelmoqda. Bunday tuproqlardan shaharsozlikda binokorlik materiallari sifatida ham foydalanib bo'lmaydi.

Tekislik zonasining qadimdan foydalaniladigan qismi mintaqaning daryo vodiylariga to'g'ri kelganligi bois suv taqchilligi sezilmagani holda, uning yangi o'zlashtirilgan hududlarida doimiy oqar suvlarning deyarli yo'qligi aholi va qishloq xo'jaligining suvga bo'lgan talabini asosan kanallar va suv omborlari hisobiga qondirilishiga olib keladi. Ammo hozirgi vaqtda Qarshi cho'li (Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Kasbi) tumanlarida suv, ayniqsa toza ichimlik suvi muammosi keskinlashib bormoqda.

#### 1-Jadval

#### Janubiy O'zbekiston shahar aholi manzilgohlarining tekislik (500 metrgacha) mintaqasi bo'yicha taqsimlanishi (01.01.2023 y.)

Hududlar	Jami shahar joylar		Shu jumladan, tekislik mintaqasi bo'yicha:			
	Soni, ta	Aholisi, ming kishi	Jami shahar joylarga nisbatan		Jami shahar aholisi soniga nisbatan	
			soni	foizda	ming kishi	foizda
Janubiy O'zbekiston	249	2508,4	162	65,1	1640,5	65,4
Surxondaryo viloyati	120	1016,8	95	79,1	562,9	75,2
Qashqadaryo viloyati	149	1491,6	67	51,9	636,0	57,9

Jadval statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil yanvar holatida iqtisodiy rayon shahar manzilgohlarining 65,1 foizi (162 ta) va jami shahar aholisining 65,4 foizi (1640,5 ming kishi) tekislik zonasiga to'g'ri kelgan [10]. Viloyatlarning ma'muriy va ko'p funksiyali markazlari Qarshi va Termiz aynan shu zonada joylashgan. Shuningdek bu yerda yangi maydonlarni o'zlashtirish asosida vujudga kelgan Koson, Sherobod, Beshkent, Yangi–Nishon, Jarqo'rg'on, gidrotexnik inshootlar qurilishi munosabati bilan Qumqo'rg'on, Talimarjon singari hamda Muborak – “resurs” shahri tarkib topgan.

Janubiy O'zbekiston tabiiy geografik o'rnini shaharsozlik nuqtai nazardan qulay yoki noqulay ekanligini belgilashda uning yer usti tuzilishi, reliefi bilan birga hududning foydali qazilma konlari bilan qanday ta'minlanganligi ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, shaharlarning ikki asosiy shahar hosil qiluvchi va shaharga xizmat qiluvchi (ichki yo'lovchi transporti, shahar aholisiga xizmat qiluvchi tarmoqlar) funksiyalari mavjud. Shahar hosil qiluvchi omillarga transport, ilmu-fan, dam olish maskanlari, bank-moliya, har xil foydali qazilmalari konlari, turizm kabilar kiradi. Ular orasida tabiiy sharoit va resurslar omili eng muhimi bo'lib, ushbu omil asosida shakllangan shaharlar “resurs shaharlar” deb ataladi.

**Xulosa.** Umuman olganda, tekislik zonasida kuchli zilzilalar va sel hodisalarining kamdan – kam kuzatilishi, katta miqdorda mineral xom ashyo zahiralarning aniqlanganligi, yer

ustining tekisligi shaharlar shakllanishiga ijobiy ta'sir etsa, ichimlik suv manbalarining yetarli emasligi, iqlimning turli noqulayliklari bunga aks ta'sir qiladi.

Ayni vaqtda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining cho'l zonasi, ya'ni Qarshi va Surxon-Sherabod cho'llari namgarchilik va suv resurslarining yetishmasligi sababli aholi joylashuvi va shaharsozlik nuqtai nazardan qulay emas. Xususan, global iqlim o'zgarishi natijasida tobora isib borayotgan hududning jazirama issiq va quruq havosi shaharlar qurilishi va aholi yashashi uchun katta qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda[9]. Shaharlardagi yashil maskanlar va daraxtzorlar maydonining qisqarib borishi, keng ko'lamlil qurilish ishlari, avtomobillar va sanoat korxonalarini tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan karbonat angidrid gazining miqdori ortib borishi Termiz, Qarshi, Muborak, Koson Yangi-Nishon va boshqa shaharlarda yoz oylarida harorat recordlari har yili yanglanib bormoqda. Bu esa tekislik hududlarda joylashgan shaharlarning investion jozibadorligi, ichki qishloq-shahar migratsiya jarayonlariga, pirovardida iqtisodiy rivojlanishi va aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida Janubiy O'zbekiston shahar manzilgohlarida quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– issiqxona gazlarini kamaytirish uchun Qarshi, Koson, Termiz kabi shaharlardagi yirik ishlab chiqarish korxonalarini shahar atrofiga ko'chirish, sanoat korxonalarida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik toza transport vositalarini ko'paytirish, shu jumladan keng jamoatchilik uchun qulay bo'lgan veloyo'lakchalar tashkil etish ishlarini yanada rag'batlantirish;

– Janubiy O'zbekistonning tekislik mintaqasida joylashgan Qarshi, Termiz, Jarqo'g'on, Muborak, Koson, Talimarjon, Beshkent, Yangi Nishon shaharlari va Mug'lon, Angor, Sariq, Yangi Mirishkor, Xalqobod, Po'loti, Pomuq, Jeynov, Qarluq kabi o'nlab shaharchalarda ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish orqali shaharlarning qulay mikroiklimini yaratish, tabiiy drenaj hisoblangan ko'p yillik daraxtlar kesilishini mutlaq taqiqlash;

– barcha aholi maskanlarida suv resurslaridan oqilona foydalanish, jumladan, Qarshi, Termiz, Koson kabi yirik shaharlarda kanalizatsiya va sug'orish tizimlarida suvni qayta ishlab foydalanishni yo'lga qo'yish;

– viloyat va tuman markazlari vazifasini bajaruvchi shaharlarda barpo etilayotgan Yangi O'zbekiston massivlarida energiyatejamkor, resurstejamkor, chiqindisiz yoki kam chiqindili texnologiyalardan foydalanishni joriy etish ya'ni yashil iqtisodiyotga o'tishni tezdastirish;

– Janubiy O'zbekiston tekislik mintaqasida boshqa hududlarga nisbatan yoz faslining uzoq davom etishi, bulutsiz (quyoshli) kunlarning ko'pligi quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish imkonini beradi (hozirda Qashqadaryo viloyatida ikkita va Surxondaryo viloyatida bitta QES qurilish ishlari boshlangan). Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish atmosferaga issiqxona gazlari chiqarilishini oldini olish orqali iqlim o'zgarishlari oqibatlarini ma'lum bir darajada yumshatadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Баранский Н.Н. Избранные труды. Научные принципы географии.–Москва: Мысль, 1980.-239 с.
2. Владимиров В. В., Микулина Е. М., Яргина З. Н. Город и ландшафт: (проблемы, конструктивные задачи и решения). – М.: Мысль, 1986. – 238 с.
3. Джумаханов Ш.З. Совершенствование территориальной структуры населения Наманганской области. Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. канд. геогр. наук.-Т., 1998.-22 с.
4. Колотиевский А.М. Теория и практика экономическая микрорайонирования. – Рига. Зинатне, 1969. – 210 с.
5. Покшишевский В.В. Населения и география. Теоретический очерк.-М.: Мысль, 1978.-315 с.
6. Покшишевский В.В. География населения.- М.: Просвещение, 1971.-174 с.



7. Саушкин Ю.Г. -Экономическая география: история, теория, методы, практика. –М.: Мысль, 1973.-559 с
8. Солиев.А.С., Қаршибоева Л.Қ. Ижтимоий ва иқтисодий географиянинг долзарб масалалари. – Гулистон.: Гулистон Давлат Университети. 1995.-112 с.
9. Қурбонов П.Р. Жанубий Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари. Монография. -Т.: «MUMTOZ SO`Z». 2019 йил. – 180 б.
10. 3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

## **АРИД МИНТАҚА ВОҲА ВА ЧЎЛ ЭКОТИЗИМЛАРИНИНГ ЎЗАРО ТАЪСИР МОҲИЯТИ**

**Ходжиматов А.Н.,**  
Низомий номидаги ТДПУ профессори, г.ф.н.

**Боймуротов С.М.,**  
Қарши давлат университети таянч докторанти


**Қувватов Ш.Н.**  
Низомий номидаги ТДПУ 4-курс талабаси

**Кириш.** Ҳозирги экологик вазият танг бўлган бир даврда воҳа ва чўл экотизимлари ўртасидаги ўзаро алоқадорликни илмий жиҳатдан ўрганиш ва тўғри таҳлил қила билиш республикамизда табиатни муҳофаза қилиш билан бирга унинг келажақдаги ҳолатини ҳам тўғри прогнозлаштиришга ёрдам беради.

Воҳа ва чўл термогидродинамик ва гидравлик жиҳатдан ўзаро алоқадорликда ривожланувчи экотизимлардир. Воҳа ва чўл экотизимлари ўртасидаги ўзаро алоқадорлик энг аввало уларнинг литологик-геоморфологик шароитларининг бир-бирларига яқинлигидадир. Улар асосан аллювиал дельта, дарёларнинг пролювиал-аллювиал террасаларида, пролювиал шлейф ва конус ёйилмаларида мужассамлашган табиий худудий мажмуалардир. Бу экотизимларнинг маълум қисмини ёки тўлиғича обикор дехқончиликда фойдаланилиши улар ўртасидаги алоқадорликни маълум қонуниятлар асосида давом этишига олиб келади [2].

Мазкур экотизимлар ўртасидаги иссиқлик, намлик, турли тузлар ва бошқа моддалар билан бўладиган ўзаро алмашинув, аввало ер усти оқар сувлари, сизот сувлари ҳамда шамол ёрдамида амалга ошади (чизма). Бу алоқадорликда воҳа табиатига атрофдаги чўлнинг ва воҳанинг атрофидаги чўл табиатига бўладиган икки тарафлама таъсирини тўғри аниқлаш лозим.

**Асосий қисм.** Воҳа экотизимларининг атрофидаги чўл табиатига таъсири. Воҳалардаги экин майдонлари, суғориш (ирригация) шаҳобчаларидан грунтга сизиб ўтган сувлар воҳа атрофидаги чўлда сизот сувларининг сатҳи ва минераллашув даражасининг ўзгаришига бевосита таъсир этади. Ўша худудларда намлик миқдори ортади. Воҳанинг таъсир доирасининг катта-кичик бўлиши энг аввало жойнинг литологик-геоморфологик тузилиши билан боғлиқдир.



### Воҳа ва чўл экотизимларининг ўзаро алоқа ва ўзаро таъсири.

1-шамол йўналиши; 2-ер усти сувларининг ер остига шимилиши; 3-ер усти ва грунт сувлари оқимининг йўналиши; 4-грунт сувларининг кўтарилиши; 5-тупроқ юзасидаги буғланиш; 6-суффозия, эрозия ва сув тошқинлари; 7-кўл-ботқоқ мажмуалари ва шўрхоқлар; 8-ўсимликлар турлари.

Грунтнинг сув ўтказувчанлиги нисбатан яхши бўлган пролювиал текисликларда сизот сувларининг ётиқ ҳаракати анча масофага етиб боради. XX асрнинг 60-йиллари бошларида Мирзачўлнинг жанубида (Тожикистон ҳудудида) 15 минг гектарга яқин ерларнинг суғорила бошланишидан сўнг маълум бир вақт ўтиши билан чўлнинг шимолидаги эски ва янги ўзлаштирилган ерларнинг мелиоратив ҳолати ёмонлаша бошлади. Бунга сабаб пролювиал ерларнинг юқори қисмидаги суғорилган майдонлардан сизиб ўтган сувларнинг унинг чекка қисмларига оқиб келишидир. Натижада сизот сувларининг сатҳи кўтарилиб, шўрланиш даражаси бир неча марта ортди ва катта майдондаги ўзлаштирилган ва кўрик ерларни шўр босди.

Ясси дельта ва террасалардаги воҳаларнинг сизот сувларининг таъсир доираси жойлардаги ётқизикларнинг механик таркибини оғирлигидан унчалик узоқ масофага етиб бора олмайди (ўртача 30 км атропоген). Чунки ушбу ҳудудларда сизот сувларининг ётиқ ҳаракатидан кўра тик ҳаракати кучлироқдир.

Қуйи Амударё ва Зарафшон воҳаларининг чекка қисмларида олиб борилган тадқиқотлар натижаси шуни кўрсатадики, улардан чиқувчи сизот сувлари таъсирида атрофда ўзига хос табиий-антропоген мажмуали минтақалар вужудга келади. Сизот сувларининг ер юзасига жуда яқин жойлашган (0-1, баъзан 2-3м) **I минтақада** зах сувлари тўпланишидан **субаквал** (кўл) ҳамда **супераквал** (кўл-ботқоқ) экотизимлар ривожланади

(масалан, Бухоро воҳасининг жанубида воҳа билан Аму-Бухоро канали оралиғидаги пастқамликларда ва ҳ.к.).

Воҳадан узоклашган сари сизот сувларининг сатҳи пасайиб, таъсири камаяди. Мазкур **II минтақа** ярим гидроморф шўрланган мажмуалар билан характерланади. **III минтақада** сизот сувларнинг сатҳи анча чуқур бўлиб (3-5 ва 5-7м), ярим гидроморф, элювиал мажмуалар билан алмашиб келади.

Воҳалар арид минтақаларда қатор ташлама – антропоген кўлларнинг вужудга келишида асосий омилдир. Республикамизда захқаш-зовур сувларининг катта қисми воҳалар атрофидаги пастқамликларга (шўр кўлларга) оқизилади. Фақатгина, Бухоро ва Қоракўл воҳаларида вилоят гидрогеологик – мелиорация экспедицияси ҳисоботида кўрсатилишича йилига 1,8 млн м<sup>3</sup> ҳажмидаги сувларни зовурлар орқали воҳалардан ташқарига чиқарилади. Воҳаларга олинган сув таркибида деярли 4000 минг т ҳар хил тузлар мавжуд бўлган бўлса, зах сувлари билан бирга таркибида тахминан 6700 минг т тузлар чиқарилиб юборилади.

Амударё ва Сирдарёга кўплаб захқаш-зовур сувлар ташланишидан дарёлар сувининг шўрланиш даражаси ҳам ортади (ҳар литр сувда 0,5-2 г дан қишда 3,0 г гача). Натижада сизот сувларининг ҳам шўрланиш даражаси ортган (ҳар литрда 2,2-16,0 г), тупроқлар шўрланмоқда, тўқай ўсимликларининг муттасил ўсиши ёмонлашмоқда.

**Чўл экотизимларининг воҳалар табиатига таъсири.** Мунтазам инсон назоратида бўлган воҳалар доимо атрофидаги чўл таъсирида бўлади. Воҳаларда суғориш тугалланиши билан сизот сувларнинг сатҳи аста-секин пасая бошлайди. Ниҳоят, қишки шўр ювиш бошланиши олдидан энг паст даражага тушади. Шундан сўнг атроф чўлдан шўрланиш даражаси нисбатан анча юқори бўлган (ҳар литр сувда 10,0 г дан ортиқ) сизот сувлари воҳаларга томон сизиб кела бошлайди. Айниқса, воҳа атроф-чўлдан пастқамроқ жойда бўлса, сизот сувларининг келиши тезлашиб, тупроқда туз тўпланиши ҳам жадаллашади.

Чўлдан эсувчи шамоллар ҳам одатда турли чанг, туз ва кум заррачаларини воҳаларга келтиради. Ёзда бир неча кун жанубдан эсувчи „афғон” шамоли ҳам Ўзбекистоннинг жанубий воҳаларига анча миқдорда чанг ва кум заррачаларини келтиради. Айрим воҳаларда суғориладиган ерларнинг кум босиши авж олмоқда.

Кейинги вақтларда Орол денгизи сув сатҳининг пасайиши, сувдан бўшаган худудлардаги тузларни шамол учуриб кетишидан Р.Разаков [1] маълумотиغا кўра, Оролбўйи минтақасида ҳар гектар ерга 800-1000 кг, Нукус шаҳри кенгликларида 100-700 кг туз ётқизилмоқда. Бу ўз ўрнида суғриладиган ерларнинг мелиоратив шароитларини ёмонлашувига, қишлоқ хўжалиги экинларидан олинадиган ҳосилдорликнинг сезиларли даражада камайишига сабаб бўлмоқда. Республикамизда бу кўрсаткич пахтада 5-15%, шолида эса 3-10% ни ташкил этмоқда.

**Хулоса.** Умуман воҳа ва чўл экотизимлари ўртасидаги ўзаро алоқадорлик анча мураккаб, кўп омилли бўлиб, воҳаларнинг катта-кичиклиги, шакл-шамойили (кон фигурация) кабиларга боғлиқ бўлгани ҳолда, яна қатор табиий - антропоген жараён ва ҳодисаларни ҳам ҳисобга олишни тақозо этади. Бу алоқадорликни илмий жиҳатдан ўрганиш ва тегишли тадбирларни қўллаш ҳар иккала экотизимларнинг маҳсулдорлигини орттиради ва натижада улардаги экологик шароитни оптималлаштиришга ёрдам беради [3].

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Разаков Р.М. Экологические мероприятия в Приаралье: исследование и программа действий // Мелиорация и водное хозяйство. М., 1990, №., 1990, №1, с. 6-8.
2. Солопов А.В. Взаимовлияние оазисов и пустынь // Проблемы освоения пустынь. Ашгабад: ЫЛЫМ, 1971, №4, с. 52-60.

3. Ходжиматов А.Н. Табиий география курсларида воҳа ва чўл геотизимлари аро алоқадорликни тушунтириш // Ўзбекистон Республикасининг иқтисодий ва геозкологик муаммолари. Т., ЎзРФАГБ, 1994, 3-китоб, 110-112-б.

## ЛОКАЛ ҲУДУДЛАР БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ ХУСУСИДА

**Расулов Анвар Баходирович,**

Тошкент давлат педагогика университети,

География ва уни ўқитиш методикаси кафедраси мудир. PhD.

E mail: [anvar.rasulov.55@mail.ru](mailto:anvar.rasulov.55@mail.ru)

**Аннотация.** Дунё миқёсида турли экотизимларда вужудга келган геозкологик вазиятни барқарор ривожланиш нуқтаи назардан илмий асосда баҳолаш мезонларини аниқлаш, районлаштириш, ажратилган районларни тавсифлаш, инқирозлилиқ даражасини аниқлаш, уларнинг ривожланишига таъсир кўрсатаётган омилларни аниқлаш, юзага келган салбий оқибатларни баргараф этиш, оптималлаштириш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга татбиқ қилиш зарур.

**Калит сўзлар:** Локал, барқарор ривожланиш, экотизим, геозкологик вазият, экологик муаммолар, концепция, биологик хилма-хиллик.

## ПО ВОПРОСАМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЛОКАЛЬНЫХ ТЕРРИТОРИЙ

**Расулов Анвар Баходирович,**

Расулов Анвар Баходирович,

Ташкентский государственный педагогический университет,  
Заведующий кафедрой географии и методики ее преподавания. PhD.

E mail: [anvar.rasulov.55@mail.ru](mailto:anvar.rasulov.55@mail.ru)

**Аннотация.** Определить на научной основе критерии оценки геоэкологической ситуации в различных экосистемах с точки зрения устойчивого развития, зонирования, описания отдельных регионов, определения уровня кризисности, определения факторов, влияющих на их развитие, устранения негативных факторов. последствий, необходимо разработать меры по оптимизации и реализовать их на практике..

**Ключевые слова.** Местность, устойчивое развитие, экосистема, геоэкологическая ситуация, экологические проблемы, концепция, биологическое разнообразие.

## ON THEORETICAL ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF LOCAL AREAS

**Rasulov Anvar Bakhodirovich,**

Tashkent State Pedagogical University,

Head of the Department of Geography and its Teaching Methodology. PhD.

E mail: [anvar.rasulov.55@mail.ru](mailto:anvar.rasulov.55@mail.ru)

**Annotation.** Determine on a scientific basis the criteria for assessing the geo-ecological situation in various ecosystems from the point of view of sustainable development, zoning, description of individual regions, determining the level of crisis, determining the factors influencing their development, eliminating negative factors. consequences, it is necessary to develop optimization measures and implement them in practice.

**Keywords.** Terrain, sustainable development, ecosystem, geo-ecological situation, environmental problems, concept, biological diversity.

**КИРИШ. МУАММОНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ.** Барқарор ривожланиш концепцияси ишлаб чиқариш ва истеъмол қилиш, аҳолининг ўсиш ва ижтимоий ҳимоя ўртасидаги мувозанатни ривожланган ва ривожланаётган барча давлатларда сақлашни ҳисобга олади. Чунки Ер сайёрасидаги атроф-муҳит ҳолати уларнинг биргаликдаги ҳаракати мажмуасидир. Экологик муаммоларнинг ечими бирон бир давлат (масалан, Ўзбекистон) ёки бирон бир давлатлар (масалан, “энг ривожланган давлатлар”) фаолиятига бевосита боғлиқ эмас экан. Бу ўринда яна бир бор Орол ва Оролбўйи муаммосига тўхталиб ўтишга тўғри келади. ЎзР Биринчи Президенти Ислом Каримов БМТ Бош Ассамблеяси 48, 50, 55-сессиялари ва Минг йиллик ривожланиш саммитидаги маърузаларида айтиб ўтганидек, ушбу муаммо нафақат Марказий Осиё давлатлари, балки бутун дунё ҳамжамияти учун долзарб масаладир, чунки у глобал хавфсизлик характерга эга.

### **МЕТОДЛАР ВА ЎРГАНИЛИШ ДАРАЖАСИ.**

Барқарор ривожланиш, унинг индикаторлари ва уларнинг турли ҳудудлар кесимидаги таҳлили D.Harvey, J.Picson, J.Bekkes, K.Hamilton, E.Neef, B.Kennedi, G.Xaaze, Y.Demek, T.Nakano, G.Uayt каби хорижлик тадқиқотчилар барқарор ривожланиш, экологик барқарорликнинг инсон ресурсларига таъсири И.В.Май, Н.В. Зайцева, иқлимий-экологик хусусиятлари В.И.Данилов-Данилян, К.С.Лосев, комплекс индикаторлари С.Н.Бобылов, П.А.Макенко, ижтимоий-иқтисодий, институционал жиҳатлари Е.А.Третьякова, Т.В.Альферова, худудий геоэкологик индикаторлари Т.В.Шихотарова, индикаторларининг минтақавий даражада қўлланиши В.М.Захарова каби МДХ олимлари, барқарор ривожланишнинг назарий масалалари, индикаторлари ва геотизимлар барқарорлиги А.Н.Нигматов, А.Рахматуллаев, ҳамда унинг табиий георафик жиҳатлари А.А.Абулқосимов, Л.А.Алибеков, П.Баратов, Н.И.Сабитова, С.Б.Аббасов, И.Қ.Назаров, Р.А.Кулматов, А.Ҳожиматов, Х.Тошов, ижтимоий-иқтисодий жиҳатлари А.С.Солиев, Н.Комилова ва республикамизнинг бошқа олимлари тадқиқотларида ўз аксини топган.

Юқорида келтирилган тадқиқотчиларнинг ишларида барқарор ривожланишнинг геоэкологик индикаторлари ва уларнинг Қуйи Зарафшон табиий географик округи миқёсида қўлланилиши масалалари етарлича тадқиқ этилмагани мазкур тадқиқот иши мавзусининг танланишига асос бўлган.

Тадқиқотда статистик, математик моделлаштириш, ландшафт-геокимёвий усуллардан фойдаланилди.

**ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ.** 1992 йил 3-14 июнь кунлари Бразилиянинг Рио-де-Жанейро шаҳрида бўлиб ўтган БМТнинг «Атроф-муҳит ва ривожланиш»га доир конференция (АМРК)си атроф-муҳит муҳофазаси ва барқарор ривожланиш масалалари бўйича энг йирик тадбирлардан бири ҳисобланади. Чунки, унинг ишида дунёнинг 170 дан зиёд, жумладан, МДХдан 7 давлат вакиллари иштирок этган. Конференциянинг мақсади - давлатларнинг барқарор ривожланиши ва тинч-тотув яшашини таъминлаш учун экотизимларга тушадиган босимни камайтиришга қаратилган эди.

Конференцияни ўтказиш қўмитасининг бош котиби Морис Странг раҳбарлигида учта ишчи гуруҳларда мунозаралар олиб борилди.


Конференция иштирокчилари АМРК бўйича иккинчи ва учинчи минг йилликларнинг тўқнашувида умуминсоний вазифалардан бўлмиш қуйидаги уч асосий ҳужжатни: 1) атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва ривожланишга доир Рио Декларацияси; 2) ўрмонлардан оқилона фойдаланишни сақлаш ва уни ўзлаштириш мезонлари тўғрисидаги Баёнот; 3) ХХI аср кун тартибини ишлаб чиқдилар.

АМРК ўтиши жараёнида ишчи гуруҳ томонидан тайёрланган лойиҳа ҳужжатлари ойдинлаштирилган, муқобиллаштирилган ва ўзгартирилган. БМТ собиқ бош котиби Бутрос Гали конференцияни очиб, айтиб ўтдики: “Ҳеч вақт, инсон тарихи шунчалик даражада ўзингиз учун, бошқалар учун, болаларингиз учун, невараларингиз учун, турли шаклдаги ҳаётини унсурлар учун Сизлар қилган ёки қилмаган амалларга боғлиқ бўлмаган”. БМТ Бош котибининг фикрини давом эттириб, конференция раиси Бразилия Президенти

Фернандо Коллор де Мелло мазкур Саммитнинг мақсадини: “Бизлар иккита фундаментал низомга ривожланиш ва атроф-муҳитга асосланган умумий вазифаларни бажаришда олға силжишни таъминлаш учун йиғилдик. Бизлар тарихий зарурият ва ахлоқий мажбуриятни ривожлантиришнинг янги моделини, яъни “ривожланиш ва атроф-муҳит муҳофазаси” деган тушунчалардан иборат бўлган жамиятни куришни қабул қиламиз. Бизлар экологик хавфсизликсиз ва ижтимоий адолатсиз дунёни таъминлай ололмаймиз”.

Қуйидаги муаммолар муҳокамасида деярли барча давлатлар ва жамоат ташкилотларининг вакиллари иштирок этдилар (1-расм). Уларнинг чиқишлари ниҳоятда хилма-хил, қарама-қаршилиқларга ҳам бой бўлди. Юзага келган муаммоларнинг мазмунига кўра уларни қуйидагича гуруҳлаштириш мумкин:

Умумсиёсий ва умумташкилий; молиявий масалалар; чучук сувни муҳофаза қилиш ва ундан оқилона фойдаланиш; ҳуқуқ институтлари ва инструментлари; ресурсларни сақловчи технологиялар ва уларнинг узатилиши; атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш; биологик хилма-хиллик ва биотехнологиялар; ўрмонлар муҳофазаси; институционал (барқарор бирлашиш) масалалар.



**1-расм. “Атроф муҳит ва ривожланиш” АМРК муҳокама қилинган асосий масалалар**

Рио-92 АМРКда қабул қилинган яна бир муҳим ҳужжат «XXI аср кун тартиби». Ушбу юз йиллик дастур 4 та бўлим, 4 та боб, умумий ҳажми 300 варақдан ортиқ халқаро ҳужжатдир. Унда 2000 йил ва ундан кейинги юз йил ичида, конференцияда таклиф этилган таклифлардан келиб чиққан ҳолда, қўйилган мақсадга эришиш учун атроф-муҳит муҳофазаси ва ижтимоий-иқтисодий ривожланиш соҳасида барча инсоният куч ва ғайратининг асосий йўналишлар батафсил таърифланган. Унинг ҳар бир бобида атроф-муҳит муҳофазасига доир ўртага ташланган масалаларни ечиш йўллари ва ривожланиш соҳалари кўрсатилган.


Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 12 ноябрдаги 510-сонли махсус қарори асосида ЎзР миллий барқарор ривожланиш ҳайъати ташкил этилди. Ҳайъат “XXI аср кун тартиби” талабларини амалга ошириш мақсадида “Барқарор ривожланишнинг Миллий стратегияси”ни ишлаб чиқди.

“Биологик хилма-хиллик бўйича конвенция” ва “Иқлим ўзгартирилишини чеклаш тўғриси”даги Конвенция кўпчилик давлатлар томонидан имзоланди. Улар 1993 йил 14 май ЎзР Олий Мажлиси томонидан ҳам тасдиқланди ва 1996 йил 7 майда ЎзР Президенти томонидан имзоланди. “Биологик хилма-хиллик тўғрисидаги конвенция”нинг

муҳим меъёрлари ЎзРнинг “Ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги (26.12.97 й.), “Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги (26.12.97 й.), “Давлат кадастрлари тўғрисида”ги (15.12.2000 й.) қонунларида ҳамда “Биологик хилма-хилликни сақлашнинг миллий стратегияси ва фаолият режаси тўғрисида”ги Вазирлар Маҳкамасининг махсус қарорида ифодаланган. Мазкур ҳужжатлар орқали Ўзбекистон “Биологик хилма-хиллик тўғрисида конвенция”нинг иштирокчиси сифатида унинг барча тамойиллари ва меъёрларини сўзсиз тан олади ва босқичма-босқич амалга татбиқ қилишни мажбурият деб билади.

“Иқлимни ўзгартиришни чеклаш тўғрисидаги конвенцияси”нинг мақсади – атмосферада “иссиқхона самараси”нинг оқибатида глобал иссиқлик олиб келувчи газларнинг умумий ҳажмини ушлаб туриш. 1996 йил 27 декабрда қабул қилинган “Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисида”, 2002 йил 5 апрелдаги “Чиқиндилар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунларида мазкур конвенциянинг асосий меъёрлари акс эттирилган.

Юқорида санаб ўтилган муаммоларни амалда татбиқ этиш учун миллий, минтақавий ва глобал миқёсда Барқарор ривожланиш ўз олдига 2-расмда ифода этилган мақсад ва вазифаларни қўйди. Унинг мазмуни ва моҳияти Барқарор ривожланишнинг институционал базасини яратиш орқали атроф-муҳитни муҳофаза қилишда иқтисодий, ижтимоий ва экологик муаммоларни барқарор бирлашиш орқали ҳал этиш зарурлигидадир. Зеро иқтисодий ночор, ижтимоий таъминланмаган киши атроф-муҳит муҳофазасини ўйламайди.



**2-расм. Барқарор ривожланиш институционал базасининг мақсад ва вазифалари**



Шунинг учун ҳам ушбу тўртта ажралмас муаммолар доимо ягона бир ҳаётий фаолият мажмуасида туради (3-расм). Лекин ушбу тўрт барқарор ривожланишнинг қисмлари нималардан иборат. Шунинг учун ҳам барқарор ривожланишнинг иқтисодий, ижтимоий, институтчионал ва экологик жиҳатларини алоҳида-алоҳида кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Масалан, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш учун *барқарор ривожланишнинг институчионал асоси* – давлат бошқарув органлари, халқаро ташкилотлар ва аҳолининг барча қатламларини атроф-муҳитни муҳофаза қилишда барқарор бирлашишидадир. Атроф табиий муҳитда ҳамма нарса ўзаро узвий боғланган, маҳаллий экотизимдаги салбий жараёнлар ёки ҳодисалар регионал экотизимларда акс этади, улар ўз навбатида йиғилиб глобал экотизимлар фожиасига айланиши мумкин. Эколог олим Н.Ф.Реймерс “Атрофдагиларни хавфсизлантирмасдан туриб, ўз уйингизнинг хавфсизлигини таъминлай олмайсиз”, деб тўғри айтган эди[2].



3-расм. Барқарор ривожланишнинг мазмуни

**Барқарор ривожланиш ва табиат.** Стокгоlm, Рио-де-Жанейро, Йоханнесбургдаги конференция ва саммитларнинг натижалари шунини кўрсатмоқдаки, бутун инсониятнинг экологик хавфсизлигини таъминлашнинг ягона тўғри йўли – атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш борасидаги фаол халқаро ҳамкорликдир. БМТ ҳайъатининг атроф-муҳит бўйича маърузаси (Лондон, 2002) шунини кўрсатдики, Инсоният “экологик чорраҳа”да турибди ва ушбу кесилувдан чиққан йўллар қуйидаги “манзиллар”га олиб келиши мумкин: бозор иқтисодиёти қолган барча кадриятлардан устун туришлигига; мақсадларга сиёсий воситалар орқали эришишга; улкан тафовутлар дунёсига; барқарор ривожланишнинг устунлигига.

“XXI аср кун тартиби”нинг I бўлим 2.1-бандида: “Атроф-муҳит ва ривожланиш” муаммоларини ҳал қилиш учун давлатлар шерикчилик муносабатларининг янги шаклини яратишга қарор қилишди. Ушбу муносабат шакли миллатлараро ҳамжамиятнинг узвий боғланганлигини ҳисобга олиб барча давлатларда доимий ва конструктив мулоқотни ҳамда самарали ва адолатли жаҳон иқтисодиётини ташкил қилиш зарурияти барқарор ривожланишда устувор масала бўлиши керак», деб ёзилган. Атроф-муҳит муҳофазаси борасидаги барқарор ривожланиш муаммоларини ҳал қилиш учун халқаро ҳамкорликнинг долзарб йўналишлари “БРБС қарорларини бажариш режаси”да кўрсатилганидек амалга оширилиши мумкин (1-жадвал)[2].

**Барқарор ривожланиш муаммоларини ҳал қилиш бўйича халқаро ҳамкорликнинг ҳудудий долзарб йўналишлари**

<i>Халқаро миқёсда</i>	<i>Регионал миқёсда</i>	<i>Миллий миқёсда</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ интеграциялашни мустаҳкамлаш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида “XXI аср кун тартиби”ни ва шу каби халқаро ҳуқуқ нормаларини қўллаб-қувватлаш;</li> <li>✓ халқаро экологик ташкилотлар фаолиятини тўла ҳисобга олиш;</li> <li>✓ ривожланаётган ва ўтиш иқтисодиётдаги давлатларда экологик хавфсизликни таъминловчи дастур ва режаларни ишлаб чиқиш;</li> <li>✓ миллий ва маҳаллий экологик дастур ва режаларни амалда тадбиқ қилишнинг иқтисодий имконияти яратиш;</li> <li>✓ глобал экологик фонд билан корпоратив ҳамкорликни мустаҳкамлаш;</li> <li>✓ ЮНЕПнинг “Табиий ресурслардан фойдаланиш-ни халқаро миқёсда тартибга солиш” масаласини БМТ Бош ассамблеясига олиб чиқиш;</li> <li>✓ экология соҳасидаги ҳуқумат раҳбарларини БМТ Бошқарув кенгашига аъзо қилиш масаласи;</li> <li>✓ БРБС тавсияларини БМТ Бош Ассамблеяси, Иқтисодий ва ижтимоий кенгаш, барқарор ривожланиш ҳайъати кун тартибига киритиш ва халқаро ташкилотларнинг ролини ошириш</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ “XXI аср кун тартиби”ни регионал ташкилотлар орқали амалга тадбиқ этиш;</li> <li>✓ регионал экологик ташкилотларни ташкил қилиш орқали барқарор ривожланишни мувофиқлаштириш ҳамда улар фаолиятини глобал миқёсдаги халқаро ташкилотлар билан узвий боғлаш;</li> <li>✓ моддий, молиявий ва интеллектуал заҳира-лардан максимал фойдаланиш;</li> <li>✓ тажриба алмашишни энгиллаштириш ва кенгайтиришнинг реги-онал муносабатларни қўллаб қувватлаш, рағбатлантириш, илғор усулларида фойдаланиш, аниқ бир тематик изланишлар ва ҳамкорлик тажрибасига доир маълумотлар ва “XXI аср кун тартиби”даги экологик масалалар билан боғлиқ бўлган муайян мавзу-даги изланишларни оммалаштириш орқали регионал ҳаракатларни қўллаб-қувватлаш</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ экологик қонунчиликни таъминловчи сиёсатни ишлаб чиқиш, мувофиқлаштириш ва амалга ошириш учун зарур бўлган директив давлат органлари ва механизмларни мустаҳкамлаш ва яратиш;</li> <li>✓ барқарор ривожланиш миллий стратегиясини ишлаб чиқиш ва уни амалга тадбиқ қилишда 2005 йилдан бошлаш</li> <li>✓ барқарор ривожланишни экологик қонунчиликка кенг жорий этиш ҳамда амалга ошириш механизмларини яратиш;</li> <li>✓ атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бўйича фаолият юритаётган давлат органларини транспарентлик, ҳисобдорлик ва адолатли фаолиятига ёрдам бериш;</li> <li>✓ барқарор ривожланиш вазибаларини бажаришда атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий бойликлардан самарали фойдаланишда давлат қонунлари, стратегиялари ва дастурларига оид маълумотлардан фуқаролик жамиятини фаоллаштириш;</li> <li>✓ барқарор ривожланиш бўйича режаларни (масалан, иқтисодиётни экологиялаштириш) ва дастурларни амалга оширувчи миллий институтларнинг ҳаракатини давлатларда ва айниқса ривожланаётган ва ўтиш иқтисодиётидаги давлатларда қўллаб-қувватлаш;</li> <li>✓ маҳаллий ҳуқумат ҳамда манфаатдор кишиларнинг барқарор ривожланишдаги миллий режалар бўйича фаолияти, роли ва имкониятларини ошириш.</li> </ul>

Барқарор ривожланишнинг экологик томонларининг бажарилиши халқаро ташкилотлар, давлатлар ва жамоалар учун юқорида кўрсатиб ўтилган вазибаларнинг

амалга ошиши, афсуски, халқаро ҳуқуқнинг мажбурий меъёри ҳисобланмайди. Улар декларатив характерга эга. Шунинг учун ҳам атроф-муҳитни муҳофаза қилишда институционал муносабатларнинг умумий йўлларини излаш, бизнинг умумий уйимиз - Ер сайёрасини сақлаб қолиш заруриятидан келиб чиқади.

**Барқарор ривожланишнинг иқтисодий жиҳатлари.** XVIII асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб илмий-техник тараққиёт кескин равишда ривожлана борди. Бу эса ўз навбатида, Ердаги 70% дан ортиқ табиий - экологик тизимларнинг ўзгаришига сабаб бўлди. Ер кишилиқ жамиятининг ҳаётининг фаолияти чиқиндиларини қайта ишлаш имкониятига эга бўлсада, инсониятнинг биосферага таъсир қилиш даражаси ҳозирданок мумкин бўлган катталиклардан бир неча баробар ошиб кетган.

БМТ маълумотлари бўйича ҳар йили Дунё океанига 30 млрд. т. нефт маҳсулотлари, 50 минг т. пестицидлар ва 5 минг т. симоб ташланади. Аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлаш ва оқова сувларни тозалаш муаммолари алоҳида аҳамият касб этмоқда. Саноатда жуда кўп миқдорда сув ишлатилади. Масалан, 1 тонна пўлатни эритиш учун 200 м<sup>3</sup>, 1 тонна қоғоз ишлаб чиқариш учун 100 м<sup>3</sup>, 1 тонна синтетик ипак тайёрлаш учун эса 2500 дан 5000 м<sup>3</sup> гача сув сарф қилинади.

БМТ маълумоти бўйича дунё аҳолисининг 1/4 қисми тоза ичимлик сувдан фойдаланиш имкониятига эга эмас, қолган 1/3 қисми эса сифатсиз сувдан фойдаланишга мажбур. Бутун дунё бўйича оқова сувларнинг фақат 10% га яқини қайта тозаланади. Жанубий Америка ва Африка давлатларида эса бу кўрсаткич 2% ни ташкил этади. Буларнинг барчаси ер ости сувлари ҳолатида акс этмоқда.

Турли ёқилғиларнинг ёниши натижасида ҳар йили атмосферага 20 млрд т. атрофида карбонат ангидрид гази ташланмоқда. Натижада ушбу газнинг атмосферадаги миқдори кўпайиб бормоқда, охириги 100 йил ичида бу кўрсаткич 10% дан ошди. Карбонат ангидрид гази космик фазога иссиқликнинг тарқалишига тўсқинлик қилмоқда, бу эса ердаги ўртача ҳароратнинг иссишига олиб келмоқда. Иқлимшуносларнинг маълумотлари бўйича XXI асрнинг ўрталарига бориб сайёра ҳарорати 2-5 градус С га ошиши мумкин.

Экологик муаммоларнинг миқёси ҳақидаги тассавурларга эга бўлган ҳолда, уни келтириб чиқарган асосий сабабчиларидан бўлмиш - иқтисодий юксалиш даражасига мурожаат қиламиз. Иқтисодий юксалиш ва экологик хавфсизлик ўртасидаги зиддият яққол кўзга ташланади. Тадқиқотчиларнинг аксарияти экологик муаммоларни иқтисодий сабаблар билан боғлашга урунмоқдалар.

**Барқарор ривожланишнинг ижтимоий жиҳатлари.** Барқарор ривожланишнинг учта асосий жиҳати мавжуд бўлиб, улар иқтисодий ўсиш, ижтимоий тенгликни таъминлаш ва атроф-муҳит муҳофазасидир. Уларни бир-биридан ажратиш ёки алоҳида баҳолаш мумкин эмас, чунки улар ўзаро узвий боғланган ва бир-биридан келиб чиқади. Ҳар бир мамлакат, ҳар бир халқаро ҳуқуқ субъекти барқарор ривожланиш муаммоларини ўзининг сиёсий, тарихий, маданий, иқтисодий ва ижтимоий хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда ечади [2]. Аммо ушбу уч таркибий қисмнинг илмий асосланганлиги, уларнинг ўзаро тенглаштирилганлиги ва интеграцияланганлиги муҳимдир.

Статистикада умумий сон ёки эмперик ягона кўрсаткич олиш учун икки ёки кўп омилли таҳлил ўтказилади. Барқарор ривожланиш модели ёки статистик кўрсаткични олиш моделини яратиш мураккаб масаладир. Шунинг учун ҳам биз унинг икки омили бўйича сифат таҳлилини берамиз. Атроф-муҳитга камбағаллик, қашшоқлик, аҳолининг ўсиш динамикаси ва унинг фаоллиги ёки билим даражаси, истеъмол тузилмаси, аҳоли зичлиги каби ижтимоий кўрсаткичлар таъсир этиши сабабли барқарор ривожланишнинг *ижтимоий жиҳатларини* кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Қашшоқлик ҳам миллий, ҳам халқаро характерга эга бўлиши мумкин. Мазкур муаммонинг умумий ечими йўқ, у муайян мамлакатга хос ижтимоий-иқтисодий, табиий ва сиёсий шароитларга боғлиқ.

### **Барқарор ривожланишнинг барқарор бирлашиш (институционал) жиҳатлари.**

Барқарор ривожланиш ва унинг индикаторлари тадқиқ қилинганда кўп ҳолларда, иқтисодий, ижтимоий ва экологик (жумладан, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш) индикаторлар ўрганиш объекти сифатида олинади. Лекин ҳозирги глобаллашув жараёнида институционал индикаторлар ҳам муҳим аҳамият касб этиб бормоқда. Барқарор ривожланишнинг институционал жиҳатлари: индикаторларни ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этишда халқаро ҳуқуқ меъёрларига мувофиқ миллий қонунчилик, соҳага оид ахборот таъминоти, таъсир чоралари ва бошқаларни назарда тутати.

Барқарор ривожланишнинг институционал жиҳатларини глобал даражада ишлаб чиқилган бир қатор меъёрий ҳужжатлар асосида таҳлил қиламиз.

БМТ доирасида Жанубий Африка республикасининг Йоханнесбург шаҳрида 2002, 2012 йилларда бутунжаҳон барқарор ривожланишига қаратилган бир қатор масалалар муҳокама қилинган. Жумладан, 2012 йил 20-22 июнда “Йоханнесбург-2012 “Барқарор ривожланиш”га бағишланган халқаро конференцияда “Яшил иқтисод” ҳамда “Барқарор ривожланиш” масалалари муҳокама қилинган (4-расм).

Бундан ташқари дунё ҳамжамиятининг “Хельсинки – 1975”, “Рио – 1992”, “Нью-Йорк – 2010, 2015” анжуманларининг барчасида акс эттирилган ғоя айнан “Барқарор ривожланиш” ғояси ташкил этган.

“Барқарор ривожланиш” тушунчаси вақт ва маконнинг ўзгаришига қараб ўзгариб, такомиллашиб бориши табиий ҳол. 2015 йилнинг 25-27 сентябрь кунлари Нью-Йорк шаҳрида БМТнинг 70-йиллигига бағишланиб ўтказилган, 160 та давлат ва ҳукумат раҳбарларини жамлаган “Барқарор

### **“Йоханнесбург-2012” қарорлари**

- қашшоқликни тугатувчи экологик хавфсиз иқтисодиётни ривожлантириш;
- иқлим ўзгаришига салбий таъсир қилувчи денгиз экотизимларини бузувчи балиқ хўжалиги юришишни тартибга солиш;
- шаҳарларда самарали ободонлаштиришни олиб бориш орқали аҳоли учун қулай шароит яратиш;
- иқтисодий ривожланишга олиб келадиган муқобил энергия турларидан фойдаланишни кенгайтириш орқали углерод чиқиндиларини атмосферага ташланишини камайтириш;
- ўрмонлардан фойдаланиш жараёни бошқарувининг самарадорлигини ошириш;
- барқарор ривожланиш ва чўлланиш авж олган ҳудудларда сув ресурсларидан самарали фойдаланиш ҳамда вларни муҳофаза қилиш чораларини

#### **4-расм. Йоханнесбург-2012 конференциясидаги “яшил иқтисод” масалалари**

ривожланиш мақсадлари” мавзусидаги Саммитда БМТга аъзо давлатларнинг 193 таси маъқуллаган “Дунёни қайта тузиш: 2030 йилгача глобал ривожланиш дастури” қабул қилинди.

Ушбу дастур барқарор ривожланишнинг 4 та жиҳати, 17 та мақсадлари, 169 та вазифаларини қамраб олган [4] (2-жадвал).

**Барқарор ривожланиш мақсадларининг ижтимоий, экологик, иқтисодий ва институционал жиҳатлари**

БР мақсадлари	Жиҳатлари			
	Ижтимоий	Экологик	Иқтисодий	Институционал
1-мақсад. Ўта қашшоқликка барҳам бериш	+++	++	+	+
2-мақсад. Очликка барҳам бериш	+++	+	++	+
3-мақсад. Соғлик ва фаровонлик	+++	+	++	+
4-мақсад. Сифатли таълим	+++	++	+++	+
5-мақсад. Гендер тенглиги	+++	+	+	++
6-мақсад. Тоза сув ва санитария	+++	+++	++	+
7-мақсад. Арзон ва тоза энергия	+++	+++	+++	+
8-мақсад. Муносиб иш ўринлари ва иқтисодий ўсиш	+++	+	+++	+
9-мақсад. Саноатлаштириш, инновация ва инфратузилма	++	+	+++	+
10-мақсад. Тенгсизликни камайтириш	+++	+	+	+++
11-мақсад. Барқарор шаҳар ва аҳоли яшаш жойлари	+++	+++	++	+
12-мақсад. Маъсулиятли истеъмол ва ишлаб чиқариш	+++	++	+++	+
13-мақсад. Иқлим ўзгаришига қарши курашиш	+++	+	+++	++
14-мақсад. Денгиз экотизимларини асраш	+++	++	+++	+
15-мақсад. Қуруқликдаги экотизимларни асраш	+++	+++	+	++
16-мақсад. Тинчлик, адолат ва самарали бошқарув институтлари шакллантириш	+++	+	++	+++
17-мақсад. Барқарор ривожланиш йўлида ҳамкорлик	+	+	+	+++

+++ – кучли таъсир; ++ – ўртача таъсир; + – кучсиз таъсир

Дастурда белгиланган бир қанча мақсадларда барқарор ривожланиш концепциясининг геоэкологик, яъни ривожланишнинг ҳудудийлик, даврийлик, тизимлилик ва мажмуалилик жиҳатлари ҳозирги кунда яққол намоён бўлмоқда. Ушбу

мақсад ва вазифалар БР индикаторларини белгилаб беради, яъни – глобал миқёсда қабул қилинган ҳар бир маъмурий ёки табиий ҳудуднинг барқарор ривожланишига бевосита (бирламчи) ёки билвосита (иккиламчи) тарзда таъсир этиши мумкин бўлган кўрсаткичлар тизимини изоҳлайди.

**ХУЛОСАЛАР.** БМТ Бош ассамблеясининг 27 сентябрь 2015 йилда қабул қилган барқарор ривожланиш (БР) глобал кун тартиби 17 та мақсад ва 169 та вазифадан иборат кўрсаткич (индикатор)ларни ҳар бир мамлакатнинг ўзига хос шаротидан келиб чиққан тарзда ишлаб чиқиш вазифаси унга аъзо давлатларга юклатилган. Шунинг учун ҳам ЎзР Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 октябрда “2030 йилгача бўлган даврда БР соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 841-сон қарорининг 1-иловасидаги 15-мақсади “Қуруқлик экотизимларини ҳимоялаш ва тиклаш, улардан оқилона фойдаланишга кўмаклашиш,... чўлланишга қарши курашиш, ерларнинг дегредациясини тўхтатиш, биохилма-хилликнинг йўқолиб кетиши жараёнини тўхтатиш”га қаратилган. Қарорнинг 2-иловасидаги “Йўл харитаси”нинг иккинчи қисми Барқарор ривожланиш мақсадларига эришишнинг кўрсаткич мезонларини шакллантиришга бағишланган.

БРнинг илмий-назарий асослари ханузгача умумэтироф этилган тарзда очиб берилмаган. БР, “барқарор тараққиёт” тушунчасидан фарқли равишда, глобал, регионал, миллий ва локал миқёсда динамик (бир меъёра эмас) ривожланишни мақсад қилиб олган кишилиқ жамиятининг хусусият, моҳият ва таркибий қарашлар тизими (концепцияси) бўлиб, у “глобал, регионал, миллий ва локал миқёсдаги кишилиқ жамиятининг иқтисодий таъминланган, ижтимоий муҳофазаланган, экологик хавфсиз ва барқарор бирлашган ҳаёт тарзи”дир. БР индикаторлари – глобал миқёсда қабул қилинган ҳар бир маъмурий ёки табиий ҳудуднинг барқарор ривожланишига бевосита(бирламчи) ёки билвосита(иккиламчи) тарзда таъсир этиши мумкин бўлган мезон кўрсаткичлар тизими. БРнинг геоэкологик индикаторлари унинг экологик жиҳатларидан келиб чиққан тарзда ишлаб чиқилган, лекин геоэкология – географик экология бўлгани учун ҳам у муайян маъмурий бирликлар доирасида эмас, балки локал табиий географик бирликлар доирасида экологик хавфсизликни таъминлашга қартилган илмий асосланган чора-тадбирлар мажмуидир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

[1] Ўзбекистон Республикасининг “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги қонуни 9.12.1992 й.

[2] Реймерс Н.Ф. Надежды на выживание человечества. Концептуальная экология. – М.: Россия молодая экология. 1992- С.312.

[3] Ниғматов А., Ибрагимова Р. Барқарор ривожланишнинг географик хусусиятлари. // Ҳозирги замон географияси: назария ва амалиёт. –Т., 2006. – Б. 110–112.

[4] Expanding the Measure of Wealth: Indicators of Environmentally Sustainable Development. Environmentally Sustainable Development Studies and Monographs Series №. 17. World Bank: Washington, DC. 1997. The pan-European environment: glimpses into uncertain future. European Environment Agency, Copenhagen, 2007.

[5] Human Development Report 1990. UNDP, New York: Oxford University Press, 1990.

[6] Human Development Report 2003. UNDP, New York: Oxford University Press, 2003.

[7] Indicators of Sustainable Development, UN Department for Policy Coordination and Sustainable Development, December, 1994.

[8] Indicators of Sustainable Development, UNO, 2001.

[9] Солнцев Н.А. О морфологии природного географич. ландшафта. –В кн.: Учение о ландшафте (изб.труды). –М.: Изд-во МГУ, 2001. –С. 45-73.

[10] [http://mfa.uz/rus/mej\\_sotr/vneshnyaya\\_politika/vodnie\\_resursi/](http://mfa.uz/rus/mej_sotr/vneshnyaya_politika/vodnie_resursi/).

## ОРОЛ ДЕНГИЗИНИНГ ҚУРИГАН ХУДУДЛАРИДА ЯШИЛ ЎРМОН БАРПО ЭТИШНИНГ ИСТИҚБОЛЛИ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Алламуратов М.О., к.ф.н. доцент.

Қорақалпоғистон Республикаси Нукус шаҳри,  
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

**Мавзунинг долзарблиги.** 2021 йил 18 май куни БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессияси ялпи мажлисида Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таклифига биноан Оролбўйи минтақасини экологик инновациялар ва технологиялар ҳудуди деб эълон қилиш тўғрисидаги махсус резолюция бир овоздан қабул қилинди. Айтиш жоизки, Инновацион ривожланиш вазирлиги томонидан 2018 йилдан буён чўл ҳудудларни кўкаламзорлаштиришга қаратилган саъй-ҳаракатлар олиб борилмоқда. Жумладан, Орол денгизи қуриши билан боғлиқ фалокат ва унинг салбий оқибатларини юмшатиш долзарб вазифалардан бирига айланди.

Мазкур йўналишда вазирлик томонидан маҳаллий олимлар ва халқаро ҳамкорларни жалб қилишга алоҳида эътибор қаратилиб, қатор ишлар бажарилди. Шўрланган шароитда Биодехқончилик халқаро маркази ва Ислоом тараққиёт банки билан ҳамкорликда бутун дунёдан халқаро ташкилотлар ва хорижий илмий муассасалар вакиллари таклиф этилиб, 2018 йили Самарқанд шаҳрида, 2019 йили Нукус шаҳрида конференция ўтказилди. [1].

Маълумотларда Орол денгизининг қуриган қисмидан кум ва тузларнинг шамол таъсири остида юзага келиши йилига ўртача 40-50 миллион тоннага етади. Кум ва тузлар кўчишининг асосий жарёни Орол қирғоқ бўйидаги 100 километрга тенг ҳудудда содир бўлади [2]

**Мавзунинг ўрганилганлиги.** Орол денгизи суви қуриган ҳудудларининг биоэкологиясини, тупроғини, флорасини ва фаунасини ўрганиш ишлари ўтган асрнинг 70 йилларининг ўрталарида Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимида ташкил этилган «Араловедения» лабораторияси томонидан илк бор ўрганила бошланди. С.Кабуловнинг 1973-1980 йиллардаги олиб борган изланишларида ҳудудда 10-15 ўсимлик турлари бор эканлиги айtilган [4]. 2005-2008 йилларда проф В.А. Духовный бошчилигида олиб борган илмий экспедиция натижаларида ҳудудда 40-50 та ўсимлик турлари қайд этилган [6]. С. Шеримбетов (2017-йил) маълумотида кўра ҳудудда 220 та ўсимлик турлари қайд қилинган. Кейинги маълумотларга кўра ҳудудда ўсимликлар табиий ҳолда кўпайиб бораётганлиги кўрсатилган.

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг Экология ва тупроқшунослик кафедрасида 2015 - йилдан бошлаб Орол денгизи суви қуриган тубида ҳавога захарли аэрозол чанглари кўтарилиши ва кумлар кўчишини камайтириш усуллари бўйича тадқиқотлар олиб борилмоқда. Ҳавога чанг тўзонларнинг кўтарилиши ва кумларнинг кўчишига қарши курашишнинг иккита услуби мавжуд.

Биринчи кимёвий услуб. Бунда кумлар юзаси кимёвий бирикмалар билан қопланади.

Бизнинг олиб борилган тадқиқотларимиз натижасида кум юзасини қотиришда қўлланиладиган кимёвий бирикмалар олинди ва улар амалиётга жорий қилинди. (Патент IAP 05444).

Иккинчи денгиз тубига чўл ўсимликларини экиб кўпайтириш услуби.

**Тадқиқот натижалари.** Жанубий Орол бўйи минтақасида кучли чўлланиш жараёнлари пайдо бўлди. Жумладан: Қизилқум ва Устюрт текислиги табиий яйловларининг ўсимликлар маҳсулдорлиги камайиб кетди.

Ўзбекистон ҳудудидаги яйлов сифатида фойдаланилаётган майдонларнинг 17,4 млн. гектари чўл минтақасига тўғри келади. Сўнгги 15-20 йил мобайнида кўчма чорвачиликда яйловлардан белгиланган меъёрларда фойдаланилмаслик ва антропоген таъсирлар натижасида чорва озукаси ҳажмининг камайиши содир бўлмоқда. Ҳозирги вақтда мавжуд чўл яйловларининг маҳсулдорлиги йилига ўртача 1,5% камайиб бормоқда. Бу эса йилига



16,5 ва 20 йил мобайнида эса 465 минг гектар яйлов майдонлари деградацияга учраганлигини билдиради.

Денгизнинг суви қуриган тубида **аридлашиш** ва **тупроқ хосил бўлиш жараёни** аста-секин ўтмоқда.

Орол денгизининг қуриган туби қарийб 5 миллион гектардан ортиқ майдонни ташкил этади. Шундан: 2,5 миллион гектардан ортиғи Ўзбекистон худудига тўғри келади.

Мана шу ер майдонлардан оқилона фойдаланишни амалга ошириш лозим. Бунда асосий масала суви қуриган майдонларда чўл ўсимликлар қопламани (табiiй ҳолда ва ўсимликларни экиб кўпайтириш усулида) ташкил қилиш. Бундай қилганда икки масала ўз ечимини топади:

1. Денгиз суви қуриган тубида ва Орол бўйи худудларида экологик шароитнинг яхшиланишига таъсир этади: қумларнинг кўчиши, чанг тўзонларнинг депиляцияси пасаяди, адирлашиш жараёни тезлашади, иқлим шароитига ижобий таъсир кўрсатади, ўсимликлар ва ҳайвонларнинг хилма-хиллиги ривожланади.

2. Денгиз суви қуриган тубида янгидан чорва моллари учун яйловлар барпо этилади.

1989 йилдан бошлаб Қорақалпоғистон давлат ўрмон хўжалиги қўмитаси ва чет эл ҳамкорлик ташкилотлари томонидан денгиз суви қуриган майдонларга турли-хил чўлга чидамли ўсимликлар (саксовул, черкез, қандим ва б.) экиш ишлари олиб борилмоқда.

Сўнгги бир неча йил давомида Ўзбекистон Оролбўйи худудида бир қатор кенг қўламли лойиҳаларни амалга оширди. Оролнинг қуриб қолган худудида саксовул ва бошқа шўрга чидамли ўсимликлардан иборат 350 минг гектарлик бутазорлар барпо этилди. Бундай худудларнинг умумий майдони ҳозирги кунда миллион гектардан ортиқ майдонни ташкил этмоқда.

Орол денгизининг суви қуриган тубида ўрмонзорлар ва яйловлар барпо этишда фитомелиорация услублардан самарали фойдаланиш катта аҳамиятга эга. Бу борада янги технологиялар билан ишлаб чиқиш зарур.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қорақўлчилик соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги қарорида Қорақалпоғистон Республикаси, Бухоро, Жиззах, Қашқадарё, Навоий, Самарқанд ва Сурхондарё вилоятларининг чўл худудларида яйлов озучабоп ўсимликларини экиб кўпайтириш ва қорақўлчиликни янада ривожлантириш бўйича аниқ кўрсатмалар берилган. Бу қарор денгизнинг суви қуриган майдонлардан чорва моллари учун яйлов сифатида фойдаланишга имконият яратади.

**Хулоса.** Денгизнинг суви қуриган тубидаги кўчма қумларнинг юзасини қотиришда кимёвий бирикмалардан фойдаланиш лозим. Денгизнинг қуриган майдонларда чўл ўсимликларининг экма плантацияларини яратиш ва кўчманчи қумларини кимёвий усулда қотириш ишларини олиб бориш туфайли икки масала ўз ечимини топади: Минтақада экологик муҳитининг барқарорлашиши ва чорва моллари учун янгидан яйловлар пайдо бўлади. Бу минтақада экологик ва ижтимоий-иқтисодий барқарорликнинг яхшиланишига олиб келади. Маърузада келтирилган маълумотлар экология, ботаника, тупроқшунослик ва чорвачилик фанларини ўқитишда фойдаланиш мумкин.

#### **Ишлаб чиқаришга тавсиялар.**

1. Денгизнинг қуриган майдонларида биологик ресурсларини ўрганиш зарур. Бунда чўл ўсимликларининг биоэкологияси, флораси, геоботаник тадқиқотлар ва чўл ўсимликларнинг экиб кўпайтиришнинг янги технологияларини ишлаб чиқиш ҳамда қорақўлчиликни ривожлантириш бўйича илмий тадқиқот ишларини олиб бориш лозим;

2. Денгиз суви қуриган худудларида чўл ўсимликларини экиб кўпайтиришда кўчатдан экиш кенг қўлланилиб келинмоқда. Шу сабабдан ўша худуднинг ўзида **ўрмон питомниги** ташкил этиш лозим.

## Фойдаланилган адабиётлар

1. Президент томонидан 29 июль куни «Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 2021 йил 18 майдаги «Оролбўйи минтақасини экологик инновациялар ва технологиялар ҳудуди деб эълон қилиш тўғрисида»ги махсус резолюциясини амалга ошириш чоралари тўғрисида»ги қарори.
2. Ўзбекистоннинг экологик шарҳи., Тошкент., 2008 й., 88-бет.
3. Ҳамроев Ҳ. Чўл яйловларининг ҳозирги ҳолати ва уни яхшилашда ихотазорларнинг ўрни. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi”, 2018 й., 8-сон, 31-бет.
4. Кабулов С.К. Изменение фиброцеллоз пустынь при аридизации (на примере Приаралья). Ташкент, «Фан», 1990 й., 237 с.
5. Новицкий З. Облесение засоленных почвогрунтов на осушенном дне Арала. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi”, 2018 й., 8-сон, 33-бет.
6. Комплексные дистанционные и наземные исследования осушенного на Аральского моря. Ташкент, 2008 й., 175 с.

## ИҚЛИМ ЎЗГАРИШИ ВА УНГА МОСЛАШУВ

**Тошбоев Зафаржон Махрамкулович, катта ўқитувчи**

Жиззах ДПУ География ва иқтисодий билим асослари кафедраси, Жиззах, Ўзбекистон

**Сунатов Ҳасан, 3-курс талабаси**

География ва иқтисодий билим асослари таълим йўналиши, Жиззах, Ўзбекистон

**Кириш.** Барчамизга сир эмаски, бугунги кунга келиб инсоният сузиб кетаётган Ер деб аталмиш кемага глобал иқлим ўзгариши хавф солиб келмоқда. Бунга албатта, сайёрамизнинг ўзида содир бўлаётган табиий географик жараёнлар билан биргаликда инсон хўжалик фаолияти – антропоген омил ҳам кам таъсир кўрсатаётгани йўқ. Бунинг боиси – инсониятнинг эҳтиёжлари кундан-кунга ортиб боришидир. Глобал миқёсдаги иқлим ўзгариши мамлакатимиз ҳудудини ҳам четлаб ўтаётгани йўқ, албатта. Буни ҳар бир тирик жон борки ўз бошидан ўтказмоқда.

**Асосий қисм.** Иқлим исиши, яъни ҳаво ҳароратининг глобал ортиши муаммосини бартараф қилиш жуда мураккаб вазифадир. Чунки, бу муаммо ҳам “табиат-инсон-жамият” муносабатларига, яъни учликнинг мувозанатига, уйғун ривожланишига боғлиқдир. Ушбу мувозанат йўлларини топиш ва уни сақлаш учун қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш лозим: иқлим ўзгариши муаммоси мазмун-моҳиятини чуқур англаш, ер шари аҳолиси, давлатлар, халқаро ташкилотларнинг ҳамкорлигига эришиш; иссиқхона ҳосил қилувчи газлар эмиссиясини (атмосферага чиқаришни) камайтириш имкониятини берадиган янги технологияни ишлаб чиқиш ва унга ўтиш; муқобил энергия манбаларига ўтиш ва уларнинг самарадорлигини ошириш; экинзорлардан, айниқса шолিপоялардан метан газининг ажралиб чиқишини камайтирадиган технология ва усулларга эришиш; уй-жой ва биноларни иситишда тежамкор, экологик талабларга жавоб берадиган усулларни жорий этиш; ҳар бир инсонда “Сайёрамиз-умумий уйимиз” туйғуси ва масъулиятини ошириш, экологик маданиятни шакллантириш; маиший чиқиндиларни оқилона бартараф қилиш технологиясини такомиллаштириш; иқлим исиши индикатори ва оқибатларини ҳудудлар доирасида ўрганиш ва уни бартараф қилишнинг географик асосларини излаш ва ушбу мавзуда лойиҳаларни ишлаб чиқиб амалиётга тадқиқ қилиш.

Бу борада 2021 йилнинг 10 ноябр куни Ўзбекистон БМТнинг иқлим ўзгариши тўғрисидаги Хадли конвенциясига аъзо давлатларнинг Глазго шаҳрида бўлиб ўтган конференциясининг 26-сессиясидаги иштироки доирасида мамлакатимиз ўз баёнотини тақдим қилди. Унда таъкидланишича, бугунги кунга келиб Ўзбекистон миллий миқёсда “яшил” иқтисодиётга ўтишнинг кенг қамровли стратегиясини, қайта тикланадиган ва

водород энергетикасини ривожлантириш дастурини фаол амалга оширмоқда. Ҳар йили, жумладан, 2021 йилнинг ўзида мамлакатимиз ҳудудида 200 млн. туп дарахт кўчати ўтказилиши режалаштирилган бўлиб, бу борада ишлар кўлами бу йил янада кенгайтирилди. Шунингдек, Ўзбекистон минтақавий миқёсда Марказий Осиё мамлакатларидаги ҳамкорлар билан биргаликда қурғоқчилик ва сув танқислигига қарши курашиш, Орол денгизи фожиаси оқибатларини юмшатиш ва унга туташ ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш борасида қатъий чоралар кўрмоқда [1].

Бугунги кунда глобал миқёсдаги иқлим ўзгариши шароитида унга мослашиш бўйича мамлакатимизда ҳам Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 декабрда қабул қилинган “Республикада кўкаламзорлаштириш ишларини жадаллаштириш, дарахтлар муҳофазасини янада самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони жаҳон миқёсида бу борада олиб борилаётган саъй-ҳаракатларнинг инъикосидир. Бу жабҳада дарахт, буталар ва кўкаламзорлаштирилган яшил ҳудудларни муҳофаза қилиш ҳамда уларнинг майдонларини кенгайтириш, ушбу соҳада масъул ташкилотларнинг янада самарали фаолият юритишини ташкил этиш, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 октябрдаги “Ўзбекистон Республикасининг 2030 йилгача бўлган даврда Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5863-сон фармонида белгиланган вазифаларни бажариш мақсадида кўплаб тадбирлар амалга оширилиб келинмоқда [2].

Ўзбекистон Марказий Осиёнинг марказида жойлашган ва қўшни мамлакатлар билан учта йирик – Амударё, Сирдарё ва Зарафшон дарёларидан биргаликда фойдаланади. Бугунги кунга келиб мамлакатимиз аҳолиси сонининг 36 млн. кишидан ортиқлиги Ўзбекистонни минтақанинг аҳоли энг зич жойлашган давлатига айлантиради. Мамлакатнинг қишлоқ хўжалиги ва саноати яхши ривожланган, иқтисодиёти эса диверсификация

қилинган. Мамлакат етиштириш учун катта миқдорда сув талаб қилинадиган пахта, шунингдек, мева ва сабзавотларни экспорт қилади. Мамлакат иқлими континентал, ёз иссиқ ва қиш нобарқарор совуқ. Энг иссиқ йилларда ёзда максимал ҳарорат  $+43^{\circ}\text{C}$   $+45^{\circ}\text{C}$  гача, республиканинг жануби ва чўл зонасида  $+47^{\circ}\text{C}$   $+50^{\circ}\text{C}$  гача кўтарилади. Марказий ҳудудлардаги чўлларда йил давомида атиги 100 мм ёғин ёғса, тоғларда бу кўрсаткич 800 мм дан ошади. Ўзбекистонда ўртача йиллик ҳарорат ўн йилда  $0,27^{\circ}\text{C}$  тезликда ўсиб бормоқда, иссиқ кунлар ва тунлар сони ортмоқда. Ўзбекистон иқлим ўзгаришига жуда заиф мамлакатлар қаторига киради. Агар ўз вақтида мослашиш чоралари кўрилмаса, мамлакат сув ресурслари етишмовчилиги ва ерлар таназзули муаммосига дуч келиши мумкин. Иқлим иссиши натижасида қор қоплами қисқармоқда, буғланиш кучаймоқда. Қурғоқчиликнинг тез-тез такрорланиши ва жадаллигининг кучайиши қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариши барқарорлигини бузиши ва озик-овқат хавфсизлигига зарар етказиши мумкин. Ёз давридаги жазирама, баҳорда тошқинлар ва селлар, қишда кўчкилар Ўзбекистоннинг аҳоли яшайдиган туманлари ва муҳим инфратузилмасига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Амударё қуйи оқимидаги ҳудудлар сув танқислиги ва чанг бўронларидан азият чекмоқда. Қорақалпоғистонда – бу борада айниқса таъсирчан ҳисобланадиган ва Орол денгизи фожиаси оқибатларини бошидан кечираётган ҳудудда иқлим ўзгаришига мослашиш лойиҳалари фермерларга суғориш тармоқларини модернизациялаш, қурғоқчиликка бардошли экинларни жорий этиш ва даромад манбаларини диверсификация қилишда ёрдам бермоқда. Зарафшон дарёси ҳавзасида фермерлар иссиқхоналар қуриш, сув таъминоти ишончилигини ошириш ва боғдорчиликни ривожлантириш учун имтиёзли кредитлардан фойдаланмоқдалар. Ўзбекистон ҳукумати миллий гидрометеорология хизмати модернизациясини молиялаштирмоқда, Орол денгизи ҳавзасида иқлим ўзгаришига мослашиш ва унинг оқибатларини юмшатиш дастури эса автоматлаштирилган об-ҳавони кузатиш тармоғини жорий қилишга кўмаклашмоқда. Қазиб олинадиган ёқилғи турлари, айниқса, табиий газга

боғлиқлик Ўзбекистон иқтисодиётининг энергия сарфи ҳажмини кўпайтиради. Ишлаб чиқариш модернизацияси инвестициялари, уй-жой ва ускуналар энергия самарадорлигини ошириш, қуёш ва шамол электр станцияларининг қурилиши иссиқхона газлари ажратмаларини қисқартиришга имкон беради. Қишлоқ хўжалиги, айниқса чорвадорлик ва минерал ўғитлар қўлланишидан чиқариладиган ажратмалар улар умумий ҳажмининг 10 фоизини ташкил қилади. Чикиндилардан ажратмалар кўп бўлмасада, лекин уларнинг миқдори тез суръатларда ортиб бормоқда.

Мамлакатимизда ҳам сайёрамизда рўй бераётган иқлим ўзгаришларига мослашиш, зарурий чора-тадбирлар ишлаб чиқишни талаб этади. Бунинг учун эса албатта аҳолидан биринчи галда экологик маданиятини оширишни талаб қилади.

1. Сув ва сув ресурсларини муҳофаза қилиш, тежаб, самарали фойдаланиш.

2. Тоғ ёнбағирларига, кўчалар, экин далалари четларига зарурий дарахт турларини экиб, сунъий ўрмонзорларни кўпроқ барпо этиш.

3. Шаҳарлар ички кўчаларига асфальт, бетон қопламали йўллар ўрнига кўчат экиш ҳисобига микроиқлим маълум даражада юмшатилиб, ёзда бирмунча салқин бўлишига олиб келади.

4. Янги қуриладиган кўп қаватли ҳамда коттежлар атрофига ҳам каштан ёки япон софораси, павловния, кенгроқ кўчалар четларига агар маъқул топилса чинор кўчатлари экилса мақсадга мувофиқ бўлади. Чинорлар қадимдан Ўзбекистон шароитида яхши соя беради. Буни Самарқанд, Ургут ва яна бошқа кўпгина шаҳарлар мисолида кўриш мумкин.

5. Аҳолининг, айниқса шаҳар аҳолисининг атроф-муҳит тозалигига эътиборини, экологик маданиятини янада ошириш лозим. Умумий овқатланиш шохобчалари, бозорлар, дўконлар атрофида бир марталик ишлатиладиган идишлар, маиший чикиндилар кўча-кўйга ташлаб кетилаверади, бунинг олдини олиш учун назоратни кучайтириш керак.

6. Иқлим ўзгариши шароитида ёз кунлари уйларни салқинлатиш ва қишда эса иситиш учун кўпроқ кондиционер ва бошқа совитиш ва иситиш мосламалари ишлатилади. Буларнинг мавсум давомида аҳоли хонадонларида ўртача сони, унга сарфланадиган электр энергияси сарфи, қуввати ҳар бир ҳудуд кесимида мутахассислар томонидан ўрганилиб, таҳлил қилиниши ва шунга мос тарзда энергетика тизимини ҳам ҳар бир ҳудуд бўйича реконструкция қилиниши лозим. Шундагина биз юқорида айтиб ўтганимиз микроиқлимни юмшатиб, шамол тезлигини пасайтирадиган, тупроқ эрозиясининг олдини олувчи дарахтзорларга қирон келиб, қишда кесилиб кетилмайди.

7. Суғориладиган деҳқончилик майдонлари четларига ҳам тут, тол, қайрағоч каби дарахт турларини мунтазам тарзда қайтадан экиб чиқилиши лозим. Бу биринчи галда шамол тезлиги пасайтириб, тупроқ намлигини сақлашга, эрозиянинг олдини олишга хизмат қилади.

8. Сунъий суғоришда ер ости сувларидан фойдаланиш кўлами ортиб бораётган бугунги кунда бунинг оқибатини ҳам пухта ўйлаб кўриб, илмий жиҳатдан ер ости сувлари сатҳи, захираси ўрганиб чиқилса мақсадга мувофиқ бўлар эди.

9. Шаҳарларда кўп қаватли уйларни қуришда ҳам уларнинг оралиғидан шамол айланишини (вентиляция), қуёш нури ёруғлигининг куннинг қайси вақтида қай тарзда тушиши, шамол йўналишини яхши ўрганилиб чиқиб қурилса мақсадга мувофиқ бўларди. Бунда кўпинча ички комфортни ҳисобга олиб, табиий қулайликларни эсдан чиқариб қўйилмоқда. Умуман кўп қаватли уйлар қурилишида маҳаллий иқлим шароитини ҳисобга олган маъқул.

10. Шаҳарлардаги (ҳар бир туман марказини ҳам) транспорт тизимини ҳам мутахассислар томонидан пухта ўрганилиб чиқилиши лозим. Бунда светофорлар лозим бўлган жойларга қўйилиши, тирбандликларнинг олдини олишнинг замонавий ечимларини қўллаш керак. Чунки кундан-кунга сони ортиб бораётган автотранспорт воситаларини атмосферага чиқараётган чикиндилари ҳам шаҳар муҳитига сезиларли таъсир кўрсатади.

Буларнинг барчаси мутахассислардан пухта билим, тажриба, аҳолидан эса юксак маданиятни талаб қилади. Чунки ҳар бир иш, амалнинг ўзининг маданияти бор. Буларнинг ҳар бири учун эса ҳар бири кишидан юксак маданият талаб қилади. Бунда албатта, оиладаги тарбия жуда муҳим.

Бундан ташқари, ҳар бир вилоят бўйича гидрометеорологик марказлар фаолиятини яхшилаш, уларнинг замонавий зарурий асбоб-ускуналар, жиҳозлар, мутахассислар билан таъминлаш лозим. Чунки географик қобикда иқлим компоненти бошқаларидан кўра энг тез ўзгариб, барча тирик организмлар, қолаверса, моддий ишлаб чиқаришнинг иқлим, об-ҳаво билан фаолияти боғлиқ бўлмаган ҳеч бир соҳаси бўлмаса керак.

Таким образом, обширные просторства кормовых угодий и достаточно высокий уровень их обводнения позволяет маневрировать размещением поголовья скота в зависимости от складывающихся пастбищно-кормовых условий. Такая традиционная экстенсивная система использования пастбищ включает и посезонную пастбищную смену при содержании каракульских овец. Основным резервом расширения используемых пастбищ являются необводненные пространства. К ним относятся такие территории, на которых отсутствуют водные источники и травостой не используется пасущимся скотом.

В заключении можно сказать, что для охраны пастбищ и повышения их урожайности необходимо организовать работу по следующей системе: проведение мероприятий по очистке пастбищ, улучшение режима питания пастбищ водой, борьба против сорных растений, боронование, дискование, посев семян, удобрение, создание лесопосадок и другие.

#### Список литературы

1. Адаптация кормовых растений к условиям аридной зоны Узбекистана. (коллектив авторов). — Ташкент, «Фан». 1983, — 304 с. 2. Махмудов М. М. Интродукция дикорастущих кормовых растений с целью улучшения пастбищ пустыни Юго-Западного Кызылкума. // Шестой симпозиум по новым кормовым растениям. Тезисы научных сообщений. — Саранск, 1973. — С. 87–89.
3. Махмудов М.М., Хайтбаев Р. Основные итоги научных исследований по фитомелирации пастбищ пустыни Кызылкум // Технология каракулеводства и аридного кормопроизводства. Ташкент, 1993. С.44-52
4. Махмудов М. М., Хайитбоев Р. Чўл яйловларидан самарали фойдаланиш ва уларнинг махсулдорлигини оширишга оид тавсиялар. — Тошкент, 2000. — 26 б.
6. Нечаева Н.Т., Антонова К.Г., Мухаммедов Г.М. Продуктивность растительности Центральных Каракумов в связи с различным режимом использования. М. ,1079:255.

5. Ортикова, Л. С., другие. Повышение урожайности и охрана Кызылкумских пастбищ . — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 7 (87). — С. 238-240.

## **JIZZAX VILOYATIDA TURIZM IMKONIYATLARINING BA'ZI BIR JIHATLARI**

**g.f.f.d (PhD). Usmanov Mashrab Rustamovich<sup>2</sup>, To'lisheva Munisa Abubakir qizi<sup>3</sup>, Azamatova Mehriniso Iskandar qizi<sup>4</sup>, Umarova Laziza Faxritdin qizi<sup>5</sup>**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**E-mail: [mashrabusmonov79@gmail.com](mailto:mashrabusmonov79@gmail.com)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jizzax viloyati hududida turizm sohasini rivojlantirish istiqbollari, sayyohat, turistik tashriflar, ziyoratgoh va dam olish maskanlari, ekoturizm, ekoturistik marshrutlari va Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi hududida ekoturistik sayyohatlari hamda Mojrum qishlogida asrlarga teng mashhur archasiga oid ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, sayyohat, turistik tashriflar, dam olish maskanlari, ekoturistik marshrutlar, xalqaro turizm, Aydar Arnasoy ko'llar tizimida ekoturizm, Mojrum archasi.

## **НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ТУРИСТИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ**

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о перспективах развития туризма в Джизакской области, путешествиях, туристических посещениях, местах паломничества и отдыха, экотуризме, экотуристских маршрутах и экотуристских турах по Айдар-Арнасоевской озерной системе, а также многовеково знаменитым арка в селе Моджурим.

**Ключевые слова:** туризм, путешествия, туристические визиты, курорты, экотуристические маршруты, международный туризм, экотуризм в системе озер Айдар Арнасоев, арка Моджурим.

## **SOME ASPECTS OF TOURISM OPPORTUNITIES IN JIZZAKH REGION**

**Annotation:** This article provides information on the prospects for the development of tourism in Jizzakh region, travel, tourist visits, places of pilgrimage and recreation, ecotourism, ecotourist routes and ecotourist tours in the Aydar-Arnasoy lake system, as well as the centuries-old famous arch in the village of Mojrum.

**Key words:** tourism, travel, tourist visits, resorts, ecotourism routes, international tourism, ecotourism in the Aydar Arnasoy lake system, Mojrum arch.

**Kirish.** Bugungi kunda sayyohat nima bo'lishidan qat'iy nazar, har qanday jihatdan ko'proq narsani o'rgatadi. Ba'zida boshqa bir turistik destinatsiyada o'tkazilgan bir kun, uyda o'tkazilgan o'n yildan ko'proq narsa berishi mumkin. O'zbekistonda so'ngi besh yil davomida ko'proq e'tibor berilayotgan sohalardan biri turizm sohasidir. Turizmni sohasini rivojlantirish borasida davlatimiz rahbari tomonidan bir qancha qaror va farmonlar chiqarilganligi hamda uning ijrosining samaradorligi kunlik hayotimizdagi o'zgarishlarida o'z aksini topib bormoqda. Tashqi va ichki turizmni parallel ravishda rivojlanib borishi natijasida, sayyohlar oqimi bir necha

---

<sup>2</sup> Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Geografiya va iqtisodiy bilimlar asoslari kafedrasida o'qituvchisi g.f.f.d. (PhD).

<sup>3</sup> Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Geografiya va iqtisodiy bilimlar asoslari yo'nalishi magistranti.

<sup>4</sup> Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Geografiya va iqtisodiy bilimlar asoslari yo'nalishi talabasi.

<sup>5</sup> Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Geografiya va iqtisodiy bilimlar asoslari yo'nalishi talabasi.

barobar o'sishiga erishildi. Bu o'z navbatida, sayyohlar orqali tushadigan daromadni ham ortishiga olib keladi [6].

**Asosiy qism.** Jizzax viloyat turizm boshqarmasi ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2021 yil 2020 yilga nisbatan 911236 nafar turistlar viloyatga ko'p tashrif buyurishgan. Shuningdek, viloyatga tashrif buyurayotgan turistlarning sonini oshirish hamda jahon andozalari talablarida xizmat ko'rsatishni tashkillashtirish ham mintaqa turizmining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun bizdan sayyohlik bilan shug'ullanuvchi o'rta va kichik turistik firma, korxonalar faolligini oshirish hamda turistlar talabini o'rganish singari muammolarni hal qilish talab etilmoqda [8].

Har bir sohani rivojlanishi, albatta ilmiy asosga tayanadi. Shu jumladan turizm sohasini rivojlanishi ham bundan mustasno emasdir. Biz ham o'zimiz yashayotgan hududda, ya'ni Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirishni kichik bir ilmiy loyihalarini ishlab chiqishga xarakat qilmoqdamiz. Bu loyihada sayyohlarni Jizzax viloyati hududida harakatlanishi uchun mashrurt yo'nalishlarini o'rgandik. Kelgusida sayyohlarni harakatlanishiga yanada qulay bo'lishi uchun metodik tavsiyalar va sxematik kartalarini ishlab chiqishni ham rejalashtirdik.

Jizzax viloyatining maydoni 21,2 ming km<sup>2</sup> bo'lib, shimoldan-janubga 175 km, g'arbdan-sharqqa esa 150 km masofaga cho'zilgan. Viloyat hududining kattaligi tufayli ham akademik Q. Zokirov tomonidan ajratilgan 4 ta balandlik mintaqalar (cho'l, adir, tog' va yaylovlar) ning barchasi mavjuddir. Bu balandlik mintaqalarining xar biri o'ziga xos maftunkor tabiati bilan ajralib turadi. Qolaversa viloyatning shimoliy-g'arbiy hududlarini egallagan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ham tabiat manzaralarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi [1].

Viloyat hududini ekoturistik jihatdan o'rganishda turistik ob'ektlari, joylashtirish vositalari, tabiati, iqlimi va marshurt yo'nalishlarini xisobga olgan xolda 3 ta ekoturistik hududlarga ajratildi. Ekoturistik hududlarni nomlashda mahalliy xususiyatlarni inobatga olgan xolda quyidagicha nomlashga harakat qildik [4]:

1. Zomin-Xo'jamushkent ekoturistik hududi, 2. Sangzor havzasi ekoturistik hududi, 3. Forish va Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ekoturistik hududi. Ekoturistik hududlarga Jizzax shahridan boriladigan mashrurt yo'nalishi belgilandi va taxminan bo'lsada masofalarga aniqlik kiritildi.

1. Zomin-Xo'jamushkent ekoturistik hududidi. Jizzax shahridan chiqqan sayyohlar ushbu yo'nalishda Peshag'or g'ori, "Xo'jaiy Serob ota", "Ko'k to'nli ota" ziyoratgohlari, Zomin shahri, Zomin suv ombori, Zominsoy daryosi va uning irmoqlarini, ostona va sharshalarini, tog' manzarasi, archazorlar, Zomin sanatoriyasi, Supa, Chortangri, Miq qa'lasini, Kultepa arxeologik qazilmalari, Xovatak-Gulshani sanatoriyasi, Xo'jamushkent suv ombori hamda Xo'jamushkent avliyo maqbarasini ziyorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu mashrurt bo'ylab sayyohat qilinganda borib-kelish yo'llarini hisobga olganda, taxminan 280 km yo'l bosadi. Yo'lning asosiy qismi avtobus yoki mikroavtobuslar orqali, 8-10 km lik masofa otlar bilan va 1-2 km piyoda yoki qish faslida Zomin milliy bog' hududida chang'ilar yordamida harakatlanishi imkoniyatiga ega bo'ladi.

Zomin-Xo'jamushkent mashrurtida harakat qilgan sayyohlar qiziqishlariga ko'ra ilmiy-tadqiqot ishlari, davolanish, sport o'yinlari, dam olish va ziyorat amallarini ham bajarishi mumkindir. Sayyohat bir necha kun davom etadigan bo'lsa, Zomin milliy bog'i hududidagi kempinglarda va Zomin shahridagi mehmonxonalarda qolaversa uy-mehmonxonalarida dam olish imkoniyatlari bor. Ekoturistik hududni rivojlantirish uchun amaliy ishlar boshlangan. Zomin shahrini zamonaviy turistlar shahriga aylantirish uchun keng ko'lamdagi qurilish ishlari olib borilmoqda, ya'ni mahalliy turistik hududdan xalqaro turistik hudud bosqichiga o'tmoqda.

2. Sangzor havzasi ekoturistik hududi. Jizzax shahridan chiqqan sayyohlar ushbu yo'nalishda Sangzor oromgohi, Temurlang darvozasi, Sangzor daryosining o'rta va yuqori oqimlari, Sa'd ibn Abu Vaqqos avliyo maqbarasi, bulog'i va o'ziga xos bo'lgan baliqlari, Oyqortog' manzaralari, Novqa-ota ziyoratgohi va buloqlari, Marjanbuloq mineral suvlari va davolanish maskanlariga borish mumkin bo'ladi. Bu mashrurt bo'ylab sayyohatga borib-kelish



yo'llarini hisoblasak, taxminan 190 km yo'l bosadi. Yo'ning asosiy qismi avtobus yoki mikroavtobuslar bilan, Marjanbuloq-Jizzax yo'nalishida 40 km tez yurar poezdarda, shuningdek sayyohlarning xoxish va istaklariga ko'ra xarakatlanishning turli xil vositalaridan foydalanish mumkin.

Sangzor mashrurtida harakat qilgan sayyohlar qiziqishlariga ko'ra ilmiy-tadqiqot ishlari, davolanish, sport o'yinlari, dam olish va ziyorat amallarini ham bajarish mumkindir. Sayyohat bir necha kun davom etadigan bo'lsa, G'allaorol va O'smat shaharlaridagi mehmonxonalarda, mahalliy aholining uy-mehmonxonalari hamda yoz faslida chodirlarda ham dam olish imkoniyatlari bor. Ekoturistik hududni rivojlantirish uchun hozirgi kunga qadar yetarli darajadagi amaliy ishlar olib borilmagan. Faqat, Sa'd ibn Abu Vaqqos avliyo maqbarasi va Marjanbuloq sanatoriysi hududidagi qurilish ishlari hamda xizmat ko'rsatish bir-muncha talab darajasiga yaqin bo'lsa, hududning qolgan qismlarida keng ko'lamda qurilish ishlari olib borish lozim bo'ladi.

3. Jizzax shahridan chiqqan sayyohlar ushbu yo'nalishda Pistalikent (Timiryazev) ShFYga yaqin hududda ohaktosh qazib olish jarayoni, Xonbandi to'g'oni, Nurota tog'idagi ikki ming yillik archa (Sharq biotasi) daraxti, yong'oqzor, buloqlarni, Pistalitog' manzaralari, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimini, Tuzkondagi shifobaxsh balchiqlarni, to'qay va cho'l manzaralari, Mirzacho'l mineral suvlari hamda davolanish maskanlari sayyohlarni qiziqtirishi shubhasiz. Bu marshrut bo'ylab sayyohat qilishda borish-kelish yo'llarini hisobga olganda, taxminan 230 km yo'l bosiladi. Yo'ning asosiy qismini yengil avtomobil, mikroavtobuslar bilan, shuningdek, sayyohlarning xohish va istaklariga ko'ra to'qay hamda cho'l manzaralarini tomosha qilayotganda ot va tuyalardan, ko'l manzaralarini tomosha qilayotganda qayiqlardan foydalangan holda harakatlanishi mumkin [3].

Mazkur ekoturistik hudud marshrutida harakat qilgan sayyohlar qiziqishlariga ko'ra ilmiy-tadqiqot ishlari, davolanish, suv sporti o'yinlarini tashkil qilish hamda dam olishi mumkin. Sayohat bir necha kun davom etadigan bo'lsa, Do'stlik shahridagi mehmonxonada, Gagarin sanatoriysida va ko'l atrofidagi kempinglarda hamda yoz faslida chodirlarda ham dam olish imkoniyatlari mavjud.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va uning atrofidagi ekoturistik hududining tabiatini tomosha qilish va belgilangan hududda ov qilish maqsadida arab sayyohlari yilda 2 marotaba (bahor va kuz faslida) doimiy ravishda kelmoqda. Arab sayyohlarini bu hududga qiziqishiga, ko'l va cho'l manzaralarining o'zaro uyg'unligi, hamda qushlar olamiga boyligi, qolaversa bahor va kuz faslida issiq mintaqalarga uchuvchi qushlar Aydar-Arnasoy ko'llari orqali xarakatlanishini kuzatish mumkin. Hudud tabiatining o'ziga xos va maftunkorligi kabi xususiyatlari, kelgusida chet ellik turistlar oqimini yanada kengaytirish imkoniyatini beradi [5].

Forish tumani Mojrum qishlogida asrlarga teng mashhur archasi joylashgan hudud bo'lib, kishi bahri dilini ochadigan soy bo'yidagi kichik o'rmonzordan tashkil topgan. Bu hudud qirlarida eski uylar, masjid va qal'a vayronalari ko'z hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. Bu joyga kelgan kishilar haqiqiy ertakka tushib qolgandek bo'ladi.

Mojrum archasi "Nurota" davlat qo'riqxonasi bilan qishloq chegarasida joylashgan bo'lib, archaning tanasining diametri taxminan 24 metrga yaqin, balandligi esa 20 metr bo'lib, mahalliy aholining aytishicha, uning yerga qadalganiga taxminan 2,5 ming yil bo'lgan. Bu hududda yashaydigan kishilarning aytishicha archa bir kechada unib chiqqan. Yana birida aytiladiki, sarkarda Aleksandr Makedonskiy yuqori martabali sarkardalarini dafn qilganidan so'ng qabr yoniga savr archasini ekish odati bo'lgan. Shu bois, bu archani Makedonskiy ekan deyishadi.



*1-rasm. Forish tumani Mojrum qishlogidagi 2500 yillik sharq biotasi*

Ushbu archa nazoratchisi bo'lmish qishloqda yashovchi Shakarboy Shukurov ta'kidlashicha bu archa Makedonskiydan ham oldin, mavjud bo'lgan deydi. Archada shifobaxsh xususiyatlar bo'lib, kishi salomatligiga davo sanaladi. Tagidagi kovak tuprog'idan chilla tushgan chaqaloqlarga surtilsa, foyda qiladi. 1967 yilda Toshkent shahridan bir guruh professorlar kelib, asbob-uskunalari bilan daraxtning yoshini aniqlashga urinishdi - deydi Shakarboy Shukurov. Ular orasida sentoblik professor Fozilov ham bo'lib, archaning yoshi 25 asrga teng deb aynib o'tgan edi. 1933 yillarda daraxt tanasidagi kovak devor bilan o'ralgan va qishloq bolalari uchun maktab vazifasini o'tagan. Bu kovakka sakkiz kishi siqqani uchun har kuni shunchadan o'quvchiga dars o'tilgan.

Archa atrofida ko'hna masjid bo'lib, u taxminan 1910 yillarda qurilgan. Hozirda eskitirib vayrona ko'rinishga kelib qolgan, cho'kkan bo'lsada, chiroyli naqshlar solingan ustunlari saqlanib turibdi. Bu inshoot bugungi kunda madaniy meros ob'ekti sifatida ro'yxatga kiritilgan bo'lib, archaning ro'parasidagi tepalikda Makedonskiy davridan ham ilgari 300 metrlik g'or bo'lgan deb ta'kidlaydi Shakarboy aka. Ushbu chordaradan bostirib keladigan talonchilarni katta palaxmon tosh uskunasi toshbo'ron qilishar, ayollar, bolalar va keksalar esa qochib shu g'or ichida jon saqlagan ekan. Hozirgi kunda g'or og'zi yopilib qolgan. Masjid ro'parasida, qirlarda ajdodlarimiz yashagan, 80-90 yillar ilgari bu yerda ming xo'jalik istiqomat qilgan. Ko'rib turganingizdek, bu yerda faqat eski uylarning qoldiqlari, xarobasi saqlanib turibdi. Qishda bu qirlar, soylik juda issiq bo'lgan. Hayit, ramazon namozlari pastda aholi yashaydigan joyda emas, mana shu masjidda o'qilgan [7].

Bu hududning musaffo havosi, kichik soylikdan sharqirab oqqan zilol suvlari, baliqlari, keksa tut va chinorlar uyg'unlikda ajib bir manzara kashf qilgan. Kelgusida bu maskanga alohida e'tibor qaralib, diqqatga sazovar joylari obodonlashtirilsa, go'zal bir sayyohlik maskaniga aylanadi.

**Xulosa.** Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va uning atrofidagi ekoturistik hududning xususiyatlaridan kelib chiqib turizmning ekoturizm yo'nalishini rivojlantirish, tabiati chet ellik turistlarni qiziqtirayotgan ushbu hududda xizmat ko'rsatish sohasini halqaro talablar darajasiga ko'tarish lozim. Yuqorida keltirib o'tilgan yo'nalishlarda turistik marshrutlarni tashkil qilish va turistik ob'ektlar atrofida infratuzilmani yaxshilash orqali sayyohlarning yanada ortishiga asos bo'ladi. Mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalar va yangi marshrutlarni ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, Forish tumani Mojrum qishlogida asrlarga teng mashhur archasi, kishi bahri dilini ochadigan soy

bo'yidagi kichik o'rmonzori, bu hudud qirlarida eski uylar, masjid va qal'a vayronalari hozirgi kunda ham saqlanib qolgan bo'lib, bu joyga kelgan kishilarga katta qiziqish o'ygotadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Fўdalov M.P. Ўзбекистонда туризм ва рекреацияни ривожлантиришнинг географик муаммолари ва имкониятлари // Халқаро илмий-амалий конференция материаллари (Чирчиқ ш., 2019 йил 11-12 октябрь). –Б. 51-53.
2. Наврўз-Зода Б.Н. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 400-405 betlar.
3. Usmanov, M. R. (2021). The Prospective Of The Development Of Ecotourism In Jizzakh Region. Journal of Geography and Natural Resources, 1(01), 8-10.
4. Usmanov M.R. “Jizzax viloyatida turistik destinatsiyalarni tashkil etishning hududiy jihatlari” 11.00.02. geografiya.f.f.d (Phd) diss. avtoreferati hamda dissertatsiya ma'lumotlari, 2022. 90-94 b.
5. Rustamovich, U. M. (2021). AYDAR-ARNASOY KO'LLAR TIZIMIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI. *Журнал естественных наук*, 3(5), 297-301.
6. Komilova, N. K., Usmanov, M. R., Safarova, N. I., Matchanova, A. E., & Murtazaeva, G. I. (2021). Tourist destination as an object of research of social and economic geography. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 2058-2067.
7. [https://orexca.com/rus/madzherum\\_biota.shtml](https://orexca.com/rus/madzherum_biota.shtml)
8. <https://www.jizzaxstat.uz> 2016-2022 y.

## **O'ZBEKISTONNING CHO'L-VOHA HUDUDLARI VA ULARNING IQTISODIY GEOGRAFIK O'RGANILISHI MASALALARI**

**A.A.Qodirov ( Bux DU)**

Cho'l va vohalar o'ziga xos tabiiy, tabiiy - antropogen yoki texnogen majmualar bo'lib, yer sharining mo'tadil, subtropik va tropik iqlim mintaqalaridagi o'ta qurg'oqchil iqlimli hududlarda vujudga kelgan. Cho'l zonasining paydo bo'lishi va rivojlanishi sayyoramiz geografik qobig'idagi zonallik qonuniyati bilan bog'liq. Zonallik esa yer yuzasi bo'ylab issiqlik va namlikning bir me'yorda taqsimlanmaganligining mahsulidir. Shuningdek yer yuzi quruqligidagi orografik to'siqlar (azonallik), subtropik kengliklarda yil davomida yuqori atmosfera bosimining hukmronligi, sovuq oqimlarning materik sohillariga ta'siri kabi omillar ham cho'llarni shakllanishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozir cho'l va chalacho'llar yer yuzining 4,7 milliard gektar maydonini egallaydi. Bu butun quruqlikning qariyb 1/3 qismidir

Cho'l deganda – juda quruq va jazirama iqlimli, nihoyatda kam yog'inli va nisbatan siyrak o'simlik qoplamiga ega bo'lgan tabiiy hududlar tushuniladi. Voha esa arab tilidan kirib kelgan, asliyatda cho'l o'rtasidagi suvli, ko'kalamzor joy ma'nosida. O'zbek tilida cho'l va chalacho'llarda obod qilingan yerni anglatadi. Vikipediya voha — cho'l yoki chala cho'ldagi (kamroq savanna va hattoki qurg'oqchil o'rmon-dashtda) o'simliklarga boy, boshqa joylardan ajratib olingan joy; odatda tabiiy suv havzasi yaqinida joylashgan. "Voha" so'zi zamonaviy Yevropa tillariga (shu jumladan rus) lotin tili orqali kirib kelgan va u yunoncha ὄσος ("voha") dan kelib chiqqan. Qadimgi misrliklarning avlodi bo'lgan kopt tilida u "uakhe" bo'lib, "turar joy" degan ma'noni anglatadi deb izoh berilgan.

Respublikamiz hududining yetmish foizdan ortiqroq maydoni cho'l va chalacho'llar zonasiga to'g'ri keladi. Ushbu hududlar mamlakat xalq xo'jaligining tarkib topishida o'ziga xos ahamiyat kasb etib kelgan. Shuning uchun ham bu hududlarni xalq xo'jaligining turli sohalarini rivojlantirish maqsadlarida keng qamrovli tadqiq etishga katta e'tibor qaratilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga geografik xususan, iqtisodiy geografik tadqiqotlarni ham kiritish mumkin.

O'rta Osiyo va uning ajralmas qismi hisoblangan respublikamiz hududi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hududiy jixatdan keng qamrovli tadqiq etila boshlandi. Bu davr tadqiqotlari umumgeografik xususiyatlari bilan ajralib turar edi. Ayniqsa geologik, geomorfologik, meteorologik, glatsiologik, geobotanik va zoogeografik jixatdan olib borilgan tadqiqotlar natijasida ulkan ilmiy hamda amaliy ahamiyatga molik ma'lumotlar to'plangan. Ushbu tadqiqotlardan ko'zlangan maqsad o'lka hududining tabiiy geografik sharoiti hamda resurslaridan xo'jalikni hududiy tashkil etishda foydalanish ekanligini nazarda tutadigan bo'lsak, iqtisodiy geografik tadqiqotlar bo'yicha ilk qadamlarning qo'yilishi aynan shu davrga borib taqaladi.

XX asr boshlariga kelib o'lkamiz hududining, xususan cho'l zonasining yer-suv, iqlim va o'simlik resurslarini o'rganishga katta e'tibor berildi. Bundan ko'zlangan maqsad Chor Rossiyasining chekka o'lkasi bo'lgan O'rta Osiyoning asosiy xo'jalik tarmog'i bo'lmish paxtachilikni rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligining xomashyo yetkazib baruvchi boshqa tarmoqlarini shakllantirishdan iborat edi. Ana shu ehtiyoj tufayli geografik tadqiqotlarning mazmun-mohiyati va undan ko'zlangan maqsad ham o'zgarib borgan. Natijada maxsus ixtisoslashgan ilmiy dastur asosida ancha mukammal va tizimli tadqiqotlar olib borila boshlangan. Ayrim geografik rayonlarni chuqur miqdoriy tahlil qilish, ularni kartalashtirish, hamda iqtisodiy salohiyatini aniqlash bosh masalaga aylangan. Hududlarning qishloq xo'jaligi nuqtayi –nazardan imkoniyatlarini aniqlash va baholashga katta e'tibor qaratilgan. Bu borada qishloq xo'jaligi tajriba stansiyalari ( Toshkent, Mirzacho'l, Andijon , Zarafshon ,Farg'ona ) , Rossiya yer tuzish va dehqonchilik boshqarmasi qoshidagi " Yerlar holatini yaxshilash bo'limi " , gidrometrik bo'linma,Turkiston Harbiy topografiya bo'limi, Rossiya Geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalarini ko'rsatib o'tish mumkin. Ushbu muassasalarda faoliyat olib borgan olimlarning ilmiy faoliyati xalq xo'jaligining dolzarb vazifalari – yer tuzish, obikor dehqonchilik va yaylov xo'jaligini rivojlantirish, yer osti boyliklarini izlab topish , yer-suv resurslarini baholash hamda kartalashtirish kabi masalalar bilan bog'liq bo'lgan. 1906-1918-yillarda nashr qilingan "Turkiston qishloq xo'jaligi " jurnalida qishloq xo'jaligi sohasida olib borilgan tadqiqot natijalari yoritib borilgan. (Rahimbekov, Donsova 1982) Bunday ma'lumotlar o'z navbatida respublikamiz hududidi XX asrning 20-yillaridan boshlab olib borilgan iqtisodiy geografik tadqiqotlar uchun manba vazifasini o'tagan.

O'tgan asrning 20-yillarida olib borilgan tadqiqot natijalarida O'rta Osiyo va respublikamiz iqtisodiy geografiyasi hamda hududiy iqtisodiyotiga oid ma'lumotlarni ko'rish mumkin. O'rta Osiyo hududining tabiati, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarini o'rganish va baholash asosida tabiiy geografik rayonlashtirishga alohida e'tibor berilgan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqot natijalarini G.N.Cherdansev (1922, 1928) V.M.Chetirkin va Y.I.Poslavskiy (1926) kabi olimlarning ishlarida ko'rish mumkin.Keyinchalik respublikamizda iqtisodiy geografiya ilmiy maktabi hamda qishloq xo'jaligi geografiyasi yo'nalishining shakllanishida yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning hissasi katta bo'lgan. Shu tarzda mamlakatimizda iqtisodiy geografiyaning qishloq xo'jaligi geografiyasi yo'nalishi dastlab tabiiy geografik tadqiqotlar negizida ya'ni qishloq xo'jaligi maqsadlarida tabiiy geografik rayonlatirish bilan bog'liq holda shakllana boshlagan. Ushbu tadqiqotlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish va hududiy tashkil etishning ilmiy asosi sifatida e'tirof etilgan. Keyinchalik mazkur yo'nalishda olib borilgan izlarishlar natijasida iqtisodiy geografik rayonlashtirish amalga oshirilgan.

Iqtisodiy geografik tadqiqotlarning XX asr 30-yillaridagi rivojlanishi tabiiy sharoit va uning imkoniyatlari, tabiiy resurslar, ularning yangi konlari hamda zahiralarni o'rganish bo'yicha olib borilgan ekspeditsiyalar va bu borada o'tkazilgan ilmiy anjumanlar bilan bog'liq bo'lgan. Jumladan, bunday tadqiqotlar mamlakatimizning cho'l zonasida joylashgan Janubi-G'arbiy Qizilqumda, (I.I.Granitov rahbarligida) Qoraqalpog'iston hamda uning Ustyurt qismida amalga oshirilgan.Natijada cho'l zonasining ekologik sharoiti va qishloq xo'jalik imkoniyatlari, shuningdek foydali qazilmalarni izlash bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilgan. 1933-yilda

respublikamizda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish mavzusida dastlabki ilmiy anjuman o'tkazilgan.(Soliyev,Mahamadaliyev 1996)

Ikkinchi jahon urushi yillari (1941-1945) 30-yillarda boshlangan tarmoq va kompleks geografik tadqiqotlar davom ettirildi. Bunday tadqiqotlar sirasiga Janubiy Qizilqum ( 1943 ) va Ustyurt (1944-1945 ) kompleks ekspeditsiyalarini kiritish mumkin. Ushbu tadqiqotlardan ko'zlangan maqsad qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish hamda umumiy iqtisodiy rayonlashtirish masalalarini hal etishdan iborat bo'lgan. Bu o'z navbatida SAGU (keyinchalik ToshDU,hozirgi UzMU ) iqtisodiy geografiya kafedrasini ilmiy yo'nalishini belgilab bergan hamda qishloq xo'jaligi geografiyasi sohasida ilmiy maktab shakllanishi uchun poydevor vazifasini o'tagan.

Ushbu davr tadqiqotlari sirasiga garchi tabiiy geografik yo'nalishda bo'lsada ahamiyatiga ko'ra iqtisodiy geografik mazmun - mohiyat kasb etuvchi ayrim izlanishlar natijalarini ham kiritish mumkin. N.L.Babushkin tomonidan respublikamizning ob-havo va iqlim sharoitini qishloq xo'jaligi nuqtayi nazardan baholash borasida amalga oshirilgan tadqiqot shunday izlanishlar jumlasiga kiradi. Bundan tashqari YE.P.Korovin va I.I.Granitovlarning 1944-1945-yillarda Qoraqalpoq Ustyurtini chorvachilik maqsadlarida o'zlashtirish muammolarini hal etish bo'yicha uyushtirilgan ekspeditsiya natijalariga bag'ishlangan "Karakalpanskiy Ustyurt i perspektive yego xozyaystvennogo osvoyeniya" (1945 ) asarini ham shunday tadqiqotlar sirasiga kiritish mumkin.

50-yillarda olib borilgan tadqiqotlar sirasiga Farg'ona, Qashqadaryo, Surxon-SHerobod va Zarafshon vodiysi hududlariga uyushtirilgan ekspeditsiyalarni kiritish mumkin. Ushbu tadqiqotlar natijasida mahalliy millat vakillaridan Z.M.Akramov, R.A.Hodiyev, T.Tojimonov, T.Raimov, E.Toshbekov kabi qator olimlar yetishib chiqqan. Ular ichida Z.M.Akramovning cho'l, tog' va tog'oldi rayonlarni o'zlashtirish, iqtisodiy rayonlashtirish kabi muammolar ustida olib borgan izlanishlari alohida diqqatga sazovordir. (Soliyev,Mahamadaliyev 1996)

Z.M.Akramovning 1974-yilda nashr etilgan «Problemi xozyaystvennogo osvoyeniya pustinnix i gorno – predgornix territoriy» monografiyasining birinchi bobi respublikamiz cho'l hududlarining xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirilishi, tabiiy resurslari va ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti masalalariga bag'ishlangan.Ushbu monografiyada olim tomonidan cho'l hududlari yer- suv, iqlim, o'simlik resurslari va foydali qazilmalarining xo'jalik ixtisoslashuviga ta'siri kabi masalalar alohida- alohida tahlil qilingan.Ishning uchinchi bobi respublikamiz hududini xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirish, tabiiy resurslardan foydalanish va ishlab chiqarish kuchlari muammolariga bag'ishlangan. Bu yerda asosiy e'tibor suv tanqisligi muammosi, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va muhofaza qilish hamda ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi borasida mavjud muammolarga qaratilgan. Monografiyaning to'rtinchi bobida cho'l, tog' va tog'oldi rayonlarini o'zlashtirish, iqtisodiy rayonlashtirish muammolari bo'yicha istiqbolda olib boriladigan ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari belgilab berilgan. Xususan ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotini bashoratlash hamda uning yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Z.M.Akramov ToshDU (hozirgi UzMU ) iqtisodiy geografiya kafedrasining mudiri (1970-1984), O'zbekiston Geografiya jamiyati prezidenti hamda Fanlar akademiyasi qoshidagi Geografiya bo'limidagi faoliyati davomida respublikamiz hududini iqtisodiy geografik o'rganilishida katta va samarali ishlarni amalga oshirgan.

Cho'l hududlarini o'rganish respublikamizning iqtisodchi geograf olimlari Q.N.Abirqulov (1971), M.Rasulov (1973), Sh.B.Imomov (1983), K.I.Lapkin va K.N.Bedrinsev (1987) kabilarning ayrim tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan.

XX asrning 70-80 yillarida cho'l zonasining iqtisodiy geografik o'rganilishi O'zFA qoshidagi sobiq ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish kengashi (SOPS) faoliyati va bu muosasada tadqiqot olib borgan olimlarning izlanishlari bilan bog'liq bo'lgan. Ko'rilayotgan davrda kengash tomonidan " Perspektivi razvitiya proizvoditelnix sil Buxara-Navoiyskogo (Kizilkumskogo) proizvodstvenno-territorialnogo kompleksa" (1972) hamda "Ekonomicheskoy



potensial pustin i polupustin Uzbekistana i puti yego realizatsii” (1987, K.I.Lapkin va K.N.Bedrinsevar tahriri ostida) nomli umumlashma kitoblar nashr etilgan.

Mustaqillik yillarida cho‘l hududlarini iqtisodiy geografik o‘rganish borasidagi tadqiqotlar eng avvalo respublikamizning siyosiy mustaqilligi va ayni davrdagi geoeologik vaziyat hamda muammo, xususan cho‘llanish muammosi shuningdek mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o‘tishi bilan bog‘liq holda olib borilmoqda.

Darhaqiqat, ayni davrda barqaror rivojlanishning asosiy poydevori bo‘lgan iqtisodiy salohiyat birinchi navbatda mamlakatimiz hududlarining tabiiy resurs imkoniyatlaridan iqtisodiy maqsadlarda samarali foydalanishni taqozo qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, cho‘llar respublikamizning kelajakdagi keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan hududlaridir.

Respublikamizda cho‘l zonasini iqtisodiy geografik o‘rganish borasida itiqbolda olib boriladigan tadqiqotlarda cho‘llanishga qarshi kurashning iqtisodiy choralari, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda bu borada mamlakatimiz hukumati tomonidan qabul qilingan dasturiy hujjatlardagi ko‘rsatmalar hamda ustivor yo‘nalishlardan kelib chiqish lozim

#### **ADABIYOTLAR**

1. Акрамов З.М. Проблемы хозяйственного освоения пустынных и горно-предгорных территорий. – Т.: Узбекистан, 1974. –176 с.
2. Махамдалиев Р.Ю., Назаров М.И., Қодиров А.А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси илмий мактаби. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетининг илмий мактаблари. -Тошкент, 2008
3. Рахимбеков Р.У. Из истории изучения природы Средней Азии. – Т.: Ўқитувчи, 1970. – 266 с.
4. Рахимбеков Р.У.Донцова .З.Н. Ўрта Осиё табиатини географик ўрганиш тарихи - Т. Ўқитувчи 1982 - 200 б
5. Солиев А., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари.-Т., 1996.
6. ҚодировА.А. Ўзбекистон чўл худудларининг иқтисодий географик ўрганилиши. “Чўл зонаси ландшафтлари ресурсларидан самарали фойдаланишнинг географик асослари”. Республика илмий- назарий, амалий конференцияси материаллари – Бухоро, 2010. Б. 116-122
7. Қодиров А.А. Ўзбекистонда иқтисодий географиянинг шаклланиши. "География фанининг назарий ва амалий масалалари". Республика илмий- назарий, амалий конференцияси материаллари. Тошкент - 2007. 50-51 бет.

### **IQLIM O‘ZGARISHI DAVRIDA SUV RESRUSLARIDAN FOYDALANISHDA SUV OMBORLARINING AHAMIYATI**

**Abdurayimova Oytula Boltatosh qizi**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*1-bosqich tayanch doktaranti (P.h.D)*

**Annotatsiya:** Yer yuzida iqlim o‘zgarishi tufayli kelib chiqayotgan global muammolar, suv resurslari taqchilligi, tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanishi, sahrolashish jarayonining o‘sishi jadal tus olmoqda. Zarafshon vohasida qishloq xo‘jaligining rivojlanishida suv resurslarining ahamiyati muhim bo‘lib, ushbu suv resruslaridan samarali foydalanishda suv omborlarining barpo etilishi xalq xo‘jaligida muhim ahamiyat kasb etilishi yoritilgan

**Kalit so‘zlar:** Iqlim, yog‘ingarchilik, atrof-muhit, issiqxona, qishloq xo‘jaligi, jazirama, ekologiya

**Аннотация:** Глобальные проблемы, вызванные изменением климата, нехваткой водных ресурсов, частым повторением природных катаклизмов, ростом опустынивания, набирают обороты. Подчеркивается значение водных ресурсов в развитии сельского

хозяйства Зарафшанского оазиса, а строительство водохранилищ при эффективном использовании этих водных ресурсов имеет большое значение в народном хозяйстве.

**Ключевые слова:** Климат, осадки, окружающая среда, теплица, сельское хозяйство, тепло, экология.

**Abstract:** Global problems caused by climate change, shortage of water resources, frequent recurrence of natural disasters, and growth of desertification are gaining momentum. The importance of water resources in the development of agriculture in the Zarafshan oasis is highlighted, and the construction of water reservoirs in the effective use of these water resources is of great importance in the national economy.

**Key words:** Climate, precipitation, environment, greenhouse, agriculture, heat, ecology

**Kirish.** Dunyo bo‘ylab iqlim o‘zgarishi muammosi yildan-yilga dolzarblashib, mukammal tus olmoqda. Yer yuzida global isish bilan bir qatorda, iqlim o‘zgarishi muammosi qatoriga yog‘ingarchiliklarning bir maromda emasligi, gohida quruqchilik bo‘lishi, gohida esa birdan yog‘ingarchiliklar ko‘payib hududlarni suv bosishi atrof-muhitga katta zarar yetkazmoqda.

Bugun nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari, balki butun jahon hamjamiyati iqlim o‘zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan muammo va tahdidlarga javob topishga intilmoqda. Bu muammolar qatoriga atmosferada issiqxona gazlarining ko‘payishi, yerning ustki qobig‘i haroratining ortishi, suv resurslari taqchilligi, tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanishi, saholashish jarayonining o‘shishi va boshqalarni kiritish mumkin.

Mutaxassislar iqlim o‘zgarishi tabiiy ofatlarning yangi turlari paydo bo‘lishiga sharoit yaratishi bilan birga, mavjud tabiiy ofatlarning zarar yetkazish kuchini bir necha barobar oshirishi, hattoki, boshqarib bo‘lmaydigan darajaga yetkazishi mumkinligini aytmoqda.

**Asosiy qism.** Hozirda Markaziy Osiyo iqtisodiy jihatdan tez su‘ratlarda rivojlanib borayotgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mintaqa geografik jihatdan shundayki, bu yerdagi suv va yer resurslaridan unumli foydalanish, ularni boshqarishda oqilona yo‘l tutish kelgusida davomli rivojlanish, barqarorlik va fuqarolarning farovonligiga xizmat qiladi.

Bugun jahon hamjamiyati iqlim o‘zgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri deb tan olmoqda. BMT iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi doiraviy konvensiyasi uni hal etishning ikkita asosiy yo‘nalishi belgiladi: atmosferaga issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish hamda kuzatilayotgan va kutilayotgan iqlim o‘zgarishlariga moslashish. O‘z vaqtida choralar qabul qilmaslik va atmosferada issiqxona gazlari miqdorini bundan keyin ham ko‘payishi holatida mamlakatlar iqlim o‘zgarishi borasidagi harakatlar uchun katta mablag‘larni mobilizatsiya qilishlariga to‘g‘ri keladi.

Butun dunyo bo‘ylab iqlim o‘zgarishi tufayli sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan oqibatlar qatorida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- hozirgi yuz yillikning o‘zida okeanlar sathi 1 m ko‘tarilishi;
- SO<sub>2</sub> konsentratsiyasi atmosfera havosida ortishi (1870 yildan beri uni miqdori 30 foiz ortdi);
- Yerning ustki qobig‘i harorati +0,7°S ga o‘zgargan ( so‘nggi yuz yil ichida).
- suv resurslari taqchilligining kuchayishi, shuningdek hududlarda ichimlik suvining yetishmasligi hamda muzlik va qor qoplami kunlarining 7-10 kunga kamayib borishi, qurg‘oqchilik takrorlanishining ko‘payishi (hozirgi davrda har 10 yilning 3 yilida).
- tabiiy ofatlarning ortishi – sellar, toshqinlarning tez-tez takrorlanishi (so‘nggi 40 yil ichida tabiiy ofatdan bo‘lgan zarar miqdori 10 marotabaga oshgan);
- o‘rtacha haroratning oshishi, yillik issiq davrlarning 10-15 kunga o‘sib borishi;
- yog‘ingarchilikning yillik o‘rtacha darajasini mamlakatni butun hududi bo‘ylab pasayishi va ularning hududlar, vaqt hamda miqdori bo‘yicha notekis tarqalishi, haddan tashqari kuchli yog‘ingarchilikli va umuman yog‘ingarchiliksiz kunlar sonining ortishi;



- qishloq xo'jaligida yetishtirish uchun maqbul ekinlar tarkibi butunlay o'zgarishi;
- yuqori darajadagi jaziramar takrorlanishining oshishi, harorat rejimi kuchayishi natijasida aholi salomatligi bilan bog'liq muammolar ko'payishi;
- o'simliklar va hayvonlarning aksariyat turlari yashaydigan areallarning qayta taqsimlanishi, demak, ekologik jarayonlar, beriladigan mahsulotlar va bajariladigan funksiyalarning tubdan o'zgarishi;
- sahrolanish jarayonlarining kuchayishi, ya'ni, yashash va xo'jalik yuritish mumkin bo'lgan yerlarning kamayishi;
- iqtisodiyot sektorlari ta'sirining to'liq qayta taqsimlanishi va oldindan aniq aytish qiyin bo'lgan boshqa ko'pgina oqibatlar.

Iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

Birinchidan, issiqxona gazlarini kamaytirish. Buning uchun birinchi navbatda ishlab chiqarish korxonalari, IES va boshqa atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqaruvchi tashkilotlarda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali atmosferaga tashlanayotgan issiqxona gazlari miqdorini kamaytirish zarur.

Ikkinchidan, yoqilg'ilar sifatini yanada yaxshilash hamda ekologik toza transport vositalarini ko'paytirish, shu jumladan keng jamoatchilik uchun qulay bo'lgan veloyo'lakchalar tashkil etish o'z navbatida issiqxona gazlari miqdorini kamaytiradi.

Uchinchidan, ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish. Tabiiy drenaj hisoblangan ko'p yillik daraxtlarning ekilishi hududdagi mikroiklimni yumshatishga sabab bo'ladi. Shuningdek, ko'kalamzorlashtirilgan hududlarni, ayniqsa shahar va avtomobil yo'llari chetida yashil hududlarni kengaytirish zararli moddalar miqdorini kamayishiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, suvdan oqilona foydalanish. Tomchilab sug'orishni tashkil etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish ham o'z navbatida iqlim o'zgarishlariga moslashish uchun xizmat qiladi.

Beshinchidan, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, ya'ni chiqindisiz texnologiyalar, energiya tejamkor, resurs tejamkor, chiqindisiz, kam chiqindili texnologiyalardan foydalanishni joriy etish yoki boshqacharoq qilib aytganda mamlakatda yashil iqtisodiyotni joriy etish zarur.

Oltinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish. Quyosh, shamol energiyalaridan foydalanish bilan birgalikda atom energetikasini rivojlantirish orqali atmosferaga issiqxona gazlari chiqarilishini oldini olish orqali iqlim o'zgarishlari oqibatlarini ma'lum bir darajada kamaytirish mumkin.

Suv tabiatning bebaho, noyob boyligi bo'lib, uning mutanosibligini ta'minlovchi mo'jizaviy holatidir. Suv zahiralarning sifati eng muhim muammolardan biridir. Daryo suvlarining ifloslanishi ekologiya-gigiyena va sanitariya- epidemiologiya vaziyatini, ayniqsa, daryolarning quyi oqimida yomonlashtirmoqda. Respublikamizda suvning asosiy qismi, ya'ni 90%i qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish va navigatsiya davrida yerlarning sho'rini yuvish ishlariga ishlatiladi. Bugungi kunda dunyo miqyosida deyarli 1mlrd. aholi xavfsiz ichimlik suviga ega emas. 2030 yilga kelib, ularning soni 2,7 mlrd.kishiga yetishi taxmin qilinmoqda.

Mamlakatimiz miqyosida bo'lgani kabi Zarafshon vohasida ham qishloq xo'jaligining rivojlanishida ham suv resurslarining ahamiyati benihoyat kattadir. Shuning uchun vohada suv ta'minoti masalalari hozirgi davrda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Vohaga suv beruvchi Zarafshon daryosi ham O'rta Osiyodagi ko'pgina daryolar kabi transchegaraviydir. Chunki bu daryo qo'shni Tojikiston Respublikasidan boshlanib, mamlakatimiz hududidan oqib o'tadi. Zarafshon daryosi ham suvining to'liq boshlanishi va sarf bo'lishi, yirik daryolar Amaudaryo va Sirdaryo kabi kuchli antropogen ta'sirda ekanligi bilan ajralib turadi. Uning suvi ekinlarni sug'orishda, voha aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlashda va sanoatda keng ko'lamda ishlatiladi. O'rta Zarafshonda mahalliy suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida bir nechta suv omborlar qurilgan. Mazkur suv omborlari suv yig'imi jihatidan yirik bo'lmasada ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyati juda katta. Ular gidrologik, geografik xususiyatlarga ko'ra


bir biridan ajralib turadi. Shu jumladan, To'sinsoy suv ombori ham xalq xo'jaligida o'ziga xos ahamiyatga ega. Geografik nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak To'sinsoy suv ombori Samarqand viloyatining shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, ma'muriy jihatdan u viloyatning Ishtixon va Qo'shrabot tumanlari hududida joylashgan. Suv omborini to'ldiradigan To'sinsoy qor, yomg'ir va buloq suvlaridan to'yinib, tabiiy o'zan orqali Oqdaryoga kelib quyiladi. To'sinsoy oqimi yil davomida fasllar bo'yicha notekis taqsimlangan, ya'ni bahor oylarida soy suvi to'lib oqadi, ba'zan sel hodisalarini keltirib chiqaradi. Yoz oylarida esa oqim miqdori birmuncha kamayadi. Natijada soy bo'yicha yashovchi aholiga dehqonchilik ishlarida turli noqulayliklar yuzaga kelgan. Dasht va to'qay zonalarida yangi yerlarning o'zlashtirilishi, suvga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'lgan. Shu tufayli To'sinsoy suv ombori loyihalashtirilib (1980-yil) 1985-yilda qurib bitkazilgan va suvga to'ldirila boshlangan, 1988-yilda ishga tushgan. Suv omborining loyihasi suv sig'imi 42 mln.m<sup>3</sup> ni, foydasiz hajmi 5,5 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil qiladi. Suvga to'lganda suv omborining yuzasi 2 km<sup>2</sup> maydonni egallaydi. Suv omborining to'g'onining balandligi 41 m ni, uzunligi, 405 m ni tashkil qiladi. To'g'on devoir pastki qismining eni 125 m, ustki qismi esa 25 m ga teng. Uning chuqur joyi 52-55 m ni tashkil qiladi. Inshoatning suv o'tkazish quvvati 40 m<sup>3</sup>/sek. (to'lin vaqtida 144 m<sup>3</sup>/sek.) ni tashkil qiladi.

Suv omborida to'plangan suv bilan Ishtixon, Qo'shrabot, Payariq tumanlaridagi 3000 ga ga yaqin yer sug'oriladi va sug'orish ishlari yaxshilanadi. Suv omboriga To'sinsoy va uning atrofidagi qirlarva past tog'lardan oqib keladigan vaqtinchalik soylar suvi bilan ko'plab loyqa oqiziqalar va turli o'lchamdagi tog' jinslari oqizib kelinadi. Natijada suv omborida katta miqdorida loyqa oqiziqalar cho'kadi. Bu esa, suv ombori sig'imining kamayishiga olib kelmoqda. Suv omboridan chiqadigan suvning 45 foizi Qo'shrobd tumanidagi Zarmetan oltin kambinatiga sarflanadi. Demak, suv ombori suvi sanoatda ham ishlatilmoqda.

Payariq tumanida suv ombori suvi ekinlarni sug'orishda va bog'dorchilikda ishlatiladi. Bu tuman hududlariga suv ombori suvi kanal orqali yetkazib beriladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, suv yetkazib beruvchi kanal dengiz sathidan 1000 metr balandlikdan boshlanadi. Suv omboridan kanalga chiqarilayotgan suv dasht zonasida yerga singib ketmasligi uchun kanal to'liq betonlashtirilgan. Kanal atrofida mevali bog'lar tashkil etilgan va manzarali daraxtlar ekilgan. Kanaldan oqib keladigan suv 1200 gektarga yaqin erlarni sug'orish imkonini beradi. Ishtixon tumanida suv omboridan sug'oriladigan asosiy yer maydonlari, bog'lar dasht zonasida joylashganligi tufayli suvning ko'p qismi bexuda sarf bo'ladi. Qo'rlisoy, Barlos, Chordara, Mitan, Egarchi hududlarini suv bilan ta'minlashda To'sinsoy o'zani orqali suv olinadi.

Ma'lumki, suv omborlari daryo o'zanidan chetda joylashgan tabiiy chuqurliklar, botiqliklarni suvga to'ldirish yo'li bilan barpo etiladi. Botqoqliklar yetarli darajada chuqur bo'lmasa ularning tevaragi dambalar bilan ko'tarilib yoki tubini chuqurlashtirish yo'li bilan suv sig'imi orttiriladi. Ular daryo o'zanidan chetta bo'lganligi sababli suv maxsus kanallar orqali keltiriladi. Zarafshon havzasidagi Kattaqo'rg'on, Quyimozor, To'dako'l va Sho'rko'l suv omborlari ham maxsus kanallar yordamida to'ldirilib, quyilma suv omborlari hisoblanadi. Suv omborlardagi suv miqdori doim bir xil miqdorga ega bo'lmaydi.

Turli yo'llar (suv ombordagi suv yuzasidan bug'lanish, suv ombori kosasi tubiga shimilish) bilan kamayib tursa, bu kamayishni suv omboriga qo'shiladigan suvlar (suv omborlariga daryolar va kanallardan kelib qo'shiladigan suvlar, atmosfera yog'inlari) to'ldirib turadi. Ana shu sarflanuvchi va to'ldiruvchi elementlarni hisobga olish bilan suv omborlarining suv balansi o'rganiladi. Zarafshon havzasi suv omborlarida 1997-2011 yillar davomida kuzatilgan maxsus kanallar orqali quyiladigan va undan chiqib ketadigan oqim dinamikasi o'zgarishlari keltirilgan



### Kattaqo'rg'on suv omboriga quyiladigan kanalning oqim dinamikasi

Kattaqo'rg'on suv omboriga quyiladigan kanalning oqim dinamikasi yillararo quyidagicha taqsimlangan. O'rtacha yillik oqim miqdorining eng yuqori qiymati 42,2 m<sup>3</sup>/s bo'lib, u 2006 yilga to'g'ri keladi. Eng kichik qiymati esa 24,3 m<sup>3</sup>/s ga teng bo'lib, bu ko'rsatkich 2010 yilda o'z aksini topgan.



### Quyimozor suv omboriga quyiladigan kanalning oqim dinamikasi

Quyimozor suv omboriga quyiladigan kanalning oqim dinamikasi yillararo o'zgarishi turlicha bo'lgan. O'rtacha yillik oqim miqdorining eng yuqori qiymati 2011 yilga 11,2 m<sup>3</sup>/s kuzatilgan bo'lsa, eng kichik qiymati esa 0,6 m<sup>3</sup>/s ga teng bo'lib, bu ko'rsatkich 2003 yilga qayd etilgan. Suv omboriga quyiladigan oqim miqdori oylar bo'yicha tartibsiz ravishda o'zgarib turgan. Masalan, oqim miqdorining eng katta qiymati 28,8 m<sup>3</sup>/s ga teng bo'lib, 2009 yil fevralda kuzatilgan.

Ushbu oyda yog'ingarchilik ko'p tushganligi sababli kanalning oqim miqdori ortib borgan. Eng kichik qiymati esa 2005-yil yanvarda 0,2 m<sup>3</sup>/s teng bo'lgan. Bu suv omborga ham ayrim oylarda kanallar orqali quyiladigan oqim miqdori o'lchanmagan.

Zarafshon havzasidagi quyilma suv omborlaridan yana biri To'dako'l suv omboridir. Ushbu suv omborga quyiladigan kanalning oqim dinamikasining o'zgarishi turli yillarda turlicha qiymatlarda kuzatilib borilgan. Ko'p yillik oqim miqdorining yuqori qiymati 2004 yilga 24,7 m<sup>3</sup>/s teng bo'lib, kichik qiymati esa 2,4 m<sup>3</sup>/s 2006 yilda qayd etilgan. Suv omboriga

quyiladigan oqim miqdori oylar bo'yicha quyidagi qiymatlarda kuzatilgan. Asosan yilning suvga bo'lgan talabi kam bo'lgan vaqtlarda kanalning oqim miqdori ortgan. Oqim miqdorining eng katta kuzatilgan qiymati 2009 yil fevralda 93,8 m<sup>3</sup>/s qayd etilgan bo'lsa, kichik qiymati 2011 yil martda 0,3 m<sup>3</sup>/s ga tushib qolgan.

**Xulosa.** So'nggi yillarda mamlakatimizda atrof muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini saqlash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash ishlariga e'tibor yanada kuchaydi. Davlatimiz rahbarining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining bir qator bandlarida atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirish masalalari belgilanganligi iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqlim o'zgarishi bo'yicha oliy va yuqori darajali xalqaro tadbirlar, uchrashuvlar kun tartibiga iqlim o'zgarishi masalalarini muntazam kiritib borish zarur. Shuningdek, tegishli vazirlik va idoralar tomonidan "yashil texnologiyalar" asosida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini va tadbirkorlar reyestrini shakllantirish hamda ular sonining ortib borishini rag'batlantirish kerak.

Muxtasar qilib aytganda, global tusdagi ekologik muammoni bir yoki ikki davlatning sa'y-harakati bilan bartaraf etib bo'lmaydi. Bunga barcha davlatlar hamjihatlikda ekologik muammoni bartaraf etish uchun kurashish talab etiladi. Kelgusi avlodlar uchun musaffo osmon, go'zal tabiat va uning bebaho ne'matlarini bekamu ko'st holda yetkazish barchamizning umuminsoniy burchimiz ekanligini unutmasligimiz lozim.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abbosov S.B., Bozorova O.X. Oqdaryo suv ombori va uning xalq xo'jaligidagi ahamiyati. //Tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning geografik asoslari. - Namangan, 2014. –B. 262-263
2. Baratov P., Mamatqulov M., Rafikov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. O'qituvchi, 2002. – 435 b
3. Nazarov X.T., Eshquvvatov B.B., Bozorova O., Siddiqova Z. Zarafshon vohasida to'qay landshaftlarini muhofaza qilish masalalari. //Geografiya fani va ta'limning zamonaviy muammolari. –Toshkent, 2015. –B. 73-75
4. Mustafoyev.M. Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi muammolari: Yechimlar qanday?. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. 18.05.2023 yil
5. <https://xs.uz/uzkr/post/iqlim-ozgarishining-oldini-olish-uchun-nimalar-qilish-kerak>. Jamiyat 15 may 2020 yil

## **IQLIM O'ZGARISHLARI SHAROITIDA MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHGA O'TISH ZARURATI.**

**D.Sh.Yavmutov – BuxDU Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.n., dosent**

UNEP va iqlim o'zgarishlari bo'yicha Hukumatlararo komissiya tomonidan 2012 yilda chop etilgan "Tiklanadigan energiya manbalari va iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yumshatish" ("Renawable Energy Sources and Climate Change Mitigation") maxsus hisobotida esa tiklanadigan energiya manbalari energiyaning boshqa turlariga nisbatan atrof-muhitga kamroq salbiy ta'sir ko'rsatishi, iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yumshatishning yuqori salohiyatiga ega ekanligi ta'kidlangan.

Resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashning jahon tajribasi ko'rsatishicha, ushbu jarayon uzoq muddatli davr, katta miqdorda investisiyalarni talab etishi, ustuvor e'tibor tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish jarayoni har bir mamlakat va uning mintqalari uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda ro'y beradi. Shu sababli, o'tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag'batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish zarur. Agar milliy darajada qo'llanadigan rag'batlantiruvchi omillar, jumladan, investisiyalar va davlat xaridlari «yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirishga yo'naltirilsa, iqtisodiy tizimni “yashillashtirish” jarayoni yanada faollashadi.

2. Seto, K. C., & Shepherd, J. M. (2009). Global urban land-use trends and climate impacts. *Current Opinion in Environmental Sustainability*, 1(1), 89-95.
3. Gehl J. Cities for people. Washington; Covelo; L., 2010.
4. Гейл, Ян. Города для людей /перевод с английского: А. Токтонов. М.: Крост, 2012. 276 с.
5. Глазычев В.Л. Город без границ. Конфликты территориального развития. Эволюция города как органическое целое. - М.: Территория будущего, 2012. - 400 с.

## LANDSHAFTSHUNOSLIK FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLLARI (BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI MISOLIDA)

**Ergasheva Mavjuda Komiljonovna**

G.f.f.d.

**Uzoqova Marjona Odiljonovna**

1-bosqich magistrant

Buxoro davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrası [ergashova.76@mail.ru](mailto:ergashova.76@mail.ru)

**Annotatsiya:** Buxoro davlat pedagogika institutida dastlab geografik bilimlarning berilishi, keyinchalik mazkur institut bazasida Buxoro davlat universitetining tashkil topishi hamda bu yerda geografiyaning muhim tarmog‘i landshaftshunoslikni o‘qitilishi, bu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi, yaratilgan ilmiy g‘oyalar kabi masalalari yoritilgan.

**Tayanch so‘zlar:** O‘zbekiston FA, O‘zbekiston Milliy universiteti, Sankt-Peterburg universiteti, Turkmaniston Fanlar Akademiyasi Cho‘llar instituti, Buxoro davlat pedagogika

instituti, Buxoro davlat universiteti, bosqich, oliy ta'lim, geografiya, landshaftshunoslik, landshaft ta'limoti, cho'l zonasi, tabiiy resurs, havza nazariyasi, yaylov, atmosfera yog'inlari, mahalliy suv, dialektika, Zarafshon daryosi.

**Kirish.** Landshaftshunoslik masalalariga bo'lgan qiziqish O'zbekistonlik geograflar orasida 1960 – 1970-yillarda jadallashgan. Bu vaqtda bir qator yosh o'zbek tadqiqotchilari Kiyev, Voronej, Moskva, Sankt-Peterburg, Lvov, Qozon kabi shaharlarga borib aspiranturada tahsil olganlar, dissertatsiya yozib, himoya qilib qaytganlar. Y. Sultonov, P. G'ulomov, M. Umarov, A. Saidov, S. Nishonov, A. Abdulqosimov, L. Alibekov, T. Allaberganov, T. Jumaboyev, A. Rafiqov, M. Quziboyev, Sh. Ergeshovlar shular jumlasidandir.

Buxoro davlat universitetida ham geografiya va uning landshaftshunoslik yo'nalishida ko'plab ishlar olib borilgan. Kafedra olimlaridan I.Q.Nazarov va U.Nurovlar Turkmaniston Fanlar Akademiyasi Cho'llar instituti bilan ilmiy hamkorlik qilishgan. Ularning ilmiy g'oyalari O'zbekistonda landshaftshunoslikning taraqqiyotida munosib hissa bo'ldi. Bugun universitetda geografiya fanini muhim tarmog'i landshaftshunoslikning rivojlanishini bir necha bosqichga ajratish mumkin.

Asosiy qism. O'tgan asrning 30-yillaridan boshlab Buxoro davlat pedagogika instituti (1992-yildan Buxoro davlat universiteti) mamlakatning yirik ilmiy markazlaridan biri bo'lib kelmoqda. O'sha davrdan boshlab, institutda boshqa fanlar qatori geografik bilimlarni o'rganish boshlangan. Ammo institutda oliy geografik ta'lim berish va landshaftshunoslikka oid tadqiqotlar keyinchalik boshlangan. Bu fan va uning tarmoqlarini rivojlanishi bir necha yillarni qamrab oladi.

1930 – 1960-yillarda institutda oliy geografik ta'lim berish boshlangan. Mahalliy kadrlarning yetishmasligi tufayli geografiyaga tegishli fanlar markaziy oliygohlardan taklif qilingan fan o'qituvchilari tomonidan o'qitilgan. Ayniqsa, 1935-yilda tashkil etilgan tabiatshunoslik va geografiya yo'nalishidagi 2 yillik bo'limning ochilishi geografiya sohasiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirgan. Mazkur bosqichning 1940 – 1950-yillarida geografiya ta'limiga e'tibor institutda birmuncha pasaygan. Bu bosqich uchun yosh avlodga geografik bilimlar berish, fan sirlarini o'rgatish xos bo'lgan.

1960 – 1990-yillarda institutda oliy geografik ta'lim berish sifati oshgan. Ilmiy tadqiqotlar ko'lami kengayib, geografiya kafedrasining tashkil topishi bilan undagi kadrlarning ilmiy salohiyati oshgan. Bu quyidagilarda o'z aksini topadi.

Birinchidan, institutning tabiatshunoslik fakulteti huzurida 1964-yilda sirtqi geografiya, 1965-yilda kunduzgi geografiya-biologiya bo'limlari ochilgan. Ayniqsa, filologiya fakulteti huzurida tarix–geografiya bo'limlarining ochilishi, keyinchalik bu bo'lim negizida tarix–geografiya fakultetining tashkil etilishi ushbu oliygohda geografiya ta'limi va ilmini rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Geografiya mutaxassisligiga tegishli barcha fanlar “Qishloq xo'jaligi asoslari” kafedrasida o'qitila boshlangan.

Ikkinchidan, Toshkent, Samarqand, Buxorodagi institut va universitetlarni tugatgan yosh mahalliy-geograf kadrlardan L.To'rayeva, H.Axmedova, Y.Salomov, I.Nazarov, U.Nurov, R.Xolmonov, I.Allayorov, A.Abdulqosimov, B.Ramazonov, X.Toshovlarni kafedraga ishga olinishi kelajakda geografiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Uchinchidan, O'zbekiston FA huzuridagi ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish kengashi, Sankt-Peterburg universiteti hamda Turkmaniston Fanlar Akademiyasi Cho'llar instituti bilan ilmiy aloqalar yo'lga qo'yilishi natijasida 1974-1975-yillarda Y.Salomov, I.Q.Nazarov, 1990-yilda U.Nurovlar ilmiy tadqiqotlarini yakunlab, fan nomzodlari ilmiy darajasiga ega bo'ldilar.

Ular tomonidan “Buxoro – Qorako'l vohabo'yi qumlari va ularni o'zlashtirish” (I.Nazarov), “Buxoro viloyati yer resurslarini iqtisodiy baholash” (Y.Salomov), “Динамика ландшафтов и природные ресурсы дельты реки Зарафшан” (U.Nurov) mavzularida dissertatsiyalar himoya qilingan[5].

To'rtinchidan, 1979-yil institutda geografiya kafedrasining tashkil etilishi geografiya sohasidagi tadqiqotlarga katta imkoniyatlar yaratdi.

Bu bosqich 1990-yildan hozirgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ushbu bosqichda institut bazasida 1992-yil universitetning tashkil etilishi bu sohadagi ishlarni sifat jihatdan yaxshilashga poydevor bo'ldi. Ayniqsa, geografiya va uning tarmoqlaridan tabiiy geografiyaga bag'ishlangan fanlarni o'quv rejalaridan keng o'rin olishi, landshaftshunoslikka oid ilmiy anjumanlarni o'tkazilishi, magistratura mutaxassislarini (5A440503-Tabiiy geografiya, landshaftlar geofizikasi va geokimyosi) tayyorlashni yo'lga qo'yilishi kadrlar salohiyatining oshishiga sabab bo'ldi.

Mazkur bosqich oliy geografik ta'lim berish va landshaftshunoslikka oid tadqiqotlarda burilish davri bo'ldi. Jumladan, kafedraning "Cho'l zonasi landshaftlarini oqilona tashkil etish va tabiiy resurslaridan samarali foydalanish" mavzusidagi uzoq yillarga mo'ljallangan strategik rejalari ishlab chiqilgan. 2005–2009 yillarda kafedrada tabiiy geografiya yo'nalishi bo'yicha (5A440503-Tabiiy geografiya, landshaftlar geofizikasi va geokimyosi) magistratura mutaxassisligi faoliyat ko'rsatib, uni 10 nafar magistrantlar tugatgan. Bugungi kunda ulardan G.Halimova, M.Ergasheva, I.Mirzayeva, A.Ne'matov va D.Qalandarova, N.Aslovalar landshaftshunoslik yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Landshaftshunoslikni o'rganishni takomillashtirish maqsadida 1996 – 2006-yillarda respublika oliy o'quv yurtlari uchun "tayanch" o'quv – uslubiy markaz bo'lgan O'zbekiston Milliy universitetining professor – o'qituvchilaridan professor A.Rafiqov, dotsentlar Sh.S.Zokirov, I.Hasanov, A.Soatovlar Buxoro davlat universiteti geograf talabalariga maxsus fanlardan dars berishgan. Shuningdek, ularning magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilishgan. 2009-2011-yillarda kafedra olimlari "Cho'l landshaftlarining mahalliy suv resurslari (Buxoro viloyati misolida)" mavzusida davlat granti bajarilgan. Buxoro davlat universiteti geografiya kafedrasida "Geografiya fanining nazariy–amaliy muammolari" (2006), "Cho'l zonasi landshaftlari resurslaridan samarali foydalanishning geografik asoslari" (2010) mavzusida Respublika ilmiy–nazariy–amaliy konferensiyalari o'tkazilib, ularda respublikamizning 70 foiz hududini egallab turgan cho'l zonasi landshaft imkoniyatlaridan samarali foydalanishning geografik asoslari muhokama qilingan [3; 4].

Mazkur konferensiyalarda landshaftshunoslikning rivojlanishiga oid quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan:

- cho'l zonasi landshaftlari va ularning imkoniyatlari mukammalroq o'rganilgan va muhofaza qilish yo'llariga oid takliflar berilgan;
- cho'l zonasi landshaftlari asosan umumgeografik yondoshuv – sintez asosida tahlil etilgan;
- cho'l zonasi landshaftlarini o'rganish orqali geografiya fanining nazariy, amaliy va ijtimoiy nufuzini yana yuksaltirish masalalari tahlil qilingan va tavsiyalar berilgan;
- geografiya fanining nazariy, amaliy va ijtimoiy nufuzini yuksaltirishda landshaft ta'limotining dialektik poydevor bo'lishi ilmiy-amaliy asoslab berilgan.

1992-2010-yillarda kafedrada geografiya va landshaftshunoslik sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida dissertatsiyalar himoya qilingan. O'ndan ortiq o'quv qo'llanma, monografiya, uslubiy ishlar nashr ettirilgan. Jumladan, I.Q.Nazarov ilmiy rahbarligida X.R.Toshov "Cho'l landshaftlari va ularning agroimkoniyatlaridan samarali foydalanish (Buxoro viloyati misolida)" mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan. Shuningdek, Landshaftshunoslik, Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования. (На материалах нижней части р. Зарафшан), Природные условия и ландшафтное раёнирование Каракулской дельты р. Зарафшана и ее сельскохозяйственное освоение, Geografiya tarixi, Geografiya fanining asosiy muammolari kabi asarlar yaratilgan[1; 2; 6].

#### **Natijalar.**

1. Buxoro davlat universitetida geografiya fanini o'qitish 20-asrning 30-yillaridan boshlangan;
2. Geografiya fanining o'qitilishida 1965 – 1970-yillar yuksalish davri hisoblanadi;



3. 1970 – 1980-yillar ilmiy salohiyatda sifatiiy o‘shish davri bo‘ldi;
4. Landshaftshunoslik bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar 1970-yillardan boshlangan;
5. Buxoro davlat universitetida 1992-yildan boshlab landshaft resursshunoslik yo‘nalishi jadal rivojlandi.

**Xulosa.** Buxoro davlat universiteti olimlarining geografiya, shu bilan birga landshaftshunoslik sohasidagi uzoq yillik tadqiqotlari 3 bosqichda o‘z yo‘nalishlari va tamoyillari asosida olib borilgan. Bu tadqiqotlar uchun cho‘l zonasi tabiati, uning komponentlari obyekt sifatida olingan. Ularning predmeti deb esa o‘zaro aloqadorligi, birbutunligi-umumgeografik yondoshuviga amal qilib kelmoqdalar. I.Q.Nazarovning ilmiy faoliyati geografiya va landshaftshunoslikning nazariy va amaliy masalalari bilan bog‘liq. Y.Rahmatov va U.Nurov ishlari landshaftshunoslikning morfologiyasi va tasnifiga qaratilgan bo‘lsa, X.R.Toshov ishlarida landshaftni tasniflash va landshaft resursshunosligi yo‘nalishlari, M.Ergasheva ilmiy izlanishlarida landshaftshunoslik fanining rivojlanish tarixini o‘rganish ustuvorlik qiladi [7;8].

Xulosa o‘rnida qayd etish joizki, fan va ilmiy maktablar uzviylik qonuniyati asosida vujudga keladi va rivojlanadi. Demak, A.Gumboldt va L.S.Berg, A.G.Babayev ilmiy maktablari g‘oyalari Buxoro geografik-landshaftshunoslik ilmiy maktabida yaratiladigan g‘oyalarga poydevor bo‘ldi hamda ularning cho‘l zonasi tabiatidagi o‘zgarishlarni baholashlari, undagi geoeologik muammolarni hal etishdagi ishlarida metodologik ahamiyatini saqlab qolmoqda.

#### Adabiyotlar

1. Зокиров Ш.С. Тошов Х.Р. Ландшафтшunoslik. Ўқув қўлланма. Тошкент. “Турон замин зиё” нашриёти. 2016. 200 б.
2. Назаров И.К. Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования. (На материалах нижней части р. Зарафшан). Ташкент, «Фан», 1992. -101 с.
3. Назаров И.К. Бассейновая концепция: сущность и пути решения региональных геоэкологических проблем (на материалах бассейна р. Зарафшан) // Истиқлол ва география. Ўзбекистон Республикаси География жамияти IV съезди материаллари 1-қисм. Тошкент, 1995. –Б. 27-32.
4. Назаров И.К. Дарё хавзаси: геоэкологик қонуният ва оқибат. Ўзбекистонда география, экология ва туризм муаммолари. Самарқанд, 1996. –Б. 76-78.
5. Нуров У. Динамика и природные ресурсы дельты р. Зарафшан. Автореф. на соиск. уч. степени канд. геогр. наук. Ашхабад, 1990.-25 с.
6. Рахматов Ю.Б. Природные условия и ландшафтное районирование Каракульской дельты р. Зарафшана и ее сельскохозяйственное освоение. Ташкент, «Фан». 1984.-102 с.
7. Ташов Х., Эргашева М. Миграция вещества на ландшафтах и их изучение. Познание и деятельность: от прошлого к настоящему. Материалы II Всероссийской междисциплинарной научной конференции. -Омск. 2021. -С 321-324.
8. Эргашева М., Нематов А. Ландшафтшunoslik фанининг ривожланиши. О‘зМУ хабарлари. Тошкент. 2023. 3/1. –Б. 351-353.

## **ВЛИЯНИЕ ОПТИМАЛЬНОГО РЕЖИМА ПИТАНИЯ ДЛЯ ПРАВИЛЬНОГО ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА.**

**Бобомуродова Наргиза Жураевна**

Старший преподаватель кафедры экологии и географии, Бухарский государственный университет, Узбекистан

**Аннотация:** рациональное питание является одной из важнейших составляющих здорового образа жизни, поскольку оно обеспечивает оптимальную работоспособность, стойкость к воздействию неблагоприятных факторов и нормальное протекание процессов роста и развития. Изучение фактического питания позволяет не только

*оценить его как фактор сбережения здоровья, но и установить наличие факторов риска, связанных с недостатками рациона, вредных пищевых привычек, повышающих вероятность нарушений в деятельности органов и систем. Исходя из вышесказанного в данной статье рассмотрено влияние соблюдения оптимального режима питания как важного фактора правильного физического развития детей.*

**Ключевые слова:** климат, сфера, социальность, дети, режим, питание, калория, физическое развитие, рост, фактор, процесс, воспитание, результат.

INFLUENCE OF OPTIMUM NUTRITION FOR CORRECT PHYSICAL DEVELOPMENT OF CHILDREN UNDER CLIMATE CHANGE.

Bobomurodova Nargiza Juraevna

Senior Lecturer, Department of Ecology and Geography, Bukhara State University, Uzbekistan

Abstract: rational nutrition is one of the most important components of a healthy lifestyle, since it ensures optimal performance, resistance to adverse factors and the normal course of growth and development processes. The study of actual nutrition allows not only to evaluate it as a factor in preserving health, but also to establish the presence of risk factors associated with dietary deficiencies and bad eating habits that increase the likelihood of disturbances in the functioning of organs and systems. Based on the foregoing, this article examines the influence of maintaining an optimal diet as an important factor in the proper physical development of children.

Key words: climate, sphere, sociality, children, regime, nutrition, calorie, physical development, growth, factor, process, education, result.

Актуальность: питание представляет собой один из ключевых факторов, определяющих не только умственное и физическое развитие, работоспособность, но и состояние здоровья, а также продолжительность и качество жизни человека. Сбалансированное питание - одна из главных составляющих здоровья в любом возрасте, имеет особое значение у детей. Структура питания на 70% определяет уровень здоровья и физического развития детей и подростков (данные ВОЗ). При этом, чем младше ребенок, тем более значимо влияние питания на его настоящее и последующее развитие и здоровье. Первые три года являются критическим периодом, когда питание и другие внешние факторы определяют пути реализации генетической программы, программируют будущее здоровье ребенка. [5]

Огромное значение в воспитании ребенка имеет строгое соблюдение режима. Необходимо выработать согласованные требования к детям со стороны родителей и других членов семьи по соблюдению режима. Нередко эти требования не совпадают. Усилия матери очень часто сводятся к нулю, если то, что не разрешает мать, разрешает бабушка.

Питание является важнейшим фактором для надлежащего развития детей и подростков. Соответствующее питание меняется в зависимости от возраста. Питание является важным элементом профилактики развития заболеваний, особенно хронических. Многие дети и подростки живут в условиях, которые не способствуют оптимальному питанию. [4]

Цель исследования: У ребенка нужно выработать привычку в одно и то же время ложиться спать, вставать, есть, готовиться к занятиям в школе, играть, заниматься физическими упражнениями. Это способствует образованию условных рефлексов, выработке спокойного и уравновешенного характера. Когда режим становится нормой для ребенка, то он не является тягостью ни для родителей, ни для их детей. Поэтому режим имеет воспитательное значение только в том случае, если он постоянно соблюдается. Целью данного исследования является выбор оптимального режима питания в физическом развитии детей.

Методы исследование: Для изучения состояния оптимального питания, создана достаточно полноценная методологическая база, позволяющая проводить исследования при любых условиях жизнедеятельности той или иной группы населения, а также состояния семейного и индивидуального питания. Главное при планировании исследования – это выбор адекватного для данной наблюдаемой группы населения метода изучения фактического питания, методическая база которого представлена набором методов:

- 1) балансовый метод;
- 2) бюджетный метод;
- 3) социологический метод;
- 4) опросно-весовой метод;
- 5) весовой метод (метод взвешивания потребляемой пищи);
- 6) изучение состояния фактического питания по меню-раскладкам;
- 7) изучение состояния фактического питания по приходу и расходу пищевых продуктов;
- 8) изучение фактического питания с помощью дневника питания;
- 9) метод пищевого анамнеза (история питания);
- 10) метод анализа частоты потребления пищи;
- 11) метод 24-часового воспроизведения питания;
- 12) лабораторный метод. [3]

Результаты исследование и обсуждение Соблюдение оптимального режима питания является важным фактором правильного физического развития детей. Нередко несерьезное отношение к питанию детей является причиной появления у них избыточного веса. Неправы те родители, которые постоянно жалуются, что их дети мало едят. Важно, чтобы дети правильно питались.

Характер питания детей несколько отличается от питания взрослых, что объясняется с одной стороны тем, что растущий организм нуждается в большом количестве энергии, с другой стороны особенностями желудочно-кишечного тракта детей, так как переваривающая сила пищеварительных соков у детей уступает взрослым, вследствие чего их организм легче поддается действию бактерий, попадающих в организм с пищей, и других вредных веществ.

У детей поэтому чаще наблюдаются расстройства желудочно-кишечного тракта. В суточном режиме детей должно быть приблизительно, г:

	7-10 лет	11-14 лет	15-17 лет
белков	80	93	106
жиров	80	95	100
углеводов	50-60	60-70	75-70

Рациональность питания определяется не только количеством и составом пищи, но и ее калорийностью и нормальным физическим развитием, соответствующим возрасту школьника.

Вот примерные нормы калорий для школьников: 7-10 лет-2400 калорий

11-13 лет —2800

14-17 лет— 3200

Больше всех калорий (50% суточного объема) потребляется во время обеда, 30% суточного объема во время двух завтраков и 20% —во время ужина. Очень важно четко распределить время питания в течение суток:

	Для занимающихся в 1-ю смену	Для занимающихся в 2-ю смену
1-ый завтрак	7.30	7.30
2-ый завтрак	11.00	13.00
Обед	15.00	16.30

Полдник	-	16.30
Ужин	19.40	20.00

Сколько же примерно калорий принимает в разное время суток школьник при использовании традиционных блюд:

	Б л ю д о	К а л о р и й н о с т ь
З а в т р а к	Каша с маслом или молоком	350-400 калорий
О б е д	Супы (около 500 г) мясные блюда и гарнир компоты	200-300 500-600 100-150
У ж и н	мясные блюда с гарниром или овощные	4 0 0 - 5 0 0

Во время завтрака, обеда или ужина, помимо указанных блюд, употребляются хлеб, фрукты, овощи, яйца, рыба, творог, печенье, булка, конфеты и др., за счет чего можно полностью реализовать суточную норму калорий.

Жиры, углеводы и белки должны употребляться в рациональных сочетаниях. Преимущественное и частое употребление либо белков, либо жиров или углеводов не целесообразно. Некоторые родители, желая иметь прибавку в весе детей, кормят их преимущественно мучными изделиями (хлеб, булка, печенье, каши), жареной картошкой, т. е. продуктами, в которых преобладают углеводы. Такое питание ведет к неправильному физическому развитию детей, прежде всего к появлению избыточного веса за счет появления жиров в области живота, под лопаткой и др. частях тела. Дети с избыточным весом тела становятся менее подвижными, менее выносливыми, ловкими, по сравнению с их сверстниками, что отрицательно сказывается на их работоспособности.

Нельзя злоупотреблять и жирами, так как избыток жиров препятствует выработке желудочного сока, усвоению белков, задерживает переваривание пищи в желудке до 6 часов (нормальное опорожнение происходит за 3-4 часа).

Поэтому родителям необходимо знать, в каких продуктах и в каких количествах содержатся белки, жиры, углеводы и витамины.

Белки содержатся в мясе, рыбе, твороге, яйцах, молоке, мучных изделиях, картофеле, макаронах, бобовых изделиях - фасоле, горохе.

Белки являются основным строительным материалом растущего организма, поэтому они непременно должны присутствовать в рационе питания детей.

Причем, целесообразно правильно сочетать в рационе питания детей белки животного (мясо, рыба, молочные продукты и др.) и растительного происхождения (картофель, ржаной хлеб, пшеничные изделия, макароны, горох и др.).

Полезно кормить детей гречневой кашей с молоком, способствующих рациональному усвоению при этом составных частей белка (аминокислот), содержащихся в каше, и аминокислот молока, которых не хватает в каше. Полноценные животные жиры, крайне необходимые для организма детей, содержатся в сливочном масле, рыбьем жире, яичном желтке. Эти жиры должны присутствовать обязательно в суточном рационе детей. Нельзя не включать в суточный рацион и растительные жиры (не более 20—25%), маргарин и др.

Считается, что жиры являются также строительным материалом для нервной ткани мозга. Отсутствие жиров снижает сопротивляемость организма к воздействию внешних и внутренних факторов, ослабляет защитные силы организма. Происходят нарушения нормального развития организма детей, обмена веществ.

У г л е в о д ы содержатся в сахаре, сложные углеводы (полисахариды) - в хлебе, муке, картофеле, каше, овощах, фруктах. Пищу нужно подбирать так, чтобы половина углеводов в суточном рационе пищи содержалась в сахаре, а половина в картофеле, мучных изделиях, фруктах или овощах. Нельзя употреблять углеводов больше нормы, т.

к. это очень быстро может привести к ожирению. Углеводы являются основным поставщиком энергии организма. При занятиях физическими упражнениями расход энергии увеличивается, поэтому в рационе юных спортсменов объем углеводов должен повышаться.

В суточном режиме питания объем жиров и белков примерно одинаков, а углеводов больше, чем жиров и белков, примерно в 4 раза. Очень важно, чтобы в пище содержались витамины (в переводе с латыни «вита» означает жизнь), т. к. без них невозможна нормальная жизнедеятельность организма. В настоящее время выделяют более 20 витаминов, наибольшее значение из них имеют витамины А, В и С.

В каких продуктах содержатся витамины?

Витамин А - жир печени рыб (палтус, треска, тунец, камбала, морской окунь и др.); яйца, сыр, молоко, морковь, овощи и др.

Витамин В1 и В2 - в мучных продуктах, желтках яиц, дрожжах, мясе, молоке.

Витамин С - в зелени (кочанная капуста, зеленый лук, щавель, салат, крапива и др.), ягодах и фруктах (шиповник, черная смородина, земляника, апельсины, мандарины, северные сорта яблок), овощах (картофель, репа, брюква, помидоры, редька, редиска).

Витамин РР-печень, дрожжи, тощее мясо, земляные орехи.

Суточная потребность в витаминах удовлетворяется в том случае, когда в день употребляется до 200 г фруктов и 300 г овощей. «Витаминный голод» особенно ощущается зимой и весной. Целесообразно в этот период применять витаминные препараты, которые можно приобрести в любой аптеке.

Дети нуждаются также в минеральных веществах (кальций, фосфор, железо, натрий, йод, хлор, фтор, кобальт и др.), которые содержатся в достаточном количестве в овощах, молоке, фруктах, кашах. Что же касается соли, то она добавляется к пище из расчета 0,05 г на 1 кг массы тела ребенка.

Заключение Питание детей является основным фундаментом развития ребенка, его настроения и самочувствия в целом. Современным родителям необходимо помнить, что одним из факторов состояния здоровья и правильное развитие, устойчивость организма к условиям внешней среды, развитие интеллекта, центральной нервной системы, является питание. Таким образом, основными принципами здорового питания подростков является полноценность и сбалансированность пищевого рациона, максимальное его разнообразие, соблюдение правильного режима, достаточное, адекватное потребностям растущего организма поступление пищевых веществ и энергии, необходимых для нормального развития и сохранения здоровья.

### Литература

1. А.К.Атаев, Б.В.Сермеев. Родителям о физическом воспитании детей в семье. –Т.: «Укитувчи». 1983
2. Абдуллаев К. Ф. Воспитание двигательных качеств подростков в семье Вестник науки и образования. – 2020. – №. 9-2 (87). – С. 58-60.
3. Петров В.А. Методология изучения питания различных групп населения: учебное пособие – Владивосток: Медицина ДВ, 2015. – 287 с.
4. Corkins MR, Daniels SR, de Ferranti SD, Golden NH, Kim JH, Magge SN, Schwarzenberg SJ. Nutrition in Children and Adolescents. Med Clin North Am. 2016 Nov;100(6):1217-1235. doi: 10.1016/j.mcna.2016.06.005. PMID: 27745591
5. <https://beloyarskaya-crb.ru/info/articles/24112017.pdf>
6. Абдуллаев К. Ф., Бобомуродова Н. Ж. К проблеме взаимодействия общества и природы //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века. – 2019. – С. 255-256.
7. Бобомуродова Н. Ж. Оптимальный режим питания-важный фактор правильного физического развития детей //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 9-2 (87). – С. 61-63.

# ТАБИЙ ГЕОГРАФИЯ ФАНИ БУЙИЧА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КОМПИТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.

Шодиева Гўзал Рахматуллаевна  
Самарқанд Давлат Университети докторанти

**Кириш.** Кейинги йилларда Юртимизда йилдан-йилга илм-фан ривожига катта аҳамият берилмоқда. Жумладан табиий география фанига бўлган эътибор ҳам кучайиб бормоқда ва шу асосда фанимиз янада ривожланиб, профессор ўқитувчиларимиз сафи кенгайиб бораётганлигини кўришимиз мумкин. Республикамизда таълим тизимини такомиллаштириш орқали ҳар томонлама етук, баркамол, мустақил фикрлашга қодир, ўз фикрини беъмалол жамоатга тақдим эта оладиган, фидоий ва ўз ишига виждонан қарайдиган кадрларни тайёрлашга катта эътибор қаратилаяпти. Бугунги кунда таълим тизими ходимлари учун энг муҳим вазифалардан бири бу таълим самарадорлигини ошириш ва унинг сифатли бўлишини таъминлашдир. Янгиланаётган таълим тизимимизда турли камчиликлар бўлмаслиги учун ҳар бир педагог ходим ўз фанига ва баркамол авлодга таълим беришда виждонан ёндашиши талаб қилинади. Шу билан биргаликда ҳар бир фан доирасида мутахассисларини тайёрлаш ҳам муҳим вазифа қилиб қўйилган. Табиий география фанини ривожлантириш, таълим сифатини кучайтиришда аввало талабаларга фаннинг қай даражада муҳимлигини тушунтириш лозим. Ҳозирги кунда талабаларда барча фанлар бўйича ўз компетенцияларига эга бўлиши ва ундан фойдалана олиши муҳим аҳамият касб этмоқда. Шуни ҳисобга олган ҳолда талабаларни фанга бўлган компитентлигини ривожлантириш ва тўғри таълим бериш масалалари кенг ўрганилмоқда.

**Асосий матн.** Шу билан бирга фаннинг асосий вазифаси табиат ва ундаги ҳодисалар, атрофимиздаги оламга нисбатан ижобий туйғуларни шакллантириш, табиатни кадрлаш, муҳофаза қилиш, ўлка табиатига муҳаббат ҳиссини уйғотиш, назарий олган билимларини амалда қўллаш маҳоратини, Ер ҳақидаги илмий дунёқарашларини шакллантириш, табиий, ижтимоий-иқтисодий билимларни таркиб топтириш, дунё давлатлари ва турли регионлардаги жамият ва табиатни ўзаро боғлиқлиги, географик объект, жараён ва ҳодисалар ҳақидаги билим ва тушунчалар билан курулантириш, географик маданиятни тарбиялаш, Ер юзининг табиий манзараси, табиатдан оқилона фойдаланиш, ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, аҳоли турмуш даражасини кўтариш, атроф-муҳит ҳолатини яхшилаш воситалари ва усуллари ҳақида мантиқий фикрлашга ўргатишдан иборат. [2]

Президентимиз И.А.Каримов таъкидлаганидек “ Таълимнинг янги модели жамиятда мустақил фикрловчи эркин шахснинг шаклланишига олиб келади.Ўзининг кадр-қимматини англайдиган , иродаси бақувват , иймони бутун , ҳаётда аниқ мақсадга эга бўлган инсонларни тарбиялаш имконига эга бўлаемиз”. [1] Талабаларга таълим беришда асосан, география фанини ўрганишдан мақсад унинг моҳияти, вазифаси, фаннинг долзарблиги, қандай воситалар ёрдамида ўқитилиши, қайси методлардан фойдаланиш қулайлиги ҳисобга олиниши керак ва шулар ёрдамида босқичма босқич таълим тизимига қўллаб бориш керак бўлади. Педагог ходим дарс жараёнини қанчалик қизиқарли ва мазмунли ташкил қилса, талабаларнинг фанга бўлган қизиқишлари шунчалик юқори бўлади. Энг аввало уларда ривожланиши керак бўлган ҳислат бу уларнинг эркин мулоқотидир. Эркин мулоқот қилиш ҳар томонлама имкон яратиш, олдинга қараб силжиш, ўз келажagini мустаҳкамлаш асосидир. Олган барча билимларини амалда қўллаш маҳорати талабадаги компитентларининг шаклланиши ва ривожланишига олиб келади. Шу сабабли талабаларнинг мустақил билим олишларида ва ўзлаштириш даражаларини аниқлашда компьютердан ўқитишнинг техник воситаси сифатида фойдаланишигина эмас, балки унинг барча имкониятларидан фойдаланган ҳолда электрон ўқув методик таъминот (ЭЎМТ)ларни ўқув жараёнига татбиқ этиш мақсадга мувофиқдир.

Замонавий педагогик ва ахборот- коммуникация технологияларини ўқув жараёнига фаоллик билан татбиқ этиш таълим самарадорлигини ошишига сабаб бўлади.[5] Талабалардаги назарий ва амалий билимларини шакллантириш учун интернет тармоғи ҳам муҳим ҳисобланади. Бу орқали улар ўзларига керак бўлган маълумотлар базаси билан танишади, ўзи хоҳлаган мавзу бўйича ўқий олиш имконига эга бўлади, шу билан бир қаторда ўзларининг билим савиясини бойитиб боради. Натижада талабада ўзига ишонч ҳисси ортади ва ўзидаги кўрқувни енгиб, эркинликка интилади ва ўзидаги компетенцияларини ривожлантириб боради. Табиий география фани бўйича талабаларда таълим самарадорлигини таъминлаш, талабаларни ахборот технология воситаларидан фойдаланган ҳолда ўз билимларини кучайтириши, ўзларидаги эркинлик қобилиятларини ривожлантириш ва улардан керакли вақтда фойдалана олиш йўллари билиши, ўз билимига ишонган ҳолда етук кадр бўлишга ҳаракат қилишлари лозим. География таълими методикасининг ривожланиши янги ўқитиш методикаларини ишлаб чиқиш, мажмуаларини такомиллаштириш, илғор методларни қўллаш билан боғлиқ. Мазкур муаммоларни ҳал қилиш кўп жиҳатдан педагогик тадқиқотларда қўлланиладиган методларга боғлиқ. [3] Ўқув жараёнининг ташкил этишни такомиллаштириш – қимматли вақтдан унумли фойдаланишдир. Хуллас , география таълими савиясининг юқори бўлиши кўп жиҳатдан ўқитувчига, унинг таълим-тарбиядаги маҳоратига боғлиқ. [4]

**Хулоса.** Хулоса қилиб айтадиган бўлсак нафақат география фани балки, таълим тизимидаги барча фанлар ривожланиши ва уларни талабалар онгига сингдиришни мақсад қилиб қўйган ҳар бир педагог ҳодим албатта ўз устида ишлаши ва фан моҳиятини талабаларга сингдирмоғи лозим. Талабаларда таълим самарадорлигини таъминлаш ва улардаги компетенцияларини ривожлантириш педагог ҳодимнинг асосий вазифаси ҳисобланади. Шундагина биз талабадаги компетентликнинг ривожланиши ва ўқитишни такомиллаштиришимиз мумкин. Талабалар компетенцияси муҳим омил, шундай экан уларнинг олган билимларини эркин ва мустақил ёритиб беришлари учун, уларга имкон даражасида ўқитувчи билан кўпроқ мулоқот қилиш, дарс жараёнида эркин бўлиши, ўз билимларини беъмалол баён қилишлари учун имкониятлар яратиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. И.А.Каримов, Баркамол авлод орзуси. “Шарк” Нашриёт- матбаа концерни. Бош таҳририяти. Тошкент – 1999 й. [180 б.]
2. А.Қ.Самъяев, Б.Б.Эшқувватов. География дарсларида фанга оид компетенцияларни шакллантириш. (Умумтаълим мактабларининг география фани ўқитувчилари учун услубий кўрсатма). Самарқанд-2018й. [3 б.]
3. Ҳ.Ваҳобов. География таълими методикаси. Тошкент-2007й. [8 б.]
4. О.Мўминов. География таълими методикаси. Педагогика институтлари талабалари учун қўлланма.Тошкент ”Ўқитувчи” 1986 й. [10 б.]
5. Х.Б.Никадамбаева.Талабаларнинг мустақил билим олишларида электрон ўқув-методик таъминотдан фойдаланишнинг самарадорлиги. “География ва география таълимидаги муаммолари”. Республика микёсидаги илмий - амалий конференцияси материаллари. Тошкент - 2018 йил. [439 б.]

## TABIY GEOGRAFIK FANLAR SISTEMASI – TASNIFLASH MUAMMOLARI

**X.R.Toshov, K.Sh.Nasullayeva**

Buxoro davlat universiteti, Ekologiya va geografiya kafedrası

Tabiiy geografiya fani Yerning geografik qobig'i, uning tarkibi, strukturaviy tuzilishi, shakllanishi, rivojlanishi va hududiy tabaqalanishini o'rganadi. Geografik qobiqning tub ma'nosini akademik A.A.Grigoryev (1960) ta'riflagan edi. Olim geografik qobiqni "Yer



sharining kompleks qobig'i, ya'ni atmosferaning quyi qismi (troposfera va stratosferaning bir qismi), gidrosfera, o'simlik va tuproq qoplami, hayvonot olamidani iborat tabiiy hosila"si deb hisoblagan.

Yerning geografik qobig'i eng muhim sifatli xususiyatlarga ega. Ularni o'rganish shu fanning tasnifini aniqlashda ahamiyatli hisoblanadi Albatta, geografiya, jumladan tabiiy geografik fanlarni tasniflash XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, sifat bosqichiga ko'tarildi. Mazkur masala ko'plab olimlarning e'tiboriga tushdi (1-jadval).

1-jadval

**Tabiiy geografiya fanini tasniflagan olimlar  
(XX asrning ikkinchi yarmidan so'ng)**

<b>№</b>	<b>Fanni tasniflagan olimlar</b>	<b>Yillar</b>
1.	A.A.Grigoryev	1951, 1966
2.	S.V.Kalesnik	1959, 1972
3.	I.M.Zabelin	1957
4.	F.N.Milkov	1959, 1960, 1981, 1990
5.	K.K.Markov	1960
6.	YU.G.Saushkin	1976
7.	I.P.Gerasimov	1954
8.	V.B.Sochava	1963
9.	P.S.Kuznetsov	1970
10.	V.S.Preobrajenskiy	1972
11.	N.A.Gvozdetskiy	1979
12.	A.G.Isachenko	1979, 2004
13.	I.S.Shukin	1980
14.	G.I.Yurenkov	1982
15.	E.B.Alayev	1983
16.	U.I.Mereste	1984
17.	K.I.Gerenchuk, V.A.Bokov, I.G.Chervanyev	1984
18.	N.K.Mukitanov	1985
19.	Sh.S.Zokirov	1999
20.	H.Vahobov va b.	2005
21.	Sh.S.Zokirov, X.R.Toshov	2013, 2016
22.	I.Q.Nazarov	2013
23.	A.A.Nig'matov	2018
24.	X.R.Toshov	2021, 2022
25.	O'.Q.Abdunazarov va b.	2018
26.	P.Baratov, N.B.Sultonova	2019
27.	X.R.Toshov	2021, 2022

Tabiiy geografik fanlar sistemasi nomli monografiyada X.R.Toshov (2022) bunga alohida e'tibor qaratgan.

Tabiiy geografiyaning tadqiqot obyekti – geografik qobiqning xususiyatlarini hisobga olgan A.A.Grigoryev (1951) tabiiy geografiya fanlari sistemasida umumiy yer bilimi (ya'ni umumiy tabiiy geografiya), regional tabiiy geografiya va paleogeografiya bilan bir qatorda bir necha xususiy tabiiy geografik fanlar: geomorfologiya, gidrologiya, iqlimshunoslik, botanik geografiya, zoogeografiya, tuproqlar geografiyasi va xaritagrafiya kabilarni tilga olgan edi. Keyinchalik ko'plab olimlar bir qator tasnif sxemalarini e'lon qilishdi, yangiliklar ham kiritishdi. Jumladan, taniqli geograf akad. S.V.Kalesnik (1959, 1972) tabiiy geografik fanlar qatoriga okeanografiya bilan tarixiy geografiyani qo'shib qo'ygan hamda regional tabiiy geografiyani

landshaftshunoslik deb atagan. Ushbu tasnif sxemalarining kamchiliklaridan biri, fikrimizcha sintetik fan hisobidagi tabiiy geografiya analitik fanlar qatoriga qo‘shib qo‘yilgan.

Taniqli geograf Yu.G.Saushkin tuzgan tasnifda tabiiy geografik fanlar to‘rt guruhga bo‘lib, ya‘ni bir komponentli, ko‘p komponentli, sintetik, amaliy guruhlarga bo‘lib ko‘rsatilgan.

Faqat tabiiy geografiyani o‘zini tasniflagan olimlardan biri I.M.Zabelindir (1957). Bu olim tabiiy geografiya tarkibida geografik qobiqni bir butun hosila sifatida o‘rganadigan umumiy tabiiy geografiya (umumiy yer bilimi) bilan alohida yirik rayonlarni o‘rganadigan xususiy tabiiy geografiyani ajratadi. Shular qatorida geografik qobiqning alohida strukturaviy qismlari - tabiiy geografik komplekslar va komponentlarni o‘rganadigan xususiy tabiiy geografiyani ham farqlagan.

Tabiiy geografiyaning tarkibida uning umumiy qismi yoki yer bilimi, regional tabiiy geografiya va geomorfologiya, iqlimshunoslik, gidrologiya kabi bir qator alohida elementlarni o‘rganadigan fanlarni mavjudligi I.P.Gerasimovning (1954) maqolasida ham tilga olingan.

Tabiiy geografiyaning tarkibiy tuzilishini aks ettiruvchi tasnif sxemasi K.K.Markovning “Paleogeografiya” nomli o‘quv qo‘llanmasida keltirilgan.

Taniqli rus geograflaridan V.B.Sochava ham bir vaqtlar (1963) tabiiy geografiya uch qismdan, ya‘ni: umumiy tabiiy geografiya, regional tabiiy geografiya va “molekulyar geografiya” (ya‘ni tabiiy geografik fatsiyalar haqidagi ta‘limot) dan iborat degan. Bu olim landshaftshunoslikni umumiy tabiiy geografiyaning bir qismi deb hisoblagan.

Tabiiy geograflardan biri P.S.Kuznetsov (1970) tabiiy geografiyaning tarkibiy qismlari to‘g‘risida so‘z yuritib, tabiiy geografiyani avvalo ikki qismga, ya‘ni tor ma‘nodagi tabiiy geografiya va keng ma‘nodagi tabiiy geografiyaga bo‘lib olish kerak deb hisoblagan. Tor ma‘nodagi tabiiy geografiyaga shaxsan tabiiy geografiyani o‘zi kiradi va o‘z navbatida landshaftlar morfologiyasi, landshaftlar fizikasi, landshaftlar ximiyasi, landshaftlar biotikasi kabilarga bo‘linadi. U tabiiy geografiyaning o‘zi deganda fanning obyektini deb landshaftni tushungan.

V.S.Preobrajenskiy (1972) barcha tabiiy geografik fanlar dastlabki pog‘onada ikki qismga, ya‘ni tabiiy geografik komplekslar haqidagi fanlarga hamda komponentlar haqidagi fanlarga bo‘linadi, deb hisoblagan. Keyingi, ikkinchi pog‘onada esa komplekslar haqidagi fanlar tarkibida yer bilimi va landshaftshunoslik ko‘rsatilgan. Komponentlar haqidagi fanlar tarkibida esa tuproqshunoslik, biogeografiya, iqlimshunoslik, gidrologiya va geomorfologiya fanlari aks ettirilgan.

Geograf E.B.Alayev (1983) geografik fanlarning iyerarxiya darajasini ko‘rsatgan bo‘lsa, fanlarni iyerarxik pog‘onalar hosil qilib joylashishini U.I.Mereste (1984) keltirgan.

Taniqli geograf olimlardan N.A.Gvozdetskiy (1979) tabiiy geografiyaning tarkibiy tuzilishi haqida so‘z yuritib, bu fan dastlab ikki qismga, ya‘ni umumiy tabiiy geografiya va regional tabiiy geografiyaga bo‘linadi deb hisoblagan. Uningcha, umumiy tabiiy geografiya geografik muhitni (geografik qobiq o‘rnida) o‘rganishning umumiy masalari bilan shug‘ullanadi.

1959, 1960 yillarda tabiiy geograf F.N.Milkov (1918-1996) ham tabiiy geografiyaning tarkibiy qismlari haqida fikr bildirib, tabiiy geografiyani yerning geografik qobig‘i va landshaftlari, ularning strukturasi va rivojlanishi haqidagi fan deb ta‘riflagandi. Uning fikricha tabiiy geografiya (ya‘ni, umumiy tabiiy geografiya, umumiy yer bilimi) faqat umumiy qonuniyatlarni, geografik qobiqning (bir butun murakkab tabiiy kompleks sifatida) asosiy sifatlarini o‘rganadi.

Shuningdek, tabiiy geografiyaning fanlar tasnifidagi o‘rni va ichki tuzilishi haqida mamlakatimizda nashr etilgan qator geografik adabiyotlarda ham (masalan, Sh.S.Zokirov, 1999; H.Vahobov va b. 2005; Sh.S.Zokirov, X.R.Toshov, 2013, 2016; I.Q.Nazarov, 2013; A.A.Nig‘matov, 2018; O‘.Q.Abdunazarov va b. 2018; P.Baratov, N.B.Sultonova, 2019; X.R.Toshov, 2021, 2022) fikrlar bildirilgan.

Yuqorida ta‘riflab o‘tilgan geografik fanlarning tasniflarini X.R.Toshov (2022) monografiyasidagi quyidagi umumiy xulosalarini keltirishni lozim topdik.

1. Qadimgi va o'rta asrlarda yer yuzasi tabiati, aholisi va xo'jaligini birgalikda ta'riflagan bir butun geografiya differentsiatsiya natijasida keng tarmoqlanib, yangi-yangi fan sohalari paydo bo'ldi. Buning oqibatida bir butun geografiya fanlar sistemasiga aylandi.

2. Geografik fanlar sistemasida ikkita asosiy kichik sistema, ya'ni tabiiy geografik fanlar kichik sistemasi, iqtisodiy geografik fanlar kichik sistemasi shakllandi. Ayrim geograflar uchinchi kichik sistema, ya'ni tabiiy-sotsial fanlar kichik sistemasini ajratadilar.

3. Tabiiy geografik fanlar kichik sistemasining tarkibiy tuzilishida kompleks tabiiy geografiya fanlari shakllanganligini deyarli barcha tabiiy geograflar e'tirof etadilar.

4. Tabiiy geografik fanlar kichik sistemasining ichki tuzilishi haqidagi fikrlarning turlichaligi tabiiy geografiyadagi ayrim termin va tushunchalarning turlicha talqin qilinishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Masalan, umumiy tabiiy geografiya bilan umumiy yer bilimini ikki xil talqin qilinishi yoki landshaftshunoslik fanini regional tabiiy geografiya deb talqin qilinishi kabi. Shuningdek, A.A.Grigoryev, S.V.Kalesniklar kabi bir qator geograflarning asarlarida yerning geografik qobig'ini landshaft qobig'i deb, tabiiy geografik komplekslarni, katta-kichikligidan qat'iy nazar landshaft birliklari deb talqin qilinishi ham tasnif sxemalaridagi farqlarga sabab bo'lgan.

5. Ayrim tasnif sxemalarida oraliq fanlarning o'rni va ularning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi ham birdek ta'riflanmagan, ularni o'rganilganlik darajasi ham har xil. Masalan, hamma geograflar birdek e'tirof etgan xususiy tabiiy geografik fanlarning barchasi bir vaqtning o'zida oraliq fan hisoblanishi mumkin. Shuningdek, ayrim oraliq fanlar bir vaqtning o'zida qo'shni fanlar sistemasiga kirishi ham mumkin.

6. Umuman olganda, geografik fanlarni tasniflash masalasi murakkab, ammo dolzarb va metodologik ahamiyatga ega nazariy masalalardan hisoblanadi. Ushbu masalaning murakkabligi tadqiqot obyektining serqirra va nihoyatda murakkabligi bilan bog'liq. Obyektning turli komponentlardan va turli katta-kichiklikdagi tabiiy geografik komplekslardan tuzilganligi hamda komponentlararo va komplekslararo turli-tuman aloqadorlik va o'zaro ta'sirlarning obyektiv mavjudligi tabiiy geografik fanlar tasnifini ham tuzishni murakkablashtiradi.

#### **Adabiyotlar**

1. Baratov P., Sultanova N.B. Umumiy yer bilimi. T., 2019.
2. Vahobov H. va boshq. Umumiy yer bilimi. T., 2005.
3. Abdunazarov O'.Q., va boshq. Umumiy tabiiy geografiya. – Toshkent: "Barkamol fayz media", 2018. – 326 b.
4. Зокиров Ш.С. Кичик хуудлар табиий географияси. Т., 1999.
5. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. T., 2016.
6. Назаров И.Қ. География фанининг асосий муаммолари. Т., 2013.
7. Нигматов А.Н. Табиий география ва геоэкология назарияси. Т., 2018.
8. Тошов Х.Р. Табиий география: тарихи ва баъзи назарий масалалари. Бухоро. 2021.
9. Тошов Х.Р. Табиий географик фанлар системаси. Монография. Дурдона. Тошкент. 2022. 136 б.

### **OLIV TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

**Xasanova Feruza Xurramovna**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi  
2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyaning ahamiyati to'g'risida fikrlar bayon etilgan. Dars jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol metodlar, ularning asosiy maqsad

va vazifalari, samaradorligi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ushbu metodlarning afzallik va kamchiliklari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy pedagogik texnologiyasi tushunchasi, –Aqliy hujum/metodi, —Tarmoqlar/metodi, 3×4/metodi, Blits-o'yin/metodi, Intervyul texnikasi Bumerang/metodi, Skarabey/texnologiyasi, Vendiagrammasi, Tarmoqlar/metodi (Klaster), B/B/B jadvali.

O'zbekistonda mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng ta'lim sohasida bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi va uzluksiz ta'lim tizimi shakllan va mazmunan yangi rivojlanish bosqichlariga o'tdi, ya'ni o'qitish jarayoni takomillashish yo'liga o'tdi. Shuni ta'kidlash joizki, o'quv faoliyati har doim ham barkamol insonni voyaga yetkazishga, uning ma'naviy va moddiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. O'quv faoliyati o'z rivojlanishining hamma bosqichlarida ijtimoiy yo'naltirilgan maqsadga ega. Maqsadli amalga oshiriladigan jarayon hisoblangan o'quv faoliyati ko'p qirralidir. Uning asosini shaxsan o'qitish jarayoni, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchiga bilim, malaka va ko'nikmalar majmuasiga bevosita berish jarayoni tashkil etadi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar (PT)ga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. Bular orasida J.G.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov, N.S.Sayidahmedov, R.H.Jo'rayev, Q.Y.Yo'ldoshev kabi ta'lim-tarbiya jarayonlari fidoiylarining nomlari alohida hurmat va e'tiborga molikdir.

Pedagogik texnologiya — ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada. Zamonaviy pedagogik texnologiyani pedagogika fanining alohida tarmogi sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. Zamonaviy pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Avvalo, zamonaviy pedagogik texnologiya nimani anglatadi?

1. Zamonaviy pedagogik texnologiya o'quv-tarbiya jarayoni uchun loyihalanaadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma'lum bir pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim - tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. Maqsadi esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini, o'z navbatida, yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.
2. Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizual, audial vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq zamonaviy pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati — tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar,

pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatiga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar quyidagi natijalarga erishishi kerak:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qarortopirish;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart- sharoitlarni yaratish.

Inson imkoniyatlarining yana bir mo'jizaviy tomoni shundan iboratki, har bir kishi nodir va betakror bo'lishi bilan birga u ijtimoiylikka muxtoj qilib yaratilgan. Ya'ni har bir qobiliyatli kishi o'z aqliy – amaliy imkoniyatlaridan optimal foydalanganda ham intellektual imkoniyatlarini faqat – 4-5% ini ishga sola oladi. Shuning uchun kishilarning qiziqishi, qobiliyatlar yo'nalishi turlicha bo'lib, ular jamoalashganda aqliy imkoniyatlarning foydali ish koeffitsiyenti ko'payadi.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi. Interfaol metodlar: Keys-stadil (yoki O'quv keyslari), Blist-so'rovl, Modellashtirishl, Ijodiy ishl, Muammoli ta'liml va boshqalar.

Interfaol ta'lim strategiyalari. Aqliy hujuml, Bumerangl, Galereyal, Zig-zagl, Zinamazinal, Muzyorarl, Rotastiyal, Yumaloqlangan qorl va hokazo. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'p jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

—Aqliy hujuml metodi – o'quvchi egallashi kerak bo'lgan mavzuni oddiydan –murakkabga tomon bosqichma bosqich loyihalab beradi.

—Tarmoqlarl metodi – o'quvchini mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

—3×4l metodi – o'quvchi-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

—Blits-o'yinl metodi – harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

—Intervyul texnikasi – o'quvchi-talaba savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

—Bumerangl texnikasi – o'quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchini baholay olishga qaratilgan.

—O'quvchil treningi – o'quvchi-talabalar bilan individual holda ishlash o'quvchiva talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan.

—O'quvchishaxsil treningi – o'qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi

—O'quvchishaxsiga qo'yiladigan talablarl mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish

orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

—Muloqotl texnikasi – o‘qituvchilarni o‘quvchilar diqqatini o‘ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga, uni tashkil etishni o‘rgatishga qaratilgan.

—Boshqaruvl texnikasi – o‘qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o‘quvchitalabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o‘rgatishga qaratilgan.

**“Bumerang” texnologiyasi.** Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi yoki o‘quvchi ro‘lida bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashiga imkoniyat beradi. Bu texnologiya tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g‘oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**“Skarabey” texnologiyasi.** —Skarabeyl interfaol texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi.

**“Venn” diagrammasi.** 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarni solishtirish, taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol metodlar o‘quvchilarda ijobiy hamkorlikning har bir kishi uchun qanday katta manfaat kasb etishini amalda ko‘rsatadi. Shunday o‘quvchilar fikrlar xilma – xilligidan cho‘chimaydilar, balki undan o‘zaro manfaatdor bo‘ladilar va atrofda ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarga ongli munosabatda bo‘ladilar.

**“Tarmoqlar” metodi (Klaster).** Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi. Bu metod biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

**B/B/B jadvali.** B/B/B metodi – o‘quvchilar olgan bilimlarni hisobga olgan holda ularni kengaytirish va chuqurlashtirishda qo‘llaniladi. Mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu metod Blum toksonomiyasi deb yuritiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog‘liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi galda o‘quv-tarbiyaviy jarayonini ilmiy asosda qurishga yo‘naltirilgan, o‘qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1.Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quraylik. – T.:—O‘zbekistonl, 2017. - 488 b.

2.Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirishyo‘llari. T.2004

3.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi.: Nasaf. 2000.

4.Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). - T.: Moliya, 2003.

5.Ta‘limning faol usullari. Uslubiy tavsiyalar. TVPQTMOI. T.2004.

- 6.P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T., 1995 y.
- 7.N. Djamilova va O.U.Xasanboeva —Pedagogika fanlarini o‘qitish metodikasi T., 2009y
- 8.Muhidova, O. N. Methods and tools used in the teaching of technology to children // ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), (2020), 957-960.
- 9.O.H.Muxidova Компетентностный подход к развитию профессиональной деятельности учителя // Вестник науки и образования 97 (№ 19 (97).Часть 2), С 88- 91
10. O.H. Muxidova Электронное обучение в высшем образовании //Вестник магистратуры, 1-5 (100) 2020 С 43-44

## **OILADA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISH USULLARI**

**Ochilova N.R**

**Buxoro davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrası**

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivoji, avloddan-avlodga yetkazilishini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir.

Oila kishilarning nikoh, qon-qarindoshlik va umumiy maishiy turmushi asosida shakllanadigan o'ziga xos ijtimoiy uyushmadir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida [1]: "Oila jamiyatning asosiy bog'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasidir". deydi Oila jamiyatning ilk zamini, poydevoridir. Chunki oila yangi avlodni dunyoga keltiradi va davr talabiga mos holda tarbiyalaydi.

Har qanday faoliyat, eng avvalo, oiladan boshlanadi. Ota-onasining jamiyatga, farzandlarga, qarindosh-urug'larga, qo'ni-qo'shnilarga munosabati bolalar tomonidan andoza sifatida qabul qilinadi. O'tmishdan meros bo'lib kelayotgan tarbiya-shakl, usul va vositalarida oiladagi o'ziga xos urf-odat va an'analar, ota-onalarning tarbiya haqidagi g'oyalari, hayotiy tajribalari milliy xalq tajribasi hisoblanadi. Xalq ertaklari, maqol, qo'shiq, afsona, topishmoq, latifalar bolalarning ekologik ongini shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biri. Ekologik ta'limning yo'nalishi va maqsadi yosh avlodga chuqur ekologik ta'lim-tarbiya berish, asosiy tushunchalarni ular ongiga singdirish, bolalarda tabiatga, atrof-muhitga ma'suliyatli munosabatni shakllantirishdan iborat [2,3].

Ekologik o'yinlar, bolalarning tabiatini muhofaza qilish amaliyotida uch xil faoliyatdan (ta'lim, mehnat, o'yin) keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'yin faoliyati ta'lim unsurlariga ega bo'lib, tegishli ko'nikmalarni hosil qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bolaning atrof-muhitga nisbatan ma'suliyatli munosabat kabi shaxsiy fazilati tez-tez yuzaga chiqib turishi uchun u tabiat qo'ynida ko'proq bo'lishi, amaliy vazifalarni ma'suliyat bilan hal etish vaziyatiga ko'proq tushib turishi talab qilinadi.

Maqol va matallar bolalarga ekologik tushuncha berishning o'ziga xos vositasi bo'lib, mazmun-mohiyati, ixchamligi va ta'sirchanligi bilan tarbiyaviy jarayonda alohida e'tiborga molik.

Sayrga chiqish chog'ida ekologik vaziyatlarni yuzaga keltirish va bolalarni sodir bo'layotgan voqeaga hozirjavoblik bilan munosabat bildirishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Sayr paytida "timsolga kirish" muhofaza etuvchi bo'ladi. Bunday paytda bolalar o'zlari payqagan nojo'ya hatti-harakatning oldini olish tashabbusini ko'rsatishlari kerakligi sayrag qadar tayinlab qo'yiladi.

Ekologik mavzularda suhbatlar o'tkazish, har bir ota-ona, kattalar o'gil-qizlar bilan atrof-muhitga ma'suliyatli bo'lish, bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish haqida, buning natijasida oilaga ham iqtisodiy, ham ma'naviy foyda keltirish to'g'risida ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. Ahamiyatsizdek tuyulgan, aslida juda zaruriy bo'lgan ba'zi bir tamoyillar, urf-odatlar haqidagi



suhbatlar bola uchun juda ta'sirli bo'lishi, ular xotirasida umrbod saqlanib qolishi kerak. Tabiat haqidagi suhbat tuzilishi jihatidan qanchalik xilma-xil va hissiyotga boy bo'lsa, bola tafakkurini rivojlantirish va nutqini o'stirishda, ularga ekologik ta'lim va tarbiya berishda shunchalik foydali bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim, asosan, oila sharoitida kechadi. O'zbek oilalarida "harom-halol", "uvol", "gunoh-savob" kabi tushunchalar ko'proq ekologik vaziyatlar (masalan, nonning oyoq ostiga tushishi, suvning iflos qilinishi, jonivorlarga shafqatsiz munosabatda bo'lish, dov-daraxtlarni sindirish va boshqalar) yuzaga kelganda qo'llanadi. Masalan, "Hoy, o'g'lim, qushlarga tosh otma, gunoh bo'ladi, hayvonlarga tegib qiynama, ularning ham sen va bizga o'xshab joni bor. Hoy, qizim, mag'zavani suvga to'kma, gunoh bo'ladi..."

Kattalrning duolari-bu odam taqdiri uchun yaxshi niyat bildirish, o'nib-o'sishga rivoj tilash demakdir. Zero, "Oltin olma, duo ol, duo oltin emasmi?" deyishadi qariyalarimiz. "Umring uzoq bo'lsin", "Qo'ling dard ko'rmasin", "Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin" tilaklari mehnatga, intizomga, odamiylikka, tabiatni musaffo saqlashga chorlaydi. Bularning zaminida ekologik mazmun ham yotadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki bolaning tabiat bilan o'zaro aloqada amalga oshadigan har qanday ko'rinishdagi faoliyatida idrok va hissiyot, xotira va taffakur, diqqat, hayolot, iroda qatnashadi, uning atrof muhitga bo'lgan qiziqishi ortadi, bilishga ehtiyoji rivojlanadi, nutq o'sadi, ekologik muammolarga nisbatan ma'suliyatli munosabat oilada shakllanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.: "O'zbekiston", 2008.
2. "Sanitariya nazorati to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.-T.:2006 y., 41-son.
3. "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida" gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.-T., 2004 y., 25-son.

## **SHAXS XUSUSIYATLARI SHAKLLANISHIDA OILADAGI EKOLOGIK TARBIYANING O'RNI**

**Ochilova N.R.**

**Buxoro davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedresi**

Milliy o'zini-o'zi anglashga ta'sir etadigan ekologik madaniyat ijtimoiy ong tizimida o'ziga xos mavqega egadir. Ekologik tafakkur, ekologik madaniyat va milliy o'zini-o'zi anglash kabi xususiyatlar shakllantirilishi va rivojlantirilishi lozim bo'lgan o'zaro bog'liq jarayonlardir. Ekologik madaniyatning rivojlantirilishi bilan uzviy bog'liq muammolardan biri- biosfera, evolutsiya, insoniyat, sotsium, vaqt, ekologik iqtisod, xayotiy tizim va atrof-muhit o'rtasidagi ekologik muvozanat, turli sivilizatsiyalarning ekologik madaniyati xususidagi keng ko'laml, yaxlit, planetar miqyosdagi tafakkurni shakllantirishdir. Zotan, Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov [1] ta'kidlaganlaridek: "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolardan biridir. Uni hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan yana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir".

"Ekologik tafakkur", "ekologik ong" negizida inson tabiat kuchlarini tushunish va ular ustidan o'z hukmronligini o'tkazishdan oldin unga qadriyat sifatida qarash, uning bilan extiyotkorona munosabatda bo'lish zaruriyatini anglash imkonini beradigan yangi obrazlar va belgilar tizimini yaratadi. Hozirgi kunda barcha olimlar insoniyatga yangicha psixologiya va yangicha tafakkurga (insoniyatni tanazzuldan saqlab qolish imkoniyatini beradigan) o'tishni taklif etishmoqda [2].

Ilm-fan tufayli inson tabiatga bo'lgan munosabatini subyektning obyekt bilan bo'lgan munosabatiday ko'ra boshlanadi. U o'zini subyekt, tabiatni obyekt sifatida ko'zdan kechirmoqda. Biroq, inson tabiatda uyg'un yashashi uchun nafaqat undan chetlashishi, balki u

bilan o'zaro identifikatsiyalash qobiliyatini ham saqlab qolishi lozim. Tabiatga obyekt sifatida munosabatda bo'lish begonalashishga asos bo'lsa; tabiatga subyekt sifatida munosabatda bo'lish-u bilan identifikatsiyalashishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tabiatni muhofaza qilish zaruriyatini e'tirof etish negizida turli qadriyatlar yo'nalishlari yetishi mumkin. Bir tomondan, iqtisodiyot va sanoatning taraqqiyoti uchun zarur resurs sifatida tushuniladigan tabiiy muhit- jamiyat, ijtimoi-madaniy rivojiga nisbatan ilgari surilsa, mazkur ma'noda, tabiiy muhitni muhofaza qilish tabiatdan ratsional foydalanishga monandir va uodamzot hamjamiyati taraqqiyotini ta'minlaydi. Boshqa tomondan, tabiiy muhit ijtimoiy-madaniy voqealikka kiritilgan yoki kiritilmaganidan qat'iy nazar, ustuvor qadriyat sifatida tushunilishi ham mumkin. Bunday vaziyatda "atrof-muhitni muhofaza qilish " termini, tabiat insoniyat faolligi rivoji sharti sifatida tushunilishini taqozo qiladi, mohiyatan tabiiy muhit ijtimoiy-madaniy voqealikka nisbatan bo'lgan ahamiyatidan qat'iy nazar o'ziga xos qiymatga ega inson hamjamiyati va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi bilan almashtiriladi. Aynan shuning uchun insonning ekologik ongini, uning atrof muhitga bo'gan munosabatini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammoning psixologik o'rganilishi tabiiy muhitga nisbatan bir xil mazmundagi munosabat mavjud emasligini ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, inson birgina psixikaning emas, balki ijtimoiy sifatlar egasi hamdir. Ijtimoiy rollarni bajarish ushbu rol egasining qadriyatlariga zid bo'lishi mumkin. U ishdan tashqari paytda faolo "tabiat shaydosi" bo'lishi bilan birga, ishlab jarayoni mantiqqa bo'ysungan holda, ekologik zarar yetkazishi ham mumkin.

Ekologik tarbiya va ekologik madaniyatni shakllantirish uni rivojlantirish biz bilamizki tarbiya o'chog'I bo'lgan oiladan boshlanadi. Oila-kishilar hayotining eng muhim qismi, fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasidir. Bu muqaddas maskanda inson dunyoga keladi, aynan mana oilada u ma'naviy va axloqiy juhatdan kamol topadi va tarbiyalanadi. Har tomonlama mukammal va komil bo'lgan farzandlar yurt boyligi hamda kelajagimiz vorislaridir. Zero, ular dunyoda inson degan buyuk zotni avlodlar davomiyligini ta'minlovchi bo'g'in bo'lib, aynan sog'lom, aqlli, zexnli, yaxshu xulqli, farzand millat obro'si, millat iftixoriga aylandi. Oila-jamiyat asosi, ulkan ijtimoiy kuch hisoblanadi. Ekologik tarbiyalanganlikning ilk qadamlari ham aynan oilada qo'yiladi.

Ekologik tarbiya bu, insonning ekologik bilimlardan amaliy faoliyatida, ta'lim, tarbiya jarayonida samarali foydalana olishning namoyon bo'lishidir.

Qayd qilish lozimki, shaxs ekologik madaniyati shakllanishining o'ziga xos xususiyatidan biri, uning tabiat bilan munosabtlarining chuqurlashishida, uyg'unlashuvida ya'ni tabiat bilan insonning aloqasi mavjudligi, insonning tabiiy resurslardan foydalanish faoliyati bilan chambarchas bog'liklikini va yagona zanjirni tashkil qiladi. Shuning uchun ham bolalar ekologik tarbiyasida oilaning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Inson tug'ilgan kunidan boshlab tevarak atrofda bo'layotgan voqealikka shaxsiy munosabatini oilada olgan ta'lim-tarbiyasiga tayanib, turli darajada bildiradi, namoyon qiladi. Shunday ekan bolalikdagi tabiatga bo'lgan munosabat ham oila a'zolarining tabiat haqidagi umumiy tushunchasi, ilmiy axborotlarga ega ekanligi bilan chambarchas bog'liqdir. Jumladan uning suv resurslarini tejash, uni isrof qilmaslik, ifloslantirmaslik haqidagi dastlabki tasavvuri ham oilada vujudga keladi.

Ekologik tarbiya mazmuniga doir masalalar inson ongidagi mavjud ijtimoiy holatlar, ya'ni atrof muhitni bilish, qadriyatlarga amal qilish va psixologik shart-sharoitlar bilan bog'liqdir. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolada ekologik madaniyatni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, tarbiya usullaridan foydalanish, an'anaviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalab bolalikdan tabiatga mehr uyg'otish, atrof-muhitga nisbatan ma'suliyatli bo'lish, Vatanimiz tabiati go'zalligini ko'ra bilish va uni asrab-avaylash, o'zgalar mehnatini qadrlash kabi tushunchalar singdirilganda bola qalbida ekologik tarbiyaning ilk kurtaklari paydo bo'ladi. Ekologik madaniyatni shakllantirishda oila ta'lim muassasalarining hamkorligi samarali natija berishi uchun uzviylik muhim hisoblanadi. Ekologik tarbiyada bolani ishontirish uslubi birlamchi ahamiyatga ega. Ushbu uslub mazmunini ekologik, axloqiy, estetik fikrlar yig'indisi

tashkil etadi, uning asosiy mohiyati shundan iboratki, u yoshlarning ham aqliy imkoniyatlariga, ham hissiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari oilada ekologik tarbiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan an'alariga chuqur e'tibor ko'rsatish maqsadga erishishimizda muhi omil sanaladi. Jumladan qadimgi urf-odatlarimizda nonga hurmat, uni e'zozlash, suvga tuflamaslik, hayvonlarga ozor bermaslik bilan bogliq bo'lgan "Daraxtlarni sindirma, ekinlarni payxon qilma, yomon bo'ladi" kabi iboralar ekologik tarbiyaning oila bosqichidagi asosi bo'lib hisoblanadi. Agarda ota-ona tarbiya jarayonida o'z farzandiga mana shu tarbiyani singdira olsagina, kelajagimiz bo'lgan farzandlarimizni ekologik tabiiylashga hissa qo'shgan bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, oilaning asosiy ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy vazifalarini qisqacha taxlil qilar ekanmiz, bolada shakllanadigan barcha hissiy, ruhiy tuyg'ular: mehribonlik, oqibatlilik, atrof muhitga nisbatan ma'suliyatlilik ota-ona ibrati orqali oilada shakllanadi va ta'lim muassasalarida bola ongida yanada mustahkamlanadi. Farzandining o'z zamonasining yuksak madanitali kishisi qilib tarbiyalashi uchun ota-ona unga jismoniy madaniyat, ijod madaniyati, reproduktiv madaniyat, kasbiy madaniyat, kiyinish madaniyati, mehnat madaniyati, muomala madaniyati, muloqot madaniyati, nutq madaniyati, ovqatlanish madaniyati, soglom turmush tarsi madaniyati, ekologik madaniyat kabi qator sohalarda bilim va tasavvurga ega bo'lish kerakligi haqida ma'lumot berishi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham shaxs axloqiy, barqaror ekologik madaniyatni shakllantirish, uning ma'naviyatini oilada va mavjud ilmiy, tabiiyaviy, uslubiy vositalar, ta'lim imkoniyatlari bilan mustahkamlash pedagogik jarayondagi muhim omillardan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.: "O'zbekiston", 2008.
2. Ergashov A. Umumiy ekologiya- T.: "O'zbekiston", 2003,-453b

## **OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA LANDSHAFTSHUNOSLIK ASOSLARI FANINING AHAMIYATI**

**Ergasheva Mavjuda Komiljonovna**  
G.f.f.d.

**Axtamova Maftuna Rustam qizi**  
1-bosqich magistrant

Buxoro davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrası ergashova.76@mail.ru

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini tashkil etishda 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-con "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'ricida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar asos bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi yillarda bo'lajak geografiya fani mutaxassislarining landshaftshunoslik asoslari fani bo'yicha kasbiy tayyorgarligini zamonaviy ta'lim standartlariga moslashtirish, ilmiy va amaliy tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy faoliyatda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini orttirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda zamonaviy landshaftshunoslik deganda nazariy landshaftshunoslik, landshaft metodologiyasi va amaliy landshaftshunoslik e'tirof etilmoqda. Ular ham o'z navbatida tarkibiy qismlardan iborat. Jumladan, nazariy landshaftshunoslik – umumiy landshaftshunoslik, landshaft morfologiyasi, landshaftlar tipologiyasi va tasnifi, landshaft geofizikasi, landshaft geokimyosi, landshaft biofizikasi, landshaft estetikasi, landshaft ekologiyasi, paleolandshaftshunoslik, akval landshaftshunoslikdan iborat bo'lsa, landshaft metodologiyasi, dala landshaft tadqiqotlari metodlari, landshaftshunoslikdagi matematik metodlar,

landshaftshunoslikda GAT texnologiyasini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim muassasalarida landshaftshunoslik asoslari fanini o'qitish metodikasi takomillashtirish pedagogik nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashning didaktik imkoniyatlarini baholash, o'qitishning vizual-tadqiqiy samaradorligini bosqichma bosqich kengaytirish hamda shaxslararo muloqotga kirishish faoliyatini individuallashtirish jarayonlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan. Oliy ta'lim muassasalarida "Landschaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish sifati-samaradorligini yanada takomillashtirish, bu fanning o'quv-metodik va axborot ta'minotini mustahkamlashdan biri hisoblanadi. Demak, ilmiy pedagogik shart-sharoit doirasida, elektron axborot ta'lim resurslarining didaktik ahamiyati, o'zlashtirish samaradorligiga ta'sir etadigan samarasini inobatga olish joizdir. Ta'lim jarayonlariga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalar, interfaol metodlarni qo'llashga qiziqish kun sayin oshib bormoqda.

Landschaftshunoslik fanining nazariy-metodologik masalalari MDH mamlakatlarida N.A.Solnsev, N.A.Gvozdetskiy, V.A.Nikolayev, V.B.Sochava, F.N.Milkov, B.B.Polinov, D.L.Armand, Y.K.Yefremov, V.I.Prokayev, A.G.Isachenko va O'zbekistonlik V.M.Chetirkin, L.N.Babushkin, N.A.Kogay, A.Abdulqosimov, Sh.S.Zokirov, L.Alibekov, S.B.Abbasov, X.Vahobov, A.Rahmatullayev, A.N.Nigmatov, Y.Sultonov, I.Q.Nazarov, A.A.Hamidov, K.M.Boymirzayev, X.R.Toshov singari olimlarning ilmiy tadqiqotlarida uchraydi.

Landschaftshunoslik faniga doir bugunga qadar bir qator o'quv adabiyotlari yaratilgan. Jumladan, rus tilida "Ландшафти Узбекистана" ("O'zbekiston landshaftlari") ilmiy maqolalar to'plami (1966), Y.Sultonovning "Landshaftlar geografiyasi" (1974), keyinchalik, Sh.S.Zokirovning "Kichik hududlar tabiiy geografiyasi" (1999), Sh.S.Zokirov va X.R.Toshovlarning "Landschaftshunoslik" (2015, 2016), A.Abdulqosimov, Y.X.Abdurahmonova va K.Q.Davronovlarning "Zarafshon botig'i voha landshaftlari va geokologiyasi" monografiyasi (2017) hamda M.K.Ergasheva (2021) larning o'quv qo'llanmalari misol bo'ladi.

O'zbekistonda landshaftlarni tasniflash bo'yicha L.N.Babushkin, N.A.Kogay, M.Umarov, Sh.S.Zokirov, P.Baratov, S.Nishonov, P.G'ulomov, M.Umarov, Y.Sultonov, A.Saidov, A.Abdulqosimov, L.Alibekov, T.Jumaboyev, S.B.Abbasov, A.Rahmatullayev va boshqalarning ishlarida ma'lum fikrlar bildirilgan. Ayniqsa, mazkur sohada Samarqand davlat universiteti geograflaridan M.Umarov, S.Nishonov, A.Saidov, A.Abdulqosimov, L.Alibekov, T.Jumaboyev, A.Rahmatullayev, S.B.Abbasovlar samarali ishlarni amalga oshirib kelishgan va bu ishlar davom etmoqda. Landschaftshunoslikning nazariyasi va amalda tatbiq qilinishi samarqandlik olimlar ilmiy tadqiqotlarida o'tgan asrning 60-80 yillari va undan so'ng 2000-yillarda keng rivojlandi. Bu borada samarali ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, dissertatsiyalar himoya qilingan, monografik asarlar nashr ettirilgan.

1966-yilda ("O'zbekiston landshaftlari") nomli to'plam M.Umarov muharrirligida nashr etilgan. Unda S.A.Nishonov, M.Umarov, A.Abdulqosimov, A.Saidov, M.Qo'ziboyev, L.Alibekov singari olimlarning O'zbekistonda landshaft rayonlashtirilishi, hududlarda ro'y beradigan tabiiy geografik jarayonlar, o'zlashtirish masalalari yoritilgan maqolalari o'rin olgan. Oradan biroz muddat o'tgach, yetakchi olimlar tomonidan bir necha monografiyalar e'lon qilinganligi ham ma'lum. Olimlar tomonidan nashr ettirilayotgan adabiyotlardan "Landschaftshunoslik asoslari" o'quv fanlarini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar muhiti asosida usullarning takomillashtirilgan mexanizmlarini yaxlit tizim sifatida ishlab chiqish, ularning afzallik tomonlarini ko'rsatish va bu usullarni qo'llash orqali samaradorlikka erishish oliy ta'lim oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston landshaftshunosligida landshaft izlanishlarining tipologik, regional va umumiy tushuncha sifatida talqin etilganligini e'tirof etish mumkin. Voronej, Moskva, Sankt-Peterburg, Lvov landshaft maktablari tajribalarini O'zbekiston hududida tadbiq etilishi Toshkent, Samarqand, Farg'ona va boshqa landshaft maktablari vujudga kelishiga va rivojlanishiga olib keldi. O'zbekiston landshaftshunoslarining landshaftlarni tasniflash tajribalari Qarshi dashti (I.Hasanov), Janubiy Orolbo'yi (A.Rafiqov, I.Hasanov), Turon provinsiyasi tekisliklari (N.A.Kogay, Sh.S.Zokirov), Amudaryo va Sirdaryo etaklari oralig'i (SH.S.Zokirov), Farg'ona

botig'i (A.Abdulqosimov), Qashqadaryo vodiysi (S.A.Nishonov), O'rta Zarafshon (A.Saidov), Qizilqum (S.B.Abbosov), Buxoro viloyati cho'l zonasi (X.R.Toshov) Orol tabiiy geografik okrugi (R.Ibragimova) landshaftlari misolida ijobiy natijalar berdi. Oliy ta'limda Landshaftshunoslik fanini o'qitishda ushbu olimlarning ilmiy izlanishlaridan foydalanish orqali talabalarda qo'shimcha ma'lumot olish imkonini yaratib, talabalarda fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladi

Kelgusida Landshaftshunoslik asoslari fanini o'qitishda quyidagi tavsiyalar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

Landshaftshunoslik asoslari fanini o'qitishda ilg'or pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha ilmiy-uslubiy qo'llanmalar yaratish ko'lamini kengaytirish, Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning landshaftshunoslik asoslari fanidan darslarini tashkil etishga qo'yiladigan zamonaviy talablarni bilish darajasini oshirish lozim.

#### Adabiyotlar ro'uxati

1. Зокиров Ш.С. Тошов Х.Р. Ландшафтшunoslik. Ўқув қўлланма. Тошкент. “Турон замин зиё” нашриёти. 2016. 200 б.

2. Ташов Х., Эргашева М. Миграция вещества на ландшафтах и их изучение. Познание и деятельность: от прошлого к настоящему. Материалы II Всероссийской междисциплинарной научной конференции. -Омск. 2021. -С 321-324.

3. Тошов Х.Р. Табиий география: тарихи ва баъзи назарий масалалари. Бухоро. 2021.

4. Эргашева М., Нематов А. Ландшафтшunoslik фанининг ривожланиши. O'zMU xabarлари. Тошкент. 2023. 3/1. –Б. 351-353.

## **ТЕХНОЛОГИИ ДИСТАНЦИОННОГО МОНИТОРИНГА ЭКОСИСТЕМ В НАПРАВЛЕНИИ ПОДГОТОВКИ «КАРТОГРАФИЯ И ГЕОИНФОРМАТИКА» КАЗАНСКОГО ФЕДЕРАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Панасюк М.В., Пудовик Е.М., Сабирзянов А.М.**

Казанский федеральный университет

Дистанционный мониторинг экосистем - относительно новая область знаний и практических умений, возникшая на стыке исследований экосистем, практики применения методов дистанционного зондирования Земли и геоинформационных технологий. Решение задач дистанционного мониторинга требует развитой системы компетенций в области геоинформатики, дистанционного зондирования, фотограмметрии, системного картографирования, что позволяет обеспечить высокое качество и оперативность результатов мониторинга и выработанных на его основе решений в области управления экосистемами.

Для формирования необходимых компетенций и подготовки высококвалифицированных специалистов кафедра географии и картографии Казанского федерального университета разработала и успешно осуществляет в течение последних восьми лет программы бакалавриата и магистратуры по направлениям 05.03.03 и 05.04.03 – «Картография и геоинформатика», в которых представлен ряд дисциплин где, в частности, изучаются методы и технологии дистанционного мониторинга экосистем.

В рамках образовательной программы бакалавриата «Геоинформационные технологии в экономике и управлении» у выпускников формируются четыре главные профессиональные компетенции (ПК) в области дистанционного мониторинга геосистем, включая:

ПК-3 Способен использовать базовые знания в области информатики, компьютерных и мультимедийных технологий, программных средств, в том числе знания

об интерфейсе ГИС-пакетов, моделях, форматах данных, вводе пространственных данных и организации запросов в геоинформационной системе;

ПК-5 Способен применять аэрокосмические методы картографирования и моделирования, основанные на компьютерных технологиях обработки снимков нового типа (сверхвысокого разрешения, тепловых, радиолокационных), а также методы компьютерных стереоизмерений и трехмерного аэрокосмического моделирования;

ПК-6 Способен использовать методы и технологии сбора, анализа и обработки пространственных данных из разных источников, в том числе посредством построения инфраструктуры пространственных данных и создания географических баз и банков данных;

ПК-7 Способен применять современные геоинформационные и веб-технологии создания карт, программное обеспечение в области картографии, геоинформатики и обработки аэрокосмических снимков;

Расширение умений и навыков в сфере дистанционного мониторинга происходит в рамках обучения на магистерской программе «Геоинформационные и космические технологии в экономике и управлении». Возможности решения задач мониторинга экосистем во многом определяются профессиональными компетенциями магистерской программы, относящимися к владению современными методами и инструментарием сбора, обработки и анализа геоданных, выработке умений и навыков выявления и решения проблем геоинформационного, картографического и аппаратного обеспечения дистанционного зондирования Земли, в том числе:

ПК-2 Способен владеть знаниями о современных теоретических концепциях, проблемах и перспективах развития картографии, аэрокосмического зондирования, геоинформатики, геоинформационного картографирования, создания инфраструктуры пространственных данных, истории и методологии картографической науки;

ПК-3 Способен выполнять сбор, обработку, преобразование цифровой пространственной информации топографического и тематического содержания, владением картографическими, геоинформационными и аэрокосмическими методами эколого-географического картографирования, мониторинга природных ресурсов, умением проектировать и создавать новые виды картографических произведений;

ПК-5 Способен получать, обрабатывать, синтезировать аэрокосмическую информацию от разных съемочных систем (датчиков), в разных диапазонах и с разным разрешением для целей картографирования и создания геоинформационных систем, научно-исследовательских и производственных работ;

ПК-8 Способен проектировать и создавать базы и банки цифровой информации, геоинформационные системы всевозможного назначения и территориального охвата, создавать геопорталы и владением технологиями и процессами мультимедийного, виртуального, многомерного цифрового пространственного моделирования для принятия организационных и проектных решений и др.

При проведении занятий по дисциплинам, обеспечивающим умения решать проблемы дистанционного мониторинга экосистем, используются традиционные и современные образовательные методы и технологии. Особое значение в этом плане имеет предоставление максимальных возможностей для самостоятельной работы с десктопными и веб-версиями геоинформационных систем, таких как ArcGIS [4], QGIS [5], ГИС «Аксиома» [6], FlexGIS [7] и др., а также с программным обеспечением для обработки материалов аэрофотосъемки - AgiSoft PhotoScan, Photomod и др. Обучающиеся получают возможность ознакомления с учебными материалами в форматах текстовых и видео-материалов, скринкастов, подкастов по блокам курсов, презентаций и тестов и др.

Большую роль в совершенствовании умений и навыков в области современных методов и технологий дистанционного мониторинга играет межинститутский специализированный учебный кластер «Геодезия, картография и инфраструктура

пространственных данных». Он включает специализированную аудиторию, где находятся 25 рабочих станций с программным обеспечением для решения задач разработки баз данных, картографической основы ГИС и пространственного анализа (ArcGIS, QGIS, ГИС «Аксиома», «Панорама» Google Earth [8], SaS.Планета [9], КРЕДО [10] и др.), а также учебную лабораторию «Дистанционное зондирование Земли» (11 цифровых фотограмметрических станций, оснащенных 3D дисплеями, двумя БПЛА и плоттером).

Должный уровень базовых и продвинутых умений и навыков, обучающихся в области дистанционного мониторинга обеспечивается на основе разработанной на кафедре системы специальных дисциплин бакалавриата и магистратуры, таких как:

- Геоинформатика. Продвинутый уровень.
- Ландшафтное картографирование.
- Аэрофото-и космические методы исследований.
- Фотограмметрия и дистанционные методы зондирования Земли.
- Практикум по геоинформационному анализу территорий.
- Проектирование геоинформационных систем.
- Космическая фотограмметрия.
- Технологии дистанционного зондирования Земли.
- Космические и БПЛА-технологии.
- Геоинформационные и космические технологии в экономике и управлении.

В рамках данных курсов проводится много практических занятий, магистранты учатся дешифрировать аэрофотоснимки и проводить анализ данных дистанционного зондирования Земли.

Полученные знания и умения выпускников позволяют создать условия для их успешного трудоустройства, особенно в организациях-партнерах кафедры, таких как ГБУ «Фонд пространственных данных Республики Татарстан, Филиал ППК «Роскадастр» по Республике Татарстан, *Управление* Федеральной службы государственной регистрации, кадастра и картографии по *Республике Татарстан*, Акционерное общество «Бюро технической инвентаризации Республики Татарстан», ООО «Геоконсалтинг», ООО «ГК-групп» и др. Анализ их карьеры показывает, что трудоустройство в профильных организациях превышает 95%.

Студентами и выпускниками кафедры были решены ряд важных практических задач по дистанционному мониторингу экосистем. Особое внимание уделялось и уделяется мониторингу растительного покрова сельскохозяйственных угодий и лесов. Так, в 2022г. была представлена работа по мониторингу патологических изменений лесного покрова (лесопатологическому мониторингу) [1], [2]. Было отмечено, что дистанционные методы мониторинга имеют большие преимущества перед традиционными, так как повышают оперативность и регулярность наблюдений. Предложен метод формирования мультивременных композитных изображений для лесопатологического мониторинга, ориентированный на использование снимков, полученных с космических аппаратов Landsat-7, Landsat-8 и Sentinel-2. Он позволяет агрегировать наблюдения за вегетационный период и обеспечивает возможность выявления долговременных изменений с малой амплитудой. Построение изображений основано на предварительных процедурах обработки и гармонизации данных, включающих радиометрическую, атмосферную, топографическую коррекции космоснимков, эмпирическое кроссплатформенное сравнение спектральных характеристик сенсоров [3].

На основе сопоставления результатов анализа изображений и данных наземных наблюдений, включающих 2065 актов лесопатологических обследований, был выбран оптимальный вегетационный индекс VOG1 (Vogelmann red edge index), с помощью которого проводилась классификация объектов лесопатологий. Также была предложена методика оценки динамики санитарного состояния лесов на основе порогового значения нормализованного мультивременного композитного изображения VOG1. Использование

предлагаемой методики позволяет повысить уровень компьютеризации мониторинга лесных экосистем. Она применяется для анализа их состояния на территории Пермского края, обеспечивая улучшение качества управленческих решений в сфере защиты леса.




Рис.1. Сравнение вывода январского композитного изображения в *Google Earth Engine* для 10 и 50 перцентилей интенсивности.

Таким образом, на основе программного скрипта, написанного в интерфейсе платформы *Google Earth Engine*, получена возможность проводить анализ снимков путем создания, визуализации и экспорта композитных изображений с минимальной облачностью на основе спутников *Landsat-7*, *Landsat-8* и *Sentinel-2*.

Был произведен выбор оптимального вегетационного индекса за счет сопоставления с данными наземных наблюдений. Для этого были оцифрованы 2065 актов лесопатологических обследований, проведенных на территории Пермского края в период 2017–2019 гг. Также были использованы агрегированные данные наблюдений предшествующего периода, представленные в ежегодных обзорах санитарного и лесопатологического состояния лесов Центра защиты леса Пермского края.

Для оценки значимости вегетационных индексов проводилось машинное обучение при помощи алгоритма *Random Forest* с использованием в качестве эталонных объектов, оцифрованных данных лесопатологических обследований. Также сравнивались площади и динамика лесопатологических изменений по краю в целом, выявленные на основе машинного обучения и представленные в материалах Центра защиты леса.

Выявлено, что оптимальным вегетационным индексом для мониторинга лесопатологической динамики является индекс *VOGI* (*Vogelmann red edge index*). По критерию оценивания *F1-score* этот вегетационный индекс показал точность классификации объектов лесопатологий 0,65. Значение *F1-score* для других вегетационных индексов оказалось существенно ниже.

Установлено, что при использовании в качестве порогового значений 20 перцентилей композитного изображения, получаемый результат имеет наименьшие отличия от результатов, получаемых при помощи машинного обучения.

Использование предлагаемой методики, основанной на использовании данных дистанционного зондирования Земли, позволяет автоматизировать процесс мониторинга динамики санитарного состояния лесов и выявления лесопатологических изменений.

Разработанная методика используется для мониторинга динамики санитарного состояния на территории Пермского края, обеспечивая высокую эффективность выявления лесопатологий, планирования лесопатологических обследований, помощи в принятии решений в сфере защиты леса.



Вторая работа, которую можно оценить так же положительно в изучении экосистем – это мониторинг Аральского моря. По данным исследований, площадь моря сократилась на 80-90% по сравнению с его исходной размерностью, а объем воды в море снизился на 95%. Глубина моря также оставалась очень мелкой, невозможной для жизни многих морских организмов.

Положение дел также продолжают осложнять катастрофические изменения климата в регионе. Многие побережья моря оказались усугублены пыльными бурями, ураганами и другими экстремальными погодными явлениями, что ухудшает экологическую ситуацию еще больше.

В последние годы были предприняты существенные меры для борьбы с кризисом в Аральском море. Одним из таких проектов было введение ограничений на выделение водных ресурсов двум основным рекам, снабжающим море водой - Амударье и Сырдарье. Это позволило частично сберечь воду для поддержания экосистем Аральского моря и близлежащих земель, которые полностью зависят от воды из него.

Также в 2020 году продолжались работы по восстановлению Аральского моря и его окрестностей. Многие организации занимались озеленением территорий и были реализованы проекты орошения сельскохозяйственных земель с использованием современных технологий для экосистематического роста и улучшения экологической ситуации в регионе. Однако проведенные меры не достаточны для восстановления, необходимо предпринимать дополнительные меры по восстановлению Аральского моря.

Также в изучении экосистем лесостепной зоны нашей зоны проводились исследования по выявлению особенностей изменения вегетационных индексов в зависимости от почвенно-климатических условий Республики Татарстан. Выявлено, что для этих целей лучше использовать анализ по вегетационному индексу SAVI.

Результаты исследования также подтверждают прямую связь между вегетативным индексом и количеством накопленного хлорофилла в растениях, находящихся в процессе роста. Увеличение значений индекса SAVI, представляющего собой также характеристику фотосинтетической биомассы приводит к увеличению значений вегетационного индекса CIGreen.

С достаточно степенью надежности подтверждается возможность прогноза урожайности культур на основе пиковых значений вегетационного индекса SAVI, полученных в период начала фазы колошения.

Анализ трендов вегетационных индексов показал, что рост и развитие растений в большой степени зависят от метеорологических условий, характеризующихся показателями количества выпавших осадков и температуры воздуха.

Данные дистанционного зондирования Земли позволяют получать информацию о почвенных и погодных условиях местности, а также о состоянии роста и развития посевов сельскохозяйственных культур в разных почвенно-климатических условиях, а геоинформационные технологии, в свою очередь, позволяют, используя полученные данные вегетационных индексов, выявить закономерности роста и развития сельскохозяйственных культур.

Таким образом, применение методов дистанционного зондирования Земли позволяют всё более глубоко посмотреть на источник проблем в разных отраслях научных исследований.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Панасюк М.В. Повышение эффективности методов дистанционного зондирования Земли в решении задач мониторинга лесной патологии / М.В. Панасюк, Е.М. Пудовик, В.А. Кириллов, В.А. Авраменко // **Международный форум KAZAN DIGITAL WEEK - 2022: сборник материалов** / Под общей ред. член-корр. Академии наук Республики Татарстан, д-ра техн. наук, проф. Р.Н. Минниханова. - Казань: ГБУ

«НЦБЖД», 2022. – 792-797 с.

2. Руденко А.В. Исследование возможности применения спектральных данных ДЗЗ для раннего обнаружения кольцевых структур дегазации водорода в лесной зоне// А.В. Руденко, Д.Ф. Исламов, А.М. Сабирзянов // **Международный форум KAZAN DIGITAL WEEK - 2022**: сборник материалов / Под общей ред. член-корр. Академии наук Республики Татарстан, д-ра техн. наук, проф. Р.Н. Минниханова. - Казань: ГБУ «НЦБЖД», 2022. - 803-807 с.

3. Chastain, R. Empirical cross sensor comparison of Sentinel-2A and 2B MSI, Landsat-8 OLI, and Landsat-7 ETM+ top of atmosphere spectral characteristics over the conterminous United States / R. Chastain, I. Housman, J. Goldstein, M. Finco // Remote Sens. Environ. – 2019. – № 221 – P. 274–285

4. ГИС «ArcGIS». Электронный ресурс: <https://www.esri-cis.ru/>(дата обращения 14.09.2023)

5. QGIS. Электронный ресурс: <https://qgis.org/ru/site/> (дата обращения 14.09.2023)

6. ГИС «Аксиома». Электронный ресурс: <https://axioma-gis.ru/> (дата обращения 25.09.2023)

7. FlexGIS. Электронный ресурс: <https://flexgis.ru/> (дата обращения 25.09.2023)

8. Google Earth. Электронный ресурс: <https://www.google.ru/intl/ru/earth/> дата обращения 18.09.2023)

9. SaS.Планета. Электронный ресурс: <http://sasgis.ru/sasplaneta/>(дата обращения 18.09.2023)

10. Программный комплекс КРЕДО. Электронный ресурс: <https://credodialogue.ru/produkty.html> (дата обращения 25.09.2023)


## **O'ZBEKISTON PAST TOG'LARINING LANDSHAFT-GIDROLOGIK IMKONIYATLARI XUSUSIDA**

**Halimova Gulshan Subhonovna,**  
geografiya fanlari falsafa doktori, dostent  
(Buxoro davlat universiteti, Buxoro shahri)

O'zbekiston respublikasi dunyodagi qurg'oqchil mamlakatlardan biri. Uning 70%dan ortiqroq maydoni cho'l va chala cho'l zonasida joylashgan. Shu sababdan chuchuk suv muammosi mamlakat aholisi va iqtisodiyoti uchun strategik masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatning ichimlik va sug'orma dehqonchilik uchun bo'lgan ehtiyoji asosan Amudaryo va Sirdaryo kabi transchegaraviy ahamiyatga ega bo'lgan daryolar suvi hisobidan qondiriladi. Iqlim o'zgarishi va qurg'oqchilik jarayonining tobora jadallashib borayotganligini hisobga olib, mamlakatda atmosfera yog'inlaridan ham samarali foydalanishni yo'lga qo'yish davr talabiga aylanib bormoqda.

Shu boisdan, O'zbekiston hududining alohida qismlarida joylashgan past tog'larning mahalliy suv resurslarini landshaft-gidrologik nuqtai nazardan kompleks o'rganish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan tog'lar mutlaq balandligiga ko'ra uch toifaga bo'linadi. Bular past tog'lar - balandligi 1 km gacha, o'rtacha balandlikka ega bo'lgan tog'lar – 1-2 km gacha, nihoyat baland tog'lar – 2 km dan yuksak bo'lgan tog'lardir [3, 106-b.; 7, 256-b.]. Past tog'lar esa morfotektonik va hududiy joylashuviga ko'ra ikki guruhga ajralib turadi (1-chizma).



Buxoro viloyatida Qizilqum cho'lining janubidagi past tog'lardan biri Quljuqtov tizmasi joylashgan. Mazkur tizma uzok yillar davomida tadqiqot ob'ekti sifatida ko'plab mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, mahalliy suv resurslari, vaqtincha oqar suv manbalari muallif tomonidan tadqiq qilib kelinmoqda. Tadqiqot natijalari o'laroq, quyida O'zbekiston past tog'larining landshaft-gidrologik jihatdan farqlanishlari jadval tarzida ochib berilgan (1-jadval).

1-jadval

<b>O'rtacha va baland tog' tizimlariga tutash bo'lgan past tog'lar (adirlar)</b>		<b>Cho'l zonasida orolsimon tarzda joylashgan past tog'lar</b>
7.	G'arbiy Tyanshan, Oloy, Turkiston, Zarafshon, Hisor (h 4688 m), Ko'hitang, Bobotog' tizmalariga tutash bo'lgan past tog'lar. Mutlaq balandligi 1 km gacha	Qizilqum cho'li hududida orolsimon tarzda joylashgan past tog'lar: Sulton Uvays, Bo'kantov, Oytimtov, Etimtov, To'xtatov, Tomditov (h 974), Ovminzatov, Quljuqtov kabilar, mutlaq balandlik 974 metrgacha boradi.
8.	Bu past tog'lar "qayta tug'ilgan" tog'lar toifasiga kiradi. Paleozoy erasida hosil bo'lgan tog'lar (gerstinidlar) emirilgan va neotektonik harakatlar (N+Q) tufayli geosinklinal sharoitda 4700-5300 metrgacha qayta ko'tarilib burmali-palaxsali tog'larga aylangan. Bu past tog'lar o'rtacha va baland tog'larga tutashdir.	Bu past tog'lar "qayta tug'ilgan" tog'lar toifasiga kiradi. Paleozoy erasida hosil bo'lgan tog'lar (gerstinidlar) emirilgan va neotektonik harakatlar (N+Q) tufayli platforma sharoitida 1300 metrgacha qayta ko'tarilib, burmali-palaxsali tog'larga aylangan.
9.	Subtropik belgilarga ega bo'lgan chala cho'l (yarim arid) iqlimga ega. O'rtacha ko'p yillik yog'inlar miqdori 326 (Andijon) va 734 mm (Chorvoq) atrofida.	Subtropik belgilarga ega bo'lgan cho'l (ekstraarid, arid) iqlimga ega o'rtacha ko'p yillik yog'inlar miqdori 82 (Nukus) – 138 mm (Ko'lquduq) atrofida.
10.	Respublikada ro'yxatga olingan 1448 buloqlardan 90%i past tog'lar hududida joylashgan. Ular chuchuk va shifobaxsh bo'lib, suv berish quvvati 1,0-1000 l/sek gacha boradi.	Cho'l zonasidagi orolsimon past tog'larda buloqlar kam, ularning suv berish quvvati ham cheklangan 0,5-2,0 l/sek atrofida. Ular odatda sho'rtoblashgan mineral tarkibga ega.
11.	Past tog'lar bo'z tuproqlar mintaqasi hisoblanadi. Ular karbonatli, sho'rланmagan, chirindi miqdori 1,5-4,0% gacha etadi. Qulay joylarda obikor va lalmi (bahorikor) dehqonchilik qilinadi.	Cho'l zonasidagi past tog'larida tuproq qatlami yaxshi rivojlanmagan. Odatda skletli, gipsli sur-qo'ng'ir tuproqlar keng tarqalgan. Bundan tashqari cho'l qumloq, taqir, sho'rxok tuproqlar tarqalgan. Ular kam chirindili – 0,2-0,5%.
12.	Past tog'lar o'simliklar turi va qoplamiga	Orolsimon past tog'larda o'simlik turi

nisbatan boy, efemeroid butali o'tloqlardan iborat. Hosildorlik 10-50 st/ga atrofida.	va hosildorligi nisbatan kam. Past tog'larda o'simliklarning 272 turi uchraydi [2, 210-b.]. Hosildorlik 0,5-3,0 st/ga atrofida.
---	---

Yuqorida qayd qilingan ma'lumotlar quyidagi xulosalarni bildirishni taqozo qiladi:

3) o'rta va baland tog'larga tutash past tog'lar (adirlar) chala cho'l zonasida joylashgan bo'lib, chuchuk suv bilan nisbatan qoniqarli darajada ta'minlangan va to'liq foydalaniladi. Suv tarmoqlari gidrologik nazorat ostiga olingan;

4) cho'l zonasida orolsimon past tog'lardagi soylar qish va bahor oylarida sersuv bo'ladi, suv toshqinlari kuzatiladi. Ular katta miqdorda moddiy va ma'naviy zarar etkazadi. Yirik soylarda gidrologik kuzatuv ishlarini yo'lga qo'yish, ularning suvlaridan samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гранитов И. И. Растительный покров Юго-Западных Кызылкумов. – Ташкент: «Наука», 1964. Т. 1. - 336 с.
2. Зокиров П.К. Геоботаническое районирование низкогорий Кызылкума с точки зрения хозяйственного использования. Очерки по географии растительного покрова Узбекской ССР. – Ташкент: “Фан”, 1969. - С. 210-230.
3. Леонтьев О.К., Рычагов Г.И. Общая геоморфология. – М.: «Высшая школа», 1979. – 286 с.
4. Саидов Д.К., Момотов И.Ф., Алимжанов А.Г. Инструкция по фитомелиорации пастбищ Юго-Западного Кызылкума. – Ташкент. 1972. – 30 с.
5. Ҳалимова Г.С. Қулжуктов тизмасида атмосфера ёғинларининг даврий, микдорий ва худудий тақсимланиши // “Чўл зонаси ландшафтлари ресурсларидан самарали фойдаланишнинг географик асослари” мавзусидаги республика илмий-назарий-амалий конференцияси. – Бухоро, 2010. – Б. 125-127.
6. Ҳасанов И.А., Ғуломов И.Н., Қаямов А.А. Ўзбекистон табиий географияси. 1,2-қисм. – Тошкент: “Университет”, 2010. – 99 б.
7. Янушко О.Ф. Основы геоморфологии. (Учебное пособие), Минск: “Высшэйшая школа”, 1986. - 302 с.

## TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA KIMYOVIY ELEMENTLARNING AHAMIYATI

**Halimova R.S. (Shofirkon tumani 49-maktab o'qituvchisi)**

**Halimova D.S. (Shofirkon tuman kasb-hunar maktabi o'qituvchisi)**

Tuproq tabiat yaratgan ulug` ne'matlardan biridir. Tuproq inson uchun eng avvalo ona zamin hisoblansa, ikkinchi tomondan u rizq – ro`z manbaidir. Tuproq tog` jinslari relyef, iqlim, suv, o`simlik hayvonot dunyosi kabi tabiatning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, u o`ziga xos muhim xususiyatlarga ega. U eng avvalo V.V.Dokuchayev qayd qilganidek tabiiy- tarixiy hosila, landshaftlarning oynasidir, u jonsiz va tabiatni bir – biriga dialektik bog`lab turuvchi bir butunlikka ega bo`lgan tabiiy tizim, qobiqdir. V.A.Kovba qayd qilganidek, u organik dunyo uchun boshpana-yashash muhitidir. Tuproqning eng muhim xususiyatlaridan biri uning unumdorlikka ega bo`lishi, ya'ni hosil berishidir. Tuproq turlari tabiiy sharoitga bog`liq holda joylarda o`zgaradi va o`ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Xuddi shu asosda uning paydo bo`lishi va tarqalishi qonuniyatlari mavjud.

